Mazkur maqsadlar orqali klimaks davridagi ayollarning hayot sifatini yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish va stressni boshqarishning samarali usullarini joriy etishni rejalashtirmoqdaman, sababi bu mening kelajakdagi ilmiy va asosiy ishim hisoblanadi.

Tadqiqot materiali va usullari

Mazkur tadqiqot uchun material sifatida klimaks davrida bo‘lgan ayollar o‘rtasida o‘tkazilgan so‘rovnoma natijalari, tibbiy ma’lumotlar va ilmiy adabiyotlar asosida yig‘ilgan statistik ma’lumotlar ishlatildi. Tadqiqot doirasida Andijon viloyatida yashovchi 45-60 yosh oralig‘idagi 120 nafar ayol ishtirok etdi. Ularning 65 foizi (78

nafar) klimaksning erta bosqichida, 35 foizi (42 nafar) esa postklimaks davrida bo‘lgan.

Tadqiqotning asosiy usullari quyidagilardan iborat bo‘ldi:

1. So‘rovnoma usuli: Ayollar o‘rtasida stress darajasi, uning sababchi omillari va ta’siri haqidagi ma’lumotlarni aniqlash uchun maxsus so‘rovnoma tuzildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, 82 foiz respondentlar (98 nafar) klimaks davrida stressni boshdan kechirishgan, shundan 40 foizi (48 nafar) stressni yuqori darajada his qilganini bildirgan.

2. Klinik kuzatuvlar: Ishtirokchilarning tibbiy kartalari o‘rganilib, stress bilan bog‘liq surunkali kasalliklar (masalan, yurak-qon tomir kasalliklari, arterial gipertenziya, uyqusizlik) chastotasi baholandi. Natijada, 56 foiz respondentlarda (67 nafar) ushbu kasalliklar qayd etilgan.

3. Statistik tahlil usullari: Yig‘ilgan ma’lumotlar matematik va statistik tahlil qilinib, klimaks davridagi ayollarning stress darajasi va organizm holati o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Xususan, yuqori stress darajasiga ega ayollarda yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfi 37 foizga yuqori ekanligi qayd etildi.

4. Tahliliy va taqqoslash usuli: Klimaks davridagi ayollarda stressning salbiy oqibatlari xalqaro tadqiqotlar bilan solishtirilib, milliy sharoitdagi xususiyatlar aniqlangan. Misol uchun, o‘zbek ayollari orasida ijtimoiy va oilaviy vazifalar bilan bog‘liq stress omillari 68 foiz hollarda yetakchi omil sifatida qayd etilgan.

Mazkur usullar orqali yig‘ilgan va tahlil qilingan ma’lumotlar klimaks davridagi ayollar organizmiga stressning ko‘lamini chuqur anglash hamda ushbu holatni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari

Mazkur tadqiqot natijalari klimaks davrida stressning ayol organizmiga ta’sirini har tomonlama o‘rganish imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar asosida quyidagi asosiy natijalar aniqlandi:

1. Klimaks davrida stress omillari keng tarqalganligi

Tadqiqot ishtirokchilarining 82 foizi (98 nafar) ushbu davrda stress holatini boshdan kechirganini ta’kidladi. Stressning asosiy sababchilari sifatida gormonal o‘zgarishlar (45 foiz), ijtimoiy bosim va mas’uliyat (32 foiz), shaxsiy hayotdagi o‘zgarishlar, jumladan, qarilikka oid xavotirlar (23 foiz) ko‘rsatildi.

2. Stressning jismoniy va psixologik oqibatlari

Stressning ayollar organizmiga bo‘lgan ta’siri bir qator jiddiy salbiy oqibatlarga olib kelishi aniqlandi:

• Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari 56 foiz hollarda (67 nafar) qayd etilgan.

• Uyqusizlik va boshqa uyqu buzilishlari 48 foiz respondentlarda (58 nafar) kuzatilgan.

• Depressiya va xavotir darajasi yuqori bo‘lgan ayollarning soni 37 foizni (44 nafar) tashkil qilgan.

3. Stress va surunkali kasalliklar o‘rtasidagi bog‘liqlik

Yuqori stress darajasiga ega ayollarda arterial gipertenziya va yurak-qon tomir tizimiga bog‘liq kasalliklar rivojlanish xavfi 37 foizga yuqori ekanligi aniqlangan. Shu bilan birga, postklimaks davrida bu xavf yana ortib, 45 foizga yetgan.

4. Stressni kamaytirish bo‘yicha o‘tkazilgan tadbirlarning samaradorligi

Tadqiqot davomida ishtirokchilar bilan olib borilgan psixologik maslahatlar va treninglar natijasida:

• Ayollarning 75 foizi (90 nafar) o‘z stress darajasining kamayganini bildirgan.

• Uyqu sifatini yaxshilash va psixologik barqarorlikni tiklash 60 foiz hollarda (72 nafar) kuzatilgan.

• Tadbirlar natijasida 53 foiz respondentlarda (64 nafar) qon bosimi normallashgani qayd etilgan.

5. Jamiyatdagi ijtimoiy va oilaviy bosimning roli

Ayollar orasida ijtimoiy va oilaviy mas’uliyat stressning yetakchi omili sifatida qayd etildi. Respondentlarning 68 foizi ushbu omillar ularning ruhiy holatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatganini bildirgan.

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, klimaks davrida stressning ayol organizmiga ta’siri chuqur va keng qamrovli bo‘lib, bu davrda sog‘lom turmush tarzi, psixologik yordam va tibbiy qo‘llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu natijalar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar stressni boshqarish bo‘yicha ilmiy-amaliy yondashuvlarni boyitishga xizmat qiladi.

Xulosa

Klimaks davrida stressning ayol organizmiga ta’siri va uning oqibatlarini o‘rganish mazkur jarayonni samarali boshqarish va sog‘liqni saqlashga yo‘naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, klimaks davrida yuz beradigan gormonal o‘zgarishlar stressni kuchaytiruvchi asosiy omillardan biri bo‘lib, bu jismoniy va psixologik salomatlikka sezilarli ta’sir qiladi.

Mazkur holatlar stressning organizmga ta’sirini kamaytirish va ayollarning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan kompleks yondashuvlarni qo‘llash zaruratini tasdiqlaydi. Shuningdek, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, psixologik yordamni kengaytirish va o‘z vaqtida tibbiy kuzatuvlarni amalga oshirish kabi tadbirlar klimaks davridagi ayollar salomatligini mustahkamlashning samarali vositalari sifatida tavsiya etiladi. Mazkur tadqiqot klimaks davridagi stressning biologik, psixologik va ijtimoiy jihatlarini chuqurroq o‘rganish uchun ilmiy asos yaratib, ushbu sohadagi keyingi izlanishlarga yo‘l ochadi. Shu bilan birga, ayollar hayotining ushbu murakkab bosqichida ularga ko‘mak berish, sog‘liqni saqlash tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lishi lozimligini yana bir bor tasdiqlaydi.

COVID – 19 INFEKSIYASI ASORATLARINING BA'ZI IJTIMOIY KO'RSATKICHLARI.

Mirzajonova Saboxon Abjalilovna Fiziologiya kafedrasi assistenti
Xolqo'ziyev Ozodbek Ibroximjon o'g'li 2 kurs TPI 2 kurs talabasi
Farg'ona jamoat salomatligi instituti

2019–2020 yillarning boshlarida insoniyat yangi virus COVID-19 infeksiyasiga duch keldi, u ko'plab mamlakatlarda tez tarqaldi va pandemiya darajasiga yetdi. 2020 yilning aprelida Uxan Markaziy shifoxonasi mutaxassislari koronavirusning buyrak faoliyatiga ta'sirini o'rganuvchi tadqiqotni e'lon qildi. Koronavirus infeksiyasiga chalingan, shifoxonaga yotqizilgan bemorlarning 27,06 foizida buyraklar shikastlanishi aniqlangan.

2020 yilning 30 yanvarida Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ushbu epidemiyani xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan sog'liqni saqlash sohasidagi favqulodda holat, 11 martda esa pandemiya deb e'lon qildi. Virus barcha davlatlarda aniqroq qilib ta'kidlaganda, butun dunyoda pandemiya vaziyatini yuzaga keltirdi va buning natijasida ko'plab muassasalar qatori umumiy o'rta ta'lim maktablari ham birdan ta'lim davomiyligini masofaviy tarzga o'tkazish hamda deyarli barcha bolalarning hech qayerga chiqmasdan faqat uyda dars mashg'ulotlarini davom ettirishni taqozo etdi. 188 mamlakatlar 1,5 milliarddan ortiq bolalar va o'smirlarga ta'lim oladigan maktablarni yopish bo'yicha umum milliy choralar ko'rildi. Bu esa aholining barcha qatlamiga kun tartibiga hamda salomatlik holatiga ma'lum bir darajada salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shunday qilib, covid-19 pandemiyasi tarixda ta'lim tizimlarining eng uzoq uzoq muddatga to'xtatilishiga olib keldi va 160 mamlakatlarida deyarli 190 milliard o'quvchiga ta'sir ko'rsatdi.

COVID-19 "karonavirus" bilan kasallanish xolati O`zbekistonda qayt etilgandan buyon Sog`liqni saqlash vazirligi va xorijiy yetuk mutaxasis doktorlar bilan tajribalar almashingan xolda karonavirusni davolash to`g`risidagi bosqichma bosqich o`rganishlar qarorlar, u to`g`risidagi bayonnomalar juda yaxshi natijalar bermoqda. Shu kecha kunduzgi xolatni inobatga oladigan bo`lsak ilg`or yevropa mamlakatlarida o`lim ko`rsatgichi 15% gacha yetayotgan vaqtda O`zbekistonda bu ko`rsatgich 0,8% ni tashkil etishi gapimizning yaqqol isboti. Surxondaryo viloyati negizida 2020-yilning mart oyidan to hozirgi kunga qadar 1229 ta bemor kuzatilgan bo`lib ulardan 1167 tasi tuzalgan.

Surxondaryo viloyatida karonavirus kasalligini tarqalishini o`ziga xos xususiyatlari bor. 1. Viloyatning o`ziga xos iqlimi. 2. Aholining tarqoq joylashtirilganligi. 3. Tashqi omillarning o`ziga xosligi.

ADABIYOTLAR

1. COVID-19 и дети https://www.euro.who.int/ru/health-topics/Life-stages/childand-adolescent-health/covid-19-and-children

2. ЮНИСЕФ: Влияние COVID-19 на ухудшение психического здоровья детей и молодежи – это только «верхушка айсберга» https://www.unicef.org/eca/ru/Press-relizы/yunisef-vliyaniye-covid-19-nauxudsheniye-psixicheskogo-zdorovya-detey-i-molodeji-eto-tolko

3. Аверьянова, Н. И. Лечение и профилактика рецидивов пиелонефрита с кри- сталлурией у детей / Н. И. Аверьянова, Л. Г. Балуева // Российский вестник перинатологии и педиатрии. - 2016. - Т. - 61. - № 6. - С. 104-108

4. Baez D. Clinical findings of 6 children with COVID-19, risks factors associated with COVID-19 death, and detection of SARS-CoV-2 in different clinical specimens. 2020.

5. Cai J, Xu J, Lin D, et al. A Case Series of children with 2019 novel coronavirus infection: clinical and epidemiological features. Clin Infect Dis. 2020. doi: 10.1093/cid/ciaa198.

GIPERGLIKEMIYA SHAROITIDA JIGAR MITOXONDRIYASINING KALIY KANALI FAOLLIGIGA XRIZOERIOL FLAVONOIDINING TA'SIRI

Sobirova Gulrux Xasan qizi
Komilov Baxrom Jamoldinovich
Pozilov Ma'murjon Komiljonovich

Mavzuning dolzarbligi: Mitoxondriyaga oid tadqiqotlarda ATF sintezi va metabolizm kabi sohalarni qamrab olgan an'anaviy funksiyalaridan tashqariga yangi ilmiy yo'nalishlarni o'rganish boshlandi. Mitoxondrial funksiyalar sitoproteksiya, hujayra qarishi, o'sma funksiyasi va yallig'lanish kabi yangi funksional sohalarda ishtirok etishi aniqlandi. Ushbu yangi sohalarning asosi hali ham kislorodni faol shakllarining sintezi, mitoxondriya membranasining potensiali va uning ichki membranasining yaxlitligi ya'ni turli molekulalarning mitoxondriya membranalari orqali o'tishi kabi fundamental biokimyoviy hamda biofizik mitoxondrial funksiyalarga tayanadi. Mitoxondriya ichki va tashqi membranasida juda ko'plab ion transport tizimlari joylashgan bo'lib, ushbu ion transport tizimlari ATF sintezini samarali amalga oshishini ta'minlaydi. Bu ko'rinishda kaliy sikli deb nomlanuvchi kaliy kationlarini tashilishi muhim rol o'ynaydi. Mitoxondriya ichki membranasida K^+ ionlari oqimi mavjud bo'lib, ushbu oqim turli xil kaliy kanallari orqali sodir bo'lishi tushuntiriladi. Mitoxondriya membranasida K^+ ionlari o'tkazuvchanligida ishtirok etadigan ko'plab kaliy kanallari aniqlangan. Shunday kaliy kanallaridan biri bu ATFga bog'liq kaliy kanali (mitoK_{ATF}-kanal) bo'lib, hujayrani hayoti va o'limi signalizatsiyasida muhim rol o'ynashi ta'kidlangan. ATFning fiziologik konsentratsiyasi bilan boshqariladigan yoki kalsiy bilan faollashtirilgan kaliy kanallari, mitoK_{ATF}-kanalining kaliy kanali ochuvchilari tomonidan faollashuvi yurak yoki neyron to'qimalarida sitoprotektiv ta'sirga ega bo'lishi mumkin [1]. Ammo, patologik jarayonlarda mitoK_{ATF}-kanalining o'tkazuvchanligi va muammoli farmakologiyasi bo'yicha turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, ushbu yondashuvlar mitoK_{ATF}-kanalining funksional holatini batafsil o'rganish zaruratini yuzaga keltiradi. Turli patologik jarayonlarda mitoK_{ATF}-kanalining faoliyatiga ta'sir etuvchi spesifik molekulalarni topishga umid qilib, yangi birikmalarni o'rganadilar [2; 3]. Mavjud adabiyotlarda kaliy kanalini ochuvchi diazoksid mitoK_{ATF}-kanalini faollashtirish orqali ishemiya/reperfuziya jarayonlariga ijobiy protektiv ta'sir etishi haqida ma'lumotlar berilgan [4]. Ammo, qandli diabet sharoitida kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligiga ta'sir etuvchi biofaol moddalari haqida ma'lumotlar juda kam uchraydi.

Ishning maqsadi. Streptozototsin (STZ) bilan chaqirilgan diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasining mitoK_{ATF}-kanali faolligiga xrizoeriol flavonoidining ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari: Tajribalar vazni 180-200 g bo'lgan zotsiz oq erkak kalamushlarda olib borildi. Tajriba hayvonlari guruhlarga ajratildi: I guruh – nazorat, II guruh – tajriba (STZ-diabet), III guruh - tajriba (STZ-diabet+ xrizoeriol), IV guruh (STZ diabet+ kversetin). II, III va IV guruh kalamushlarda diabet chaqirish uchun bir kunlik ochlikdan so'ng, bir marta STZ 50 mg/kg (0,1 mol/l sitrat buferi, 0,2

ml, pH 4,5) eritmasi qorin bo‘shlig‘i teri osti sohasiga yuborildi [5]. STZ-diabet chaqirilgan hayvonlardan har 3 kunda qon olinib, glyukoza miqdori aniqlab borildi. Kalamushlarga STZ in’eksiya qilingandan so‘ng qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan oshgandan so‘ng (12 kun), sutkasiga bir marta II guruh hayvonlariga 0,2 ml 0,9% li NaCl eritmasi, tajribaning III guruhiga xrizoeriol flavnoididan 20 mg/kg va IV guruhga mavjud gipoglikemik birikma kversetin flavonoididan 30 mg/kg dozada peroral usulda sutkasiga bir marta 10 kun davomida yuborildi. STZ diabetli va farmakoterapiya qilingan diabetli kalamushlarni (qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan kamayganda) jigar mitoxondriyasi differensial sentrifugalash *W.C.Schneider* usuli yordamida ajratib olindi.

MitoK_{ATF}-kanali o‘tkazuvchanligi [6] (0,3-0,4 mg/ml) 3 ml yacheykalarda 540 nm to‘lqin uzunligida optik zichlikning o‘zgarishi bo‘yicha spektrofotometrda (spectrophotometer V-5000) aniqlandi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Hozirda yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan flavonoidlar tibbiyot amaliyotida antioksidant, antigipoksant, virusga qarshi, antibakterial va boshqa ko‘plab xossalari bilan farmakologik agentlar qatorida foydalaniladi. Flavonoid birikmalarning bunday samarali ta’siri hujayra membranalari, jumladan, mitoxondriya darajasidagi organoidlar strukturalariga va funksional faoliyatiga bog‘liq holda amalga oshishi mumkin. STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanali o‘tkazuvchanligiga xrizoeriol flavonoidining ta’siri *in vivo* tajribada o‘rganildi. Olingan natijalarga ko‘ra, STZ diabet chaqirilgan II guruh kalamushlarni jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligi inkubatsiya muhitida ATF mavjud sharoitda nazoratga (I guruh) nisbatan 46,2% ga ingibirlanganligi aniqlandi. Demak, STZ diabet sharoitida jigar mitoK_{ATF}-kanalining kaliy ionlari uchun o‘tkazuvchanligi kamaydi. STZ diabet sharoitida kaliy ionlari oqimining kamayishi membrana depolyarizatsiyasiga va oksidlanishli fosforlanish jarayonlari bog‘liqligini kamyishiga olib kelishi mumkin. STZ diabet chaqirilgan III guruh kalamushlarni xrizoeriol flavonoidining 30 mg/kg dozasi bilan 10 kun farmakoterapiya qilindi va ularni jigaridan mitoxondriya ajratib olindi. STZ diabet chaqirilgan III guruh kalamushlarni jigar mitoK_{ATF}-kanali o‘tkazuvchanligi ATF mavjud sharoitda II guruh (STZ diabet) ko‘rsatkichlariga nisbatan 62,6% ga ortganligi aniqlandi. Demak, xrizoeriol flavonoidi STZ diabet sharoitida jigar mitoK_{ATF}-kanalining kaliy ionlari uchun o‘tkazuvchanligini oshirdi. Xrizoeriol flavonoidi ta’sirida jigar mitoK_{ATF}-kanali o‘tkazuvchanligini ortishi mitoxondriyada kaliy ionlari siklini tiklashi mumkin. STZ diabet chaqirilgan IV guruh kalamushlarga kversetinning yuborilishi jigar mitoK_{ATF}-kanali faolligini II guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 87,7% ga oshirilganligi aniqlandi. Demak, STZ diabetda kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanaliga xrizoeriol hamda kversetin flavonoidlari aktivator singari ta’sir etganligi aniqlandi.

Xulosa: STZ diabet sharoitida jigar mitoK_{ATF}-kanali o‘tkazuvchanligi ingibirlandi. Xriozoeriol flavnoidi STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoK_{ATF}-kanaliga aktivator sifatida ta’sir etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Busija D.W., Lacza Z., Rajapakse N., Shimizu K., Kis B., Bari F. Targeting mitochondrial ATP-sensitive potassium channels--a novel approach to neuroprotection // Brain Res. Rev. – 2004 – V.46: – P. 282–294.

2. Augustynek B., Kunz W.S., Szewczyk A. Guide to the pharmacology of mitochondrial potassium channels // Handb. Exp. Pharmacol. – 2017 – V.240: – P. 103–127.

3. Leanza L., Checchetto V., Biasutto L., Rossa A., Costa R., Bachmann M. Pharmacological modulation of mitochondrial ion channels // Br. J. Pharmacol. – 2019 – V.176 (22): – P. 4258–4283.

4. Szewczyk A., Skalska J., Głab M., Kulawiak B., Malińska D., Koszela-Piotrowska I. Mitochondrial potassium channels: From pharmacology to function // Biochim. Biophys. Acta. – 2006 – V.1757: – P. 715–720.

5. Пальчикова Н.А., Кузнецова Н.В., Кузьминова О.И., Келятицкая В.Г. Гормонально-биохимические особенности аллоксановой и стрептозотоциновой моделей экспериментального диабета // Бюллетень СО РАМН. – 2013. – Т.33. – №6. – С. 18-24.

6. Вадзюк О.Б., Костерин С.А. Индуцированное диазоксидом набухание митохондрий миометрия крыс как свидетельство активации АТР-чувствительного К+-канала // Укр. биохим. журн. – 2008. – Т. 80(5). – С. 45-51.

ВЛИЯНИЕ ТОКСИНОВ, ИНФЕКЦИЙ И СТРЕССА НА ФУНКЦИЮ ПОЧЕК И МОЧЕВЫВОДЯЩИХ ПУТЕЙ

Набижонов М.Т., Xasanova N. X
Alfraganus university, Ташкент

Актуальность. Современный ритм жизни наполнен стрессами, которые стали привычной частью повседневности. Влияние стресса на организм человека давно является предметом многочисленных исследований, и медицинская наука доказала, что хронический стресс имеет негативные последствия.

Методы исследования. Стресс — это физиологическая реакция организма на потенциально опасные или тревожные ситуации. В процессе стресса организм вырабатывает такие гормоны, как адреналин и кортизол, которые активизируют симпатическую нервную систему.

Обсуждение. Хронический стресс приводит к угнетению иммунной системы, что делает организм уязвимым для инфекций. Одним из самых распространенных проявлений является инфекция мочевыводящих путей (ИМП), которая особенно часто встречается у женщин. Стресс, вызывающий изменения в нормальной флоре мочеполовой системы, увеличивает вероятность воспаления мочевого пузыря (цистита) и других инфекций.

При стрессовых ситуациях кровеносные сосуды сужаются, что приводит к повышению артериального давления. Постоянное воздействие высокого давления на почки со временем может привести к развитию хронической почечной недостаточности. Стресс также повышает уровень кортизола, что нарушает работу почек и их способность эффективно фильтровать кровь.

У мужчин стресс может способствовать развитию хронического простатита — воспаления предстательной железы. Из-за постоянного напряжения и активации иммунной системы могут возникать воспалительные процессы, приводящие к болям в области таза и трудностям с мочеиспусканием. Долговременный стресс также увеличивает вероятность рецидивов простатита. У женщин стрессовые состояния повышают вероятность развития эндометриоза и воспалительных заболеваний придатков. Уровень кортизола, повышенный из-за стресса, подавляет нормальную работу иммунной системы, что способствует развитию воспалительных процессов. Развитию урологических заболеваний препятствуют анатомические особенности мочевыводящих путей: слизистая оболочка — уротелий — обеспечивает надежную защиту от проникновения бактерий за счет тонкого мукополисахаридного слоя на поверхности; синхронная работа мышц — детрузора и сфинктера мочевого пузыря — отвечает за его опорожнение и удержание мочи; парауретральные железы, выделяющие слизь, борются с патогенными бактериями и защищают мочевой пузырь от них; иммуноглобулины типа А в моче препятствуют прикреплению бактерий к слизистой мочевых путей. При длительном воздействии стресса эти механизмы защиты могут нарушаться, что приводит к развитию воспаления нижних мочевых путей, чаще всего к бактериальному циститу. Иногда случается

обострение хронического цистита. Исследования показывают, что интерстициальный (хронический неинфекционный) цистит и синдром хронической тазовой боли могут развиваться даже через два года после завершения воздействия стресса. Единственный гормон в организме человека, который снижает уровень сахара в крови-инсулин. Он вырабатывается островками Лангерганса в поджелудочной железе. Стресс приводит к повреждению клеток, вырабатывающих инсулин и нарушает его выделение в кровь, из-за этого может повыситься уровень сахара в крови, развиться инсулинорезистентность и сахарный диабет. Это сказывается и на работе мочевого пузыря: нарушается работа детрузора, в моче появляется сахар, что способствует размножению бактерий, а из-за оксидативного стресса 1 развивается воспаление. Оксидативным, или окислительным, стрессом называют механизм повреждения ткани за счет недоокисленных либо промежуточных форм кислорода — свободных радикалов, которые особенно агрессивны и токсичны по отношению к клеточным структурам. Число таких радикалов при повышении уровня сахара в крови существенно увеличивается.

Таким образом, что хронический стресс имеет негативные последствия и воздействует на человека. Чтобы избежать хронических заболеваний, важно уделять внимание в первую очередь своему психическому здоровью. Внимательное отношение к своему здоровью, регулярные медицинские осмотр профилактика всегда проще и выгоднее.

YURAK ISHEMIK KASALLIGI VA ARTERIAL GIPERTENZIYA:

ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

Luqmonov A.U., Qo‘chqorov H. Sh.
Alfraganus university, Ташкент

Dolzarbligi: Arterial gipertenziya (AG) va yurak ishemik kasalligi (YuIK) o‘rtasidagi bog‘liqlikning patofiziologik mexanizmlari murakkab bo‘lib, ularning rivojlanishida neyrogormonlar faolligi, ateroskleroz, endotelial disfunktsiya va koronar qon aylanishining o‘zgarishi kabi omillar ishtirok etadi. Tadqiqotlar ko‘rsatishicha, arterial qon bosimining pasayishi koronar hodisalar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu ishda 27 542 ishtirokchidan iborat to‘rtta kogort tadqiqotiga asoslanib, ayollarda yurak xuruji xavfi erkaklarga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Norvegiya va Buyuk Britaniyadagi tadqiqotlar, shuningdek, bir qator meta-tahlillar, jinsiy farqlarni aniqlashda o‘zgaruvchan natijalar ko‘rsatgan bo‘lsa-da, umumiy xulosa sifatida ayollarda 1-bosqich AG holatida yurak ishemik kasalligi xavfi yuqoriligini tasdiqladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, erkaklarga qaraganda, ayollarda AG bilan bog‘liq yurak-qon tomir kasalliklarining absolyut xavfi yuqori bo‘lib, bu jinsiy farqlarni hisobga olishni taqozo etadi.

Ishni maqsadi. Arterial gipertenziya (AG) yurak ishemik kasalligining (YuIK) rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. AG va YuIK o‘rtasidagi bog‘liqlik asosidagi patofiziologik mexanizmlar murakkab bo‘lib, ular neyrogormonlarning haddan tashqari faollashishi, aterosklerotik pilakchaning tez rivojlanishi, endotelial disfunktsiya, intramiokardial koronar qon aylanishining o‘zgarishi va boshqalarni o‘z ichiga oladi. Arterial qon bosimining (AQB) pasayishi koronar hodisalar xavfining sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Material va usullar, natijalar: 27 542 ta aholi ishtirokidagi to‘rtta kogort tadqiqotlarda yurak xuruji aniqlanmagan, qon bosimi toifalari bo‘yicha, yurak xurujining nisbiy xavfi (shu jumladan miokard infarkti (MI), yurak etishmovchiligi yoki insult) ayollarda erkaklarnikiga qaraganda yuqori bo‘lgan [1]. Norvegiyada 12 239 inson ishtirok etgan kuzatuv tadqiqotida chekish holatlari, tana vazni indeksi (TVI), xolesterin, qandli diabet va jismoniy faollikka moslashtirilgandan so‘ng 185 kishi sistolik AQB 130-139 mm.s.u. yoki diastolik AQB 80-89 mm.s.u. ayollarda o‘tkir koronar sindromning nisbiy xavfi yuqori bo‘lgan [2]. Xuddi shunday, Buyuk Britaniya biobankning 471 998 ishtirokchisi orasida 1-bosqich AG bo‘lgan ayollarda 1-bosqich AG bo‘lgan erkaklarga nisbatan MI ning nisbiy xavfi 45% ga yuqori bo‘lgan [3]. Biroq, boshqa tadqiqotlarda yurak-qon tomir kasalliklarining (YuQTK) nisbiy xavfida jinsiy farqlar aniqlanmagan. 1,2 million ishtirokchi (44% ayollar) ishtirok etgan 124 ta prospektiv kuzatuv tadqiqotlarining meta-tahlilida sistolik AQB bilan bog‘liq insult yoki yurak ishemik kasalligining nisbiy xavfi bo‘yicha jinsiy farq yo‘q edi [4]. Xuddi shunday, 400 000 dan ortiq ishtirokchilarni o‘z ichiga olgan Osiyo-Tinch okeani kogort tadqiqotlarining meta-tahlilida sistolik AQB 115 mm.s.u gacha bo‘lgan 188 ta nisbiy YuQTK xavfida jinsiy farqlar kuzatilmadi [5].

Xulosa: Kuzatuv tadqiqotlari bo‘yicha topilma shundan iboratki, YuQTK ning absolyut chastotasi yoki mutlaq xavfi AQB toifalaridagi erkaklarga qaraganda ayollarda yuqori.

O‘TKIR VA SURUNKALI BUYRAK YETISHMOVCHILIKLARINI O‘Z ICHIGA OLGAN BUYRAK KASALLIKLARINING PATOFIZIOLOGIYASI

Kamoliddinov F. F,Boltayeva K.Sh.
Alfraganus university, Ташкент

Dolzarbligi: Ushbu maqolada o‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiliklari (BY) rivojlanish mexanizmlari, ularning patofiziologik jarayonlari va buyrak kasalliklarining asoratlari tahlil qilinadi. Buyrak yetishmovchiligini keltirib chiqaruvchi omillar, uning organizmga ta’siri va zamonaviy diagnostika usullari haqida ma’lumot beriladi. Buyrak inson organizmidagi muhim juft a’zo bo‘lib, u gomeostazni saqlash, toksik moddalarni chiqarish, qon bosimini tartibga solish va eritropoezni boshqarish kabi vazifalarni bajaradi. Buyrakning normal faoliyati organizmning umumiy salomatligi uchun juda muhimdir.

Ishni maqsadi. Buyrakning morfofunksional hususiyatini urganish; Buyraklar orqa qovurg‘alar sohasida, bel sohasida joylashgan, har biri taxminan 10-12 sm uzunlikda, 5-6 sm kenglikda va 120-150 g og‘irlikda bo‘lgan juft organ hisoblanadi.

Material va usullar, natijalar: Har bir buyrak kapsula, kortikal (po‘stloq) va medullary (ichki) vatlardan iborat. Buyraklar tarkibida millionlab nefronlar mavjud bo‘lib, ular buyrakning asosiy funktsional birliklari hisoblanadi. Nefronning asosiy qismlariga to‘xtaladigon bo‘lsakk, bu Gulomerula aparati vazifalari Ekskretor (chiqarish) funktsiyasini bajaradi. Buyrak organizmda ortiqcha suv va zararli moddalarni siydik orqali chiqarib yuboradi. Bu jarayon quyidagi bosqichlarda amalga oshadi: Filtratsiya – glomerulalarda qon plazmasidan toksik moddalar va ortiqcha suyuqlik ajraladi. Reabsorbsiya – organizm uchun kerakli moddalar (suv, glyukoza, aminokislotalar, ionlar) proksimal naychalarda qayta so‘riladi. Sekretsiya – zararli moddalar va ortiqcha ionlar distal naychalarda faol ajratiladi.Siydik hosil bo‘lishi – yakuniy siydik yig‘uvchi naychalarga o‘tadi va uretra orqali tashqariga chiqariladi. Gomeostatik vazifasi bilan buyrak, organizmning ichki muhitini barqaror saqlashga yordam beradi. Elektrolit muvozanatini boshqarish – natriy, kaliy, kalsiy va boshqa ionlar miqdorini nazorat qiladi.Suv muvozanatini saqlash – suyuqlik ortiqchaligida uni chiqarib yuboradi, kamligida esa ushlab turadi. Kislota-ishqor muvozanatini tartibga solish – qon pH darajasini nazorat qilib, metabolik asidoz yoki alkalozni oldini oladi. Endokrin (Buyrak quyidagi muhim gormonlarni ishlab chiqaradi:Renin – qon bosimini boshqaradik.Eritropoetin (EPO) – suyak iligida qizil qon hujayralarining hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi.Kalsitriol (D vitamini faol shakli) – kalsiy va fosfor muvozanatini boshqaradi.Qon bosimini tartibga solish jarayonida esa- buyrak renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS) orqali qon bosimini boshqaradi. Qon bosimi tushib ketganda, renin ishlab chiqariladi va bu angiotenzin II hosil bo‘lishiga olib keladi. Angiotenzin II qon tomirlarini toraytirib, aldosteron gormonining sekretsiyasini rag‘batlantiradi, natijada organizmda natriy va suv ushlanib qoladi va qon bosimi ko‘tariladi. Detoksifikatsiya vazifasi- Buyrak dori vositalari, metabolik toksinlar va ortiqcha metabolitlarni siydik orqali chiqarib, organizmni toksik ta’sirlardan himoya qiladi. Buyrak faoliyatining buzilish sabablari: Buyrak kasalliklari turli sabablar bilan yuzaga kelishi mumkin: Infektsiyalar (pielonefrit, glomerulonefrit). Toksik moddalar (nefrotoksik dorilar, zaharlar) Gipertoniya (buyrak qon aylanishining buzilishi) Diabet

(nefropatiya rivojlanishi) Autoimmun kasalliklar (lupus nefriti) yuzaga kelishi mumkin. Olib borilayotgan tadqiqotlarda shuni taxlil qilindiki o‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligiga olib keluvchi patofiziologik jarayonlarni o‘rganish, buyrak faoliyatining buzilishi sabablarini aniqlash va uning oldini olish hamda davolash strategiyalarini shakllantirishdir. Tadqiqotning vazifalari esa -O‘tkir va surunkali buyrak yetishmovchiligining etiologik (sabablari) va patofiziologik asoslarini tahlil qilish.yrak yetishmovchiligi bilan og‘rigan bemorlarda klinik, laborator va instrumental tekshiruvlarni o‘tkazish. Zamonaviy diagnostika va davolash usullarining samaradorligini o‘rganish. Buyrak yetishmovchiligi xavfini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish. Tadqiqot obyekti va predmeti Tadqiqot obyekti – buyrak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlar. Tadqiqot predmeti – buyrak kasalliklarining rivojlanish mexanizmlari va ularning organizmga ta’siri Tadqiqot metodologiyasi- Tadqiqot quyidagi metodlardan foydalangan holda amalga oshirildi:n Klinik tadqiqot usullari o‘rganib chiqldi.Bemorlarning anamnezini yig‘ish – kasallikning rivojlanish tarixi, irsiy moyillik va hayot tarzi faktorlarini aniqlash.Fizik tekshiruv – buyrak sohasidagi og‘riq, shish va arterial bosim o‘zgarishlarini aniqlash. Laborator, instrumental diagnostikalar olib borish: Qon tahlili – kreatinin, qondagi mochevina, elektrolitlar darajasini baholash.Siydik tahlili – proteinuriya, gematuriya, leykotsituriyani aniqlash. Biokimyoviy tahlillar – glyukoza, lipid profili, kalsiy-fosfor muvozanatini tekshirish. instrumental diagnostikalar olib borildi. Ultratovush tekshiruvi (UTT) – buyraklarning o‘lchami, tuzilishi va qon aylanishi tahlil qilindi. Kompyuter tomografiya (KT) va magnit-rezonans tomografiya (MRT) – buyroqlar strukturasidagi o‘zgarishlar baholandi. Renografiya – buyrak filtratsiya qobiliyatini aniqlash uchun izotop usuli. Guruhga bo‘lib o‘rganilgan tadqiqot bo‘yicha jami 100 nafar bemor ishtirok etdi va ular uchta guruhga bo‘lindi: 1-guruh (o‘tkir buyrak yetishmovchiligi – OBY): 40 nafar bemor 2-guruh (surunkali buyrak yetishmovchiligi – SBY): 40 nafar bemor 3-guruh (nazorat guruhi – sog‘lom odamlar): 20 nafar. Tadqiqot natijalari shunin ko‘rsatib turibdiki, OBY bilan kasallangan bemorlarda glomerulyar filtratsiya tezligi (GFR) sezilarli darajada pasaygani aniqlandi. SBY bemorlarida elektrolitlar muvozanati buzilishi va metabolik asidoz kuzatildi. Qon bosimining oshishi va anemiya bemorlarning aksariyatida uchradi. Zamonaviy davolash usullari, jumladan, dializ va nefroprotektor terapiyasi bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga yordam berdi.

Xulosa va tavsiyalar; Buyrak kasalliklarini erta bosqichda aniqlash va oldini olish uchun muntazam skrining tekshiruvlari o‘tkazish kerak. OBY va SBY bilan kasallangan bemorlarni tezkor davolash va uzoq muddatli monitoring qilish muhim. Sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, jumladan, tuz iste’molini cheklash va qondagi glyukoza darajasini nazorat qilish buyrak kasalliklari xavfini kamaytiradi.

STRESSLAR VA TOKSIKOMILLARNING ME'DA-ISHAK TRAKTINING FUNKTSIYALARIGA TA'SIRI

Abduraxmanova F.,A. Zokirova N.B.
Alfraganus university, Ташкент

Dolzarbligi: Stress va toksik omillarning me'da-ichak traktining funktsiyalariga ta'siri inson organizmining salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Ushbu ilmiy tizisda stressning va toksik moddalar ta'sirining gastrointestinal tizimga qanday ta'sir qilishini tahlil qilish maqsad qilingan. Stress va toksik moddalar me'da-ichak traktining normal ishlashini susaytirib, ovqat hazm qilish jarayonlarini buzishi, ichak yallig‘lanishini kuchaytirshi va mikroflora muvozanatini o‘zgartirishi hamda me'da-ichak tizimi va umumiy salomatlikka salbiy ta'sir ko‘rsatishi xaqida so‘zyuritiladi. Me'da-ichak traktining normal ishlashi inson organizmining umumiy salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Biroq, turli tashqi va ichki omillar, xususan stresslar va toksik moddalar, ushbu tizimning faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Stress va toksik omillar me'da-ichak traktining biologik muvozanatini buzib, ovqat hazm qilish tizimida turli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Ushbu ilmiy tizeda stress va toksik omillarning me'da-ichak traktiga bo‘lgan ta'sirini chuqur o‘rganishga harakat qilindi. Tadqiqotlar va ilmiy adabiyotlar asosida stress va toksik omillarning me'da-ichak traktining turli funktsiyalariga, jumladan ovqat hazm qilish, yallig‘lanish jarayonlari va mikroflora ustidan ta'siri tahlil qilinadi.

Ishni maqsadi. Stress va uning me'da-ichak traktiga ta'sirini urganish; Stress, ayniqsa uzoq muddatli yoki surunkali stress, inson organizmida turli fiziologik o‘zgarishlarga olib keladi. Stressning asoratlari nerv tizimi orqali me'da-ichak traktiga ta'sir qiladi, bu esa ovqat hazm qilish tizimining ishlashini susaytiradi va ichakning yallig‘lanishiga olib keladi. **Material va usullar, natijalar:** Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stressning uzoq davom etishi ichak yallig‘lanishini kuchaytirishi, gastrointestinal tizimdagi og‘riqlarni keltirib chiqarishi va ovqat hazm qilish jarayonlarini sekinlashtirishi mumkin. Shuningdek, stress ostida bo‘lgan organizmda, o‘zgarishlar yomon hazm qilish, ko‘ngil aynish, qusish va ich ketish holatlariga olib keladi. Toksik omillar va ularning ta'siri- Toksik omillar, masalan, kimyoviy moddalar, pestitsidlar, zaxarlar, viruslar va bakteriyalar, me'da-ichak traktining normal ishlashiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Ushbu omillar ichaklarning yallig‘lanishiga sabab bo‘lishi, mikrobial muvozanatni buzishi va ichaklarning devorlariga zarar yetkazishi mumkin. Toksik moddalar me'da shirasining normal ishlab chiqarilishiga to‘sqinlik qilishi, oshqozon yaralari va gastroduodenit kabi kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga, toksik moddalar ichaklar orqali hazm qilish jarayonlarining samaradorligini kamaytiradi va organizmning energiya ishlab chiqarish qobiliyatini pasaytiradi. Stress va toksik omillarning birgalikda ta'siri ko‘pincha jiddiy salbiy oqibatlarga olib keladi.

Xulosa; Stresslar va toksik omillarning me'da-ichak traktining funktsiyalariga bo‘lgan ta'siri, ularning surunkali holatda davom etishi, o‘zgarishlarga sabab bo‘lib, turli gastrointestinal kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Ushbu ilmiy tizeda keltirilgan tahlillar asosida stress va toksik moddalarni boshqarish va oldini olish choralari ishlab chiqilishi kerak.

STRESS MEXANIZMI VA ULARNING ORGANIZMGA TA’SIRI

Kuliyev O.A, O‘ktamova N. B.
Alfraganus university, Ташкент

Dolzarbligi: Ushbu tezisda nerv va endokrin tizimlarining o‘zaro ta'siri, organizmning adaptatsion jarayonlari va stress mexanizmlarining neyroendokrin regulyatsiyasi tahlil qilinadi. Nerv tizimi va endokrin tizimi birgalikda organizmning tashqi va ichki o‘zgarishlarga moslashuvini ta'minlaydi. Stress holatida gipotalamus va gipofizning rolini, shuningdek, kortizol, adrenalin va boshqa gormonlarning ishlab chiqilish mexanizmlarini o‘rganish asosiy e'tiborda bo‘ladi. Stressning uzoq muddatli ta'siri organizmning bir qator tizimlariga, jumladan yurak-qon tomir tizimi, metabolizm va psixologik holatga salbiy ta'sir ko‘rsatishi mumkin. Tezisda shuningdek, stressning patofiziologik jarayonlari, organizmga bo‘lgan ta'siri va stressni boshqarish usullari ko‘rib chiqiladi. Nerv tizimi va endokrin tizimi organizmning asosiy regulyator tizimlari bo‘lib, ular bir-biriga chambarchas bog‘langan holda fiziologik jarayonlarni boshqaradi. Bu tizimlar o‘zaro faoliyat ko‘rsatish orqali organizmning o‘zgaruvchan ichki va tashqi sharoitlarga moslashuvini ta'minlaydi. Ayniqsa, adaptatsion jarayonlar, stressga qarshi mexanizmlar va neyroendokrin regulyatsiya faoliyatlari o‘zaro chambarchas bog‘langan bo‘lib, bu jarayonlar organizmning o‘zgarishlarga nisbatan javobini shakllantiradi.

nerv tizimi va endokrin tizimi organizmda turli fiziologik jarayonlarni boshqarishda o‘zaro hamkorlik qiladi. Nerv tizimi tezkor javob berish mexanizmlarini ta'minlasa, endokrin tizimi uzoq muddatli va tizimli regulyatsiyani amalga oshiradi. Nerv tizimi markaziy (miya va orqa miya) va periferik tizimlardan tashkil topadi, u tezkor elektr impulslarini yuborish orqali organizmning harakatini va turli tizimlar faoliyatini boshqaradi.

Ishni maqsadi. Stress va endokrin tizimi gormonlarni ta'sirini urganish;Gormonlar qonda tarqalib, ma'lum organlarga ta'sir etadi. Endokrin tizimning asosiy organlari — bu gipotalamus, gipofiz, qalqonsimon bez, buyrak usti bezlari va jinsiy bezlar. **Material va usullar, natijalar:**Ularning o‘zaro aloqasi va faolligi organizmning o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashuvini ta'minlaydi. Endokrin tizimi quyidagi asosiy organlardan iborat: Gipotalamus: Gipotalamus miyaning pastki qismida joylashgan va nerv tizimi bilan endokrin tizimni boshqaradigan markaz hisoblanadi. U gipofizni stimulatsiya qiladi va turli gormonlarni ishlab chiqarish jarayonini boshlaydi. Gipofiz bezining ikki qismi bor: oldingi (adenohipofiz) va orqa qismi (neyrohypofiz). Adenohipofiz ko‘plab gormonlarni ishlab chiqaradi, masalan, gormonlarni (adrenokortikotropik gormon (ACTH), follikullarni stimulatsiya qiluvchi gormon (FSH), luteinlashtiruvchi gormon (LH), va boshqalar). Neyrohypofiz esa oksitotsin va vazopressin kabi gormonlarni chiqaradi. Qalqonsimon bez T4 (tiroksin) va T3 (triodotironin) gormonlarini ishlab chiqaradi, bu gormonlar metabolizmni boshqaradi va organizmning energetik faoliyatini tartibga soladi va issiqlik ishlab chiqarishni regulyatsiya qiladi. Nerv tizimi — bu organizmdagi barcha fiziologik jarayonlarni boshqaruvchi va ularning o‘zaro muvofiqligini ta'minlaydigan asosiy tizimdir. U elektr signalari yordamida tez va samarali javoblarni boshqaradi. Nerv tizimi ikki asosiy bo‘limga bo‘linadi: markaziy nerv tizimi (MNT) va periferik nerv

tizimi (PNT). Markaziy nerv tizimi (MNT) miyaning va orqa miya tomonidan tashkil topgan. Miya barcha murakkab faoliyatlar, jumladan, xotira, o‘rganish, motorik harakatlar va hissiyotlarni boshqaradi. Orqa miya esa miya va periferik nervlar o‘rtasida signalni uzatadi.Periferik nerv tizimi (PNT) miyaning va orqa miyadagi signalni barcha organizm bo‘ylab uzatadi. U ikki asosiy bo‘limga bo‘linadi: somatik nerv tizimi (konschius harakatlar va sezgi funktsiyalarini boshqaradi) va avtonom nerv tizimi (insonning ixtiyoriy bo‘lmagan jarayonlarini, masalan, yurak urishi va hazm qilishni boshqaradi).Sezgi funktsiyalari: PNT, xususan, somatik nerv tizimi, tashqi muhitdan signal oladi va uni miyaning tegishli bo‘limlariga uzatadi.Motorik funktsiyalar: MNT, periferik nervlar orqali, mushaklarga harakat qilishni buyuradi.

Xulosa nerv tizimi va endokrin tizimlar birgalikda organizmning fiziologik jarayonlarini boshqaradi va stressga qarshi javobni ta'minlaydi. Stress mexanizmlarining neyroendokrin regulyatsiyasi organizmni tashqi va ichki o‘zgarishlarga moslashtiradi, ammo uzoq muddatli stressning salbiy ta'siri turli kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Stressning patofiziologik ta'sirini tushunish va stressni boshqarish usullarini ishlab chiqish organizmning salomatligini saqlash uchun muhimdir.

OVQAT HAZM QILISH SISTEMASINI FIZIOLOGIK VA PATOLOGIK JIHATLARI

Mirzajonova Saboxon Abjalilovna
FJSTI, Fiziologiya kafedrasi assistenti
Muhammadaliyeva Tursunoy
FJSTI, Davolash yo'nalishi 2723 guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ovqat hazm qilish sistemasining fiziologik va patologik jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Ovqat hazm qilish jarayoni organizmning muhim funksiyalaridan biri bo'lib, uning samarali ishlashi inson umumiy sog'lig'iga bevosita ta'sir qiladi. Maqolada ovqat hazm qilishning asosiy bosqichlari – mexanik va kimyoviy hazm qilish, oziq moddalarning so'rilishi va ichak harakatlari jarayonlari batafsil yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ovqat hazm qilish, fiziologik jarayonlar, patologik holatlar, oshqozon, ichak, jigar, oshqozon osti bezi, o't pufagi, gastrit, yara kasalligi, gepatit, jigar sirrozi, ovqatlanish, sog'lom turmush tarzi.

Kirish:

Ovqat hazm qilish sistemi inson organizmining muhim tizimlaridan biri bo'lib, uning asosiy vazifasi ovqatni hazm qilish, oziq moddalarni ajratish va organizmga singdirishdan iborat. Ushbu maqolada ovqat hazm qilish sistemasining fiziologik va patologik jihatlari haqida so'z yuritamiz. Ovqat hazm qilish - bu oziq-ovqatning qon oqimiga singishi uchun mexanik va fermentativ moddalarga bo'linish jarayoni.

Ovqat hazm qilish sistemasining fiziologik jihatlari Ovqat hazm qilish jarayoni og'iz bo'shlig'idan boshlanib, ichaklarga qadar davom etadi. Bu jarayon quyidagi bosqichlardan iborat:

- **Mexanik hazm qilish** – Ovqat chaynash, maydalash va aralashtirish orqali oson hazm bo'ladigan holatga keltiriladi. Bu jarayon asosan tishlar, til va so'lak bezlari yordamida amalga oshiriladi.
- **Kimyoviy hazm qilish** – Fermentlar ta'sirida murakkab organik moddalar parchalanadi va organizmga singish uchun tayyorlanadi.
- **So'rilish** – Ichak devorlari orqali oziq moddalar qonga singadi. Bu jarayon asosan ingichka ichakda amalga oshiriladi, chunki u yerdagi kiprikli hujayralar oziq moddalarning maksimal so'rilishini ta'minlaydi.
- **Ichak harakatlari** – Peristaltika natijasida ovqat hazm qilish jarayoni davom etadi. Bu harakatlar tufayli hazm bo'lgan oziq moddalar asta-sekin yo'g'on ichakka o'tadi va organizmga singmaydigan qoldiqlar chiqarib tashlanadi.

Ovqat hazm qilish tizimining patologik jihatlari Ovqat hazm qilish tizimida yuzaga keladigan kasalliklar inson sog'lig'iga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Eng keng tarqalgan patologik holatlar quyidagilardir:

- **Gastrit** – Oshqozon shilliq qavatining yallig'lanishi. Uning asosiy sabablari noto'g'ri ovqatlanish, stress va Helicobacter pylori bakteriyasidir.
- **Yara kasalliklari** – Oshqozon yoki o'n ikki barmoqli ichakda yara hosil bo'lishi. U kislota va fermentlar ta'sirida yuzaga keladi.

- **Disbakterioz** – Ichak mikroflorasi muvozanatining buzilishi, bu esa hazm jarayonining izdan chiqishiga olib keladi.
- **Ich ketish va qabziyat** – Ichaklarning normal harakatlanishining buzilishi natijasida yuzaga keladi.
- **Gepatit va jigar sirrozi** – Jigar kasalliklari natijasida moddalar almashinuvi jarayoni buziladi va organizmga zarar yetkazadi.

Oziq-ovqatning asosiy makronutrientlarini hazm qilish ko‘p miqdordagi ovqat hazm qilish fermentlarining ta'sirini o‘z ichiga olgan tartibli jarayondir. So‘lak va til bezlari fermentlari uglevod va yog‘larni, oshqozon fermentlari oqsillarni, oshqozon osti bezining tashqi sekretsiya bezlari fermentlari esa uglevodlar, oqsillar, lipidlar, RNK va DNKni hazm qiladi.

Xulosa

Ovqat hazm qilish sistemi inson organizmining muhim funksiyalaridan biri bo‘lib, uning to‘g‘ri ishlashi umumiy sog‘liq holatiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ushbu maqolada ovqat hazm qilish tizimining fiziologik va patologik jihatlari batafsil yoritildi. Fiziologik jihatlar sifatida ovqatning mexanik va kimyoviy hazm bo‘lishi, oziq moddalarning so‘rilishi, ichak harakatlari va hazm jarayonida ishtirok etuvchi organlarning vazifalari ko‘rib chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Alimov Sh., Yusupov I. “Inson fiziologiyasi” – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2019.
2. Karimov M., Jo‘rayev A. “Biologiya: Inson anatomiyasi va fiziologiyasi” – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
3. Tursunov A. “Ovqat hazm qilish tizimining fiziologiyasi” – Toshkent tibbiyot akademiyasi nashriyoti, 2018.

YURAKNING ISHEMIK KASALLIKLARIDA ASOSIY XAVF OMILLARI TAXLILI

Qayumova. Z. M., Mirzajonova S.A..
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti

Mavzuning dolzarbligi: Qon aylanish tizimi kasalliklari orasida yurak-qon tomir kasalliklaridan o‘limning yarmidan ko‘prog‘iga sabab bo‘lgan yurak ishemik kasalligi ajralib turadi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2018 yilda yurak ishemiyasi qon aylanish tizimi kasalliklari sabab bo‘lgan o‘limlarning 53 foizini keltirib chiqargan — bu umumiy o‘limlar sonining 24 foizini tashkil qildi (3 foiz hollarda o‘lim miokard infarktidan kelib chiqqan).

Tadqiqot maqsadi: Yurak qon -tomir tizimi bilan bog‘liq kasalliklar kelib chiqish sababini o‘rganish, bu sabablarni oldini olish va to‘g‘ri davolash hamda sog‘lom turmush tarziga rioya qilishni targ‘ib qilish.

Tadqiqot materiali va usullari: bunda darsliklar, o‘quv adabiyot qo‘llanmalari hamda internet manbalaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari: Qon tomirlari torayishining eng keng tarqalgan sababi bu qon tomirlari devorlariga yog‘ birikmasi tufayli hosil bo‘lgan aterosklerotik blyashkalarning paydo bo‘lishidir. Shuning uchun, xavf guruhiga qon tomirlarida xolesterin to‘planishi uchun ko‘plab sharoitlarga ega bo‘lgan insonlar kiradi: chekuvchilar, spirtli ichimliklarni suiste’mol qiluvchilar, diabet va semirish bilan og‘riganlar, giperlipidemiyaga genetik moyilligi bo‘lganlar.Yurak ishemiya kasalligining turlari. Davolash ishemik kasallik turiga bog‘liq. Tashxis qo‘yish paytida aniqlash kerak bo‘lgan yurak ishemiya kasalligining bir nechta shakllari mavjud. Ishemik kasallikning klinik shakllari: To‘satdan koronar o‘lim, stenokardiya, miokard infarkti, postinfarktli, kardioskleroz, yurak ritmining buzilishi. Arterial gipertenziya, gipertoniya, yuqori qon bosimi – yurak qon-tomir kasalliklari rivojlanishida eng muhim rol o‘ynaydigan omil hisoblanadi, bu kabi asoratlardan eng xavflisi infarkt va insultdir. Birlamchi gipertenziya turli xil omillar ta’sirida yuzaga chiqadi. Bu faktorlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:Nasliy omil, ortiqcha tana vazni, stress va zo‘riqish, spirtli ichimliklar ichish, tamaki mahsulotlarini chekish, kofe va boshqa energetik ichimliklar ko‘p qabul qilish, noto‘g‘ri ovqatlanish tartibi.

Xulosa: yurak qon-tomir kasalliklarini oldini olish uchun quyidagilar tavsiya etiladi:

Yomon odatlardan voz kechish, faol hayot kechirish, muvozanatli ovqatlanishga rioya qilish, stressli vaziyatlardan qochish, o‘z vazningizni nazorat qilish, kuniga kamida 8 soat uxlash

Parhez: Arterial gipertenziya bilan og‘rigan bemorlarga quyidagilarni o‘z ichiga olgan parhez buyuriladi. Tuz iste’molini cheklash (kuniga 6 g dan kam, 1-2 g). Yog‘lar va uglevodlar miqdorini kamaytirish. Kalsiy, magniy va kaliyga boy mahsulotlarni kiritish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Serdechno-sosudistie zabolevaniya“. WHO. 2019-yil 30-mart.
2. „Статистический сборник 2017 год“ (ru). www.rosminzdrav.ru. 2019-yil 30-mart.

4. Чумарина, Е.М. Шубочкина. Здравоохранение в России. 2017
5.Sharopov O‘.B., G‘afforova F.K., Shodmonov U.I., Ichki kasalliklar, T., 2003.
6.Руководство по кардиологии в четырех томах. Том 4: Заболевания сердечно-сосудистой системы (II). Практика, 2014.

METOBOLOMIKA VA METABOLIK SINDROM : ERTA DIAGNOSTIKA VA PROFILAKTIKA IMKONIYATLARI.

Turobiddinova M., Mirzajonova S.
Farg‘ona Tibbiyot Jamoat Salomatligi Instituti

Mavzuning dolzarbligi: Metabolik sindrom yurak-qon tomir kasalliklari xavf omillarining yig‘indisi hisoblanib, u abdominal semizlik, uglevod almashinuvining buzilishlari va arterial gipertenziya kabi xavf omillarini qamrab oladi. Yuqoridagi barchasi patofiziologik asosi esa insulin rezistentligi hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: Metabolik sindrom va unga oid bilimlar va tegishli ma’lumotlarni taxlil qilish va axoli orasida umumiy xabardorlikka imkoniyatlarini oshirish.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqotda tibbiy ijtimoy saytlar va ulardagi mavzuga tegishli ma’lumotlat olindi va statistiktaxlil va xulosalar qilindi.

Yer sharining turli mintaqalarida metabolik sindrom uchrashining farqlari shuni ko‘rsatadiki, uning tarqalishi nafaqat irqiy shu bilan qatorda turmush tarzi, ovqatlanish ratsioni (yuqori kalloriyaga ega va hayvon yog‘lariga boy ovqat iste’moli), jins, genetik moyillik va etnik hususiyatga ham bog‘liq.

Lekin metabolik sindromning yetakchi belgisi qon lipidlari va insulin rezistentligining oshishi hisoblanadi. Bular esa yurak-qon tomir kasalliklari rivojlanish xavfini orttiruvchi omildir. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma’lumotiga ko‘ra, sayyoramiz aholisining taxminan 30% undan (16.8% ayollar, 14.9% erkaklar) ortiqcha vazinga ega. Semizlikdan aziyat chekayotganlar soni esa har 10 yilda 10% ga oshib bormoqda. Semizlik bilan og‘rigan insonlarda arterial gipertenziya rivojlanish ehtimoli 50% ga yuqori bo‘ladi. Framingham tadqiqotiga ko‘ra, har 4.5kg ortiqcha vazn sistolik arterial bosimni erkaklarda 4.4mmHg, ayollarda esa 4.2mmHg ha oshirishi aniqlangan.

Metabolik sindromning asosiy komponenti qorindagi (abdominal) semizlik bo‘lib, bu ko‘rsatkich erkaklarda bel atrofida 90sm dan, ayollarda esa 80sm dan yuqoriligini ko‘rsatadi. Bu ko‘rsatkichlar esa ortiqcha vazn yurak-qon tomir kasalliklari uchun muhim prognostik omil bo‘lib hizmat qiladi. Bundan tashqari, ortiqcha vazn odamlarda metabolik sindromga olib keluvchi jarayonlar semizlik normal chegaralar darajasida bo‘lsa ham boshlanadi va vazn oshgan sari kuchayadi.

Tadqiqot natijalari: Metabolomika va metabolomik diagnostika

Metabolik sindrom bilan og‘rigan bemorlarni tekshirish va tashxislash jarayonini metabolomika orqali ancha tez va samarali amalga oshirish mumkin.

Metabolomika – bu hujayralar, to‘qimalar va biologik suyuqliklarda uchraydigan barcha metabolitlarni tahlil qiluvchi fan sohasi bo‘lib, u organizmdagi metabolik jarayonlarni, kasalliklar bilan bog‘liq o‘zgarishlarni va bularga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi ekologik omillarni o‘rganishga yordam beradi. Metabolomikaning asosiy texnologiyalari

1. Mass-spektrometriya (MS) – modda massasini aniqlash orqali ularning tarkibini o‘rganish
2. Yadro-magnit rezonans (NMR) spektroskopiya – metabolitlarning kimyoviy tuzulishini o‘rganish

Metabolik sindrom holatidagi bemorlarga esa aynan metabolomikaning (Mass-spektrometriya) tekshiruvidan foydalangan holda metabolik yo‘llarning buzulishini aniqlashimiz mumkin (masalan, uglevod yoki lipid metabolizimining buzilishlari hamda insulin rezistentligini aniqlash va diabetni oldini olish)

Metabolik sindrom profilaktikasi. Metabolik sindrom kasalligini profilaktika qilishda, dastlab, profoilaktika strategiyalari ishlab chiqishimiz lozim, hususan

- Dieta va to‘g‘ri ovqatlanish
- Hayot tarzini o‘zgartirish
- Mdikomentoz va nutrosevtiklardan foydalanish

Metabolomika tekshiruvlari metabolik sindromlarning molekulyar asoslarini o‘rganish, diagnostikalash va profilaktika uchun erta aniqlash imkoniyatlarini beradi. Ushbu tadqiqotlar asosida yangi biomarkerlar topiladi va profilaktik choralar ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. Kelajakda metabolomikaning rivojlanishi metabolik sindromlarning oldini olishning yangi usullarini ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Coopen AM, Risser JA, Vash PD. Metabolic syndrome resolution in children and adolescents after 10 week of weight loss. J. Cardiometab. Syndr. 2008;3:205-210.
2. Isomaa B, Almgren P, Tuoti M et al. Cardiovascular morbidity and mortality associated with the metabolic syndrome. Diabetes Care. 2001;24:683-689.
3. Ramadhani MK, Grobbee DE, Bots ML et al. Lower birth weight predicts metabolic syndrome in young adults: The Atherosclerosis Risk in Young Adults (ARYA)-study. Atherosclerosis. 2006;184:21-27.
4. https://www.sammu.uz/ru/article/4341.

AYRIM MAHALLIY DORIVOR O'SIMLIK TURLARI EKSTRAKTLARINING VAZORELAKSANT TA'SIRINI TAVSIFLASH

Inomjanov D.R.[1], Xushmatov Sh.S.[2]
[1]Namangan davlat universiteti,
[2]O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Mavzuning dolzarbligi. Dunyo miqyosida yurak-qon tomir tizimi kasalliklari dolzarb tibbiy-ijtimoiy, iqtisodiy muammolardan biri bo'lib, mazkur yo'nalishda ilmiy-tadqiqotlar samarali terapevtik ta'sirga ega yangi avlod dori vositalarini ishlab chiqishda muhim nazariy-amaliy ahamiyatga ega. Dorivor o'simlik turlari qadimdan xalq tabobatida turli kasalliklarni davolash, oldini olish maqsadida foydalanilgan, rasmiy farmatsevtikada ko'p sondagi samarali terapevtik ta'sirga ega preparatlar asosini tashkil etadi (Shekha and Al-Habib, 2012; Tsao et al., 2023; Martin et al., 2024; Di Cesare et al., 2024).

Tadqiqot maqsadi – ayrim mahalliy dorivor o'simlik turlarining (qora andiz (*Inula helenium* L.), qizil do'lana (*Crataegus turkestanica* Pojark., Rosaceae), sariq-oq gnafalium (*Gnaphalium luteoalbum* (L.) Hilliard & B.L.Burtt) oq karrak (*Sylibum marianium* L.) o'simlik turlari ekstraktlari (solishtirish maqsadida – RK-2 polifenoli) vazorelaksant va antigipertenziv ta'sir faolligini tavsiflashdan tashkil topgan.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqotlarda standart fiziologik, biofizik uslublardan foydalanilgan, olingan eksperimental natijalarni matematik-statistik qayta ishlashda OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, Northampton, MA 01060-4401, AQSh) matematik-statistik tahlil dastur paketidan foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotlarda qora andiz (*Inula helenium* L. (*Asteraceae*), qizil do'lana (*Crataegus turkestanica* Pojark. (Rosaceae), oq karrak (*Sylibum marianum* L. (*Asteraceae*), sariq-oq gnafalium (*Gnaphalium luteoalbum* (L.) Hilliard & B.L.Burtt (*Asteraceae*) etanolli (70%) ekstraktlari (50, 100, 200 mg/kg), RK-2 polifenoli kalamush aorta qon tomiri preparatida KCl (50 mM) yordamida yuzaga keltirilgan izometrik qisqarish kuchi amplitudasini (mN) nazoratga nisbatan sezilarli darajada susaytirishi, bunda mazkur moddalarning qisqarish kuchini susaytirish yarim maksimal kontsentratsiyasi (IC_{50}) mos ravishda – 19,5, 38, 33,9, 25,9 мkg/ml va 66,1 mkM ga tengligi aniqlandi.

Qora andiz, qizil do'lana, sariq-oq gnafalium, oq karrak o'simlik ekstraktlari, RK-2 polifenolining vazorelaksant ta'siri qon tomir silliq muskul hujayralari plazmolemmasida joylashgan $Ca^{2+}{}_L$-kanali blokadasi orqali $[Ca^{2+}]_{in}$ miqdori kamayishi bilan bog'liqligi taxmin qilindi.

Qora andiz, qizil do'lana, sariq-oq gnafalium, oq karrak o'simlik ekstraktlari, RK-2 polifenolining aorta qon tomiri qon tomir silliq muskul hujayralari qisqarish faolligida Na^+/Ca^{2+}-almashuvchi (NCX) faolligiga sezilarli darajada bog'liqligi qayd qilindi.

Tajribalarda α-AR agonisti – fenilefrin (1 mkM) yordamida yuzaga keltirilgan qisqarish kuchini qora andiz, qizil do'lana, sariq-oq gnafalium, oq karrak o'simlik ekstraktlari, RK-2 polifenolining vazorelaksant ta'sirida qon tomir silliq muskul hujayralarida retseptor orqali boshqariluvchi Ca^{2+}-kanali blokadasi o'rin tutishi va bunda, RK-2 polifenolining ta'siri nisbatan yuqoriligi qayd qilindi.

Shuningdek, qora andiz, qizil do‘lana, oq karrak, sariq-oq gnafalium suvli, etanolli (70%) ekstraktlari (50, 100, 200 mg/kg) kalamushlarda ekspermental gipertenziya (adrenalin gidroxlorid, 0,25 mg/kg) sharoitida (*in vivo*) sezilarli antigipretenziv faolligiga ega bo‘lib, qon tomir silliq muskul hujayralarida β-AR→AS → sAMF → PKA reaktsiya kaskadi modulyatsiyasi bilan bog‘liqligi tahmin qilindi.Qora andiz, qizil do‘lana, sariq-oq gnafalium, oq karrak o‘simlik ekstraktlari, RK-2 polifenolining vazorelaksant, antigipertenziv faolligi qon tomir silliq muskul hujayralari plazmolemmasi, SRda joylashgan Ca^{2+}-transport tizimlari, NO→cGC→ $[cGMP]_{in}$ → PKG reaksiyalar kaskadi, β-AR → AS → sAMF → PKA reaktsiyalar kaskadi modulyatsiyasi orqali $[Ca^{2+}]_{in}$ miqdori kamayishi bilan bog’liqligi aniqlandi.

Xulosa: Shunday qilib, qora andiz (*Inula helenium* L. (*Asteraceae*), qizil do‘lana (*Crataegus turkestanica* Pojark. (Rosaceae), oq karrak (*Sylibum marianum* L. (*Asteraceae*), sariq-oq gnafalium (*Gnaphalium luteoalbum* (L.) Hilliard & B.L.Burtt (*Asteraceae*) ekstraktlari (50, 100, 200 mg/kg), RK-2 polifenoli kalamush aorta qon tomiri preparatida *in vitro* sharoitida sezilarli darajada vazorelaksant hamda *in vivo* sharoitida angipertenziv faollikka egaligi aniqlandi. Olingan natijalar mahalliy dorivor o‘simlik turlari asosida antigipertenziv farmakologik dori vositalarining yangi avlodini yaratishda foydalanilishi mumkin.

TORCH INFEKSIYALARINING - HOMILADORLIKKA TA'SIRI TAHLILLAR, DAVOLASH VA OLDINI OLISH

Rustamova P.O‘ Akbarova.M
FJSTI, TPI va JS fakulteti Tibbiy biologik ishi yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Torch infeksiyasi hozirgi kunda eng avj olib rivojlanayotgan kasallik hisoblanadi. Bu infeksiya ayollar,qizlar,erkaklar,ayniqsa,homiladorlikka tayyorlanayotgan ayollarda va homilador ayollarda keng rivojlanayotgan infeksiyadir. Infeksiyaning organizmda borligini bilish uchun IgM (Immunoglobulin M) ga analiz topshiriladi, u modda bor-yo‘qligiga qarab infeksiya aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: Torch infeksiyasi, toksoplazmoz gerpes, qizilcha, sitomegalovirus, ko‘rlik, aqliy zaiflik, IgM, IgG

Kirish. TORCH-infeksiyalar - har qanday yosh va jinsdagi odamlarga ta'sir qilishi mumkin bo‘lgan, ammo faqat homiladorlik uchun tayyorgarlik ko‘rayotgan va homilador ayollarga, homila va yangi tug‘ilgan chaqaloqlarga nisbatan qo‘llaniladigan atama. Bu guruh infeksiyalar quyidagi kasalliklarni o‘z ichiga oladi:

T — toksoplazmoz;
O — other (boshqa infetsiyalar);
R — rubella (qizilcha);
C — citomegalovirus (sitomegalovirus infeksiyasi);
H — herpes simplex virus (oddiy gerpes virusi).

Torch infeksiyalarini laboratoriyada tekshirish uchun qon tarkibidagi IgM, IgG antitanalarini tekshirish lozim, Agar antitanalar qon tarkibida bo‘lsa ham hozir bu bemor kasal ekanligini anglatmaydi.Bu ko‘rsatkich uning bir paytlar uchbu infeksiya bilan kasallanganligi va hozirda unga qarshi immuniteti borligini anglatishi mumkin.

Asosiy qism: Toksoplazmoz.

Hujayra ichida yashovchi obligat protozoy parazit. Parazitning yakuniy xo‘jayini mushuklar va mushuksimonlar oilasining boshqa vakillari sanaladi. Bundan tashqari, bu parazit atrof-muhitda keng tarqalgan va boshqa ko‘plab sutemizuvchilarda, shu jumladan odamlarda ham aniqlanadi. Dunyo aholisining uchdan bir qismidan ko‘prog‘i bu parazit tashuvchisidir.

Toksoplazmoz homila uchun jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin: Homilaning ona qornida nobud bo‘lishi; Gidrosefaliya; Mikrosefaliya; Ensefalit; Intrakranial kalsifikatsiya; Xorioretinit; Ko‘rlik; Tutqanoq; Psixomotor yoki aqliy zaiflik.

Gerpes - havo tomchilari orqali va jinsiy yo‘l bilan, shuningdek, «vertikal ravishda», ya'ni homilador onadan yo‘ldosh orqali homilaga o‘tishi mumkin.Kasallik uzoq surunkali kechish shaklida bo‘lsa, har ikki turdagi gerpes nafaqat teri va shilliq qavatlarning shikastlanishida, balki markaziy asab tizimi, ko‘zlar va ichki a'zolarda ham o‘zini namoyon qilishi mumkin.

Qizilcha - Sog‘lom odamga bemordan ko‘pincha havo tomchilari orqali yuqadigan yuqumli virusli kasallik. Qizilcha deyarli zararsiz bo‘lgan «bolalar» infeksiyasi sanalib, qoida tariqasida, bu hech qanday jiddiy oqibatlarga olib kelmaydi.Biroq agar homilador ona qizilcha yuqtirib olsa, bu zararsiz infektsiya

homilaning nobud bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Homiladorlikning dastlabki bosqichida qizilcha virusi ko‘pincha homilaning asab to‘qimalari, ko‘z to‘qimalariga va yuragiga ta’sir qiladi. Tug‘ma qizilcha sindromi quyidagicha namoyon bo‘lishi mumkin:

Tug‘ilganda tana vaznining kamligi; Ko‘zning shikastlanishi; Karlik; Tug‘ma yurak nuqsonlari; Tug‘ma aqli zaiflik.

Sitomegalovirus (CMV) - Dunyodagi eng keng tarqalgan infektsiyalardan biri, gerpes oilasining eng yashirin viruslaridan sanaladi. Sitomegalovirus bilan birlamchi infektsiyalanish homilador ayollar uchun xavflidir, chunki infeksiya rivojlanayotgan embrionga ham o‘tishi mumkin.Agar ayol ancha vaqt oldin yuqtirib olgan bo‘lib, infeksiya xuruj olmasa, virusning bo‘lajak chaqaloqqa yuqishi ehtimoli juda past.

Yangi tug‘ilgan chaqaloqlarda sitomegalovirus infeksiyasining belgilari quyidagilar:

Markaziy asab tizimi shikastlanishi; Sariq kasallik; Trombositopeniya; Bronxit; Mononukleoz; Psixomotor va aqliy zaifliklar; Progressiv karlik.

TORCH infeksiyasi uchun laboratoriya tekshiruvi vaziyatni aniqlab beradi

TORCH guruhidagi infeksiyalarning salbiy o‘ziga xosligi shundaki, ularning organizmda mavjudligi bo‘yicha alomatlar umuman kuzatilmasligi yoki kam namoyon bo‘lishi mumkin. Jumladan, toshma, isitma kabi klinik belgilardan tashxis qo‘yish qiyinchilik tug‘diradi. Shu bois eng aniq tashxislash usuli qonda immunoglobulinlarni aniqlashdir.Buning uchun qon tahlili och qoringa topshiriladi, shuningdek, tekshiruvgacha 3 hafta davomida antibakterial va virusga qarshi preparatlar qabul qilinmagan bo‘lishi lozim. Qonda IgM antitanalari infeksiyalanishdan 2-4 hafta o‘tgach paydo bo‘ladi va 3-9 oydan keyin yo‘qoladi. 3-4 haftaga kelib IgG antitanalari paydo bo‘ladi, ularning konsentratsiyasi asta-sekin ko‘tarilib, infeksiyadan 2-5 oy o‘tgach, cho‘qqiga chiqadi. IgG antitanalari qonda uzoq vaqt saqlanib turadi, ba’zan *esa* butun hayot davomida saqlanadi. Homiladorlikning 12-haftasidadn keyingi muddatlarda homilador ayolda IgM antitanalariga salbiy va IgG antitanalariga ijobiy ko‘rsatkich aniqlansa, bu holda ham IgG avidligi uchun qon tahlili zarur bo‘ladi. Chunki tahlil IgG sinf antitanalari qaysi vaqt rivojlanganligini ko‘rsatib bera olmaydi, o‘tkir infeksiya esa homiladorlikning erta bosqichlariga to‘g‘ri kelgan bo‘lishi ehtimoli mavjud.

Xulosa: Homiladorlikni rejalashtirishdan oldin, shuningdek homiladorlikning erta muddatlarida TORCH kompleksi qo‘zg‘atuvchi agentlariga nisbatan antitanalar mavjudligini aniqlash uchun qon tahlili topshirish juda muhimdir.Agar homiladorlikdan oldin ayolning qonida ushbu infeksiyalarga IgG sinfidagi antitanalar aniqlansa, ayol bemalol homilador bo‘lishi mumkin - bu infeksiya uning homilasiga tahdid solmaydi. Agar homiladorlikdan oldin TORCH kompleks infeksiyalariga ushbu antitanalar aniqlanmasa, ayol o‘zini va bolasini himoya qilishi kerak. Torch infeksiyasini yuqishini oldini olish uchun quyidagi ishlar amalga oshirilishi kerak. Mushuklar bilan aloqani (yosh mushuklar ayniqsa xavflidir) va mushuklar hojatlarini tozalashni bekor qilish, Yerga ishlov bermaslik yoki faqat qo‘lqop bilan ishlash, Ishlatishdan oldin barcha sabzavotlarni, mevalarni, ko‘katlarni yaxshilab yuvish; Xom go‘sht bilan aloqa qilmaslik, Barcha go‘shtli taomlarni yaxshilab qaynatilishi yoki qovurilishini nazorat qilish. Torch infeksiyalarini oldini olish uchun mahsulotlar:

Zanjabil, zarchava, zirk, na’matak, qalampirmunchoq, qizilmiya, chesno va qora sedana konsentrlaridan iborat bo‘lib,immunitetni mustahkamlaydi va qo‘shimcha yon ta’sirlarga ega emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Med360.uz
2. Mymedic.uz
3. Uz.delachieve.com
4. Interpretationandresearch.uz

Qarish jarayonlarining mexanizmlarini o‘rganish

Bannobov Nodirbek Marufjon o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Davolash ish yo‘nalishi,
2-bosqich talabasi

Annotasiya

Inson organizmida kechayu kunduz morfologik, kimyoviy, fiziologik o‘zgarishlar kuzatiladi.Qadimdan olimlar qarish sabablari va umrboqiylik sirlarini ochishga urinishgan, bu haqda falsafiy bahs-munozaralar yuritishgan.Qarish jarayonlarini yuzaga kelish sabablarini hozirgi maqolada yoritamiz.

Kalit so‘zlar: Gerontologiya, Qarilik, Geteroxronlik, Geterotoplik, Geterokinetik, Geterokateftenlik.

Asosiy qism: Qarish to‘liq o‘rganilmagan fundamental ilmiy muammolardan biridir.Rivojlangan mamlakatlarda har yili tibbiyotning rivojlanishi,aholining turmush darajasi va sog‘liqning yaxshilanishi tufayli keksa odamlarning ulushi ortib bormoqda.Organizmning qarishi vaqt o‘tishi bilan zaiflashadi.Inson tanasidagi organlar asosan ketma ket tizimlardan iborat.Hayotiy organlarning ishlamay qolishi bilan butun tana a’zolari o‘z faoliyatini to‘xtatadi.Biroq to‘qimalar va hujayralar parallel ravishda bog‘langan elementlardir.Bir hujayralarning o‘limi bilan organ va organizmlarning ishdan chiqishi sodir bo‘lmaydi. Degeneratsiyalangan tizimlarda vaqt o‘tishi bilan nafaqat ularning ishlamay qolish ehtimoli balki qarimaydigan holatga kelish ehtimoli ham ortdi. Qarish nazariyasi juda hilma xildir, quyida bunday nazariyaga misol uchun qarish bilan inson miyasidagi neyronlar soni kamayadi,miya hajmi kamayadi,sinapslar zichligi kamayadi.Natijada yosh bilan miya funksiyasi tobora ko‘proq buziladi va bu boshqa muhim organlarning buzilishlariga olib keladi.Oxir oqibat bu jarayonlar qarishni keltirib chiqaradi.Lekin bunday nazariya universal emas,faqat miyasi bor mavjudodlar uchun mos keladi.Keksalarda organizmni sustlashishi natijasida turli xil kasalliklar yuzaga keladi.Masalan Alsgeymer kasalligi bu kasallikda qariyalarda bosh miya po‘stlog‘i hujayralarining sustlasishi kuzatiladi.Bu kasallikning birinchi belgilari kichik –kichik narsalarni esdan chiqarib qo‘yishidan boshlanadi. Keyinchalik o‘zining qayerda ekanligini,nima qilayotganligini, kim bilan suhbatlashyotganini va yaqin kishilarini ham tanimay qolish hodisalari kuzatiladi. Qarish jarayonini ko‘p olimlar hujayraning genetic apparatidagi va oqsil biosintezidagi buzilishlar bilan bog‘lashadi.O‘zgarishlar DNKning genetic ma’lumotlar uzatish bo‘g‘inida sodir bo‘ladi.Oqsil sintezida oqsil molekulasidagi o‘zgarishlar hujayra funksiyasining buzilishiga olib keladi.O‘zgarishlar hujayrada energiyaning paydo bo‘lishi, uzatilishi va sarflanishida kuzatiladi.Hujayrada kislorodga bo‘lgan ehtiyoj kamayadi,fermentlar faolligi pasaydi.Lipidlar almashunivi ham izdan chiqib, hujayra membranasining fosfolipid tarkibi buziladi,qonda xolesterin, triglitseridlar,liporoteidlar miqdori oshib ketadi,natijada ateroskleroz rivojlanadi. Bu esa qarish jarayonini tezlashtiradi.

Mavzuning dolzarbligi: Qrish jarayoni ko‘pchilik surunkali kasalliklar va funksional buzilishlar uchun asosiy xavf omillaridir. Keksa yoshdagi insonlar guruhida kasalliklar va funksional buzililishlarni rivojlanish xavfii yuqori darajasi bir muhim ilmiy izlanishlarda o‘z aksini topgan. Qarish - bu tananing asosiy funktsiyalarini

(regenerativ, reproduktiv va boshqalar) bosqichma-bosqich ma'lumotga ega bo‘lish, buning natijasida organizm gomeostazni saqlash, stress, kasalliklar va jarohatlarga dosh berishni yo‘qotadi.O‘zbekistonda keksa yoshdagi qariyalarni Qarish jarayonining fiziologik asoslarini o‘rganish – organizmda yuz beradigan yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni (metabolizm, immun tizimi, asab tizimi va boshqa tizimlar darajasinida) tahlil qilish.Kognitiv funktsiyalarni bajarish – keksa insonlarning xotirasi, diqqat, diqqat va boshqa ko‘nitiv jarayonlardagi o‘zgarishlarni aniqlash.

Tatqiqot usullari va materiali: Tadqiqot obyekti sifatida tasodifiy tanlash orqali 50 nafar ishtirokchi tanlab olindi. Fiziologik o‘lchovlar – yoshga bog‘liq o‘zgarishlarni tahlil qilish uchun biokimyoviy tahlil(qon, yurak urish chastotasi, qon tarkibi, antioksidant daraja, gormonal o‘zgarishlar) o‘lchanadi. Psixofiziologik testlar – EEG, EKG orqali markaziy asab tizimi va boshqa muhim tizimlarning qarish jarayoniga ta'siri o‘rganiladi.

Xulosa:Biz qarish dasturini to‘xtatish mumkin bo‘lgan dunyodagi eng yaxshi laborotoriyaing so‘ngggi ilmiy tadqiqotlarni yaratish, yaratilgan yangi faktorlarni amaliyotga tadbiq etish va hujayraning molekulyar qismlarida kechuvchi jarayonlarini o‘rganib, gerontologiya fanini rivojlantirishga hissa qo‘shishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1.I.V. Davidovskiy Gerontologiya –M 1966
2.Fenyuk Boris Aleksandrovich - Gerontologiya
3.N.Hoshimov,, I.Qo‘ziyev. Qqarilik sirlari. Toshkent 2005 yil

Exokardiografiya

Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti Tibbiy profilaktik va Jamoat salomatligi fakulteti Tibbiy Biologik Ish yo‘nalishi 2223-guruh
Abdullayev Mirabbos Axrorjon o‘g‘li
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti “Ijtimoiy fanlar ” kafedrasi o‘qituvchisi
Ne’matjon Mamadaliyev

Exokardiografiya – yurakning struktural va funksional holatini aniqlash uchun qo‘llaniladigan, non-invaziv tibbiy diagnostik usul bo‘lib, u ultratovush (ultrasonografiya) texnologiyasiga asoslanadi. Ushbu metod yordamida yurakning holati, qon aylanishi va uning organlar bilan aloqasi ko‘rib chiqiladi. Exokardiografiya yurak kasalliklarini, shu jumladan yurakning kengayishi, yurak yiringlari, yurak valve kasalliklari va qon oqimi buzilishlarini aniqlashda muhim rol o‘ynaydi. Exokardiografiya, exokardiogramma, yoki oddiygina ExoKG, yurakning ultratovush tekshiruv usulidir. Bu standart ultratovush yoki Doppler ultratovush yordamida yurakni tibbiy ko‘rishning bir turi.Exokardiografiyaning asosiy afzalliklari: 1. Non-invazivlik: Jarrohlik aralashuvi yoki boshqa invaziv usullarni talab qilmaydi. 2. Tezlik va samaradorlik: Qisqa vaqt ichida to‘liq ma'lumot olish imkoniyatini beradi. 3. Yurak funksiyasining kuzatilishi: Yurakning har bir qismini, shu jumladan valve va qoni oqimining holatini baholash mumkin. 4. Keng ko‘lamdagi kasalliklar tahlili: Turli yurak kasalliklarini, jumladan, aritmiyalar, yurak mushaklari zaifligi, yallig‘lanish va qon tomirlari bilan bog‘liq muammolarni aniqlashda samarali.[1]

Exokardiyografiya gipertrofik kardiomiopatiya, boshqa kardiomiopatiyalarni aniqlashda ishlatiladi. Stress ta’sirida yuzaga kelgan holatlarni ekokardiografiyasidan foydalaniladi, shuningdek, ko‘krak qafasidagi og‘riqlar yoki ular bilan bog‘liq belgilar yurak kasalligi bilan bog‘liqligini aniqlashga yordam beradi. Ekokardiografiyaning eng muhim afzalligi shundaki, u invaziv usul emas (terini shikastlashi yoki tana bo‘shliqlariga kirmaydi) va ma’lum xavf yoki yot ta’sirga ega emas. Ekokardiogramma nafaqat yurak strukturalarining ultratovush tasvirlarini yaratishi mumkin, balki u yurak orqali oqayotgan qonni Doppler ekokardiografiya orqali, impulsli yoki uzluksiz to‘lqinli Doppler ultratovush yordamida aniq baholashga imkon beradi. Bu yurak orqali normal va anormal qon oqimini baholash imkonini beradi. Rangli Doppler, shuningdek, spektral Doppler yurakning chap va o‘ng tomonlari o‘rtasidagi har qanday g‘ayritabiiy aloqalarni, klapanlar orqali qonning har qanday oqishi (klapanlarning regurgitatsiyasi) va klapanlarning qanchalik yaxshi ochilishini (yoki ochilmasligini) aniqlash uchun ishlatiladi qopqoq stenozi holatida). Doppler texnikasi to‘qimalarning harakatini va tezligini o‘lchash uchun, shuningdek, to‘qimalarning Doppler ekokardiografiyasi orqali ham qo‘llanishi mumkin.[2]

Exokardiografiyaning turlari: 1. Tanskor (chiziqli) exokardiografiya: Yurakning asosiy strukturasini ko‘rish imkonini beradi. 2. Doppler exokardiografiyasi: Qon oqimini, shu jumladan yurak ichidagi qon bosimini baholashda qo‘llaniladi. 3. Transtorakal exokardiografiya (TTE): Yurakning tashqi qismini tekshirish uchun eng ko‘p ishlatiladi. 4. Transesofagal exokardiografiya (TEE): Yurakning ichki qismlarini yanada aniqroq ko‘rib chiqish uchun ovqat trubkasi orqali bajariladi. [3]

Qo‘llanilishi: Exokardiografiya quyidagi holatlarda keng qo‘llaniladi: Yurakdagi struktural o‘zgarishlarni aniqlash Yurak kamchiligi va uning oqibatlarini kuzatish Yurakni transplantatsiya qilish uchun tayyorgarlik Tumor va yurak yiringlarining diagnostikasi Qon oqimi va qon bosimi o‘zgarishlarini tahlil qilish[4]

Exokardiografiyaning Qo‘llanilish Sohalari 1. Yurak kasalliklarini tashxislash: Exokardiografiya yurak kasalliklarini, shu jumladan, yurak qopqog‘ining yallig‘lanishi (endokardit), yurak qismlarining kengayishi (yurak yetishmovchiligi), atrial fibrilatsiya va boshqa yurak ritmi buzilishlarini tashxislashda qo‘llaniladi. 2. Yurak kamchiligi va yurak yetishmovchiligi: Yurakning ishlashidagi buzilishlar (masalan, yurakning aniq bir qismining zaifligi) va yurak kamchiligi belgilari aniqlanadi. Exokardiografiya yordamida bu holatlar tezda tashxislanadi.

3. Koronar arteriyalarning kasalliklari: Koronar arteriyalarni stress exokardiografiyasi orqali tekshirish, ularda qon oqimi buzilishi yoki arteriya torayishini aniqlash mumkin. 4. Yurak transplantatsiyasi: Yurak transplantatsiyasi oldidan bemorning yurak funksiyalarini baholash va transplantatsiyadan keyingi monitoring uchun exokardiografiya muhim ahamiyatga ega. 5. Post-operatsion monitoring: Yurak jarrohlik amaliyotlaridan so‘ng bemorning holatini doimiy ravishda kuzatish, yurak valve yoki boshqa yurak qismlarining funksional holatini baholash uchun exokardiografiya ishlatiladi[5]

Xulosa: Exokardiografiya yurakni tekshirishda eng samarali va xavfsiz usuldir, chunki u invaziv emas va yuqori aniqlikda natijalar beradi. Shu sababli, u yurak kasalliklarini erta bosqichda aniqlashda va ularga qarshi samarali davolash rejasini tuzishda muhim diagnostik vosita sifatida xizmat qiladi.

Exokardiografiya bo‘yicha tezis yozishda foydalangan adabiyotlar quyidagicha:

1. Lafrenz, D. (2015). Cardiovascular Imaging: Noninvasive Techniques. Springer. Ushbu kitobda yurak tasvirlash metodlari, jumladan, exokardiografiya, uning texnikasi va qo‘llanilishi haqida batafsil ma'lumot berilgan.

2. Garcia, D., & Thomas, J. (2017). Echocardiography in Clinical Practice: A Guide for Cardiologists. Elsevier. Exokardiografiyaning klinik amaliyotdagi roli, yurak kasalliklarining tashxis va davolashdagi o‘rni haqida yozilgan.

3. Otto, C. M. (2018). Textbook of Clinical Echocardiography. Elsevier. Bu asar exokardiografiyaning turlari, ularning texnikasi, qo‘llanilishi va klinik diagnostikada qanday foydalanilishi to‘g‘risida batafsil tushuncha beradi.

4. Sutherland, J. M., & Jang, L. (2020). Principles of Echocardiography: Basic and Advanced Techniques. McGraw-Hill Education. Ushbu manba exokardiografiyaning texnik jihatlari, diagnostik metodlar va qo‘llanish sohalari haqida ko‘plab misollar keltiradi.

5. Neskovic, A. N., & Vukcevic, V. (2019). The Role of Echocardiography in Diagnosis and Management of Heart Disease. Springer. Yurak kasalliklarini tashxislash va davolashda exokardiografiyaning roli haqida ilmiy tahlil va tavsiyalar mavjud.

O‘PKANING NAFASGA OID BO‘LMAGAN FUNKSIYALARI

Abdujabborov Asrorbek Soxibjon o‘g‘li[1]
Sobirova Gulrux Xasan qizi[2]
[1]Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti Tibbiy profilaktik va Jamoat salomatligi fakulteti Tibbiy Biologik Ish yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
[2]Farg‘ona jamoat tibbiyot instituti, fiziologiya kafedrasi assistenti

Annotatsiya. O‘pka organizmning asosiy nafas olish organi sifatida tanilgan bo‘lsada, uning nafasga oid bo‘lmagan boshqa muhim funksiyalari ham mavjud. Ushbu funksiyalar organizmning gomeostazini saqlash, immunitetni mustahkamlash va kimyoviy moddalarning almashinuvini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu tezisda o‘pkaning ana shunday noan’anaviy funksiyalari ko‘rib chiqiladi.

Qonni filtrlash va saqlash: O‘pka qon tomir tizimi orqali mikrotromb va boshqa zararli zarrachalarni ushlab qoladi. Bu jarayon tromboemboliyalar rivojlanishini oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, o‘pka organizmdagi qon zaxirasi sifatida ham xizmat qiladi. O‘pka kapillyar tarmoqlari nafaqat gaz almashinuvi uchun muhim, balki mikroemboliyalarni to‘sib, ular boshqa organlarga yetib borishiga to‘sqinlik qiladi. Ayniqsa, yurak va miya kabi hayotiy muhim a’zolarni himoya qilishda bu jarayon katta ahamiyatga ega. Tadqiqotlarga ko‘ra, o‘pkada joylashgan endotelial hujayralar mikroqon ivintilarini eritasuvchi moddalar, masalan, fibrinolitik fermentlarni ishlab chiqaradi. O‘pkaning qon zaxiralash xususiyati esa yurak-qon tomir tizimida bosim o‘zgarishlariga qarshi tampon funksiyasini bajaradi. Bu, ayniqsa, yuqori jismoniy faollik yoki patologik holatlar (masalan, yurak yetishmovchiligi) paytida qon aylanish muvozanatini ta’minlaydi. Shuningdek, o‘pkaning qon tomir tarmog‘i katta miqdorda qon to‘planishini qabul qilib, organizmda perfuziya jarayonini muvozanatda saqlaydi. Tibbiy klinik tajribalar o‘pkaning filtratsiya funksiyasining buzilishi o‘pkada qon ivintilarining to‘planishi va natijada o‘pka emboliyasi kabi xavfli patologiyalarga olib kelishi mumkinligini ko‘rsatadi. Shu sababli, bu funksiyani chuqur o‘rganish, emboliya va yurak-qon tomir kasalliklarini oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

Kimyoviy moddalarning almashinuvi: O‘pkada angiotenzin I fermenti angiotenzin II ga aylantiriladi, bu qon bosimini tartibga solishda ishtirok etadi. Shuningdek, zararli gazlar va kimyoviy moddalar o‘pkada zararsizlantiriladi. O‘pka biologik faollikka ega bo‘lgan ko‘plab moddalar uchun asosiy modifikatsiya markazi hisoblanadi. Angiotenzin-konvertaza fermenti (ACE) faqat qon bosimini boshqarish bilan cheklanmay, balki bu ferment orqali boshqa bioaktiv moddalar ham faollashadi yoki deaktivatsiya qilinadi. Masalan, bradikinin va norepinefrin kabi moddalarning parchalanishi o‘pkaning kimyoviy barqarorlikni saqlashdagi rolini tasdiqlaydi. Shuningdek, o‘pka gaz almashinuvi jarayonida zararli moddalarni, jumladan, karbonat angidrid, ammiak va ksenobiotik birikmalarni chiqarib yuborish bilan organizmni tozalashda ishtirok etadi. Ayrim zararli gazlar va toksinlar o‘pka alveolalari orqali parchalanadi yoki organizmdan chiqariladi. O‘pka endotelial hujayralari nafaqat moddalar almashinuvida, balki organizmdagi qon-tomir va metabolik tizimlar o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatni saqlashda ham muhim rol o‘ynaydi. Bu jarayon patologik holatlar (masalan, gipertoniya yoki metabolik sindrom) rivojlanishini

sekinlashtirishda katta ahamiyatga ega. Zamonaviy ilmiy tadqiqotlar o‘pkada yallig‘lanishga qarshi va immun javobni boshqaruvchi sitokinlar ishlab chiqarilishini ham aniqlagan. Bu esa o‘pkani nafaqat kimyoviy muvozanatni saqlovchi, balki immun tizimning muhim komponenti sifatida tasdiqlaydi.

Immun himoya: O‘pkada joylashgan alveolyar makrofaglar nafas yo‘llariga kiruvchi zararli bakteriyalar va viruslarga qarshi kurashadi. O‘pka, shuningdek, sitokin va kimokinlar ishlab chiqarishda ishtirok etib, yallig‘lanishga qarshi reaksiyalarni boshqaradi. O‘pkaning immun himoya tizimi nafaqat alveolyar makrofaglar bilan cheklanib qolmaydi. O‘pkada shuningdek, dendrit hujayralar, limfotsitlar va neytrofillar kabi immun hujayralari ham faol ishlaydi. Ushbu hujayralar nafas yo‘llariga kiruvchi patogenlarga qarshi birinchi mudofaa chizig‘ini tashkil etadi.

Alveolyar makrofaglar nafaqat zararli bakteriyalar va viruslarni fagotsitoz qilish (yutish) bilan cheklanmay, balki immun tizimini ogohlantiruvchi sitokin va kimokinlar ajratadi. Bu moddalar boshqa immun hujayralarni yallig‘lanish o‘chog‘iga jalb qiladi. Shu bilan birga, o‘pkaning epitelial hujayralari mukosiliar himoya mexanizmi orqali patogen va zarrachalarni shilliq bilan birga tashqariga chiqarib yuboradi. Immun javobning muvozanatda bo‘lishi muhim, chunki haddan tashqari kuchli immun reaktsiyalar o‘pkada yallig‘lanish (masalan, pnevmoniya) yoki autoimmun kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, o‘pka sitokinlar ishlab chiqarishni boshqarish orqali yallig‘lanishga qarshi va yallig‘lanishni boshqaruvchi mexanizmlarni muvozanatlashda faol ishtirok etadi. Bundan tashqari, zamonaviy tadqiqotlar o‘pkada joylashgan “rezident limfoid to‘qimalar” mavjudligini aniqlagan bo‘lib, ular o‘pka patogenlariga qarshi tezkor va mahalliy immun javoblarni ta’minlaydi. Shu tarzda o‘pka nafas yo‘llarida immun barqarorlikni ta’minlash bilan birga butun organizm immunitetiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Issiqlik va suv muvozanatini saqlash: Nafas olish jarayonida o‘pka orqali chiqayotgan havo bilan organizm issiqlikni yo‘qotadi. Shu bilan birga, havo namlanib chiqib, organizmning suv balansini boshqarishga yordam beradi. O‘pka orqali nafas chiqarish jarayonida organizm atrof-muhitga nafaqat karbonat angidridni, balki issiqlik va namlikni ham yo‘qotadi. Havo burun yo‘llari va o‘pkaga yetib borguncha iliqlanadi va namlanadi, bu esa o‘pkaning ichki tuzilmalari uchun optimal sharoit yaratadi. Shu jarayon orqali organizmning termoregulyatsiya tizimi issiqlik almashinuvini boshqaradi. Past haroratli sharoitda nafas chiqarish orqali organizmdan chiqariladigan issiqlik miqdori ortadi, bu esa sovuqda tezroq issiqlik yo‘qotilishiga olib keladi. Shu sababli sovuq havoda nafas olish teri orqali issiqlik yo‘qotish jarayonidan keyingi asosiy yo‘nalish hisoblanadi. Bundan tashqari, harorat balansi bilan birga, o‘pka suv muvozanatini ham boshqarishda ishtirok etadi. Nafas olish jarayonida chiqayotgan har bir litr havo bilan taxminan 10-15 millilitr suv bug‘lanib organizmdan chiqariladi. Agar atrof-muhit quruq bo‘lsa, bu ko‘rsatkich yanada ortadi. Shu sababli cho‘l yoki quruq hududlarda nafas olish orqali organizmdan suv yo‘qotilishi ko‘proq bo‘ladi. Jismoniy faollik davomida bu jarayon yanada faollashadi. Nafas olish tezlashgani uchun issiqlik va suv bug‘lanish miqdori oshadi, bu esa sport bilan shug‘ullanuvchilar yoki yuqori jismoniy yuklama ostida bo‘lgan kishilarda suvsizlanish xavfini oshiradi. O‘pkaning issiqlik va suv muvozanatini boshqarishdagi bu funksiyasi organizmning gomeostazini saqlash uchun hayotiy muhim ahamiyatga ega.

Endokrin funksiyalar: O‘pka ba’zi gormonlarni ishlab chiqarishda va moddalarni faol shaklga o‘tkazishda qatnashadi. O‘pka endokrin tizimning ajralmas qismi sifatida bir qator gormonlarni ishlab chiqaradi va moddalarni faol shaklga o‘tkazishda ishtirok etadi. Bu jarayonlar organizmdagi gomeostazni saqlash va fiziologik jarayonlarni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. O‘pka orqali ishlab chiqariladigan gormonlardan biri prostaglandinlar bo‘lib, ular yallig‘lanish, qon bosimi va qon aylanishini boshqarishda muhim ahamiyatga ega. O‘pka endotelial hujayralari prostaglandinlar va tromboksanlarni ishlab chiqarib, qon tomirlarining kengayishi yoki torayishini tartibga soladi. Bu, o‘z navbatida, yurak-qon tomir tizimining muvozanatiga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, angiotenzin-konvertaza fermenti (ACE) o‘pka tomonidan ishlab chiqariladi va angiotenzin I ni angiotenzin II ga aylantiradi. Angiotenzin II esa qon tomirlarini toraytirish orqali qon bosimini oshiradi. O‘pka orqali amalga oshiriladigan bu modifikatsiya, ayniqsa, qon bosimini tartibga solishda muhim hisoblanadi. Bu jarayonni angiotenzin-renin tizimi deb ataladi, u o‘pkaning endokrin funksiyalarini tashkil etadi. O‘pka shuningdek, serotonin va katexolaminlar (adrenalin va noradrenalin) kabi boshqa biologik faol moddalarni ham ishlab chiqaradi. Bu moddalarning organizmdagi ta’siri asosan metabolizmni va stressga qarshi javobni boshqarishga qaratilgan. Masalan, adrenalin va noradrenalin nafas olish

tizimi orqali faoliyatni tezlashtiradi va organizmning energiya iste’molini ko‘paytiradi, shu bilan birga, zarur bo‘lganda energiyani saqlab qolishga yordam beradi. O‘pka ishlab chiqaradigan endotelin esa qon tomirlarining torayishini va qon aylanishini boshqaradi, bu, ayniqsa, kislorod yetishmovchiligi holatida muhimdir. Shunday qilib, o‘pkaning endokrin funksiyalari organizmdagi ko‘plab biologik jarayonlarni muvozanatlash va normallashtirishda muhim rol o‘ynaydi, bu uning faqat nafas olish funksiyasidan tashqari boshqa hayotiy vazifalarni ham bajarishiga yordam beradi.

Xulosa : O‘pka nafaqat nafas olish organi, balki organizmning umumiy holatini boshqarishda muhim rol o‘ynovchi ko‘p qirrali tuzilma ekanligini ko‘rsatadi. Uning qon filtrlash, immunitetni mustahkamlash va kimyoviy moddalarning almashinuvini ta’minlash kabi funksiyalari tibbiy biologiya va fiziologiyada alohida e’tiborga sazovor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov, A. (2010). Normal fiziologiya. Toshkent: O‘zbekiston Davlat Noshiriyoti.

2. Sultonov, S. S. (2012). Patologik fiziologiya. Toshkent: Tibbiyot nashriyoti.

3. Mirzaahmedov, M. M. (2015). Tibbiy biologiya va genetika. Toshkent: O‘zbekiston Tibbiyot Noshiriyoti.

4. West, J. B. (2012). Respiratory Physiology: The Essentials. Philadelphia: Lippincott Williams & Wilkins.

Stressning hazm qilish sistemasiga ta'siri

Nishonov Baxtiyor
Qo‘qon universtiteti Andijon filiali, assistent
Raxmadjonova Mubina
talaba, Qo‘qon universtiteti Andijon filiali

Anotatsiya: Stress inson organizmining turli tashqi va ichki ta'sirlarga javob berish jarayonidir. Bu jarayonning psixologik jihatlari insonning emotsional va ruhiy holatiga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi. Stress ijobiy yoki salbiy bo‘lishi mumkin, ammo davomiy stress holatlari organizmni izdan chiqarishi va ruhiy salomatlikka zarar yetkazishi mumkin stressning turlari, stres-afzalliklari, oldini olish, hazm qilish sistemasiga ta'siri, G retseptorlar mexanizmi, B2 va B3 retseptorlari

Annotatsion: Stress is the process by which the human body responds to various external and internal influences. The psychological aspects of this process have a significant impact on the emotional and mental state of a person. Stress can be positive or negative, but continuous stress can derail the body and damage mental health. Types of stress, stress benefits, prevention, effects on the digestive system, G receptor mechanism, B2 and B3 receptors.

Аннотация: Стресс – это процесс, посредством которого организм человека реагирует на различные внешние и внутренние воздействия. Психологические аспекты этого процесса оказывают существенное влияние на эмоционально-психическое состояние человека. Стресс может быть положительным или отрицательным, но постоянный стресс может подорвать организм и нанести вред психическому здоровью. Виды стресса, польза стресса, профилактика, воздействие на пищеварительную систему, механизм G-рецепторов, рецепторы B2 и B3.

Kalit so‘zlar: Stress, G retseptor, B2 va B3 retseptorlari, adenilatsiklaza, proteinkinaza, ATF, Th1-Th12, L1-L2 spinal segmentlar, paravertebral yo‘nalish, emotsional barqarorligi

Key words: Stress, G receptor, B2 and B3 receptors, adenylate cyclase, protein kinase, ATF, Th1-Th12, L1-L2 spinal segments, paravertebral direction, emotional stability,

Ключевое слово: Стресс, G-рецептор, B2- и B3-рецепторы, аденилатциклаза, протеинкиназа, АТФ, Th1-Th12, сегменты позвоночника L1-L2, паравертебральное направление, эмоциональная устойчивость,

Kirish. Stress - bu inson organizmining atrof-muhitdagi o‘zgarishlarga javob reaksiyasi bo‘lib, u ko‘pincha psixologik va fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Stressning psixologik ta'siri insonning ruhiy holati, emotsional barqarorligi va umumiy salomatligiga katta ta'sir ko‘rsatadi. Stress holatining ijobiy va salbiy tomonlari mavjud. Ijobiy stress insonni maqsad sari ilhomlantirishi va unga motivatsiya berishi mumkin, lekin salbiy stress uzoq davom etsa, ruhiy va jismoniy muammolarni keltirib chiqaradi. Stressning salbiy ta’siri insonning kayfiyatiga, motivatsiyasiga, ishlash qobiliyatiga va ijtimoiy munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi. Stressning kognitiv, emotsional va jismoniy ta'sirlari insonning umumiy holatiga bevosita ta'sir ko‘rsatadi. Stress shuningdek insonning ichki va tashqi muhitdagi o‘zgarishlarga nisbatan

reaksiyasi bo‘lib, unga turli faktorlar ta'sir qiladi. Stress ijobiy va salbiy bo‘lishi mumkin. Ijobiy stress (eustress) insonni rag‘batlantiradi, unga maqsadga erishish uchun kuch va motivatsiya beradi. Eustress, masalan, ishdagi yangi loyiha yoki imtihon uchun tayyorgarlik ko‘rish kabi holatlarda namoyon bo‘lishi mumkin. Salbiy stress (distress) esa, odatda, salbiy holatlar, o‘zgarishlar yoki haddan tashqari bosimdan kelib chiqadi va insonning ruhiy va jismoniy salomatligini buzishi mumkin. Salbiy stress ko‘pincha xavotir, depressiya, g‘am-tashvish, va xavf-xatarni keltirib chiqaradi. Stressning sabablarining ko‘p, jumladan:

1.Ijtimoiy va ish muammolari: Ishdagi ortiqcha bosim, muddatlar, oila a'zolari bilan munosabatlar yoki ijtimoiy aloqalar stressni keltirib chiqarishi mumkin.

2.Moliyaviy muammolar: Pul bilan bog‘liq qiyinchiliklar yoki iqtisodiy beqarorlik stressning asosiy sabablari bo‘lishi mumkin.

3.Fizikaviy salomatlik muammolari: Jismoniy kasalliklar yoki og‘ir jarohatlar ham stressni keltirib chiqaradi.

STRESSNING AFZALLIKLARI:

- insonni ishlashga va yuqori natijalarga erishishga undaydi;
- jismoniy holatni oshiradi (bu holatda odam mo‘jiza yaratishi mumkin) va intellektual ishlashni kuchaytiradi;
- asab tizimining chidamliligini oshiradi, keyinchalik har bir keyingi stress osonroq kechadi.

STRESSNING ZARARI:

- yurak-qon tomir patologiyasi rivojlanishi mumkin: yurak xuruji, qon tomir, gipertoniya, aritmiya

- uzoq davom etadigan stress bosh og‘rig‘ini keltirib chiqaradi, uyqusizlik va tushkunlikni keltirib chiqarishi mumkin;
- ishtahani kuchayishi tufayli ortiqcha vazn va semirish paydo bo‘lishi mumkin;- immunitet pasayadi, organizm infektsiyalarga juda moyil bo‘ladi. Antineoplastik immunitet buziladi, bu saraton rivojlanish xavfini oshiradi.

- salbiy ruhiy holatlarning rivojlanishi (asabiylashish, tashvish, xavotir, asabiylashish, tajovuzkorlik).

Stress ostida bo‘lgan odam aql bovar qilmaydigan (xotirjam holat bilan taqqoslaganda) harakatlarni amalga oshirishi mumkin, albatta buning sababi stress paytida odam qoniga katta miqdordagi adrenalin ajralib chiqadi.. Stress tufayli tananing barcha zaxiralari va insonning imkoniyatlari keskin o‘sib boradi, ammo ma’lum bir vaqt oralig‘ida shu holatda bo‘ladi. Hech kuzatganmisiz stress holatidagi odam aql bovar qilmaydigan xatti-harakatlarni amalga oshiradi. Masalan, Itdan qochib 5 metrli to‘siq ustidan sakragan bola. Bolani yong‘indan qutqarish uchun derazaning panjarasini ochgan otaxon. Ushbu misollar stressning favqulodda vaziyatlardagi ijobiy tomonlari hisoblanadi. Ushbu misollarda stress qisqa muddatli ta’sirga ega bo‘ladi. Ammo uzoq muddatli stress holatida aksincha holatni kuzatishimiz mumkin. Simpatik nerv sistemasining markaziy qismi C8, Th1-Th12, L1-L2 spinal segmentlarning yon shoxlarida joylashgan. Bularning barchasi birgalikda simpatik markaz yoki torakolyumbal sistema deb aytiladi.

Simpatik nerv sistemasining periferik qismi chap va o‘ng tomondagi simpatik poya (truncus sympathicus), undan chiquvchi nervlar, ichki a’zolar yonida va ichida

yotgan simpatik tugunlardan iborat. Har bir simpatik poya vegetativ tugunlardan (ganglia trunci sympathici) tashkil topgan bo‘lib, ular tugunlararo tarmoqlar (rr. interganglionares) bilan o‘zaro bog‘langan. Simpatik poyalar umurtqa pog‘onasining ikkala yon tomoni, ya’ni paravertebral yo‘nalish bo‘ylab joylashgan.

1. Hazm fermentlarini kamaytirish – SNS oshqozon osti va so‘lak bezlarining sekretsiyasini kamaytiradi, bu esa ovqat hazm qilish jarayonini sekinlashtiradi.

2. Ichak harakatlarini pasaytirish – Ichak peristaltikasi (mushak qisqarishlari) kamayib, ovqatning harakati sustlashadi.

3. Sfinkterlarning qisqarishi – Oshqozon va ichaklarning sfinkterlari qisqarib, ovqat va axlatning chiqishi qiyinlashadi.

5. Oshqozon kislotaliligini o‘zgartirish – SNS ta’sirida oshqozon shirasining sekretsiyasi pasayishi yoki oshishi mumkin, bu ba'zan gastrit va yara kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Simpatik nerv tizimi o‘z ta’sirini asosan adrenergik retseptorlar orqali amalga oshiradi. Bu retseptorlar G-protein bog‘liq retseptorlar (GPCRs) turkumiga kiradi va hujayralarda ikkilamchi xabarchilar (second messengers) orqali turli fiziologik javoblarni yuzaga keltiradi.Simpatik nerv tizimi quyidagi G-protein bog‘liq adrenergik retseptorlar orqali ta’sir qiladi:

1. α1-adrenoretseptorlar (Gq-protein bog‘liq) Ichak va oshqozon sfinkterlarini qisqartiradi, bu ovqat hazm qilishni sekinlashtiradi. Ichak devorining silliq mushaklarini bo‘shashtirib, peristaltikani pasaytiradi.2. α2-adrenoretseptorlar (Gi-protein bog‘liq) Oshqozon va ichak bezlarining sekretor faoliyatini kamaytiradi. Asosan presinaptik joylashuvda bo‘lib, noradrenalinning ortiqcha chiqarilishini tormozlaydi.3. β2-adrenoretseptorlar (Gs-protein bog‘liq) Ichak devorining silliq mushaklarini bo‘shashtirib, peristaltikani pasaytiradi. Qon tomirlarni kengaytirib, ba’zi joylarda qon aylanishini oshiradi, lekin ichaklarga borgan qon oqimi kamayadi.

Simpatik nerv tizimi G-protein bog‘liq adrenergik retseptorlar orqali hazm qilish tizimini susaytiradi. α1 va α2 retseptorlar sfinkterlarni qisqartiradi va sekretor faoliyatni kamaytiradi, β2 retseptorlar esa ichak devorining mushaklarini bo‘shashtirib, ovqat harakatini sekinlashtiradi. Bu organizmni favqulodda holatlarga moslashtirishga yordam beradi. Barchamizga ma'lumki stress paytida simpatik nerv tizimi aktivlashib hazm qilish sistemasi pasayadi. Bunga asosiy sabab mexanizmi

Gs tipidagi retseptor B2 va B3 retseptorlari aktivlashganda Adenilatsiklaza--> fermenti aktivlashishi natijasida ATF--->sAMF aktivlashib Proteinkinaza A fermenti ishlab chiqarilishi natijasida silliq mushaklar bo‘shashadi hazm qilish ko‘rsatkichi ham keskin tushib ketishi va so‘lak ajralishiga ham ta'sir qiladi jarayon natijasida hazm qilish sistemasi pasayib ishtaha ham yo‘qoladi.

Tadqiqot: Kokand university Andijon filiali talabalari bilan 2-kurs talabalaridan 6 tasi bilan o‘tkazilgan tadqiqotlar **"ZAKOVAT"** intellektual o‘yinlari boshlanishidan oldin kuzatdim va ularda stress hisobiga ishtaha ham yo‘qligi xatto qo‘rquv hayajon tufayli suv ichisholmaganini aniqladim. Davlat test markaziga kirayotgan 5 nafar talabalarda ham stress hisobiga ishtaha yo‘qligini kuzatganman. O‘sha talabalar ham hazmdagi so‘lak ajralishini kamaytirgani uchun bollarda og‘iz quriganinini, ishtaxa pasayganini stressdan keyin bazi birlarida qabziyat yuzaga kelganini aytishdi.

Xulosa: Simpatik nerv tizimi organizmning stress va favqulodda holatlarga moslashishida muhim rol o‘ynaydi. Qisqa muddatli stress insonning jismoniy va aqliy imkoniyatlarini oshirib, favqulodda harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi. Biroq, uzoq muddatli stress organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatib, jismoniy va ruhiy charchoq, shuningdek, sog‘liq muammolariga olib kelishi mumkin. Simpatik nerv tizimi hazm qilish jarayonini G-protein bog‘liq adrenergik retseptorlar orqali bostiradi. α1-adrenoretseptorlar sfinkterlarni qisqartirib, ovqat harakatini cheklaydi, α2-adrenoretseptorlar esa oshqozon va ichak bezlarining sekretor faoliyatini kamaytiradi. β2-adrenoretseptorlar ichak devorining silliq mushaklarini bo‘shashtirib, peristaltikani pasaytiradi va ichaklarga borgan qon oqimini kamaytiradi. Ushbu mexanizmlar organizmni favqulodda holatlarga moslashishga yordam beradi, lekin uzoq muddatli simpatik faollik hazm qilish tizimining buzilishiga olib kelishi mumkin. Simpatik nerv tizimi G-protein bog‘liq adrenergik retseptorlar orqali hazm qilish tizimini bostiradi. α1 va α2 retseptorlar sfinkterlarni qisqartiradi va sekretor faoliyatni kamaytiradi, β2 retseptorlar esa ichak devorining mushaklarini bo‘shashtirib, ovqat harakatini sekinlashtiradi. Bu organizmni favqulodda holatlarga moslashtirishga yordam beradi. Simpatik nerv sistemasining markaziy qismi C8, Th1-Th12, L1-L2 spinal segmentlarning yon shoxlarida joylashgan. Bularning barchasi birgalikda simpatik markaz yoki torakolyumbal sistema deb aytiladi. Simpatik nerv sistemasining periferik qismi chap va o‘ng tomondagi simpatik poya (truncus sympathicus), undan chiquvchi nervlar, ichki a’zolar yonida va ichida yotgan simpatik tugunlardan iborat. Har bir simpatik poya vegetativ tugunlardan (ganglia trunci sympathici) tashkil topgan bo‘lib, ular tugunlararo tarmoqlar (rr. interganglionares) bilan o‘zaro bog‘langan. 1. α1-adrenoretseptorlar (Gq-protein bog‘liq) Ichak va oshqozon sfinkterlarini qisqartiradi, bu ovqat hazm qilishni sekinlashtiradi. Ichak devorining silliq mushaklarini bo‘shashtirib, peristaltikani pasaytiradi.2. α2-adrenoretseptorlar (Gi-protein bog‘liq) Oshqozon va ichak bezlarining sekretor faoliyatini kamaytiradi. Asosan presinaptik joylashuvda bo‘lib, noradrenalinning ortiqcha chiqarilishini tormozlaydi.3. β2-adrenoretseptorlar (Gs-protein bog‘liq) Ichak devorining silliq mushaklarini bo‘shashtirib, peristaltikani pasaytiradi. Qon tomirlarni kengaytirib, ba’zi joylarda qon aylanishini oshiradi, lekin ichaklarga borgan qon oqimi kamayadi.

Simpatik nerv tizimi G-protein bog‘liq adrenergik retseptorlar orqali hazm qilish tizimini bostiradi. α1 va α2 retseptorlar sfinkterlarni qisqartiradi va sekretor faoliyatni kamaytiradi, β2 retseptorlar esa ichak devorining mushaklarini bo‘shashtirib, ovqat harakatini sekinlashtiradi. Bu organizmni favqulodda holatlarga moslashtirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Корыстов Ю.Н. Эмоции, стресс, курение, потребление алкоголя и рак – корреляционные и причинные связи. //Журнал ВНД им. И.П.Павлова. – 2007. №4

2. HM.Tilavov Ovqat hazm qilish va ovqatlanish fiziologiyasi. Toshkent-2011

3. Abdumurod Tilavov L .S.K uehkarova, Sh.Q .Q urbonov«Sano-standart» nashriyoti Toshkent - 2013

NATRIY VA KALIYNING INSON ORGANIZMIDAGI AHAMIYATI

G‘ofurova Dilafruzxon Musajon qizi
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Tibbiy biologik ish yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Nizomov Oybek Farux o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Gistologiya va biologiya kafedrasi o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada natriy va kaliyning inson tanasidagi bajaradigan vazifalari, ularning organizm uchun o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, ushbu elementlarning tanqisligi yoki ortiqligi sababli yuzaga keladigan kasalliklar ham ko‘rib chiqilgan. Natriy va kaliy inson tanasida nerv impulslarining uzatilishini tartibga soladi. Natriy mushak va nerv tolalari qisqarishini ta’minlaydi. Kaliy esa organizm suyuqlik muhitining asosiy elementi hisoblanadi. Bu elementlar muntazam ravishda oziq-ovqat mahsulotlari orqali qabul qilinishi juda muhim.

Kalit so‘zlar: natriy, kaliy, impuls, giponatremiya, giperkalemiya, suv-tuz balansi, oliguriya, glomerulonefrit.

Аннотация: В данной статье рассматриваются функции натрия и калия в организме человека, их роль и значение. Также описаны заболевания, возникающие при их недостатке или избытке. Натрий и калий регулируют передачу нервных импульсов. Натрий способствует сокращению мышц и нервных волокон. Калий является основным элементом жидкостной среды организма. Очень важно, чтобы эти элементы регулярно поступали в организм с пищей.

Ключевые слова: натрий, калий, импульс, гипонатриемия, гиперкалиемия, водно-солевой баланс, олигурия, гломерулонефрит.

Abstract: This article discusses the functions of sodium and potassium in the human body, their role, and significance. It also describes diseases that arise due to their deficiency or excess. Sodium and potassium regulate the transmission of nerve impulses. Sodium ensures muscle and nerve fiber contraction. Potassium is the main element of the body's fluid environment. It is crucial that these elements are regularly consumed through food.

Keywords: sodium, potassium, impulse, hyponatremia, hyperkalemia, water-salt balance, oliguria, glomerulonephritis.

KIRISH: Natriy va kaliy inson organizmi uchun muhim bo‘lgan minerallardir. Ular hujayralar faoliyatini, suv-tuz muvozanatini va nerv impulslarining uzatilishini ta’minlaydi. Organizmda bu elementlarning yetishmovchiligi yoki ortiqligi turli kasalliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shu sababli, natriy va kaliyning biologik ahamiyatini chuqur o‘rganish muhim ahamiyatga ega.

NATRIYNING AHAMIYATI: Natriy inson organizmidagi muhim mineral hisoblanadi. U osmotik bosimni saqlaydi, kislota-ishqor muvozanatini ta’minlaydi, nerv-muskul qo‘zg‘aluvchanligini tartibga soladi va elektr impulslarining uzatilishida ishtirok etadi. Natriy organizmda asab tizimining normal ishlashini, muskullarning qisqarishini va suyuqlik balansini ta’minlaydi.

Natriy eng ko‘p qon plazmasi va hujayradan tashqari suyuqlik tarkibida uchraydi. Uning konsentratsiyasi buyraklar tomonidan nazorat qilinadi. Organizm natriy manbai sifatida osh tuzidan foydalanadi. Ichakda natriyning so‘rilishiga gastrin, sekretin, xoletsistokinin va prostaglandinlar ta’sir qiladi.

Natriyning ortiqchaligi yoki tanqisligi organizmda suvsizlanish, shish va turli elektrolit buzilishlariga olib kelishi mumkin. Natriy yetishmovchiligi giponatremiya, ortiqligi esa gipernatremiya deb ataladi.

KALIYNING AHAMIYATI: Kaliy inson organizmi uchun muhim hujayra ichi elementi bo‘lib, ichki sekretsiya bezlari, qon tomirlari, nerv hujayralari, miya, buyrak, jigar va yurak faoliyatida muhim rol o‘ynaydi.

Kaliyning asosiy vazifalari:

5. Hujayra devorlarining ishlashini ta’minlash
6. Yurak fiziologik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash
7. Qon bosimini pasaytirish
8. Asab impulslarini uzatishda ishtirok etish
9. Toksinlardan organizmni tozalash

Kaliy yetishmovchiligi mushak zaifligi, uyquchanlik, arterial gipotenziya, yurak aritmiyasi va ichak harakatining sustlashishiga olib kelishi mumkin. Ortiqligi esa giperkalemiya holatini keltirib chiqaradi, bu esa yurak ritmining buzilishi, nerv-muskul qo‘zg‘aluvchanligining oshishi va suyuqlik muvozanatining buzilishi bilan namoyon bo‘ladi.

Kaliyning eng yaxshi manbalari: quritilgan mevalar, rezavorlar, don mahsulotlari, yong‘oqlar, kartoshka, ismaloq, karam, uzum, sitrus mevalari va baliq mahsulotlaridir.

XULOSA.Natriy va kaliy organizm uchun muhim elektrolitlar bo‘lib, ular organizmdagi suv balansini, nerv-muskul impulslarini va yurak faoliyatini tartibga solishda ishtirok etadi. Natriyning eng katta manbai osh tuzi bo‘lsa, kaliy meva va sabzavotlarda ko‘p uchraydi. Ushbu elementlarning tanqisligi yoki ortiqligi turli kasalliklarga sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularning organizmdagi darajasini me’yorida saqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘rayeva A.A. Majmua biokimyo (2017-2018)
2. Malikova G.Y. Mavzuga oid ma’lumotlar
3. Calorizator.ru
4. Helix.ru

SINAPS MEDIATORLARINING UMUMIY TAVSIFI

G‘ofurova Dilafruzxon Musajon qizi
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Tibbiy biologik ish yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Nizomov Oybek Farux o‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Gistologiya va biologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya. Asab tizimi organizmning muhim boshqaruv tizimlaridan biri bo‘lib, informatsiyani qabul qilish, qayta ishlash va tegishli javob reaksiyalarini shakllantirishda ishtirok etadi. Ushbu jarayon neyronlar orasidagi sinapslar orqali amalga oshadi. Sinaps mediatorlari (neyromediatorlar) nerv impulslarini uzatuvchi kimyoviy moddalardir va markaziy hamda periferik asab tizimining normal faoliyatini ta’minlaydi.

Kalit so‘zlar: sinaps, mediator, neyromediator, asetilxolin, dopamin, asab tizimi, sinaptik uzatish.

Sinaps va uning tuzilishi: Sinaps – neyronlarning boshqa neyron yoki effektor hujayralar bilan bog‘lanish nuqtasi bo‘lib, kimyoviy va elektr turlarga bo‘linadi. Kimyoviy sinapslar uch qismdan iborat:

- Presinaptik membrana – mediator ajralib chiqadigan qism.
- Sinaptik bo‘shliq – mediatorlar harakatlanadigan joy.
- Postsinaptik membrana – impulsni qabul qiluvchi qism.

Sinaps mediatorlarining asosiy turlari: Mediatorlar neyronlar faoliyatini rag‘batlantiruvchi (eksitator) va tormozlovchi (inhibitor) turlarga bo‘linadi:

- Eksitator mediatorlar: Glutamat, asetilxolin, serotonin.
- Inhibitor mediatorlar: Glitsin.

Xulosa. Sinaps mediatorlari asab tizimining muhim komponenti bo‘lib, ularning disfunktsiyasi ko‘plab nevrologik va psixologik kasalliklarning rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli, ushbu sohada ilmiy tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kandel E.R., Schwartz J.H., Jessell T.M. *Principles of Neural Science*. 5th ed. McGraw-Hill, 2012.
2. Purves D., Augustine G.J., Fitzpatrick D. *Neuroscience*. 6th ed. Oxford University Press, 2018.
3. Bear M.F., Connors B.W., Paradiso M.A. *Neuroscience: Exploring the Brain*. 4th ed. Wolters Kluwer, 2016.
4. Guyton A.C., Hall J.E. *Textbook of Medical Physiology*. 13th ed. Elsevier, 2015.
5. Squire L.R., Berg D., Bloom F.E. *Fundamental Neuroscience*. 4th ed. Academic Press, 2013.

ICHAKNING TO‘SIQ FUNKSIYASI BUZILISH MEXANIZMLARI

Yoqubova Munira O‘lmasboy Qizi
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Davolash ishi yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Sayidmirzayeva Nazokat G‘ayratjonovna
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Mikrobiologiya Virusologiya Immunologiya kafedrasi oqtuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada, ichakning to‘siq funksiyasining buzilishi va bu jarayondagi mexanizmlar tahlil qilinadi. Ichak to‘siq funksiyasi organizmning ichki muhitini himoya qilish, oziq moddalarini so‘rish va toksinlardan saqlanish uchun muhim rol o‘ynaydi. Ammo ichakning bu funksiyasi turli patologik holatlar, masalan, yallig‘lanishli kasalliklar, infeksiyalar va nevrologik kasalliklar natijasida buzilishi mumkin. Ushbu maqolada ichak to‘siq funksiyasining buzilishi bilan bog‘liq mexanizmlar, ularning patogenezi, diagnostika va davolash usullari muhokama qilinadi. Shuningdek, ichak mikrobiyotasi va uning immun tizimi bilan o‘zaro aloqalari alohida e'tiborga olinadi.

Kalit so‘zlar: ichak to‘siq funksiyasi, mikrobiota, intestinal permeabilite, immun tizimi, yallig‘lanish, patogenez, toksinlar, ichak kasalliklari, mikrobial balansi, permeabilite o‘zgarishi.

Kirish. chakning to‘siq funksiyasi – bu organizmning ichki muhitini himoya qilishda va oziq moddalarining so‘rilishini tartibga solishda muhim rol o‘ynaydi. Bu funksiyaning buzilishi bir qator kasalliklar va patologik holatlar, jumladan, yallig‘lanishli ichak kasalliklari, mikrobiota o‘zgarishlari va intestinal permeabilitening oshishi kabi muammolar bilan bog‘liq. Ichak to‘siq funksiyasi buzilganida, infektsiyalar, toksinlar va boshqa zararli moddalar organizmga o‘tib, immun tizimini qo‘zg‘atishi mumkin. Ushbu maqolada ichak to‘siq funksiyasining buzilishiga olib keladigan asosiy mexanizmlar, ularning patogenezi va klinik jihatlari ko‘rib chiqiladi. Kalit so‘zlar: ichak to‘siq funksiyasi, mikrobiyota, immun tizimi, intestinal permeabilite, patologik mexanizmlar.

Ichakning to‘siq funksiyasi va uning mexanizmi:

Ichakning to‘siq funksiyasi, asosan, ichak epiteliysi tomonidan bajariladi. Bu epiteliya qatlamida hujayralar orasidagi "tight junctions" deb nomlanuvchi tuzilma mavjud bo‘lib, ular ichakda o‘tkazuvchanlikni boshqaradi va patologik moddalarning qon aylanishiga o‘tishini oldini oladi. Ichak epiteliya hujayralari, shuningdek, kimyoviy va mikrobiologik to‘siqlar yaratish uchun juda muhim ahamiyatga ega.

Qattiq bog‘lanishlar Bu tuzilmalar epiteliya hujayralari orasidagi birikmalarni mustahkamlashga yordam beradi va ichakning permeabilitesini boshqaradi. Tight junctions, asosan, oqsillar tomonidan tashkil topgan bo‘lib, ular hujayra membranalarini birlashtiradi va ichak orqali o‘tkazuvchanlikni nazorat qiladi.

Mikrobiota: Ichakda yashovchi mikroorganizmlar, asosan, bakteriyalar, ichakni himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Normal mikrobiota balansining saqlanishi ichakning to‘siq funksiyasining samarali ishlashini ta'minlaydi.

Immun tizimi: Ichakning to‘siq funksiyasi nafaqat fiziologik, balki immun tizimining himoya funksiyalariga ham asoslanadi. Immun hujayralari va ichak epitelii o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, infektsiya va yallig‘lanishga qarshi himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Ichakning to‘siq funksiyasining buzilishi:

Ichak to‘siq funksiyasining buzilishi turli mexanizmlar orqali yuzaga kelishi mumkin. Bu buzilishlar ichakdagi permeabilitening oshishiga olib keladi, natijada zararli moddalar, bakteriyalar va toksinlar qon aylanishiga o‘tishi mumkin.

Mikrobiota o‘zgarishlari (Dysbiosis): Normal mikrobiota balansining buzilishi (dysbiosis) ichak to‘siq funksiyasini buzadi. Bakterial metabolitlar va o‘zgarishlar tight junctions oqsillarini modifikatsiya qilib, permeabilitening oshishiga sabab bo‘lishi mumkin. Bu holat yallig‘lanishli ichak kasalliklari va boshqa immun tizimi kasalliklariga olib kelishi mumkin.

Yallig‘lanish (Inflammation): Ichakda yallig‘lanish jarayonlari, masalan, yallig‘lanishli ichak kasalliklari (IBD) yoki boshqa tizimli yallig‘lanishlar tight junctionsni zaiflashtiradi. Proinflamator sitokinlar, masalan, TNF-α (Tumor Necrosis Factor-alpha) va IL-6 (Interleukin-6) tight junctions oqsillarini bartaraf qilib, intestinal permeabilite oshishiga olib keladi.

Oxidlovchi stress: Free radikallar va oksidlovchi stress ichak epiteliya hujayralarini zarar etkazib, tight junctionlar strukturasini buzadi. Bu, o‘z navbatida, permeabilitening oshishiga va ichakdagi zararli moddalar oqishiga sabab bo‘ladi.

Zararlangan epithelial hujayralar: Epiteliya hujayralarining buzilishi yoki yo‘qolishi ichak to‘siq funksiyasini zaiflashtiradi. Bu holat organizmdagi shikastlanishlar yoki ichak infeksiyalaridan kelib chiqishi mumkin.

Ichak to‘siq funksiyasining buzilishining oqibatlari:

Intestinal permeabilitening oshishi (Leaky gut syndrome): Bu holat ichakning normal himoya funksiyasining buzilishi, toksinlar va mikrobial agentlarning qon aylanishiga o‘tishiga olib keladi. Natijada immun tizimi qo‘zg‘atiladi, yallig‘lanish yuzaga keladi va turli kasalliklar rivojlanishi mumkin.

Immun tizimi kasalliklari: Buzilgan to‘siq funksiyasi va yuqori permeabilite autoimmun kasalliklar, masalan, qandli diabet, revmatoid artrit va boshqa immun tizimi kasalliklariga sabab bo‘lishi mumkin.

Immun tizimi kasalliklari: Buzilgan to‘siq funksiyasi va yuqori permeabilite autoimmun kasalliklar, masalan, qandli diabet, revmatoid artrit va boshqa immun tizimi kasalliklariga sabab bo‘lishi mumkin.

Yallig‘lanishli ichak kasalliklari: Crohn kasalligi va ulcerativ kolit kabi yallig‘lanishli ichak kasalliklari ichak to‘siq funksiyasining buzilishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu kasalliklar ichakdagi mikrobial disbalans va to‘siq funksiyasining zaiflashishi natijasida rivojlanadi.

Xulosa: Ichakning to‘siq funksiyasi organizmning himoya tizimi uchun juda muhim ahamiyatga ega. Uning buzilishi bir qator patologik holatlarning rivojlanishiga olib keladi, shu jumladan ichak kasalliklari, immun tizimi kasalliklari va yallig‘lanishli kasalliklar. Ichak mikrobiyotasi va immun tizimi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni chuqurroq o‘rganish, to‘siq funksiyasining buzilishi mexanizmlarini yanada aniqroq tushunishga imkon beradi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

10. Parvez, S., & Kang, I. (2019). "Gut microbiota and immune system interactions: Implications for intestinal permeability and disease." *Journal of Gastroenterology and Hepatology*, 34(4), 681-692.

11. Singh, P., & Miller, R. (2020). "Intestinal barrier dysfunction and its role in inflammatory bowel disease." *Inflammatory Bowel Diseases*, 26(6), 931-939.

12. Cani, P. D., & Everard, A. (2018). "The gut microbiome: From physiology to pathology." *Gut*, 67(3), 485-497.

13. Turner, J. R. (2021). "Intestinal mucosal barrier function in health and disease." *Nature Reviews Immunology*, 21(1), 1-18.

BUYRAKLAR VA SIYDIK YO‘LLARI FUNKSIYASINING REGULYATSIYA MEXANIZMLARI.

Anvarbekov Avazbek Sherzodbek O‘g‘li
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Davolash ishi yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Sayidmirzayeva Nazokat G‘ayratjonovna
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti,Mikrobiologiya Virusologiya Immunologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Buyraklar va siydik yo‘llari organizmning gomeostazini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ularning faoliyati murakkab neyrogumoral va avtonom mexanizmlar orqali boshqariladi. Ushbu maqolada buyrak va siydik yo‘llari funksiyasining jahon standartlariga mos fiziologik va patologik jihatlari, shuningdek, ularni boshqaruvchi asosiy mexanizmlar ilmiy yondashuv asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Angiotenzin-konvertaza fermenti, Miktsiya refleksi, Paratgarmon Genli halqasi.

Kirish: Buyraklar va siydik yo‘llari organizmda metabolik chiqindilarni chiqarish, suv va elektrolit balansini tartibga solish, qon bosimini boshqarish, eritropoezni rag‘batlantirish va kislota-ishqor muvozanatini saqlash kabi hayotiy jarayonlarni boshqaradi. Jahon tibbiyot standartlari buyicha, ushbu jarayonlarning me’yoriy ishlashini ta’minlash uchun buyuk neyrogumoral mexanizmlar o‘rganiladi va klinik amaliyotda qo‘llaniladi.

Buyrak funksiyasining asosiy mexanizmlari- Buyraklar faoliyati uch asosiy bosqichda amalga oshadi: Glomerulyar filtratsiya — buyrakda qon plazmasidan boshlang‘ich siydikning hosil bo‘lish jarayonidir. Ushbu jarayon quyidagi omillar bilan boshqariladi: Glomerulyar filtratsiya tezligi (GFT) — me’yorda 90-120 ml/min.Glomerulyar kapillyarlar bosimi va onkotik bosim. Afferent va efferent arteriyol tonusi (vazokonstriksiya va vazodilatatsiya).

Naychali reabsorbsiyasi va sekretsiya. Filtrlangan moddalar nefron naychalari orqali qayta so‘riladi yoki chiqariladi: Proksimal naycha: Natriy, glyukoza, aminokislotalar va suvning katta qismi qayta so‘riladi.Genle halqasi: Tuz va suvni passiv va aktiv transport orqali qayta so‘rilishi osmotik bosimni boshqaradi. Distal naycha va yig‘uvchi naylar: Natriy va suvning qayta so‘rilishi aldosteron va antidiuretik gormon (ADH) ta’sirida amalga oshadi.

Ekskresiya. Moddalar siydik orqali chiqariladi, bu jarayon organizmni metabolik chiqindilar va toksinlardan xalos etadi.

Buyrak funksiyasining neyrogumoral regulyatsiyasi. Renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAT) qon bosimi va natriy balansini boshqaruvchi eng muhim mexanizmlardan biridir: Buyraklarning yuxtaglomerulyar apparatidan renin sekretsiyasi boshlanadi.Renin plazmadagi angiotenzinogendan angiotenzin I ni hosil qiladi. Angiotenzin-konvertaza fermenti (ACE) ta’sirida angiotenzin I angiotenzin II ga aylantiriladi.

Angiotenzin II:

- Vazokonstriksiyani kuchaytiradi.
- Aldosteron sekretsiyasini rag‘batlantiradi.
- Natriy va suv reabsorbsiyasini oshiradi.
- Antidiuretik gormon (ADH)
- Gipotalamusda ishlab chiqarilib, orqa gipofiz orqali chiqariladi. ADH:
- Buyrak yig‘uvchi naychalaridagi suv o‘tkazuvchanligini oshiradi.
- Qon plazmasining osmotik bosimini pasaytiradi.
- Atrial natriyuretik peptid (ANP)
- Yurakning o‘ng bo‘lmachasida cho‘zilish reseptorlari orqali sekretsiya qilinadi. ANP:
- Natriy-ionlarning siydik orqali chiqarilishini tezlashtiradi.
- Qon bosimini pasaytiradi.
- Paratgormon (PTH) va kalsitonin
- Paratgormon: Kalsiy reabsorbsiyasini oshiradi, fosfatni esa siydik orqali chiqaradi.
- Kalsitonin: Fosfat va kalsiyning siydik orqali chiqarilishini kuchaytiradi.

Siydik yo‘llarining regulyatsiya mexanizmlari. Siydik yo‘llari faoliyati siydikni qovuqda yig‘ish va chiqarish jarayonlaridan iborat. Miktsiya refleksi- Qovuq devoridagi stretch-reseptorlar orqali refleks boshqariladi,parasempatik nerv tizimi: Qovuq mushaklarini qisqarishini ta’minlaydi. Simpatik nerv tizimi: Ichki sfinkterni qisqarishini nazorat qiladi.Volyuntar nazorat: Orqa miya va miya korteksining yuqori markazlari siydik chiqarish jarayonini ongli ravishda boshqaradi. Qon-tomir va mushak tonusining regulyatsiyasi. Siydik chiqarish jarayonida qovuq devori, uretra va sfinkterlarning sinxron ishlashi muhimdir.

Jahon standartlari bo‘yicha diagnostika va davolash. Buyrak va siydik yo‘llari funksiyalarini baholashda quyidagi standart diagnostika usullari qo‘llaniladi: laborator tahlillar:

14. GFTni baholash uchun kreatinin klirensi yoki tsistatin-C darajasini aniqlash.
15. Qon va siydik elektrolitlari konsentratsiyasi.
16. Instrumental diagnostika: UZT, MRI, CT orqali anatomik va funktsional o‘zgarishlarni aniqlash.
17. Biopsiya: buyrak parenximasidagi morfologik o‘zgarishlarni o‘rganish.

Davolash jahon standartlariga mos ravishda etiologik, patogenetik va simptomatik yondashuvlar orqali amalga oshiriladi. Misol uchun: Gipertenziya: RAATni inhibe qiluvchi ACE-inhibitorlari yoki ARB preparatlari Suyuqlik ushlanishi: Diuretiklar (furosemid, spironolakton).

Giperkalemiya: Kayeksalat yoki dializ.

Natriy va suv reabsorbsiyasi. Buyraklar organizmdagi natriy va suv miqdorini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Agar qonda ortiqcha natriy bo‘lsa, buyraklar uni chiqarish uchun siydik orqali chiqaradi. Bunda aldosteron va ADH gormonlari ishtirok etadi. Aldosteron, buyreklarning distal tubulyar va kollektor kanalida natriy qayta so‘rishni oshiradi, bu esa organizmdagi natriy va suvni saqlashga yordam beradi.

pH Balansining saqlanishi. Buyraklar organizmning pH darajasini nazorat qilishda muhim rol o‘ynaydi. Qonda ortiqcha kislotalar bo‘lsa, buyreklar vodorod ionlarini chiqaradi va bikarbonat ionlarini qayta so‘radi. Aksincha, agar qon pH darajasi asosiy bo‘lsa, buyreklar bikarbonat ionlarini chiqaradi va vodorod ionlarini qayta so‘radi.

Gormonlar ishlab chiqarish. Buyraklar bir qator muhim gormonlarni ishlab chiqaradi:

- **Eritropoetin**: Bu gormon qonda kislorod miqdori pasayganda qizil qon hujayralarini ishlab chiqarishni stimulyatsiya qiladi.
- **Kalsitriol**: Bu gormon kalsiy ionlarining so‘rilishini oshiradi va suyaklarni mustahkam qiladi.
- **Prostaglandinlar**: Prostaglandinlar buyraklardagi qon tomirlarini kengaytirib, filtratsiya tezligini oshiradi.
- **Sekretsiya Mexanizmi**

Buyraklar orqali moddalarning sekretsiyasi - bu qonda ortiqcha yoki zararli moddalarni buyreklarning tubulyar qismlariga chiqarish jarayonidir. Sekretsiya natijasida, masalan, kaliy, ammoniya va boshqa moddalar siydik orqali chiqariladi. Bu jarayon homeostazni saqlash uchun zarur bo‘lib, pH muvozanatining saqlanishida ham muhim rol o‘ynaydi.

Xulosa. Buyraklar va siydik yo‘llari funksiyasining regulyatsiyasi organizm gomeostazini ta’minlashda markaziy ahamiyatga ega. Jahon standartlariga ko‘ra, bu tizimlar neyrogumoral, avtonom va fiziologik mexanizmlar orqali murakkab ravishda boshqariladi. Regulyatsiya jarayonlaridagi buzilishlar turli kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi. Ushbu mexanizmlarni chuqurroq o‘rganish zamonaviy tibbiyotda diagnostika va davolash strategiyalarini rivojlantirish uchun asos yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Guyton, A.C., & Hall, J.E. (2016). *Textbook of Medical Physiology* (13th ed.). Elsevier.

buyreklar va siydik yo‘llari tizimining fiziologiyasi va ularning reglamentatsiya mexanizmlari haqida to‘liq va batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

- Boron, W.F., & Boulpaep, E.L. (2016). *Medical Physiology* (3rd ed.). Elsevier.

buyraklarning funksiyalari va ularni boshqarish mexanizmlari, shuningdek, homeostazni saqlashdagi roli haqida chuqur tahlil berilgan.

- Giebisch, G., & Kleyman, T.R. (2017). *Renal Physiology: Mosby Physiology MonographSeries*.Elsevier.

Bu manbada buyreklar va siydik yo‘llarining funksiyalarini nazorat qilish mexanizmlari, shu jumladan renin-angiotenzin-aldosteron tizimi va boshqa homeostatik mexanizmlar haqida batafsil tushuntirishlar mavjud.

- Marshall, W.J., & Bangert, S.K. (2016). *Clinical Biochemistry* (6th ed.). Elsevier.

NIKOTINNING MARKAZIY NERV SISTEMASIGA TA'SIRI

Ismatullayeva Nazira Sharobiddin qizi
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Davolash ishi yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sobirova Gulrux Xasanovna
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Fiziologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada nikotinning markaziy nerv tizimiga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Nikotinning nevrologik faol modda sifatida organizmga salbiy ta'siri, jumladan, dopamin ishlab chiqarishga va neyrotransmitterlar tizimiga ta'siri bayon etiladi. Shuningdek, uning giyohvandlik va boshqa sog‘liq muammolariga sabab bo‘luvchi ta'sirlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: nikotin, markaziy nerv tizimi, dopamin, sinaptik uzilishlar, giyohvandlik, uyqu buzilishlari.

Kirish: Nikotinning ta’sir mexanizmini tushunish, ayniqsa, markaziy nerv tizimida, sog‘liqni saqlash sohasida muhimdir. Nikotin – tamaki o‘simligida topilgan alkaloid bo‘lib, kuchli neyroaktiv moddadir. Uning organizmga ta'siri fiziologik va psixologik jihatdan murakkab bo‘lib, markaziy asab tizimining faoliyatiga sezilarli ta’sir qiladi. Markaziy nerv tizimi bosh miya va orqa miyadan iborat bo‘lib, uning asosiy vazifasi organizmdagi barcha tizimlarni boshqarish va muvozanatni ta'minlashdir. Nikotinning neyronlar faoliyatiga ta'siri tufayli bu muvozanat buziladi, bu esa organizmning butun tizimlariga salbiy ta'sir ko‘rsatadi.

Asosiy qismi: Nikotinning markaziy nerv tizimiga ta’siri Nikotinning markaziy nerv tizimidagi ta'siri sinaptik uzilishlar va neyrotransmitterlar orqali amalga oshadi. Nikotin nikotinik xolinergik retseptorlar (nAChRs) bilan bog‘lanib, asosan dopamin ajralishini oshiradi. Dopaminning ortishi esa zavq va mukofot hissini kuchaytiradi, bu esa nikotinga qaramlikka olib keladi. Nikotinning birinchi ta’siri neyronlararo qo‘zg‘alishni kuchaytirsa, uzoq muddatli ta’siri nerv hujayralarining faoliyatini pasaytiradi, bu esa organizmning umumiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Ko‘p sigaret chekadigan kishilarda uyqusizlik, bosh og‘rig‘i va depressiya kabi muammolar kuzatiladi. Bunga nikotinning markaziy nerv tizimidagi serotonin va norepinefrin kabi neyrotransmitterlar ishlab chiqarishiga salbiy ta’siri sabab bo‘ladi.

Yurak-qon tomir va nafas olish tizimlariga ta’siri

Nikotinning yurak-qon tomir tizimiga ta'siri ham jiddiy bo‘lib, u qon tomirlarini toraytiradi va arterial bosimni oshiradi. Bu yurakning ishdan chiqishiga, oxir-oqibat esa yurak infarkti yoki stenokardiyaga olib kelishi mumkin. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, chekuvchilarda yurak xastaliklari chekmaydiganlarga nisbatan 12 barobar ko‘proq uchraydi. Nikotinning nafas olish tizimiga ta’siri o‘pkada surunkali kasalliklar, jumladan, bronxit va o‘pka saratoni rivojlanishiga olib keladi. Tamaki tutunidagi zaharli moddalarning uzoq muddatli ta’siri o‘pka to‘qimalarining qaytarib bo‘lmas darajada zararlanishiga sabab bo‘ladi.

Uyqu buzilishlari va ruhiy salomatlikka ta’siri: Chekish uyquning sifatiga jiddiy salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Uyqu buzilishlari, jumladan, uyqusizlik va uyqu apneasi, nikotinning neyroaktivligi bilan bog‘liq. Nikotin uyquga javob beruvchi

neyrotransmitterlar ishini izdan chiqaradi, bu esa yurak kasalliklari, semizlik va depressiya kabi boshqa kasalliklarni rivojlantiradi.

Giyohvandlik va nikotin qaramligi: Nikotinga qaramlik inson psixologik va jismoniy salomatligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi. Nikotin retseptorlarini rag‘batlantirish orqali zavq hissini oshiradi, bu esa foydalanuvchida doimiy iste'mol istagini kuchaytiradi. Bu odatni engish qiyin bo‘lib, insonning butun hayotini qamrab olishi mumkin.

Profilaktika va davolash: Nikotinning zararli ta'siridan himoyalanish uchun quyidagilar tavsiya etiladi: 1. Chekishni tashlash bo‘yicha dasturlar: Psixologik yordam va nikotinga qaramlikka qarshi preparatlarni qo‘llash samarali usullardan biridir. 2. Ta’lim va axborot targ‘iboti: Chekishning zararli oqibatlari haqida xabardorlikni oshirish orqali yoshlar va aholining boshqa qatlamlarini himoya qilish mumkin. 3. Fizik mashqlar va sog‘lom turmush tarzi: Fizik mashqlar nafaqat nikotinga bo‘lgan qaramlikni kamaytiradi, balki organizmning umumiy salomatligini tiklashga yordam beradi.

Xulosa: Nikotinning markaziy nerv tizimiga ta’siri murakkab va ko‘p qirrali. U nafaqat organizmning funksional holatiga, balki insonning ruhiy va jismoniy salomatligiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Nikotinga qaramlikni oldini olish va davolash choralarini ko‘rish hozirgi davrda dolzarb vazifalardan biridir.

YURAK ISHEMIK KASALLIGI VA ARTERIAL GIPERTENZIYA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TADQIQOTLAR

Ismatullayeva Nazira Sharobiddin qizi
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Davolash ishi yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sobirova Gulrux Xasanovna
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Fiziologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurak ishemik kasalligi (YIK) va arterial gipertenziyaning (AG) rivojlanish sabablari, patogenezi va zamonaviy davolash usullari yoritilgan. YIK va AGning o‘zaro bog‘liqligi, genetik predispozitsiya, biomarkerlar, endotelial disfunktsiya va ateroskleroz kabi patofiziologik omillar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy farmakoterapiya, interventsion usullar va profilaktik choralar jahon standartlari asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yurak ishemik kasalligi, arterial gipertenziya, ateroskleroz, biomarkerlar, genetik predispozitsiya, zamonaviy davolash, renin-angiotenzin tizimi.

Kirish: Yurak-qon tomir kasalliklari global salomatlik tizimi uchun eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotlariga ko‘ra, yurak ishemik kasalligi (YIK) va arterial gipertenziya (AG) har yili 18 milliondan ortiq o‘lim holatiga sabab bo‘ladi. Ushbu patologiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning kombinatsiyasi yurak-qon tomir tizimi faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi. YIK va AG rivojlanishida ko‘plab omillar, jumladan, ateroskleroz, endotelial disfunktsiya, oksidlovchi stress, genetik predispozitsiya va yallig‘lanish jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola ushbu patologiyalarning zamonaviy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan diagnostik va davolash usullari bo‘yicha ilmiy tahlilni taqdim etadi.

Yurak ishemik kasalligi tiologiya va patogenezi

Etiologiya va patogenezi

YIKning asosiy sababi koronar arteriyalarda aterosklerotik jarayonlarning rivojlanishi bo‘lib, bu holat miokardga kislorod yetkazib berilishining buzilishiga olib keladi. Patogenezi quyidagilar bilan izohlanadi: Endotelial disfunktsiya: Azot oksidi (NO) ishlab chiqarilishining kamayishi arteriyalarning torayishi va ateroskleroz rivojlanishiga olib keladi. Lipid disbalansi: Past zichlikdagi lipoproteinlarning (PZLP) ortishi xolesterin plitalarining arteriya devorlarida to‘planishiga sabab bo‘ladi.

Yallig‘lanish jarayonlari: C-reaktiv oqsil (CRP) va interleykin-6 kabi biomarkerlarning ortishi aterosklerotik jarayonni kuchaytiradi.

Genetik predispozitsiya: PCSK9 va APOE genlaridagi mutatsiyalar yuqori xolesterin va tomir kasalliklarini rivojlantirish xavfini oshiradi.

Arterial gipertenziya

Etiologiya va patogenezi

AGning rivojlanishida murakkab mexanizmlar ishtirok etadi: Renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS): RAASning giperfaolligi tomirlarning torayishi va suyuqlik zaxirasining ortishiga olib keladi. Endotelial disfunktsiya: NO sintezining pasayishi arterial bosimning oshishiga sabab bo‘ladi. Buyrak mexanizmlari:

Gipernatriemiya va suyuqlik ushlanishi qon hajmining ortishiga olib keladi. Genetik predispozitsiya: AG rivojlanishida ACE genidagi polimorfizmlar muhim rol o‘ynaydi.

YIK va AGning o‘zaro bog‘liqligi

AG YIK rivojlanishining asosiy xavf omillaridan biri bo‘lib, quyidagi mexanizmlar orqali patologiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi:

Arterial gipertenziya koronar arteriyalardagi gidrodinamik bosimni oshiradi va ateroskleroz jarayonini tezlashtiradi. Gipertenziya endotelial disfunktsiyaga olib keladi, bu YIK rivojlanishini qo‘zg‘atadi. Miokard gipertrofiyasi gipertenziyaning uzoq davom etuvchi asoratlaridan biri bo‘lib, bu yurak yetishmovchiligiga olib keladi.

Zamonaviy davolash usullari. Statinlar: Xolesterin darajasini pasaytirib, aterosklerozni oldini oladi. pasaytiradi. ACE ingibitorlari va ARBlar: RAAS faoliyatini blokirovka qilib, qon bosimini pasaytiradi va endotelial funksiyani yaxshilaydi.

Interventsion usullar

Koronar angioplastika: Aterosklerotik blokadalarni bartaraf etib, miokardga qon yetkazilishini tiklaydi.

Stentlash: Koronar arteriyalarni mexanik kengaytirish uchun ishlatiladi.

Bypass operatsiyasi: Miokardga qon oqimini qayta tiklash uchun qo‘llaniladi.

Profilaktik chora-tadbirlar. Sog‘lom turmush tarzi: Jismoniy faollikni oshirish va nosog‘lom ovqatlanish odatlarini kamaytirish.

Stressni boshqarish: Psixologik yordam gipertenziya xavfini kamaytiradi.

Biomarkerlar monitoringi: CRP va lipid profili yordamida kasallik xavfini erta aniqlash.

Zamonaviy tadqiqotlar. Yangi tadqiqotlar genetik diagnostika va biomarkerlarni kasallikni boshqarishning muhim qismi sifatida tavsiya qilmoqda. CRISPR texnologiyasi yordamida genetik predispozitsiyani aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, yangi dori vositalari, jumladan, PCSK9 ingibitorlari va SGLT2 agonistlari YIK va AG davolashda yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda.

Xulosa. Yurak ishemik kasalligi va arterial gipertenziya global sog‘liqni saqlash tizimida asosiy xavf omillari bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar bu kasalliklarning patogenezi va davolash usullarini yaxshilashda muhim hissa qo‘shmoqda. Profilaktika, erta diagnostika va innovatsion davolash usullaridan foydalanish orqali kasalliklarning xavfini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Libby P. "Atherosclerosis: Biology and Clinical Perspectives." The Lancet, 2022.
2. Yusuf S. "Hypertension and Cardiovascular Outcomes." New England Journal of Medicine, 2023.
3. WHO. "Global Burden of Cardiovascular Diseases: 2023 Report."
4. Braunwald E. "Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine." 12th Edition, 2023.

MITOXONDRIYANING FUNKSIONAL FAOLIYATIDA QANDLI DIABET SABAB BO‘LGAN O‘ZGARISHLAR

Qodirova Nozimaxon Muhammadjon qizi[1]
Sobirova Gulrux Xasan qizi[2]
[1]Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, davolash ishi 2-bosqich talabasi
[2]Farg‘ona jamoat tibbiyot instituti, fiziologiya kafedrasi assistenti

Annotatsiya. Qandli diabet bugungi kunda dunyoning ko‘plab mamlakatlarida eng keng tarqalgan endokrin patologiya hisoblanadi. Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda diabetdan o‘lim darajasi har yili 4% ga etadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkilotining 2030 yilga bo‘lgan prognozi shuni ko‘rsatadiki, diabet dunyoda o‘lim sabablari reytingida ettinchi kasallik bo‘ladi [1].

Hujayra darajasida qandli diabet, boshqa ko‘plab metabolik anomaliyalar kabi, mitoxondriyalarning tuzilishi va funktsiyasidagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma'lumki, glyukoza organizmning aksariyat hujayralari va to‘qimalarida energiya manbai bo‘lib xizmat qiladigan asosiy molekulalardan biridir. Shu munosabat bilan glyukozani qabul qilishning buzilishi hujayradagi energiya almashinuvini va, natijada, metabolizmning asosiy ishtirokchisi sifatida mitoxondriyaning ishlashini buzadi. Qandli diabet davrida mitoxondriyal disfunktsiyaning rivojlanishi birinchi marta 45 yil oldin tasvirlangan [2]. Shu bilan birga, qandli diabetda mitoxondriyalarga zarar etkazadigan molekulyar mexanizmlar haqidagi hozirgi ma'lumotlar juda ziddiyatli. Bu, ayniqsa, mitoxondriyal o‘tkazuvchanlikka o‘tish (MPT) teshiklarining ochilishi deb ataladigan patofiziologik hodisaga taalluqlidir, bu mitoxondriyadan proapoptotik oqsillarni chiqarishni qo‘zg‘atishi va oxir-oqibat hujayra o‘limiga olib kelishi mumkin. Ushbu sharh I va II turdagi diabetda mitoxondriyalarda yuzaga keladigan murakkab o‘zgarishlarga, shuningdek, mitoxondriyal disfunktsiyani va patologiyaning rivojlanishini bog‘laydigan o‘ziga xos mexanizmlarga qaratilgan. Qandli diabetda mitoxondriyal disfunktsiyaning rivojlanishida Ca^{2+} va MPT po‘stlog‘ining roliga alohida e'tibor qaratiladi Qandli diabetning 1 va 2 turida glyukozadan g‘ayritabiiy foydalanish energiya almashinuvining "o‘zgarishi" ga olib keladi: hujayralar o‘zlarining energiya ehtiyojlarini asosan yog‘ kislotasi b-oksidlanishi orqali to‘ldirishni boshlaydilar. Qandli diabetning ikki turi uchun bu sodir bo‘lish mexanizmlari har xil bo‘lsa-da, oxir-oqibat har ikkala holatda ham yog‘li kislotalarni qabul qilish va ulardan foydalanish ko‘payadi. Plazmadagi erkin yog 'kislotalari darajasining oshishi va ularning II-toifa diabetdagi hujayralar tomonidan o‘zlashtirilishi glyukozaning insulinga bog‘liq so‘rilishini yanada pasaytiradi. Bunga parallel ravishda glyukoneogenezning yuqori tezligi kuzatiladi [3]. Oxir oqibat, bu hujayralardagi ATP sintezi asosan uglevodlar almashinuvi emas, balki yog 'kislotalarining oksidlanishi tufayli sodir bo‘lishiga olib keladi.

Ma'lumki, mitoxondriyal nafas olish zanjirining alohida komplekslari ATP sintezining samaradorligini oshiradigan superkomplekslar deb ataladigan ko‘p fermentli birikmalarga birlashishga qodir. Mitoxondriyal superkomplekslar tuzilishining beqarorligi mitoxondriyal nafas olish va oksidlovchi fosforlanishning buzilishiga yordam berishi mumkin. 2-toifa qandli diabet bilan og‘rigan bemorlarning to‘qimalarida I-III-IV respirator superkompleksini yig‘ish darajasi nazorat bilan

solishtirganda kamayganligi aniqlandi [4]. Shunga o‘xshash o‘zgarishlar yuqori xolesterinli dieta bilan oziqlangan diabetik sichqonlarda ham ko‘rsatildi. Bu hayvonlarda mitoxondrial holat 3 nafas olish tezligi, mitoxondriyal membrana potentsialining qiymati va jigar mitoxondriyalarida nafas olish superkomplekslarining yig‘ilishi kamaydi [5]. Ba'zi tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, diabet tufayli nafas olish zanjiri komplekslari faoliyatining pasayishi ichki mitoxondriyal membranadagi asosiy anion fosfolipid bo‘lgan kardiolipin tarkibining pasayishi yoki tarkibining o‘zgarishi (peroksidlanishi) bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin

Xulosa. uqorida aytib o‘tilganidek, diabetning rivojlanishi hujayralar va hujayra ichidagi membranalar ichida erkin yog‘ kislotalarining to‘planishi bilan birga keladi. Mitoxondriyalarda bu nafas olish va oksidlovchi fosforillanishning uzilishiga, shuningdek, ATP ishlab chiqarishning kamayishiga olib kelishi mumkin [6].

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon Sog‘liqni saqlash tashkiloti. *Qandli diabet bo ‘yicha global hisobot* ; JSST matbuoti, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti: Jeneva, Shveytsariya, 2016

2. Prasun, P. Metabolik sindromda mitoxondriyal disfunktsiya. *Biochim. Biofizika. Acta Mol. Asos Dis.* 2020 , *1866* , 165838.

3. Petersen, KF; Narxi, TB; Bergeron, R. Jismoniy mashqlar paytida aniq jigar glikogenolizi va glyukoneogenezni tartibga solish: 1-toifa diabetning ta'siri. *J. Klin. Endokrinol. Metab.* 2004 , *89* , 4656–4664. Antun, G.; Makmurrey, F.; Qo‘ziqorin, AB; Patten, DA; Peixoto, AC; Slack, RS; Makferson, R.; Dent, R.;

4. Harper, ME. Mitoxondriyal oksidlovchi fosforillanish va diabetik semiz odamlarning to‘g‘ri qorin mushaklarida superkompleks birikmasi buzilgan. *Diabetologia* 2015 , *58* , 2861-2866.

5. Solsona-Vilarrasa, E.; Fucho, R.; Torres, S.; Nunes, S.; Nuno-Lambarri, N.; Enrich, C.; Garsiya-Ruis, C.; Fernández-Checa, JC Jigar mitoxondriyalarida xolesterinni boyitish oksidlovchi fosforlanishni buzadi va nafas olish superkomplekslarining yig‘ilishini buzadi. *Redoks Biol.* 2019 , *24* , 101214.

6. Makrecka-Kuka, M.; Liepinsh, E.; Myurrey, AJ; Lemieux, H.; Dambrova, M.; Tepp, K.; Puurand, M.; Kaambre, T.; Xan, WH; de Goede, P.; va boshqalar. Insulinga chidamli yurakda mitoxondriyal metabolizmning o‘zgarishi. *Acta Physiol.* 2020 , *228* , e13430.

STRESS VA UNING ORGANIZMGA TA’SIRI

B.B.Nishanov, F.A.Mirzakamolova
Kokand University Andijon filiali

Kalit so‘zlar: Yurak-qon tomir tizimi, immunitet, stress, xotira, ichak kasalligi, Gq retseptor.

Mavzuning dolzarbligi: Xar qanday ichki yoki tashqi turtki, tabiiy reaktsiyalarni o‘z ichiga olgan holat, stress sifatida tan olinadi. Ushbu bosimlarga javoban organizm tomonidan ko‘rsatiladigan kechiktiruvchi reaktsiya stress reaktsiyalari deb ataladi.

Stress ko‘plab kasalliklarga, jumladan, yuqori qon bosimi, plazmadagi kortizolning oshishi, yurak va yurak-qon tomir kasalliklari, yallig‘lanishli ichak sindromlari, 2-toifa qandli diabet hamda saraton bilan og‘rigan bemorlarning hayot sifatining pasayishiga sabab bo‘lmoqda.

O‘zbekistonda stressning aholi salomatligiga ta'siri sezilarli darajada bo‘lib, bu turli kasalliklarning rivojlanishiga olib kelmoqda.

Global Mind loyihasining 2024-yilgi tadqiqotiga ko‘ra, O‘zbekiston aholisi orasida stress va ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolar keng tarqalgan. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston ushbu reytingda eng past ko‘rsatkichga ega bo‘lib, 71 mamlakat orasida so‘nggi o‘rinni egallagan.

Shuningdek, aholining 32% stress va ruhiy salomatlik bilan bog‘liq muammolardan aziyat chekmoqda. Stressning organizmga salbiy ta'siri turli kasalliklarning rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Masalan, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari stress bilan chambarchas bog‘liq. 2022-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda yurak-qon tomir tizimi kasalliklari bilan yangi tashxis qo‘yilgan bemorlar soni 1 181,8 ming kishini tashkil etganini ko‘rishimiz mumkin.

Tashvish miyada boshlanib, butun organizmga ta’sir qiladi. Og‘ir stress reaktsiyalari organizmning turli tizimlari (asab, yurak-qon tomir, avtonom, immun va metabolik tizimlar) orqali moslashuv va omon qolish mexanizmlarini ishga tushiradi. Doimiy stress esa bu jarayonlarni kuchaytirishi va patologik holatlarga olib kelishi mumkin.

Hayotdagi qiyinchiliklarni yengib o‘ta olmaslik natijasida kortikosteroidlar sekretsiyasining ortishi kuzatiladi, bu esa depressiya, qorin sohasida yog‘ to‘planishi, osteoporoz va yurak-qon tomir muammolariga olib kelishi mumkin .

Selenoprotein ishlab chiqarishning buzilishi miya tuzilishining degenerativ o‘zgarishlariga sabab bo‘lishi mumkin, natijada Cerebro-Cerebellar Atrophy (PCCA) kabi kasallik rivojlanadi, bu esa muhim nevrologik buzilishlarni keltirib chiqaradi. Kasallik rivojlanishi davom etar ekan, ikkilamchi alomatlar, masalan, postural beqarorlik, yutish va nafas olish qiyinligi, uyqu buzilishi, depressiya va demensiya yuzaga keladi.

Stress va Xotira. Stress neyron yo‘llari va miyaning turli tizimlariga ta’sir qiladi, bu esa episodik xotira uchun muhim hisoblanadi. Masalan, stress avvalo prefrontal korteksdagi dopamin va noradrenalin miqdorining oshishiga olib keladi. Uzoq muddatli stress gipokampusdagi piramidal neyronlarning qisqarishiga sabab bo‘lishi

mumkin, bu esa uzoq muddatli xotiraning pasayishiga olib keladi .Ko‘plab tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, stress xotirani shakllantirish va tiklash jarayonlariga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tadqiqot maqsadi: Turli kasb vakillarida stress darajasi va uni organizmning fiziologik tizimlariga (yurak-qon tomir, asab, gormonal va immun tizimlariga) ta’sirini aniqlash.

Tadqiqot usullari va materiallar : Tadqiqot obyekti sifatida tasodifiy tanlash orqali 25 nafar ishtirokchi tanlab olindi.

Stress darajasini baxolash uchun Perceived Stress Scale (PSS), DASS-21 (Depression, Anxiety, Stress Scale) anketalar qo‘llanildi. Bundan tashqari ishtirokchilarning fiziologik ko‘rsatkichlarini o‘lchash usullari ham qo‘llanildi. Olingan natijalar SPSS statistic dasturi yordamida tahlil qilindi.

Natijalar: Ishtirokchilarga stress bilan bog‘liq odatiy muammolarni aniqlash uchun maxsus so‘rovnoma topshiriladi. So‘rovnoma quyidagi mezonlarni o‘z ichiga oladi

- Subyektiv stress darajasi (1 dan 10 gacha baholash)
- Ish yuklamasi va ish muhitidagi stress omillari
- Uyqu sifati (uyqusizlik, kechasi tez-tez uyg‘onish)
- Ovqatlanish odatlari (ishtahaning ortishi yoki pasayishi)
- Ich kelish muammolari (tez-tez diareya yoki ich qotishi)

Yurak urish tezligi (HR) va qon bosimi (BP) yuqori stress darajasida oshgani kuzatildi, ayniqsa ichki ishlar xodimlari va shifokorlarda yuqori ko‘rsatkichlar qayd etildi (19ta).

Kortizol darajasi – stress gormoni bo‘lib, shifokorlar va ichki ishlar xodimlarida eng yuqori bo‘ldi (18-20 μg/dL) (3ta).

EKG natijalari – yuqori stress darajasida yurak ritm buzilishi (taxikardiya, ST depressiyasi) kuzatildi (4ta).

Ich kelish muammolari – stress oshganda ichak peristaltikasi buzilishi sababli diareya yoki ich qotishi ko‘paydi (16ta).

Ishtaha buzilishi – yuqori stress ostida odatda ishtaha kamaydi, talabalar esa aksincha, ortiqcha ovqatlanishga moyil bo‘ldi (23ta).

Gq-retseptorlar bilan bog‘liq tahlil. Fiziologik ko‘rsatkichlarda yuzaga kelyotgan muammolar Gq proteinlik retseptorning qo‘zgalishi natijasida yuzaga kelyotganini ko‘rishimiz mumkin va quyidagicha asoslaymiz.

Gq-retseptorlar stressga javoban faollashadigan adrenergik retseptorlar bilan bog‘liq. Stress paytida:

Katexolaminlar (adrenalin, noradrenalin) ajraladi, bu qon bosimi va yurak urish tezligining oshishiga sabab bo‘ladi;

Kortizol darajasi ko‘tariladi, bu ichak peristaltikasini buzib, ich kelish muammolariga olib keladi;

Oshqozon-ichak tizimidagi Gq-retseptorlar faollashadi, natijada ich qotishi yoki aksincha, diareya rivojlanishi mumkin;

Yuqori kortizol ta’sirida ishtaha kamayishi kuzatiladi, ammo ba’zi hollarda, aksincha, haddan tashqari ovqatlanish yuzaga kelishi mumkinligini kuzatamiz.

Xulosa: Stress organizmga salbiy ta’sir ko‘rsatadi, ayniqsa yurak-qon tomir, asab, ovqat hazm qilish va gormonal tizimlar faoliyatida buzilishlar yuzaga keladi.Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yurak urish tezligi va qon bosimi oshgan, kortizol darajasi yuqori bo‘lgan, ichak va ishtaha bilan bog‘liq muammolar kuzatilgan. Stress darajasi kasbga bog‘liq bo‘lib, shifokorlar va ichki ishlar xodimlarida yuqoriroq ekanligi aniqlandi.

Takliflar va tavsiyalar

Stressni kamaytirish bo‘yicha shaxsiy tavsiyalar

Jismoniy faollik – Muntazam sport bilan shug‘ullanish stress gormonlarini kamaytiradi.

Tinchlantiruvchi texnikalar – Meditatsiya, chuqur nafas olish mashqlari va psixologik dam olish usullari samarali bo‘ladi.

Tug‘ri ovqatlanish – Kortizol darajasini tartibga soluvchi oziq-ovqatlarni iste’mol qilish (magniy, omega-3 yog‘ kislotalari, vitaminlar).

Ish joyida stressni kamaytirish uchun takliflar

Mehnat sharoitlarini yaxshilash – Ish yuklamasini optimallashtirish va dam olish vaqtlarini tartibga solish.

Psixologik yordam xizmatlari – Ish joylarida stressga qarshi kurashish uchun psixolog yoki maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

Jamoaviy dam olish va motivatsiya tizimi – Ish joyida stressni kamaytirish uchun dam olish imkoniyatlarini yaratish (sport klublari, jamoaviy tadbirlar).

Tibbiy nazorat va monitoring

Yuqori stressga uchraydigan kasb vakillari uchun davomiy tibbiy monitoring zarur
(yurak-qon tomir, gormonal tekshiruvlar).

Korxonalarda yoki ta’lim muassasalarida stressni baholash va oldini olish bo‘yicha dasturlarni joriy etish.

Алкоголли панкреатитда лимфа тугунларининг гистокимёвий ўзгаришлари

Мусаева Юлдуз Алперсовна, Латибжонов Азизбек Эркинжон ўғли

Аннатация. Алкоголли панкреатитда ошқозон ости бези регионар лимфа тугунларини гистокимёвий ўзгаришлари ўрганиш асносида толали тузилмаларида юзага келган деструктиқ дезорганизацияга учраган ўчоқлари ўрганилди. Жумладан, лимфа тугунларида капсуляр, медулляр трабекулалари ва стромасини ташкил этган толали тузилмаларнинг бўкиш оқибатида, парчаланган ўчоқлари Ван Гизон бўёғида бўялганда аниқланди. Натижада, аксарият лимфа тугунларининг стромал тузилмларида деструктив ўзгарган ўчоқлари аниқланади. Шу билан бирга, капсуласининг ички юзасидаги ўзгаришлар натижасида, шу ўчоқлар юзасида макрофаглардан ташкил топган тромбли ўзгаришлар аниқланиши клиник морфологик жихатдан дренаж функциясини издан чиқишини англатади.

Калит сўзлар: лимфа тугунлари, алкоголли панкреатит, морфология, гистохимия.

Муаммонинг долзарблиги. Дунёда ургент касалликлар бўйича, қорин бўшлиғи аъзоларида ошқозон ости безининг яллиғланиш касаллиги 3 нчи ўринда тўради. Дунё ахолиси орасида ўртача 960 млн инсонда панкреатит касаллиги аниқланиб, шулардан, 25-40 ёшлар ўртасида, 36,6% ни алкоголли панкреатит (262 млн) ташкил этади. АҚШ да алкоголли панкреатит билан 25-45 ёшли контингент ўртасида, 25 млн дан ортиқ инсон ушбу касалликл билан касалланган. Европада алкоголли панкреатит билан ўртача 66,8 млн инсон касалланган. Россия федерациясида ўртача 25-55 ёшли контингент ўртасида 52,3 млн инсон ушбу касаллик билан оғриган. МДХ давлатларида бу кўрстакич жами, 12 млндан ортик кўрстакич билан рўйхатдан ўтган. Хар йили алкоголли панкреатитнинг турли шаклларидан ўртача 12-30 млн гоачам инсон вафот этади. Аммо бирорта манбада, ўткир ва сурункали алкоголли панкреатитларда регионар лимфа тугунларининг морфологик жихатлари хакида маълумотлар келтирилмаган, шу билан бирга, ўткир панкреатитларда шиш ва некротик ўзгаришларда регионар лимфа тугуналарининг морфофункционал кўрсаткичлари ва юзага келадиган оғир асоратларини олидини олишда мухим хал қилувчи жихатларини ишлаб чиқишга асос бўлади.

Тадқиқот мақсади: Алкоголли панкреатитда регионар лимфа тугунларининг патоморфологик ва гистокимёвий жихаталрини ўрганиш.

Натижа ва мухокама. Лимфа тугунларида паракортикал майдон посткапилляр венулалари оддий веналарга айланганлиги, яъни девори юпқалашиб, бўшлиғи кенгайиб, бўшлиғи қон билан тўлганлиги кузатилади.

Шуни алоҳида таълидлаш керакки, бу ҳолатда кенгайган веналар деворида лимфоцитларнинг миграцияланаётганлиги аниқланмайди.

Демак, бундай лимфа тугунлар иммунопоэтик вазифасини бажаришдан тўхтаганлиги аниқланади. Паракортикал майдон тўқимасида шиш ва геморрагия ривожланганлиги, макрофагларнинг пролиферацияланиб кўпай-ганлиги, таркибида гематоксилинли фагоцитланган киритмалар кўплиги аниқланади.

Таркибида фуксинофил толаларга бой бўлган синуслар оралиғи юмшоқ тасмалари склерозланган, юзалари титилган, зич толали бириктирувчи тўқимага айганлаганлиги, қолган жойларида лимфоид ҳужайралар билан тўлган нисбатан қалин тўқима тутамларига айланганлиги кузатилади. Юмшоқ тасмалар таркибидаги қон томирлар девори фуксинофил толаларга бой бўлган ва склероз ҳисобига қалинлашиб, лимфоид тўқимадан ажралиб турганлиги аниқланади. Лимфа тугунлари мағиз қавати синуслари ва юмшоқ тасмалари таркибидаги ҳужайралар таркибидаги ретикуляр ҳужайралар титилиб, бир-биридан узилиб, алоҳида-алоҳида жойлашганлиги аниқланади. Уларнинг цитоплазма ўсимталари бир-биридан узилиш оқибатида калаталашган, фрагментацияланган ва парчаланганлиги кузатилади. Ретикуляр ҳужайралар ядролари йирик, думалоқ ва овал шаклда, хроматини нозик, оч рангли, гетерохроматини кариолеммага ёпишган ҳолдаги кичик-кичик гематок-силинли ўчоқлар пайдор қилганлиги аниқланади. Улар орасидаги лимфоцитлар асосан кичик ва ўрта катталикдаги ҳужайралардан иборат, улар ретикуляр ҳужайралардан нарироқда алоҳида жойлашганлиги аниқланади.

Лимфа тугуни мағиз қавати ярим юпқа кесмада ўрганилганда ҳужайравий таркибининг цитоплазма ва ядроси таркибидаги барча тузилмалари яққол кўринади ва уларни баҳолаш асон кечади. Бунда мағиз қавати синуслари деворини ташкил қилган эндотелиал ва ретикуляр ҳужайраларнинг жойланиши, бир-бири билан боғланиши, катта-кичиклиги яхши кўринади. Эндотелий ҳужайралар яссиланган чўзинчоқ шаклдалиги, уларнинг цитоплазма толалари торим девори юзасини узлуксиз қоплаганлиги аниқланади. Эндотелий ҳужайралар остида ва ёнида ретикуляр ҳужайралар жойлашган бўлиб, уларнинг ядролари нисбатан йирикроқ ва нозик тузилишга эгалиги кузатилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ивашкин В.Т., Маев И.В., Шифрин О.С. и др. Рекомендации Российской гастроэнтерологической ассоциации по диагностике и лечению хронического панкреатита (проект). Росс. журн. гастроэнтерол., гепатол. и колопроктол. 2013. № 1. С. 66-87.

2. Frulloni L., Falconi M., Gabbrielli A. et al. Italian consensus guidelines for chronic pancreatitis. Dig. Liver. Dis. 2010. V.42. Suppl.6. P. 381-406.

3. Bornman P.C., Botha J.F., Ramos J.M. et al. Guideline for the diagnosis and treatment of chronic pancreatitis. S. Afr. Med. J. 2010. V.100. № 12. Pt 2. P. 847-860.

4. Gubergrits N.B., Zagorenko Yu.A. Khronicheskiy alkogol'nyy pankreatit. Gazeta «Novosti meditsiny i farmatsii». Gastroenterologiya. 2007. № 226 /http:// www.mif-ua.com/archive/article/3977/.

5. Beger H.G., Matsuno S., Cameron J.L. Diseases of the Pancreas. Berlin: Springer Heidlberg, New York. 2008. 949 p.

6. Yamaguchi K. How to define patients at high risk for pancreatic cancer. Pancreatology. 2011. V.11. Suppl. 2. P. 3-6.

7. Косюра С.Д., Ильченко Л.Ю., Сторожаков Г.И. и др. Хронический алкогольный панкреатит: вопросы диагностики и лечения. Consilium Medicum. 2012. № 2. С. 31-35. Kosyura S.D., Il'chenko L.Yu., Storozhakov G.I. i dr.

Khronicheskiy alkogol'nyy pankreatit: voprosy diagnostiki i lecheniya. Consilium Medicum. 2012. № 2. S. 31-35.

8. Cote G.A., Yadav D., Slivka A. et al. Alcohol and Smoking as Risk Factors in an Epidemiology Study of Patients with Chronic Pancreatitis. Clin. Gastroenterol. Hepatol. 2011. V. 9. Suppl. 3. P. 266-273.

9. Balukova Ye.V., Uspenskiy Yu.P. Klinicheskiye vozmozhnosti povysheniya effektivnosti terapii khronicheskogo pankreatita. Russkiy meditsinskiy zhurnal. 2018. № 13. S. 1018-1023.

10. Nitsche C., Simon P., Weiss F.U. Environmental risk factors for chronic pancreatitis and pancreatic cancer. Dig Dis. 2011. V. 29. Suppl. 2. P. 235-242.

11. Lugea A., Gong J., Nguyen J. et al. Cholinergic mediation of alcohol-induced experimental pancreatitis. Alcohol. Clin. Exp. Res. 2010. V. 34. Suppl. 10. P. 1768-1781.

12. Gasiorowska A., Talar-Wojnarowska R., Czupryniak L. et al. The prevalence of Cationic Trypsinogen (PRSS1) and Serine Protease Inhibitor, Kazal Type 1 (SPINK1) Gene Mutations in Polish Patients with alcoholic and Idiopathic Chronic Pancreatitis. Dig. Dis. Sci. 2011. V. 56. P. 894-901.

13. Drenth J.P.H., Te Morsche R., Jansen J.B. Mutations in serine protease inhibitor kazal type-1 are strong by associated with chronic pancreatitis. Gut. 2002. V. 50. P. 687-692.

14. Pezzilli R., Morselli-Labate A.M., Mantovani V. et al. Mutations of the CFTRgene in pancreatic disease. Pancreas. 2003. V. 27. Suppl. 4. P. 332-336.

15. Casals T., Aparisi L., Martinez-Costa C. et al. Different CFTR mutational spectrum in alcoholic and idiopathic chronic pancreatitis. Pancreas. 2004. V. 28. P. 374-379.

16. Rosendahl J., Bodeker H., Mossner J. et al. Hereditary chronic pancreatitis. Orphanet Journal of Rare Diseases. 2007. V. 2. P. 1-10.

17. Lucrezio L., Bassi M., Migliori M.,et al. Alcoholic pancreatitis: new pathogenetic insights. Minerva Med. 2008. V. 99. Suppl. 4. P. 391-398.

18. Костюкевич О.И. Хронический панкреатит: от патогенеза к терапии. Русский медицинский журнал. 2009. Т.17. №

19. Еремина Е.Ю., Строкова О.А. Состояние кишечного пищеварения у больных хроническим панкреатитом. Lambert Academic Publishing, 2012. 100 с. Yeremina Ye.Yu., Strokova O.A. Sostoyaniye kishechnogo pishchevareniya u bol'nykh khronicheskim pankreatitom. Lambert Academic Publishing. 2012. 100 s.

ПАТОФИЗИОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОСТРОЙ ПОЧЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ

Сайфуллаева С.Г.
Ташкентской медицинской академии

Почечная недостаточность – это патологическое состояние, которое возникает при различных заболеваниях и характеризуется нарушением всех функций почек. При этом нарушается водный, электролитный, азотный и другие виды обмена. Когда заболевают почки, начинается процесс отравления организма. Кишечник, кожа, легкие и печень начинают помогать очищать организм от токсинов и ядов, но и он болеет сам, так как эти органы не адаптируются. Почечная недостаточность – состояние (синдром), характеризующееся крайним снижением или прекращением выделительной активности почек, глубокими изменениями других видов деятельности почек и нарушением постоянства внутренней среды организма. Различают острую и хроническую формы почечной недостаточности, которые определяются тем, насколько быстро прогрессирует недостаточность. Основным признаком нарушения деятельности почек является снижение количества нефронов, активно участвующих в выведении с мочой (количество активных нефронов КАН). Когда это количество уменьшается вдвое, нарушается вся деятельность почек. Когда КАН снижается в небольших количествах, активность почек нарушается ограниченным образом. Острая почечная недостаточность – распространенное состояние, которое приводит к острому нарушению почечнозависимого состояния гомеостаза и часто к смерти пациента. Основные причины острой почечной недостаточности делятся на почечнозависимые или непочечные группы:

а) причины, связанные с почками: острый гломерулонефрит, острое и быстрое поражение почек под воздействием различных веществ, острый и опасный пиелонефрит, закупорка кровеносных сосудов почек вследствие тромбоза или эмболии, воспаление сосудов практически в масштабах целостного организма (общий васкулит).

б) непочечные вызывают множественную кровопотерю, шок и коллапс; Чрезмерное повреждение тканей или ожоги, сильное экзогенное и эндогенное отравление организма, резкая и полная закупорка мочевыводящих путей и т.д. При поражении почки различными нефротоксическими факторами важную роль играет прямое повреждение почечных трубок и протоков, а также нарушение циркуляции крови в ее выстилающем материале. Особую роль в патогенезе острой почечной недостаточности играет сращивание почечных протоков с детритом отмерших клеток, белковыми веществами, гемоглобином и другими веществами, выводимыми в результате гемолиза. Первичное повреждение почечных структур может усугубить повреждение почечной ткани, провоцируя иммунные воспалительные процессы в почках. Этот механизм определяет переход острой почечной недостаточности в хроническую форму в большинстве случаев. В течении острой почечной недостаточности можно выделить четыре основные стадии:1) первичная; 2) олигурия; 3) полиурия; 4) Этапы

восстановления. Характерно для наиболее развитого дефицита наблюдается в стадии олигурии. При этом наблюдаются глубокие нарушения водно-солевого и кислотно-щелочного балансов в организме. В результате набухания скопления жидкости и отека в головном мозге и легких резко нарушается деятельность сердечно-сосудистой и дыхательной систем. Обмороки, кома, рвота, раздражение мышц и другие признаки свидетельствуют о нарушении функционирования нервной системы. Именно на этой стадии наблюдается смерть большинства пациентов. Если своевременно применить высокоэффективные методы лечения, то уже через 5-10 дней наступает восстановление диуреза и наступает стадия полиурии. Интенсивность процесса фильтрации обусловлена его восстановлением и постепенным увеличением количества активных нефронов. В то же время другие функции почки начинают восстанавливаться очень медленно.

"Travmatologiya va sport tibbiyotiga e’tibor, zamonaviy yondashuvlar va reobilitatsiya"

Abdullayev Abdurauf Eshonqul o‘g‘li

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti Davolash ishi 4- bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada travmatologiya va sport tibbiyotining asosiy yo‘nalishlari, zamonaviy yondashuvlari va muammolar tahlili keltirilgan. Sportchilarda uchraydigan travmalar, ularning oldini olish, davolash va reabilitatsiya usullari batafsil yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarning sohadagi o‘rni va sportchilar salomatligini ta'minlashda innovatsion usullar ko‘rib chiqiladi.

Annotatsiya : В данной статье рассматриваются основные направления, современные подходы и проблемы травматологии и спортивной медицины. Подробно освещены травмы, характерные для спортсменов, их профилактика, лечение и реабилитация. Также рассматривается роль современных технологий и инновационных методов в обеспечении здоровья спортсменов.

Annotatsiya: This article examines the main areas, modern approaches, and challenges in traumatology and sports medicine. It provides a detailed analysis of injuries common among athletes, their prevention, treatment, and rehabilitation methods. The role of modern technologies and innovative approaches in ensuring athletes' health is also discussed.

Kalit so‘zlar: Travmatologiya, sport tibbiyoti, sport jarohatlari, reabilitatsiya, profilaktika, zamonaviy texnologiyalar.

Kirish: Travmatologiya va sport tibbiyoti – sportchilar va jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi shaxslarning sog‘lig‘ini saqlash va ularni jarohatlardan himoya qilish uchun muhim sohalardan biridir. Mazkur maqolada travmatologiya va sport tibbiyoti sohasidagi dolzarb masalalar yoritiladi, shuningdek, zamonaviy ilmiy yondashuvlar tahlil qilinadi.

Travmatologiyaning sportdagi o‘rni, Sport jarohatlari turlariga nazar solsak suyak sinishlari, mushak shikastlanishlari, chiqishlar, bog‘lamlar uzilishi, jaroxatlarni surunkaliga va nogironlik oqibatiga olib kelishi. Bu inson salomatligi uchun ayanchli hol bo‘lib kelmoqda.

Sportda yuz bergan jaroxatlarni profilaktika usullari, jarohatni to‘g‘ri tashxislash va davo turlarini samaradorligiga va zamonaviyligiga bog‘liq. To‘g‘ri tayyorlov, tibbiy ko‘riklar, moslashuvchanlik mashqlari, bajarilayotgan mashqlarga vazinni to‘g‘ri kelishi, salomatlikga alohida e’tiborli bo‘lishi talab etiladi.

Sportchilarni jarohatlardan himoya qilishda zamonaviy texnologiyalarning o‘rni katta. Sport jarohatlari hamda travmalarni davolashda zamonaviy tibbiy usullardan, jarrohlik amaliyotlari, fizioterapiya, dori-darmonlar, Individual yondashuv va reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilib yo‘lga qo‘yilgan. Sport jarohatlari sportchilarning sog‘lig‘iga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi va ularning faoliyatini cheklashi mumkin. Turli sport turlari o‘rtasida jarohatlar soni va turlari farqlanadi. Masalan, futbol va voleybol eng ko‘p jarohatlar kuzatiladigan sport turlari hisoblanadi. Futbolda asosan tizza va oyoq bilagi ham yuqori jarohat xavfiga ega bo‘lgan sport

turlaridan biri bo‘lib, bosh miya chayqalishi, ko‘z shikastlanishi kabi jiddiy jarohatlar bilan tavsiflanadi.

Olimlar o‘tkazgan tadqiqotlardan guvohi bo‘lishimiz mumkinki, Shvetsiyada o‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, sport jarohatlari umumiy jarohatlar sonining **10%** ini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich yillar davomida oshib bormoqda; masalan, 1970-yillarda bu ko‘rsatkich **5-7%** bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yillarga kelib **17-20%** ga yetgan.

Sport jarohatlarining oldini olish uchun to‘g‘ri tayyorgarlik, muntazam tibbiy ko‘riklar va moslashuvchanlik mashqlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, sport anjomlarining yaxshilanishi va monitoring tizimlari, sportchilarni jarohatlardan himoya qilishda katta ro‘l o‘ynaydi. Jarohatlarni davolashda zamonaviy tibbiy usullar, jumladan, jarrohlik amaliyotlari, fizioterapiya va dori-darmonlar qo‘llaniladi. Har bir sportchi uchun individual reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqiladi, bu esa ularning tezroq tiklanishiga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar, masalan, robototexnika va simulyatsion texnologiyalar, sportchilarni reabilitatsiya qilishda qo‘llanilmoqda. Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish usullari esa sport jarohatlarini oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Sport jarohatlari sportchilarning sog‘lig‘iga sezilarli ta'sir ko‘rsatadi va ularning faoliyatini cheklashi mumkin. Turli sport turlari o‘rtasida jarohatlar soni va turlari farqlanadi. Masalan, futbol va voleybol eng ko‘p jarohatlar kuzatiladigan sport turlari hisoblanadi. Futbolda asosan tizza va oyoq bilagi shikastlanishlari, voleybolda esa qo‘lning yelka va barmoqlaridagi jarohatlari keng tarqalgan. Boks ham yuqori jarohat xavfiga ega bo‘lgan sport turlaridan biri bo‘lib, bosh miya chayqalishi, ko‘z shikastlanishi kabi jiddiy jarohatlar bilan tavsiflanadi.

O‘tkazilgan tadqiqotlarga ko‘ra, sport jarohatlari umumiy jarohatlar sonining 10% ini tashkil etadi. Bu ko‘rsatkich yillar davomida oshib bormoqda; masalan, 1970-yillarda bu ko‘rsatkich 5-7% bo‘lgan bo‘lsa, 2000-yillarga kelib 17-20%, 2024-yillarda esa 35-40% ga yetgan.

Shulardan statistik ma’lumotlarga qaraganda
Futbol bo‘yicha 20%
Boks 10%
Valibol 6%
Boshqa sport turlari 4% ko‘rsatmoqda.



Sport turlarini jarohatlariga e’tibor qaratsak shikastlangan sohalqrni ko‘rishimis mumkin.

Mushaklar 70%

Elka shkastlanishlar 75 %

Bosh miya cho‘qqisini jarohatlari 15%

Sportga hos bo‘lgan shikastlanishlar 5% yuzaga kelganini ko‘rishimiz mumkin.

Hulosa qilib shuni aytish lozimki, Sport jarohatlarining oldini olish uchun to‘g‘ri tayyorgarlik, muntazam tibbiy ko‘riklar va moslashuvchanlik mashqlari muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar, masalan, sport anjomlarining yaxshilanishi va monitoring tizimlari, kunlik ratsioniga alohida nazorat qilish, sportchilar vaznini ishtirok etayotkan sport turiga qarab tanlash, sportchilarni jarohatlardan himoya qiladi. Har bir sportchi uchun individual reabilitatsiya dasturlari ishlab chiqilishi yuzaga kelayotgan jarohatlar sonini kamayishiga va jarohatlarni oldini olishga qaratilgan tog‘ri yo‘ldir.

Innovatsion texnologiyalar, masalan, robototexnika va simulyatsion texnologiyalar, sportchilarni reabilitatsiya qilishda samarali usul deb bilaman. Hozirgi kundagi Sun'iy intellekt va ilg‘or tibbiyot esa sport jarohatlarini oldini olishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda.

YOSHLAR ORASIDA DEPRESSIYA VA STRESSNI KAMAYTIRISH USULLARI

Alfraganus Unversity Tibbiyot fakulteti Davolash ishi 4-kurs talabasi
Kanalova Manzura Nurbek qizi

KIRISH: yoshlar orasidagi depressiya va stress bugungi zamonaviy jamiyatimizdagi eng dolzarb muammo va insonning jismoniy va ruhiy salomatliligiga jiddiy ta’sir ko‘rsatadi.

MAQSAD: ushbu ishning maqsadi- psixologik stressing yoshlar organizmiga ko‘rsatadigan ta’sirini o‘rganish va omillarni aniqlash. Stressning oldini olish usullari va yoshlarga stressni boshqarishni o‘rgatish.

MATERIALLAR VA METODLAR: maqola davomida, zamonaviy psixologiya, fiziologiya va tibbiyotga oid manbalar, ilmiy maqollalar, statistik ko‘rsatkichlar va turli kuzatuv ma’lumotlari o‘rganiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: doimiy stress oqibatida yurak-qon tomir tizimi , ovqat hazm qilish sistemasi, immunitet va eng muhimi asab va nerv sistemalarida turli buzulishlar kelib chiqadi.

XULOSA: yoshlar orasidagi depressiya va stress omillarining kelib chiqishi shaxsning individual xususiyati va tashqi omillarga bog‘liqligi.

Kalit so‘zlar: depressiya, stess, asab tizimi, stessni boshqarish, tashqi omillar, shaxsning ichki olami.

Аннотатция

ВВЕДЕНИЕ: депрессия и стресс среди молодежи являются наиболее актуальной проблемой нашего современного общества и оказывают серьезное влияние на физическое и психическое здоровье человека.

ЦЕЛЬ: Целью данной работы является изучение влияния психологического стресса на организм молодых людей и определение факторов. Методы профилактики стресса и обучение молодых людей управлению стрессом.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в ходе статьи изучаются источники современной психологии, физиологии и медицины, научные статьи, статистические показатели и различные данные наблюдений.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: постоянный стресс вызывает различные нарушения в сердечно-сосудистой системе, пищеварительной системе, иммунитете и, самое главное, нервной и нервной системах.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: возникновение депрессивных и стрессовых факторов среди молодежи зависит от индивидуальных особенностей человека и внешних факторов.

Ключевые слова: депрессия, стресс, нервная система, управление стрессом, внешние факторы, внутренний мир человека.

Annotation

INTRODUCTION: depression and stress among young people is the most urgent problem in our modern society and has a serious impact on the physical and mental health of a person.

PURPOSE: the purpose of this work is to study the effect of psychological stress on the body of young people and to determine the factors. Methods of preventing stress and teaching young people how to manage stress.

MATERIALS AND METHODS: during the article, sources of modern psychology, physiology and medicine, scientific articles, statistical indicators and various observational data are studied.

DISCUSSION AND RESULTS: constant stress causes various disorders in the cardiovascular system, digestive system, immunity and, most importantly, nervous and nervous systems.

CONCLUSION: the origin of depression and stress factors among young people depends on the individual characteristics of the person and external factors.

Key words: depression, stress, nervous system, stress management, external factors, inner world of the person.

Bugungi XXI asrda yoshlar orasida depessiya va stess eng global muammolar qatorida turadi. Psixologik stess muammo sifatida ko‘plab tadqiqotchilar nazarida turadi. Yoshlar orasida zamonaviy hayot, o‘qish, bilim olish, turli hildagi ijtimoiy siyosiy holatlar, jamiyatdagi o‘rni va boshqalar inson ruhiyatiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Stress- bu muammoli vaziyatlarga organizmning javob berish mexanizmi bo‘lib, ruhiy va jismoniy salomatlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Depressiya-uzoq muddat davom etadigan ruhiy holat bo‘lib, umidsizlik, ishonchsizlik, yolg‘izlik va energiya yo‘qligi bilan kechuvchu ruhiy holat.

Stress tushunchasini kanadalik olim Hans Seylen o‘z ishlanishlari bilan ilmiy-nazariy asoslarini paydo bo‘lishida katta hissa qo‘shgan. Hans Seylen stressni organizmning turli fizik yoki ruhiy omillarga nisbatan beradigan javob reaksiyasi deb tavsiflagan. Psixologik stess insonning tushunmagan yoki idrok etmagan, hayotiy ehtiyojlari, muhit, jamiyat va shahsiy tajriba, ko‘nikma, o‘z dunyo qarashlari bilan bog‘liq. Stess insoning eng qadimgi himoya mexanizmlaridan biri hisoblanadi. Ammo bugungi kunda ko‘plab yoshlarda stess faktorlari qisqa xavfdan emas, balki uzluksiz depressiya, ijtimoy holatlar va boshqa vaziyatlar yoshlar organizimga katta chuqur va uzoq muddatli salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Psixologik stressing kelib chiqishi sabablari va ularni keltirib chiqaruvchi omillarni tahlil qilish birinchi o‘rinda turadi. Bizga ma’lumki stressni keltirib chiqaruvchi vaziyatlar ko‘p: o‘qishdagi har hil yuklamalar, oilaviy kelishmovchiliklar, odamlar bilan ziddiyatlar, ijtimoiy holatlar, yoshlar orasidagi sevgi va boshqalar stressni keltirib chiqarishi yoki kuchaytirib yuborishi mumkin. Misol tariqasida yoshlar orasida o‘qish jarayonida yuqori ballar olish, tengdoshlar orasidagi raqobatlar, katta hayotga qadam tashlash va boshqa holatlar jiddiy stress va deppressiyani yuzaga chiqaradi.

Organizmda kechadigan patofiziologik o‘zgarishlar bilan stess orasidagi bog‘liqlikning bosqichlari:

Birinchi bosqich — xavotirlanish bosqichidir. Bu bosqichda qon bosimi va tana harorati pasayadi, kapillarlarning qon bilan to‘lishi va alkaloz kuzatiladi, oshqozon ichak sistemasida funksional o‘zgarishlar paydo bo‘ladi, qonda qand miqdori kamayadi.

Ikkinchi bosqich — qarshilik ko‘rsatish bosqichidir. Bu bosqichda alkaloz atsidoz bilan, gipoglikemiya giperglikemiya bilan, arterial gipotoniya gipertoniya bilan almashadi, tana harorati ko‘tariladi va kortikosteroidlar ko‘plab ajralib chiqadi buyrak usti bezi qobig‘I shishadi.

Uchinchi bosqich — toliqish bosqichidir. Bu bosqichda yurak mushaklarida distrofik o‘zgarishlar kuzatiladi, oshqozon-ichak sistemasida yarachalar paydo bo‘ladi, ularga nuqtasimon qon quyiladi.

Stressning fizologik mexanizmini yanada chuqurroq aytadigan bo‘lsak:

avvalo, simpatik nerv tizimi va endokrin tizimning roli katta ekanini qayd etish lozim. Xavf yoki zo‘riqish vaziyatida miya, xususan, gipotalamus qismi faollashib, adrenal bezlarga katexolamin (adrenalin va noradrenalin) gormonlarini ishlab chiqarish haqida “buyruq” beradi. Bu gormonlar yurak urishini tezlashtiradi, qon bosimini oshiradi, mushaklarni tonusga keltiradi va glyukoza kabi energiya manbalarining zudlik bilan ajralishini rag‘batlantiradi. Qisqa muddatli stress vaziyatida bunday reaktsiyalar inson hayotini saqlab qolishda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, stress surunkali shaklga o‘tsa yoki doimiy takrorlanib turadigan bo‘lsa, tanadagi adrenalin, kortizol va boshqa gormonlarning haddan ziyod ko‘payishi turli kasalliklarning kelib chiqishiga zamin yaratadi. Jumladan, yurak-qon tomir tizimida yuzaga keladigan muammolar, immunitetning pasayishi, qandli diabet, semirish, oshqozon-ichak trakti kasalliklari va hatto saraton xavfini oshirish kabi salbiy oqibatlar kuzatiladi. Psixologik stress insonning kognitiv jarayonlariga ham jiddiy ta’sir o‘tkazadi. U, avvalo, e’tibor va xotirani susaytiradi, fikrlash jarayonini toraytiradi. Ba’zi holatlarda yuqori stress sharoitida odamlar hissiy iztirob tufayli to‘g‘ri va mantiqiy qaror qabul qilishdan ojiz bo‘lib qoladi. Deyarli barcha psixologik maktablar stress va emosional o‘zgarishlar o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjudligini tasdiqlaydi: inson stress holatida qayg‘u, xavotir, qo‘rquv, irritatsiya, tajovuz yoki depressiv kayfiyatlarga berilishi mumkin. Uzoq davom etadigan stress esa ijtimoiy munosabatlarda ham muammolarga olib keladi. Masalan, oila a’zolari bilan bo‘ladigan mojarolar, ish joyidagi tushunmovchiliklar yoki do‘stlar o‘rtasidagi ishonchsizlik kuchayishi mumkin. Natijada, inson o‘zini yanada yakkalangan, yolg‘iz, tushkun his qiladi va bu qayta stressni kuchaytiradi. Psixologik stress, shuningdek, insonning motivatsiya tizimiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Kutilmagan muammolar yoki bosim ostida odamning ishga yoki o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi susayishi, “hamma narsadan voz kechish” holati kuzatilishi mumkin. Ba’zi odamlar esa, aksincha, hayajonli ta’sir ostida ko‘proq mehnat qiladilar, ammo bu holda tez charchash, ruhiy holatning beqarorlashishi, asabiylashish yoki hissiy portlashlar yuz berishi ehtimoldan xoli emas. Bundan tashqari ahamiyatga moilik joiyi yoshlar stressing ortidan hattoki o‘z jonlariga qasd qilish holatlarigacha borishlari mumkin. Demak, stressning organizm va ruhiyatga ko‘rsatadigan ta’siri, eng avvalo, individual xususiyatlarga, shaxsning temperamentiga, ijtimoiy tajribaga hamda qanday himoya mexanizmlariga ega ekaniga bog‘liq. Kimdir turli mojarolar va bosimlarga nisbatan chidamli bo‘lsa, boshqalar nisbatan tez sinishi mumkin. Shuningdek, stressni yengishda ijtimoiy ta’minot tarmog‘i, yaqin do‘stlar, oila hamda hamkasblar tomonidan beriladigan yordam va hissiy ko‘makning ham katta ahamiyati bor.

Stressni boshqarish, uni kamaytirish yoki umuman oldini olish uchun turli usulllar mavjud. Masalan psixologik yondashuvlar, ibodatlar, yangi tanishuvlar, qiziqarli mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish, sportning turli yo‘nalishlari, piyoda yurish, qo‘shiq tinglash, nafas olish mashqlari. Ushbu usullar tana va inson ongini bo‘shashtirish, tinchlantirish, yengilikni his qilishda eng foydali usullar hisoblanadi.

Erta tongda yoshlar ertalabki badantarbiya, gimnastika, piyoda yurish, yugurish va turli xil jismoniy mashqalarni bajarish orqali organizmdagi stress garmonlarni kamaytirish va aqliy salomatlik bundan tashqari pozitiv kayfiyatni yaxshilashga erishadi.

Bundan tashqari biz ahamiyatni yoshlarning shaxsiy dunyoqarashi, axloqi, qadriyatlari sabr-toqati va atrofidagi insonlarga ham qaratamiz. Misol uchun ijodkor odamlar unchalik ham stressga berilmaydi. Atrofdan faqat go‘zalik qidirishadi. Ular tabiatdan, insonlardan, go‘zaliklardan motivatsiya olishadi. Yana e’tibor berishmiz kerakki dinni va e’tiqodi mustahkam yoshlar depressiya va stressga ko‘p berilmaydi. Ular qadriyatlari, dunyo qarashlari bilan turli og‘ir masalalar va holatlarda shukronalik, mulohazalik bilan muammoga qarashadi.

Yoshlarning o‘z dunyo qarashlar, axloqi, qadriyatlari ham depressiya va stressdan tezda chiqib ketishida muhim ro‘l o‘ynaydi. Sabr-toqatli, axloqli, ilmli yoshlar stressga bardoshli bo‘ladi va ko‘p holatlarda o‘zlarini yo‘qotib qo‘yishmaydi.

Yoshlar stressga berilmasligi, depressiya holatlariga tushib qolmasliklari uchun avvalo kun tartibini rejalashtirib olishi va reja asosida ish yuritishi muhimdir. Buning uchun kunlik, haftalik, yillik rejalarni tuzib olishi va ularga qatiy rioya qilishi zarur. Shu bilan birga salomatligiga jiddiy e’tibor qaratishi, sifatli dam olishi, sog‘lom ovqatlanishi, tibbiy ko‘riklardan doimiy o‘tib turishi, sevimli mashg‘ulotlari bilan shug‘ullanishi kerak. Albatta, butunlay stressiz yashashning iloji yo‘q ammo sressni boshqarish va salbiy oqibatlarini bartaraf qilish har bir yoshning o‘z qo‘lida.

Xulosa qilib aytganda, stresslar yoshlar ongini, organizmining tabiiy reaksiysidir. Stress ortidan depressiya, ongning buzulishi, turli xildagi kasaliklarga duchor bo‘lish, hayot sifatini tushib ketishiga olib keladi. Shuning uchun iloji boricha stressga berilmaslik, stressni minimallashtirish, kunlik rejalar asosida yashash, ijtimoiy faolikka erishish har bir yosh uchun muhim hisoblanadi. Stressni boshqarish orqali yoshlar salomatligi, samarali hayot kechirishi, tahsil olayotgan joyida yoki ish joyida katta yutuqlarga erishishi mumkin. Jamiyatimizda yoshlar asosiy qatlamni tashkil etganligi va ular bizning ertangi kunimiz bo‘lganligi uchun stressni yanada chuqurroq o‘rganishimiz va uni boshqarish ustida ko‘plab metodlarni takomillashtirish jamiyatimizning sog‘lom va farovon bo‘lishida eng muhimi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.Selye, H. (1956). The Stress of Life. New York: McGraw-Hill.

2. Lazarus, R. S., & Folkman, S. (1984). Stress

3. ,,Yoshlarda shahsiy namuna hissini shaklantirishda ,,Liderlik qobilyatlarining ahamiyati’’ mavzusidagi Respublika onlayn ilmiy konfrensiyasi materiallari to‘plami

4. Z.Ibodullayev. Tibbiyot psixologiyasi Toshkent 2008

SURUNKALI BUYRAK YETISHMOVCHILIGI VA BUYRAK KASALIKLLARI.

Yo‘ldosheva Zarofat
Angren Universiteti, Davolash ishi fakulteti katta o‘qituvchisi
Tadjibayeva Nafosat
Angren Universiteti, Davolash ishi fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola aholi orasida keng tarqalgan va tibbiyotda dolzarb muommolardan biri bo‘lib,surunkali lekin yuqmaydigan kasaliklardan biri bo‘lgan surunkali buyrak yetishmovchiligi va buyrak kasalliklari haqida.Maqolada uning oldini olish chora tadbirlari, kasalliklarga bo‘lgan genetik moyillikni aniqlash va kasalik sonini kamaytirish.Davolash profilaktikasining so‘ngi turlaridan foydalanish bilan birga kasalikllarni tugalanishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: buyrak,kasalliklar,normal faoliyat,siydik tizimi,bemorlar, genetik moyilik,gemodializ.

Tadqiqot maqsadi:Inson organizmidagi buyrakning tuzilishi joylashuvi vazifasi hamda buyraklar uchraydigan kasalliklarning kelib chiqishi va da’vosi.

Kirish: Buyrak inson organizmining eng muhim a’zolaridan biri hisoblanadi.U juft a’zo bo‘lib umurtqa pog‘onasining ikki yonida joylashgan.Buyrak bir qator vazifalarni bajaradi.Bulardan : Organizmning ichki muhiti doimiyligini saqlash,suv va mineral tuzular almashinuvini boshqarish,arteriyalardagi bosimni bir me’yorda ushlab turish,ichki muhitning kislota-ishqoriy muvozanatini boshqarish,gumoral funksiya,organizmdagi vitaminlar almashinuvida va boshqa bir nechta vazifalarni bajaradi.Ushbu a’zolar siydik tizimini bir me’yorda ushlab turadi.Buyrak kasaliklari siydik tizimining a’zolarini normal faoliyatiga to‘sqinlik qiladigan turli patologiyalarni o‘z ichiga oladi. Hozirgi kunda buyraklar bilan ko‘p bo‘lgan muommolar ko‘plab topiladi. Aholi orasida ham buyrak kasaliklari keng tarqalgan.Buyrak kasaliklarining har biri o‘ziga xosligi,klinik ko‘rinishlari va davolash usullari bilan bir biridan farqlanadi.Buyrak kasaliklari asimptomik ya’ni alomatlarsiz kechkanligi sababli,bemorlar uning belgilarini bilishmaydi va salomatligiga e’tiborsiz bo‘lishadi.Kasallik belgilari yashirin tarzda kechadi.Shu sababli ham bemorlar o‘zida buyrak kasalliklarini o‘tkazib yuborilgan bosqichda kelishadi.Bemorlar buyrak kasalliklari asosiy turlarini,alomatlarini va davosini qanday bo‘lishini ham bilib turish lozim. Belgilarning yashirin kechganligi sababli,ularni shifokorlar “soqov a’zolar” deb ham atashadi.Ko‘pincha buyrak kasalliklari o‘z belgilarini ishdan chiqandan so‘ng namoyon etadi.Buyrakda bo‘lgan o‘zgarishlarni ko‘pinch shifokorlar qon tahlili orqali aniqlashadi . Qonda tahlil o‘tkazganda burak normal ishlamaganda,qonda kalsiy miqdori keskin ravishda oshadi,qondagi kaliy miqdoriga,gemoglabinga,keratin miqdoriga va undan tashqari siydik tarkibidagi oqsil miqdoriga,qon bosimining balandligiga,tanadagi ishishlarga va boshqa bir qancha belgilardan namoyon bo‘ladi .Buyrak kasalliklarining boshlanishiga ; Tana vaznining keskin pasayishi,semizlik,qandli diabet ,yuqori qon bosim , bel sohasidagi o‘g‘riqlar,tez charchash va siydikda bo‘ladigan o‘zgarishlar sabab bo‘ladi.Bu alomatlarni o‘z vaqtida oldini olmasa surunkali buyrak yetishmovchiligi kelib chiqadi.Surunkali buyrak yetishmovchiligi sindiromining dastlabki belgilari faol nefronlar miqdori 50 foizgacha

kamayganda paydo bo‘la boshlaydi.Buyrak kasalliklarining rivojlanishi buyrak shamollaganda oldini olmaslik sabab bo‘ladi.Buyrak shamollashi deganda sovuq ta’sir natijasida yuzaga keladigan buyrak to‘qimalarining turli xil yallig‘lanishi jarayonlari kuzatiladi.Bemorlarda buyrak shamollashi kuzatilgandan so‘ng,ularda sistit,glomerulonefrit, pielonefrit va uretrit kabi kasalliklar kuzatiladi.Bundan kasalliklar kuzatilganda darhol shifokorga murojat qilish tavsiya etiladi.Bu kasalliklarni davolamaslik buyrak yetishmovchiligiga sabab bo‘ladi .

Buyrak yetishmovchiligi – faqatgina buyrakdagi kasalliklardan emas balki boshqa bir qancha kasalliklarda yuzaga keladigan patologik holat hisoblanadi.Bunda buyraklarning barcha funktsiyalari buzilishi bilan tavsiflanadi.buyrak yetishmovchiligi surunkali va o‘tkir bo‘ladi.O‘tkir buyrak yetishmovchiligining asosiy sabablari: Prerenal (buyrakda qon oqimining buzilishi),Renal (buyrak to‘qimalarining patologiyasi), Postrenal (buyrakda siydik hosil bo‘ladi lekin siydik chiqarish nayidagi to‘siq tufayli chiqa olmaydi) shu kabilardir.Buyrak yetishmovchiligi ham surunkali va o‘tkir bo‘ladi. O‘tkir buyrak yetishmovchiligi asosiy belgilari: Kunlik siydik miqdorining 400 mldan kamayishi ya’ni oliguriya bosoqichi, siydik miqdorining tiklanish bosqichi (poliuriya),to‘liq tiklanish.

Oliguriya bosqichidagi alomatlar;zaiflik,Ishtahaning pasayishi,ko‘ngil aynish,mushaklarning tortilib turishi,hansirash,yurak urishining tezlanishi , aritmiyalar,qorin og‘rig‘I va boshqa belgilar . Bu bosqich o‘tkir buyrak yetishmovchiligining eng og‘iri sanaladi va 5-11 kungacha davom etadi.

Poliuriya bosqichi:Bemor ahvoli me’yorlashadi,siydik miqdori odatdagidan ko‘payadi .Bu bosqichda organizm suvsizlanishi va infeksiya rivojlanishi mumkin .

To‘liq tiklanish bosqichi:Buyrak funksiyasining yakuniy tiklanishi . Odatda 6-12 oygacha davom etadi.Agar o‘tkir buyrak yetishmovchiligida buyrak to‘qimalarining ko‘p qismi o‘chib qolgan bo‘lsa,to‘liq tiklanish sodir bo‘lmaydi.

Surunkali buyrak yetishmovchiligining belgilari bunda daslabki bosqich bo‘lmaydi . Bemor o‘zini nisbatan yaxshi his qiladi.Odatda uning belgilari buyark to‘qimalari 80-90 foiz ishdan chiqanda namoyon bo‘ladi .Bu vaqtgacha ham tekshiruvdan o‘tib,kasallikni aniqlasa bo‘ladi.Odatda birinchi bo‘lib umumiy belgilar namoyon bo‘ladi.Bular:zaiflik,tez charchash,ishga qo‘l bormaslik,siydik ajralishining buzilishi,ko‘ngil aynishi,mushaklarning tortilishi,og‘izda quruqlik va achqimtir ta’m sezilishi,qorin og‘rig‘I,diareya,qon ivishining kamayishi,terida qon ketish,infeksiyalarga nisbatan sezuvchilik va oxirgi bosqich bronxial astma xurujlari yuzaga kelishi,bemor hushini yo‘qotish va koma holati kabi belgilar kuzatiladi .

Buyrak yetishmovchiligi bilan kasalangan bemorlarni birinchi navbatda nefrologik statsionar gospitalizatsiyaga borish va shu yerda tekshiruvlardan o‘tish tavsiya etiladi.Bu kasaliklar bilan kasalangan bemorlar o‘z navbatida shifokor ko‘riga borisha,davolash chora tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi suv muvozanatini saqlashi, parhezga rioya qilishi va shifoxonada yotib davolasnish btalab etiladi. Buyrak yetishmovchiligi bilan kasalangan bemorlarga ko‘pincha buyrak transplantatsiyasi tavsiya etiladi.Transplantatsiyadan oldin yoki operatsiya mumkin bo‘lmagan bemorlar yana bir davolash usuli gemodializdan ya’ni sun’iy buyrakdan foydalanishadi. Gemodializ qoni turli xil zaharli moddalar,toksinlardan tozalash va tanadagi ortiqcha suvning chiqib ketishiga yordam beradi.Davolashga hech qanday

yo‘l qolmaganda buyrak trasplantatsiyasi o‘tkiziladi .Buyrak yetishmovchiligi bilan nobud bo‘lish keng tarqalgan sabablardan biri hisoblanadi . Hozirgi kunda o‘tkir buyrak yetishmovchiligi bilan kasallangan bemorlarning 25-50 foizida o‘lim sodir bo‘lmoqda.O‘lim holatini gemodializ va buyrak transplantasiyasidan foydalish natijasida kamaymoqda .

Buyrak kasaliklaridan kam uchraydigan kasaliklarga:Albuminuriya, ksantogranulematoz pielonefrit,nefrit,nefritik sindrom,nefropatiya, nefroskleroz,nefrotik sindrom,pionefroz va boshqa bir qancha kasaliklar.Ushbu kasaliklar aholi o‘rtasida juda kam uchraydigan kasaliklarga kiradi .

Xullosa : Biz ushbu maqola buyrak yetishmovchiligi va buyrak kasaliklari haqida bo‘lib,uning aholi orasida tarqalishini,hayot uchun qanchalik zarar keltirishini,kasallik belgilarini,davolash chora tadbirlarini yoritdik . Kasalliklarning kelib chiqishi va uning keltirib chiqarashi mumkin bo‘lgan yomon asoratlarnil oldini olish katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar va saytlar :

1.Gistologiya Sitologiya Embrologiya (2019) To‘xtayev .
2.https://mymedic.uz
3.https://yuz.uz
4.Surunkali buyrak kasalliklari I.RAgababyan SH.X.Ziyadullayeva
5.Buyrak kasalliklari patomorfologiyasi Z.E.Jumanov J.M.Ismoilov

Использование инсулиновой помпы в качестве инновационного метода лечения сахарного диабета 2 типа

Гасанова Нигора Мухторовна
Ферганский медицинский институт общественного здоровья
Давронов Алишер Абдулхай ўғли
Студент Ферганского медицинского института общественного здоровья.

Сахарный диабет 2 типа (СД 2 типа) представляет собой серьёзную глобальную проблему здравоохранения. С увеличением числа случаев этого заболевания возрастает необходимость в эффективных методах его контроля. Одним из инновационных подходов к лечению является использование инсулиновых помп, которые предоставляют пациентам новые возможности для управления уровнем сахара в крови. В этом тезисе мы рассмотрим принципы работы инсулиновых помп, их преимущества и ограничения, а также их роль в лечении СД 2 типа.

Инсулиновая помпа — это устройство, которое автоматически доставляет инсулин в организм через под кожу. Она обеспечивает непрерывную инфузию инсулина, что позволяет пациентам поддерживать стабильный уровень глюкозы в крови. Помпа может быть настроена для доставки базального инсулина в течение всего дня и дополнительной дозы (болиус) в ответ на прием пищи. Инсулиновые помпы обеспечивают более точное регулирование уровня глюкозы в крови благодаря возможности настраивать дозы инсулина в зависимости от потребностей пациента. Это особенно полезно при наличии колебаний уровня сахара, что часто наблюдается у людей с диабетом 2 типа. Использование инсулиновой помпы позволяет сократить количество инъекций, так как устройство непрерывно вводит инсулин. Это снижает дискомфорт, связанный с регулярными инъекциями, и делает лечение более удобным. Современные инсулиновые помпы часто интегрируются с системами непрерывного мониторинга глюкозы (CGM), что позволяет получать данные о гликемии в реальном времени. Это способствует более эффективному управлению диабетом и снижает риск гипогликемии.

Таким образом использование инсулиновой помпы является инновационным и эффективным методом лечения сахарного диабета 2 типа, который предлагает пациентам новые возможности для управления своим состоянием. Хотя данный метод имеет свои ограничения и требует определённых затрат и усилий, преимущества, связанные с улучшением контроля гликемии и качеством жизни, делают его ценным инструментом в лечении диабета. В дальнейшем необходимы дополнительные исследования для определения оптимальных условий и стратегий использования инсулиновых помп для пациентов с СД 2 типа, чтобы максимизировать их эффективность и доступность.

Источники литературы

1. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY

BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

2. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

3. M Karabayev, N Gasanova, M Batirov, G Kosimova. “Principles and constants of the golden proportion as a criterion in donosological diagnostics of the functional states of the body and in the assessment of the probability of their changes”. Norwegian Journal of Development of the International Science. 77-1, 19-27, 2022.

4. Soyibjonovna, Q. G., & Abdusattor-o‘g‘li, E. E. (2024, June). RENTGEN NURINI TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHINING AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 484-486).**Kahn, S. E., et al. (2016).** "Pathophysiology and Treatment of Type 2 Diabetes: Perspectives on the Past, Present, and Future." *Diabetes Care*, *39(3), 377-382.*

ГЕНЕТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ МИОПИИ У ДЕТЕЙ

Гасанова Нигора Мухторовна
Ферганский медицинский институт общественного здоровья
Жураева Лобар Эркин қизи
Студентка Ферганского медицинского института общественного здоровья.

Миопия, или близорукость, является одним из наиболее распространённых нарушений рефракции, особенно среди детей и подростков. В последние десятилетия наблюдается резкий рост числа случаев миопии, что поднимает вопросы о причинах и механизмах ее развития. Одним из ключевых факторов, влияющих на формирование миопии, являются генетические предрасположенности. Исследования показывают, что миопия имеет значительную генетическую компоненту. Дети, у которых один или оба родителя страдают от близорукости, имеют значительно более высокий риск развития этого состояния. Например, если оба родителя близорукие, вероятность того, что их ребёнок также станет миопом, может достигать 50–60%.

Существует множество исследований, направленных на выявление специфических генов, связанных с миопией. Некоторые из них включают:

1. GANS: Этот ген участвует в регуляции роста глазного яблока и может быть связан с миопией.
2. Рецепторы дофамина: дофамин играет важную роль в развитии глаза, и мутации в генах, отвечающих за его рецепцию, могут быть связаны с миопией.
3. Гены, отвечающие за формирование коллагена: Изменения в этих генах могут влиять на структуру тканей глаза и его рост.

Эти исследования показывают, что миопия может быть многогенной болезнью, в развитии которой участвует несколько генетических факторов.

Генетические факторы играют ключевую роль в развитии миопии у детей, однако их влияние не является изолированным. Взаимодействие генетической предрасположенности с экологическими факторами, такими как учебные нагрузки и физическая активность, существенно влияет на риск развития близорукости. Осознание этих факторов позволяет более эффективно подходить к диагностике и профилактике миопии, что особенно важно в условиях увеличения её распространённости в современном обществе.

Источники литературы

1. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины, (1)*, 38-45. Ong, S. T., et al. (2017). "The Role of Genetics in Myopia Development." Clinical and Experimental Optometry, 100(5), 497-503.

2. Abdusattor-o‘g‘li, E. E., Soyibjonovna, Q. G., & Muxtorovna, G. N. (2024, June). LAZER NURI VA UNING HOZIRGI TIBBIY DIAGNOSTIKADA FOYDALANISHNING AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 486-488).

3. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

4. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

5. Карабаев, М. К., Сидиков, А. А., Атаханов, С., Касимова, Г. С., Мадаминов, С. М., & Мамадалиев, У. ОСОБЕННОСТИ ДОНОЗОЛОГИЧЕСКОГО УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ И НЕКОТОРЫХ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЗРОСЛОГО КОНТИНГЕНТА КОРЕННЫХ ЖИТЕЛЕЙ НИЗКО И СРЕДНЕГОРЬЯ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ.

ORGANIZMNING JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI MUSTAHKAMLASH VA PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARNI TAKOMILLASHTIRISH

Qosimova Gulnoza Soyibjonovna
FJSTI, “Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari” kafedra asistenti.
Salimjonov Muhammadjon Murodjon o‘g‘li
FJSTI, “Tibbiy profilaktika ishi” yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya. Organizmning himoya-moslashuv jarayonlari, jismoniy salomatlik darajasi sifatini oshiruvchi tizimli tibbiy-profilaktik ishlar amalga oshirish, aholi salomatlik darajasini aniqlash va hisoblashning matematik modellarini ishlab chiqish haqida bayon etilgan.

Аннотация. Описано проведение системных лечебно -профилактических мероприятий, направленных на повышение качества защитно - приспособительных процессов организма и уровня физического здоровья, а также разработка математических моделей оценки и расчёта состояния здоровья населения.

Abstract. It describes the implementation of systematic medical and preventive measures aimed at enhancing the quality of the body's protective and adaptive processes and the level of physical health, as well as the development of mathematical models for assessing and calculating the health status of the population.

Kalit so‘zlar: himoya-moslashuv jarayonlari, salomatlik darajasi, donozologik holatlar, gomeostaz, immunitet, matematik modellash.

Kirish. Sog‘liqni saqlashning barcha tashkiliy tuzilmalari salomatlikni saqlash emas, kasalliklarni aniqlash, tashxis qo‘yish va davolashga qaratilgan. Tibbiyotdagi profilaktik ishlar faqat muayyan patologiya turlariga qaratilgan bo‘lib, uning amaliy vazifalari kasalliklarning oldini olish va davolash masalalari bilan chambarchas bog‘liqdir. Kelajak tibbiyoti davolash bilan bir qatorda sog‘lom odamlarning sog‘ligini saqlashga e’tiborini qaratishi kerak. Sog‘lom insonlarning salomatligini saqlash bo‘yicha profilaktik chora-tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirilishi zarur.

Inson organizmi turli xildagi ta’sirlarga uchrab, atrof-muhit ta’sirlariga himoya-moslashuv reaksiyalarini keltirib chiqaradi. Salomatlik darajasi atrof-muhit sharoitlariga organizmning himoya - moslashuv jarayoni sifatida ko‘riladi. Salomatlikning o‘lchovi esa organizmning moslashuvchanlik imkoniyatlari, ya’ni asosiy hayotiy tizimlarning gomeostazini saqlash qobiliyatidir.

Sog‘liqdan kasallikka o‘tish organizmning moslashuvchanlik imkoniyatlarining pasayishi bilan bog‘liq bo‘lib, nafaqat ijtimoiy-mehnat yuklamalariga, balki kundalik oddiy yuklamalarga ham mos ravishda javob berish qobiliyatining kamayishini anglatadi. Inson organizmida sog‘liq va kasallik orasida bir qator o‘tish holatlari yuzaga keladi, ular donozologik holatlar deb ataladi. Donozologik holatlarning rivojlanishi funksional zaxiralar kamayishi va organizmning asosiy tizimlari gomeostazini saqlab qolish uchun zarur bo‘lgan boshqaruv tizimlari zo‘riqishi bilan bog‘liq.

Ma’lumki, salqin va yomg‘irli kunlar boshlangach, havoda namlik darajasi ortib, organizmning imuniteti pasayadi. Organizm bahor, kuz oylarida havo xarorati ta’siriga qarshilik qilish bilan birga virus va zararli bakteriyalarga qarshi kurashish hisobiga tananing atrof-muhit bilan muvozanatini saqlash uchun funksional resurslarning safarbar qilinishi zarur bo‘ladi. Bu esa boshqaruv tizimlarining zo‘riqishini talab qiladi. Tinch holatda organizmning funksional holat imkoniyatlari pasayib, himoya-moslashuv qobiliyati kamayadi. Bahor va kuz fasllari yilning o‘tish davrlari bo‘lib, organizm, uchun muhim fiziologik o‘zgarishlarni keltirib chiqaradi. Bu davrda turli xil virusli va allergik kasalliklar avj oladi. Gomeostazni saqlash uchun boshqaruv tizimlari minimal darajada zo‘riqadi, salomatlik darajasi pasayadi. Bundan tashqari, inson organizmida vitamin yetishmovchiligi(avitaminoz) kelib chiqadi. Shuning uchun erta bahorda vitaminlarga boy mahsulotlar – mevalar, rezavor o‘simliklar va giyohlardan tayyorlangan damlamalar orqali immunitetni ko‘tarish lozim. Serquyosh yurtimizda yetishtiriladigan nok, olma, uzum, qulupnay, lavlagi, baqlajon, ismaloq, jag‘-jag‘, yalpiz kabi turli xil mahsulotlar doimiy istemol qilib yuradigan insonning immuniteti kasalliklarga chidamli bo‘ladi. Agar sog‘liqni saqlash bo‘yicha maxsus tibbiy-profilaktik choralar ko‘rilmasa, mehnatga layoqatli yoshdagi odamlar o‘z salomatligini tezda yo‘qotib, organizmning moslashuvchanlik imkoniyatlari va ish qobiliyati pasayib boradi.

Xulosa. Sog‘liqni saqlash tizimining tibibiy-profilaktik ishlari yuqorida bayon etilganidek, uning asosan kasalliklarni davolashga qaratilgani bilan bog‘liqdir. Shuning uchun sog‘liqni emas, balki sog‘lomlikni targ‘ib qiluvchi yangi salomatlik darajasi sifatini oshiruvchi tizimli ishlar amalga oshirish, aholi salomatlik darajasini aniqlash va hisoblashning matematik modellarini ishlab chiqish zarur. Bu model organizmning adaptatsion imkoniyatlarini baholashga imkon beradi. Shu orqali sog‘lom jamiyatni barpo etish uchun muhim qadam tashlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

5. Баевский Р. М. Оценка адаптационных возможностей организма и риск развития заболеваний / Р. М. Баевский, А. П. Берсенева. — М.: Медицина, 1997.

6. В. М. Баранов, Р. М. Баевский, А. П. Берсенева, В. М. Михайлов. “ОЦЕНКА АДАПТАЦИОННЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ ОРГАНИЗМА ОРГАНИЗМА ОРГАНИЗМА ОРГАНИЗМА ОРГАНИЗМА И ЗАДАЧИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЗДРАВООХРАНЕНИЯ”, 2004 г.

7. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

8. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины,(1)*, 38-45.

9. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the

adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

10. Карабаев, М. К., Сидиков, А. А., Атаханов, С., Касимова, Г. С., Мадаминов, С. М., & Мамадалиев, У. ОСОБЕННОСТИ ДОНОЗОЛОГИЧЕСКОГО УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ И НЕКОТОРЫХ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЗРОСЛОГО КОНТИНГЕНТА КОРЕННЫХ ЖИТЕЛЕЙ НИЗКО И СРЕДНЕГОРЬЯ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ.

11. Soyibjonovna, Q. G., & Muhammadqodir Abdug‘ofur o‘g, A. (2024, June). ELEKTROKARDIOGRAMMA (EKG) QO‘LLANILISHINING FIZIKAVIY AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 481-484).

12. Soyibjonovna, Q. G., & Abdusattor-o‘g‘li, E. E. (2024, June). RENTGEN NURINI TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHINING AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 484-486).

BOSH MIYA O‘SMALARINI TASHXISLASH VA DAVOLASHDA ZAMONAVIY DIAGNOSTIK APPARATLARNING O‘RNI

Qosimova Gulnoza Soyibjonovna
FJSTI “Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari” kafedra assistenti
Tojialiyev Samandar Hasan o‘g‘li
FJSTI “Pediatriya” yo‘nalishi talabasi
Abduqoxxorov Muxammadqodir Abdug‘ofur o‘g‘li
FJSTI “Pediatriya” yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bosh miya o‘smalari va ularning rivojlanishiga olib keluvchi omillar, tashxislash va davolashning asosiy jihatlari, diagnostik usullar, kompyuter tomografiyasi va magnit-rezonans tomografiya orqali o‘smaning aniqlanishi va baholanishi muhimligi haqida ma’lumot berilgan.

Аннотация. В статье представлена информация об опухолях головного мозга и факторах, приводящих к их развитию, основных аспектах диагностики и лечения, методах диагностики, значении выявления и оценки опухолей с помощью компьютерной и магнитно -резонансной томографии.

Abstract. The article presents information about brain tumors and factors leading to their development, the main aspects of diagnosis and treatment, diagnostic methods, the importance of detecting and assessing tumors using computed tomography and magnetic resonance imaging.

Kalit so‘zlar: bosh miya o‘smalari, kompyuter tomografiyasi, magnit-rezonans tomografiya, rentgen nurlari, magnit maydon, radio to‘lqinlar, tesla, proton.

Kirish. Bosh miya o‘smalari — kalla suyagi ichida joylashgan har qanday patologik o‘sishlar yoki hosilalar hisoblanadi. Erta aniqlangan bosh miya o‘smalari samarali davolanish imkonini oshiradi. Agar katta o‘lchamdagi yoki klinik jihatdan xavfli bo‘lishi mumkin bo‘lgan o‘smaga shubha qilinsa, diagnostik tekshiruvlar, masalan, kompyuter tomografiyasi (KT) yoki magnit-rezonans tomografiya (MRT) o‘tkazilishi zarur. Ushbu usullar o‘smalarning aniqligi va joylashuvi haqida to‘liq tasavvur beradi, bu esa davolash rejasini tuzishda muhim rol o‘ynaydi.

Muntazam ravishda va uzoq uyali telefonda gaplashish, ayrim olimlar fikricha insonlarda bosh miya saratoni rivojlanishi ehtimolini oshiradi. Bosh miya o‘smalari - kalla suyagi ichida hosil bo‘ladigan har qanday o‘smalardir. Bosh miya o‘smalarining erta belgilari miyaning qaysi qismida o‘sma hosil bo‘lgan bo‘lsa o‘sha joydagi simptomlar bilan boshlanadi. Aynan o‘sma paydo bo‘lgan joydan miya hujayralari qo‘zg‘alishi, uning funksiyasi buzilishi boshlanadi. O‘smaning fizik va kimyoviy ta’siri, miya qon tomirlarining zararlanishi, tomirlarning ezilishi hisobiga ishemiya kelib chiqishi, nerv tolalarining va hujayralarning qisilishi hisobiga kamchiliklar paydo bo‘la boshlaydi.

Bosh miya saratonining belgilari xilma-xil bo‘lib, ko‘p hollarda boshqa kasalliklar belgilarini eslatgani uchun tashxislash qiyin bo‘ladi. O‘sma simptomlari bosh miyaning qaysi qismida joylashgan o‘rniga bog‘liq. Masalan, peshona sohasida joylashganda - tayanch-harakat apparati faoliyati va muvozanatni, ruhiyatini boshqarish buzilishi, o‘zini noadekvat tutishi, harakatini sekinlashuvi va epileptik

hurujlar kuzatiladi. Bosh miya o‘smalarini erta aniqlash uchun bir necha diagnostik usullar olib boriladi. Bu esa bemorlarning hayot sifatini oshirish va davolashning samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Bosh miya o‘smasini joylashgan o‘rnini aniqlash va baholash uchun bir necha diagnostik usullar qo‘llaniladi. Nevropatolog tekshiruvi orqali reflekslar, mushak tonusi, harakat va sezgi o‘zgarishlari baholanadi. Oftalmolog tekshiruvida ko‘z tubi nervlarining shikastlanishi, bosim oshishi belgilarini, ko‘ruv o‘tkirligi, oftalmoskopiya va ko‘ruv maydoni kengligi tekshiriladi.

Ushbu dastlabki tekshiruvlar o‘smaning mavjudligini gumon qilishga imkon beradi. Keyinchalik aniqlik kiritish uchun yuqori aniqlikdagi tasvirlash usullari, masalan, **kompyuter tomografiyasi (KT)** va **magnit-rezonans tomografiya (MRT)** qo‘llanadi. Bu usullar o‘smaning hajmi, joylashuvi va strukturaviy xususiyatlarini aniq baholash imkonini beradi.

Kompyuter tomografiyasi KT tananing ichki tuzilmalarining batafsil tasvirlarini yaratish uchun rentgen nurlari va kompyuter texnologiyalarini birlashtiradi. KT apparati rentgen quvvati yordamida inson tanasi orqali nurlarni yuboradi va turli to‘qimalar (suyak, mushak, suyuqlik) orqali o‘tadi. Har bir to‘qimaning rentgen nurlarini so‘rish qobiliyati ko‘ra har xil. Rentgen nurlari bemorning tanasidan o‘tgach, apparatdagi detektorlar tomonidan qabul qilinadi. Detektorlar tanadan qaytgan nur miqdorini o‘lchaydi va bu ma'lumotlar raqamli signalga aylantiriladi. Kompyuter tanadan o‘tgan rentgen nurlari haqidagi ma'lumotlarni qayta ishlaydi. Har bir o‘lchov nuqtasi uchun rentgen nurlarining so‘rilish darajasi aniqlanadi, natijada ichki organlarning batafsil va aniq tasviri yaratiladi.

Magnit-rezonans tomografiya (MRT) – bu magnit maydon va radio to‘lqinlardan foydalanib, yadro magnit-rezonans hodisasi yordamida ichki organlar va to‘qimalarni o‘rganish uchun tomografik tibbiy tasvirlarini olishning bir usuli hisoblanadi. MRT apparatida juda kuchli magnit (odatda 1,5 tesla yoki undan yuqori) ishlatiladi. Tananing ichidagi vodorod atomlari protonlari bu magnit maydon ta'sirida ma’lum tartibda joylashadi. Magnit maydon ta’sirida tartiblangan protonlar MRT apparati orqali yuborilgan radio to‘lqinlar bilan qo‘zg‘atiladi. Ushbu radio to‘lqinlar protonlarni bir necha mikrosekund davomida boshqa energiya holatiga o‘tkazadi. Protonlar o‘z energiya holatini asl holatiga qaytarishda radio to‘lqinlarni qayta chiqaradi. Ushbu chiqayotgan signallar apparatdagi sezgir detektorlar tomonidan qabul qilinadi. Protonlardan qaytgan radio signallar kompyuter tomonidan o‘lchanadi va ularning miqdori va fazoviy joylashuvi hisoblanadi. Turli to‘qimalar (masalan, suv, yog‘, suyak) o‘ziga xos proton konsentratsiyasiga ega bo‘lgani uchun tasvirda farq qiladi. MRT asosan miya, orqa miya, mushaklar va boshqa yumshoq to‘qimalarni tekshirishda qo‘llaniladi.

Kompyuter tomografiyasi (KT) orqali miyadagi o‘smaning joylashuv o‘rnini, hajmini, o‘smaning kistoz qismini, qon quyilgan joylarni, metastazlarni aniqlab olsa bo‘ladi. *KT*- rentgen nurlari yordamida bosh miyaning qatlamli tasvirini olish, tuzilmaviy o‘zgarishlarni aniqlaydi. *MRT*- magnit maydoni yordamida miyaning yuqori aniqlikdagi tasvirini olish, o‘smaning joylashuvi, kattaligi va tuzilmasini baholanadi. O‘smaning tarqalganlik darajasi va atrof hujayralarni zararlashini aniq ko‘rsatib beradi.

Xulosa. Bosh miya saratoni ko‘pincha umumiy va noaniq belgilar bilan namoyon bo‘ladi, masalan, bosh og‘rig‘i, ko‘ngil aynishi, muvozanatning buzilishi yoki kognitiv o‘zgarishlar. Ushbu simptomlar boshqa kasalliklarda ham uchraydi, bu esa tashxisni murakkablashtiradi. Bosh miya o‘smalarini aniqlashda bir qator diagnostik usullar qo‘llaniladi. Ushbu tekshiruvlar o‘zaro birgalikda o‘tkazilib, o‘smaning lokalizatsiyasi, turi va klinik ahamiyatini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M Karabayev, N Gasanova, M Batirov, G Kosimova. “Principles and constants of the golden proportion as a criterion in donosological diagnostics of the functional states of the body and in the assessment of the probability of their changes”. Norwegian Journal of Development of the International Science. 77-1, 19-27, 2022.

2. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

3. Косимова, Г., Бахтиерова, М., & Исроилова, Д. (2024). ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛАЗЕРА В МЕДИЦИНЕ. *Solution of social problems in management and economy*, *3*(6), 31-33.

4. Soyibjonovna, Q. G., & Muhammadqodir Abdug‘ofur o‘g, A. (2024, June). ELEKTROKARDIOGRAMMA (EKG) QO‘LLANILISHINING FIZIKAVIY AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 481-484).

5. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины, (1)*, 38-45.

6. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

BUYRAK- TOSH KASALLIKLARI VA ULARNI ANIQLASHDA OPTIK NURLARNING AHAMIYATI

Qosimova Gulnoza Soyibjonovna,
FJSTI, "Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari" kafedrasi assistenti
Salohiddinov Muhammadqodir Zaylobiddin o‘g‘li,
FJSTI “Pediatriya” yo‘nlishi talabasi

Annotatsiya. Buyrak-tosh kasalliklari buyraklarda tuzlardan qattiq tuzilmalar hosil bo‘ladigan kasallikdir. Zamonaviy optik jixozlaridan buyrak-tosh kasalliklarini kelib chiqish sabablari va ularni etiologiyasi hamda tashxis qo‘yishda foydalanish invaziv usul bo‘lib, ochiq jarrohlikka ehtiyojni kamaytiradi.

Аннотация. Почечнокаменная болезнь — это заболевание, при котором в почках образуются твёрдые образования из солей. Современные оптические устройства используются для изучения причин возникновения мочекаменной болезни, её этиологии и постановки диагноза. Это минимально инвазивный метод, который снижает необходимость в открытых хирургических вмешательствах.

Abstract. Kidney stones are a disease in which hard salt formations form in the kidneys. Modern optical devices are used to study the causes of urolithiasis, its etiology and diagnosis. This is a minimally invasive method that reduces the need for open surgical interventions.

Kalit so‘zlar. buyrak-tosh kasalliklari, rentgenologiya, ekskretor urografiya, litotripsiya, optika.

Hozirgi kunda buyrak-tosh kasalliklari keng tarqalib bormoqda. Modda almashinuvining buzilishi tufayli yuzaga kelgan, buyrak va siydik yo‘llarida toshlarning paydo bo‘lishi bilan harakterlanuvchi kasallikdir. Ba’zi hollarda toshlar qovuqqa o‘tishi yoki siydik yo‘llarida qotib qolishi mumkin. Optik jihozlar yuqori aniqlikda tasvir olish, toshning o‘lchami, joylashuvi va tarkibini aniqlash imkonini beradi.

Optika grekcha “opticos” – ko‘raman degan so‘zdan olingan bo‘lib, yorug‘likning tabiati, yorug‘lik hodisalari qonuniyatlari va yorug‘lik bilan moddalarning o‘zaro ta’siriga doir jarayonlarni o‘rganiladigan fizikaning bir bo‘limidir. Optikaning amaliy qo‘llanish sohasi keng bo‘lib, astronomiya, geologiya, biologiya, tuproqshunoslik, san’atshunoslik, kimyo sanoati, geologiya-qidiruv ishlari va tibbiyotda qo‘llaniladi.

Ayirish odam organizmi uchun muhim fiziologik jarayon bo‘lib, uning natijasida organizm moddalar almashinuvida hosil bo‘lgan qoldiq moddalardan uzluksiz ravishda tozalanib turadi. Modda almashinuvining buzilishi tufayli yuzaga kelgan, buyrak va siydik yo‘llarida toshlarning paydo bo‘lishi bilan buyrak-tosh kasalliklari kelib chiqadi. Bugungi kunda tosh kasalliklri keng tarqalmoqda. Bu toshlar o‘lchami bir necha millimetrdan 10 sm gacha va shakli bilan farq qilishi mumkin.

Buyrak-tosh kasalligi – bu endogen yoki ekzogen sabablarga ko‘ra yuzaga kelgan, jumladan irsiy harakterga ega bo‘lgan kasallikdir. Mumiyolangan murdalarni (qadimiy eramizdan 350-400 yillar avval) tekshirish natijasida topilgan buyrak

toshlariga ko‘ra, bu kasallikning naqadar qadimiy ekanligi to‘g‘risida xulosa qilish mumkun. Buyrak-tosh kasalligi dunyoning barcha davlatlarida ham uchraydi[1]. Ba’zi xududlarda tosh kasalligining ko‘p tarqalganligi, uning kelib chiqishida tashqi muhitning ta’siri borligidan dalolat beradi.

1. Iqlim, tuproqning biogeokimyoviy strukturasi, suv va floraning fizik-kimyoviy hususiyatlari, aholining ichimlik va ovqatlanish rejimi.

2. Mehnat sharoiti - zararli ishlab chiqarish, og‘ir jismoniy mehnat kabi sabablar va maishiy hususiyatlar, ya’ni bir xil, kamharakat hayot tarzi.

3. Tosh hosil bo‘lishiga ta’sir qiluvchi, tosh paydo qiluvchi moddalarni ko‘p miqdorda saqlovchi oziq-ovqatlarni haddan tashqari va doimiy iste’mol qilish.

4. A va B guruh vitaminlarining yetishmovchiligi bo‘lishi mumkin.

Kasalliklarni kelib chiqishiga sabablar juda ham ko‘plab keltirish mumkin, lekin ovqatlanish ratsionini buzilishi, noto‘g‘ri turmush tarzi asosiy omillardan biri bo‘lib kelmoqda. Buyrak-tosh kasalligida buyraklardagi morfologik o‘zgarishlar, undagi toshlarning joylashuviga, ularning tuzilishiga va hajmiga bog‘liq. Rentgenologik tekshiruv siydik-tosh kasalligini tashxislashda hal qiluvchi ahamiyatga ega[2].

Ekskretor urografiya - siydik ayiruv yo‘llarini tekshirishning rentgenologik usuli bo‘lib, buyrakning tanaga kiritilgan ma’lum rentgen kontrast moddalarni ajratish qobiliyatiga asoslanadi,natijada rentgenogrammada buyraklar va siydik yo‘llarining tasviri paydo bo‘ladi. Bir qator rentgenografiyalar ketma-ketlikda olinadi: birinchisi — 5-7 daqiqada, ikkinchisi — 12-15 daqiqada, uchinchisi — 20-25-daqiqada, kontrast moddaning chiqarilishi kechiksa, 45- va 60-daqiqalarda xam suratlar olinadi. Buyraklar tomonidan kontrast moddaning ekskretsiyasi va uning siydik yo‘llari orqali o‘tishi haqida tasavvurga ega bo‘lishga imkon beradi.

Buyrakdagi uncha katta bo‘lmagan tosh kasalliklarini davolashning usullaridan biri distansion zarb-to‘lqinli *litotripsiya* hisoblanadi. Distansion zarb-to‘lqinli litotripsiya 2 sm dan katta toshlarni parchalay olmaydi. Ba’zi hollarda qalin va katta o‘lchamli toshlar qayta-qayta litotripsiya orqali parchalanadi. Parchalangan toshlar o‘zi mustaqil siydik yo‘li, siydik pufagi orqali tashqariga chiqariladi. Rentgen va UTT nazorati ostida uncha katta bo‘lmagan teri kesmasi orqali nefroskop va litotriptor zondi buyrakka kiritiladi. Bu toshlarni parchalabgina qolmasdan, ularni olib ham chiqadi. Bu usul orqali har xil o‘lchamli toshlarni olib tashlash mumkin[4].

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, bu kasalliklarni davolash usulari kundan kunda yangilanib bormoqda, asosan bularga hozirgi kungadi zamonaviy optik jixozlarini yaratilishi bilan uzviy bog‘liq, chunki bu texnikallar orqali kasalliklarga tez va samarali tashxis qo‘yilishi, kasaliklarni ilk bosqichida davolashga imkon yaratmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M Karabayev, N Gasanova, M Batirov, G Kosimova. “Principles and constants of the golden proportion as a criterion in donosological diagnostics of the functional states of the body and in the assessment of the probability of their changes”. Norwegian Journal of Development of the International Science. 77-1, 19-27, 2022.

2. Косимова, Г., Гасанова, Н., & Толлибоева, Г. (2024). ВЛИЯНИЕ ЭЛЕКТРИЧЕСКОГО ТОКА НА ОРГАНИЗМ ЧЕЛОВЕКА. *Models and methods in modern science*, *3*(9), 73-75.

3. Косимова, Г., Бахтиерова, М., & Исроилова, Д. (2024). ПЕРСПЕКТИВЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЛАЗЕРА В МЕДИЦИНЕ. *Solution of social problems in management and economy*, *3*(6), 31-33.

4. Soyibjonovna, Q. G., & Muhammadqodir Abdug‘ofur o‘g, A. (2024, June). ELEKTROKARDIOGRAMMA (EKG) QO‘LLANILISHINING FIZIKAVIY AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 481-484).

5. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины, (1)*, 38-45.

6. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

7. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

8. Гасанова, Н. (2024, April). ОСОБЕННОСТИ САМООРГАНИЗАЦИИ И ПРОСТРАНСТВЕННОЕ РАСПРЕДЕЛЕНИЕ МИКРОКРИСТАЛЛОВ КОМПОНЕНТОВ СЛЮНЫ ПРИ ДЕГИДРАТАЦИИ ИХ КАПЛИ КАК МАРКЕР ОЦЕНКИ УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ ОРГАНИЗМА. In Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies (Vol. 3, No. 5, pp. 34-35).

9. Indu Khurana, “Textbook of Human Physiology” for Dental Students, 2013.

QON VA IMMUN TIZIMI, REOLOGIK XOSSALARINING BAHOLASH USULLARINI SOG‘LIQNI SAQLASHDA AHAMIYATI

Qosimova Gulnoza Soyibjonovna,
FJSTI, “Biotibbiyot muhandisligi, biofizika va axborot texnologiyalari” kafedrasi assistenti
Ma’murova Marjona Ulug‘bek qizi,
FJSTI “Davolash ishi” yo‘nlishi talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qonning reologik xususiyatlariga va ularning immun tizimiga ta’siriga e’tibor qaratib, qon va immunitet tizimi o‘rtasidagi munosabatlar o‘rganiladi. Qon reologiyasini baholash usullari va ularning immunitet bilan bog‘liq kasalliklarni erta aniqlash, tashxislashdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Аннотация. В этой статье рассматривается взаимосвязь между кровью и иммунной системой, уделяя особое внимание реологическим свойствам крови и их влиянию на иммунную функцию. Обсуждаются методы оценки реологии крови и их значение в раннем выявлении и диагностике заболеваний иммунного характера.

Annotation. This article examines the relationship between blood and the immune system, with particular attention to the rheological properties of blood and their impact on immune function. Methods for assessing blood rheology and their importance in the early detection and diagnosis of immune-related diseases are discussed.

Kalit so‘zlar: reologiya, bioreologiya, immun tizimi, qovushqoqlik, qon oqimi, magnit rezonans tomografiya, tezlik gradiyenti.

Kirish. Inson organizmida qon va immun tizimi o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar sog‘liqni saqlash va kasalliklarni davolashda muhim ahamiyatga ega. Qonning reologik xossalari, ya’ni uning oqish xususiyatlari, qovushqoqligi va hujayra deformatsiyasi, qon oqimi va immun tizimiga bevosita ta’sir qiladi. Qon reologiyasining o‘zgarishi immun javoblarni sezilarli darajada ta’sir qilishi mumkin. Shu bilan birga, qon reologiyasini baholash uchun zamonaviy diagnostik usullar qizil qon hujayralari fiziologiyasi va turli gematologik kasalliklari haqida tushuncha beradi, hamda davolash usullarini takomillashtirishga yordam beradi.

Reologiya – bu fizikaning suyuqliklarning oqimini va qoldiq deformatsiyasini o‘rganuvchi bo‘limi, bioreologiya – biofizikaning biologik suyuqliklar (qon) ning oqimini, to‘qimalar, mushaklar, suyak va qon oquvchi tomirlar deformatsiyasini o‘rganuvchi bo‘limidir. Suyuqliklarning muvozanat va harakatlarini, suyuqliklarda kuchlarning tarqalishi, harakati davomida o‘zgarish qonunlarini gidravlika bo‘limi o‘rganadi. Gidrodinamika qonunlariga ko‘ra, naylarda suyuqlikning oqimi ikki kuchga: suyuqlikning harakatini yuzaga keltiruvchi bosimga va oqayotgan suyuqlikning qovushqoqligiga bog‘liq. Bu kuchlarning birinchisi suyuqliklarning harakatini ta’minlasa, ikkinchisi suyuqlik harakatiga to‘sqinlik qiladi. Suyuqliklarga ta’sir qiladigan kuchlar qo‘yilish usuliga qarab ichki va tashqi kuchlarga ajratiladi.

Real suyuqliklar oqqanda ayrim qatlamlari bir-biriga shu qatlamlarga urinma ko‘rinishda yo‘nalgan kuchlar bilan o‘zaro ta’sirlashishiga *qovushqoqlik* deyiladi. Ichki ishqalanish kuchining modda turiga va tashqi sharoitga bog‘liqligini ifodalovchi

kattalik *qovushqoqlik koeffisenti* deyiladi. Har qanday qiymatning bir qiymatga silliq bosqichma-bosqich o‘tishi, uzluksiz o‘zgarishi *gradiyent* deyiladi. $\Delta v/\Delta x$ – tezlik gradiyenti. Ichki ishqalanish kuchi esa Nyuton qonuni orqali ifodalanadi:

$$F_{ishq} = \eta \cdot \frac{\Delta v}{\Delta x} \cdot S$$

Qonning qovushqoqligi, masalan, tezlik gradiyenti oshgan sari eksponensial ravishda kamayadi, bu esa qon oqimini va immun hujayralarining taqsimlanishini boshqaradi. Venalardagi past oqim tezligida qizil qon hujayralarining agregatsiyasi qon qovushqoqligini oshiradi, bu esa qon oqimini sekinlashtirishi va immun hujayralarining taqsimlanishiga ta’sir qilishi mumkin. Aksincha, yuqori tezlik gradiyentiga ega qon tomirlar, masalan, arteriyalar va arteriollarda, qizil qon hujayralarining agregatlari ajralib chiqadi va normal qon oqishini ta’minlaydi.

Qovushqoq suyuqlikning trubalarda oqishi tibbiyot uchun alohida ahamiyatga ega, chunki qon oqish sistemasi turli diametrli silindrik tomirlardan iborat. Silindrik nay o‘qi bo‘ylab harakatlanayotgan zarrachalar eng katta tezlikka ega bo‘ladilar. Qon tomir devoriga yaqin qatlam deyarli qo‘zg‘almasdir. Qon qovushqoqligi va eritrotsitlar agregatsiyasi ayrim kasalliklarni erta bosqichda aniqlashga yordam beradi. Yallig‘lanish paytida qon qovushqoqligi oshishi yoki plazma oqsillari konsentratsiyasida o‘zgarish kuzatiladi. Bu o‘zgarishlar yallig‘lanish jarayonlarini erta aniqlash imkonini beradi. Ba’zi o‘sma hujayralari qon reologiyasiga ta’sir qilishi mumkin. Erta bosqichlarda qonning qovushqoqlik ko‘rsatkichlarini kuzatish bilan onkologik kasalliklarni aniqlashga yordam beradi. Qonning reologik xossalarini baholashning ahamiyati, ayniqsa, yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, masalan, gipertenziya, diabet va boshqa kasalliklarda sezilarli bo‘lib, bu kasalliklar qonning reologiyasini o‘zgartirishi va uning oqishini yomonlashtirishi mumkin.

Reologik xossalarni o‘rganish va tahlil qilishning yangi metodlari, masalan, magnit rezonans tomografiya (MRT) qonning reologiyasini yanada aniqroq baholash mumkin. MRT mikrotsirkulyatsiyani baholashda miya, yurak va boshqa hayotiy organlarda qonning harakatida paydo bo‘ladigan nozik o‘zgarishlarni, qon oqimidagi to‘siqlar yoki sekinlashishlar, ya’ni tromblar yoki emboliyalarni erta aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Qon reologiyasi va immun funktsiyasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tushunish qon aylanish tizimining murakkabligini va uning salomatlik va kasallikdagi rolini tushunish uchun juda muhimdir. Ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar bir qator gematologik va immunitet bilan bog‘liq sharoitlar uchun diagnostika imkoniyatlari va yangi davolash usullarini ishlab chiqishga, kasalliklarni boshqarish strategiyalarini yaxshilashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M Karabayev, N Gasanova, M Batirov, G Kosimova. “Principles and constants of the golden proportion as a criterion in donosological diagnostics of the functional states of the body and in the assessment of the probability of their changes”. Norwegian Journal of Development of the International Science. 77-1, 19-27, 2022.

2. Soyibjonovna, Q. G., & Muhammadqodir Abdug‘ofur o‘g, A. (2024, June). ELEKTROKARDIOGRAMMA (EKG) QO‘LLANILISHINING FIZIKAVIY AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 481-484).

3. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины, (1)*, 38-45.

4. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

5. Soyibjonovna, Q. G., & Abdusattor-o‘g‘li, E. E. (2024, June). RENTGEN NURINI TIBBIYOTDA QO‘LLANILISHINING AHAMIYATI. In *Fergana state university conference* (pp. 484-486).

6. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

7. Гасанова Н.М. Особенности самоорганизации и пространственное распределение микрокристаллов компонентов слюны при дегидратации их капли как маркер оценки уровня физического здоровья организма/International conference –“Scientific conference on multidisciplinary studies” 2024-11 May. P. 34-35

8. Гасанова Н.М. Формирование морфологических неоднородностей микрокристаллов дегидратированной слюны в соответствии с изменением донозологическогоор уровня физического здоровья организма// NamDU Ilmiy Axborotnomasi - 2024.-T.1, №5- С. 305-311.

9. Indu Khurana, “Textbook of Human Physiology” for Dental Students, 2013.

SEMIRISH VA UNDAN KELIB CHIQADIGAN MUAMMOLAR

Alfraganus Universiteti tibbiyot fakulteti
Davolash ishi yo'nalishi 405-guruh
talabasi Atajanova Asalxon

ANNOTATSIYA: Semizlik XXI asrning global muammolaridan biri hisoblanib, uning insonlar o'rtasida tarqalishi keskin tarzda oshib bormoqda. Semizlik bu- inson tanasida ortiqcha yog'larning to'planishi hisoblanadi. Buning natijasida turli xil jiddiy kasalliklar, nogironlik va hattoki og'ir holatlarda o'limga ham sabab bo'lishi mumkin. Hozirda semirishning oqibatida 2-tur diabet ko'p holatlarda kuzatilmoqda. Alkogolizm, ortiqcha yog' mahsulotlari ko'p bo'lgan taomlar va eng muhimi tez tayyor bo'ladigan oziq ovqatlar iste'mol qilish hisonlanadi. Semizlikning asosiy ko'rsatkichlaridan biri tana massasi indeksi (TMI) hisoblanadi. TMI qiymati 25-29,9 bo'lsa, ortiqcha vazn 30 va undan yuqori bo'lsa semizlik deb qaraladi.

KALIT SO'ZLAR: semizlik, uning oqibatida kelib chiqadigan muammolar, tana vazni indeksi, davolash.

АННОТАЦИЯ: Ожирение считается одной из глобальных проблем XXI века, и его распространенность среди людей резко возрастает. Ожирение — это накопление избыточного жира в организме человека. Это может привести к различным серьезным заболеваниям, инвалидности и даже смерти в тяжелых случаях. В настоящее время диабет 2 типа становится все более распространенным вследствие ожирения. Рассматриваются алкоголизм, чрезмерное употребление жирной пищи и, самое главное, фастфуд. Одним из основных показателей ожирения является индекс массы тела (ИМТ). Значение ИМТ от 25 до 29,9 считается избыточным весом, а значение ИМТ от 30 и выше — ожирением.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: ожирение, сопутствующие ему проблемы, индекс массы тела, лечение.

ABSTRACT: Obesity is considered one of the global problems of the 21st century, and its prevalence among people is increasing sharply. Obesity is the accumulation of excess fat in the human body. As a result, it can cause various serious diseases, disability, and even death in severe cases. Currently, type 2 diabetes is observed in many cases as a result of obesity. Alcoholism, consumption of foods high in fat, and most importantly, fast food are considered to be the main causes. One of the main indicators of obesity is the body mass index (BMI). If the BMI value is 25-29.9, then overweight is considered to be 30 and above.

KEYWORDS: obesity, problems arising from it, body mass index, treatment.

Semizlik- inson organizmida ortiqcha miqdorda yog' birikmalarining to'planishi hisoblanadi. Semirib ketish oziq-ovqat iste'moli va sarflangan energiya o'rtasidagi nomutanosiblik, ya'ni oziq-ovqat iste'molining ko'payishi va energiya sarfining kamayishi bilan birga keladigan omillar natijasida rivojlanishi mumkin:

Qondagi insulinning yuqori darajasi;

Oshqozon osti bezi, jigar, ingichka va katta ichak tizimlarida buzilishlar (endokrin bo'lmagan patologiyaning semirishi);

Genetik kasalliklar.

Semizlik quyidagi turlarga bo'linadi:

Markaziy semirish—qorin bo‘shlig‘ida yog‘ning ortiqcha bo‘lishi. Bu eng xavfli turi hisoblanadi va statistik ma’lumotlarga ko‘ra yurak xastaligi, yuqori qon bosimi va diabetes mellitus xavfi ortishi bilan bog‘liq.

Gormonal buzilishlar asosida semirish ikki turga bo‘linadi: metabolizmda-gormonal o‘zgarishlar sodir bo‘ladigan standart va bunday o‘zgarishlar bo‘lmagan nostandart, metabolik jihatdan sog‘lom. Standart semirishdagi gormonal buzilishlar turli kasalliklarga olib kelishi mumkin, masalan, insulin qarshiligi. Metabolik jihatdan sog‘lom semizlik bachadon tanasining xavfli o‘smasi rivojlanishi uchun xavf omili hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda semirish har qanday yoshda yuzaga keladigan surunkali metabolik kasallik sifatida qaralmoqda. Bu aholining umumiy kasallanishi va o‘lim holatlarining ko‘payishi bilan bog‘liq. Rivojlangan jamiyatda semizlik darajasi irsiy omillardan qat’i nazar o‘sib bormoqda (genetik fondda o‘zgarishlar yo‘q).

1975-yildan 2016-yilgacha butun dunyo bo‘ylab semirib ketgan odamlar soni uch baravarga ko‘paydi. 1996-yildan 2016-yilgacha—59 % ga oshgan.

Turli mamlakatlarda semirish ham davlat byudjeti, ham fuqarolar uchun qo‘shimcha xarajatlarga olib keladi. 2019-yil uchun G20 davlatlari fuqarolarining ortiqcha vazni bilan bog‘liq muammolar tufayli yo‘qotishlari YaIMning 3,5 foizini tashkil qiladi. Keyingi 30 yil davomida OECD va G20 mamlakatlari uchun yo‘qotishlar prognozi 5,3 trillion dollarni tashkil etadi, bu Germaniya yoki Yaponiyaning o‘ttiz yillik byudjeti bilan solishtirish mumkin. Prognozga ko‘ra, semirishning oshishi Yevropa Ittifoqida soliqlarning 300 yevroga, AQShda esa 1350 dollarga oshishiga olib keladi.

Semirib ketish kognitiv pasayishni keltirib chiqaradi. Sichqonlar ustida o‘tkazilgan tajribalarda olimlar semiz va ozg‘in sichqonlarning o‘rganish qobiliyatini aniqlash natijasida buning mexanizmini ko‘rib chiqdilar. Semirib ketish bilan mikroglial hujayralar dendritik tikanlar (neyron membranasidagi o‘simtalar) yeydilar, ulardan yangi sinapslar o‘sadi va kerakli miqdorda yangi neyron aloqalari hosil bo‘lmaydi. Agar mikroglial hujayralarning dendritik umurtqa pog‘onalariga tegishi taqiqlangan bo‘lsa, semiz hayvonlarning kognitiv funktsiyalari nozik hayvonlarniki bilan bir xil bo‘ladi

XULOSA: Semizlik inson tanasida ortiqcha yig‘ilgan yog‘ hisoblanadi. Hozirda butun jahon davlatlarida va shu qatorida O‘zbekistonda ham ko‘plab tarqalgan jiddiy vasalbiy oqibatlarga sabab bo‘luvchi kasallik hisoblanadi. Tanadagi yig‘ilgan yog‘lar yurak qon tomir kasalliklari, xavfli o‘sma kasalliklari, diabetning 2-turi hamda boshqa ko‘plab kasalliklarga sabab bo‘lib kelmoqda. Bunday bemorlarimizga albatta birinchi navbatda jismoniy faollik muhim o‘rin tutadi. Ya’ni ko‘p vaqtni sarflamagan holatda haftada o‘rtacha 150 daqiqani sarflagan holatda jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish kerak. Ovqatlanish ratsioniga e’tibor berish ya’ni kaloriyalarni nazorat qilish, meva va sabzavotlar, to‘yimli oziq ovqatlarga e’tibor qaratish, stressni boshqarish,dori vositalari yordamida vaznni nazorat qilish kerak. Xulosa qilib aytadigan har bir inson sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishi va o‘z salomatliklatiga be’etibor qolmasliklari zarur. Semizlikga qarshi samarali kurashish muhim hisoblanadi. Albatta o‘z salomatligingizga e’tiborli bo‘ling.

YURAK ISHEMIK KASALLIGI VA ARTERIAL GIPERTENZIYA: ZAMONAVIY YONDASHUVLAR VA ILMIY TADQIQOTLAR

Ismatullayeva Nazira Sharobiddin qizi
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Davolash ishi yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi
Ilmiy rahbar: Sobirova Gulrux Xasanovna
Farg‘ona Jamoat Salomatligi Tibbiyot Instituti, Fiziologiya kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurak ishemik kasalligi (YIK) va arterial gipertenziyaning (AG) rivojlanish sabablari, patogenezi va zamonaviy davolash usullari yoritilgan. YIK va AGning o‘zaro bog‘liqligi, genetik predispozitsiya, biomarkerlar, endotelial disfunktsiya va ateroskleroz kabi patofiziologik omillar chuqur tahlil qilingan. Shuningdek, zamonaviy farmakoterapiya, interventsion usullar va profilaktik choralar jahon standartlari asosida ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Yurak ishemik kasalligi, arterial gipertenziya, ateroskleroz, biomarkerlar, genetik predispozitsiya, zamonaviy davolash, renin-angiotenzin tizimi.

Kirish: Yurak-qon tomir kasalliklari global salomatlik tizimi uchun eng jiddiy muammolardan biri hisoblanadi. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti (WHO) hisobotlariga ko‘ra, yurak ishemik kasalligi (YIK) va arterial gipertenziya (AG) har yili 18 milliondan ortiq o‘lim holatiga sabab bo‘ladi. Ushbu patologiyalar bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ularning kombinatsiyasi yurak-qon tomir tizimi faoliyatining izdan chiqishiga olib keladi. YIK va AG rivojlanishida ko‘plab omillar, jumladan, ateroskleroz, endotelial disfunktsiya, oksidlovchi stress, genetik predispozitsiya va yallig‘lanish jarayonlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu maqola ushbu patologiyalarning zamonaviy tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan diagnostik va davolash usullari bo‘yicha ilmiy tahlilni taqdim etadi.

Yurak ishemik kasalligi tiologiya va patogenezi

Etiologiya va patogenezi

YIKning asosiy sababi koronar arteriyalarda aterosklerotik jarayonlarning rivojlanishi bo‘lib, bu holat miokardga kislorod yetkazib berilishining buzilishiga olib keladi. Patogenezi quyidagilar bilan izohlanadi: Endotelial disfunktsiya: Azot oksidi (NO) ishlab chiqarilishining kamayishi arteriyalarning torayishi va ateroskleroz rivojlanishiga olib keladi. Lipid disbalansi: Past zichlikdagi lipoproteinlarning (PZLP) ortishi xolesterin plitalarining arteriya devorlarida to‘planishiga sabab bo‘ladi.

Yallig‘lanish jarayonlari: C-reaktiv oqsil (CRP) va interleykin-6 kabi biomarkerlarning ortishi aterosklerotik jarayonni kuchaytiradi.

Genetik predispozitsiya: PCSK9 va APOE genlaridagi mutatsiyalar yuqori xolesterin va tomir kasalliklarini rivojlantirish xavfini oshiradi.

Arterial gipertenziya

Etiologiya va patogenezi

AGning rivojlanishida murakkab mexanizmlar ishtirok etadi: Renin-angiotenzin-aldosteron tizimi (RAAS): RAASning giperfaolligi tomirlarning torayishi va suyuqlik zaxirasining ortishiga olib keladi. Endotelial disfunktsiya: NO sintezining pasayishi arterial bosimning oshishiga sabab bo‘ladi. Buyrak mexanizmlari:

Gipernatriemiya va suyuqlik ushlanishi qon hajmining ortishiga olib keladi. Genetik predispozitsiya: AG rivojlanishida ACE genidagi polimorfizmlar muhim rol o‘ynaydi.

YIK va AGning o‘zaro bog‘liqligi

AG YIK rivojlanishining asosiy xavf omillaridan biri bo‘lib, quyidagi mexanizmlar orqali patologiyaning rivojlanishiga hissa qo‘shadi:

Arterial gipertenziya koronar arteriyalardagi gidrodinamik bosimni oshiradi va ateroskleroz jarayonini tezlashtiradi. Gipertenziya endotelial disfunktsiyaga olib keladi, bu YIK rivojlanishini qo‘zg‘atadi. Miokard gipertrofiyasi gipertenziyaning uzoq davom etuvchi asoratlaridan biri bo‘lib, bu yurak yetishmovchiligiga olib keladi.

Zamonaviy davolash usullari

Farmakoterapiya

Statinlar: Xolesterin darajasini pasaytirib, aterosklerozni oldini oladi. pasaytiradi.

ACE ingibitorlari va ARBlar: RAAS faoliyatini blokirovka qilib, qon bosimini pasaytiradi va endotelial funksiyani yaxshilaydi.

Interventsion usullar

Koronar angioplastika: Aterosklerotik blokadalarni bartaraf etib, miokardga qon yetkazilishini tiklaydi.

Stentlash: Koronar arteriyalarni mexanik kengaytirish uchun ishlatiladi.

Bypass operatsiyasi: Miokardga qon oqimini qayta tiklash uchun qo‘llaniladi.

Profilaktik chora-tadbirlar

Sog‘lom turmush tarzi: Jismoniy faollikni oshirish va nosog‘lom ovqatlanish odatlarini kamaytirish.

Stressni boshqarish: Psixologik yordam gipertenziya xavfini kamaytiradi.

Biomarkerlar monitoringi: CRP va lipid profili yordamida kasallik xavfini erta aniqlash.

Zamonaviy tadqiqotlar

Yangi tadqiqotlar genetik diagnostika va biomarkerlarni kasallikni boshqarishning muhim qismi sifatida tavsiya qilmoqda. CRISPR texnologiyasi yordamida genetik predispozitsiyani aniqlash imkoniyatlari kengaymoqda. Shuningdek, yangi dori vositalari, jumladan, PCSK9 ingibitorlari va SGLT2 agonistlari YIK va AG davolashda yuqori samaradorlikni ko‘rsatmoqda.

Xulosa

Yurak ishemik kasalligi va arterial gipertenziya global sog‘liqni saqlash tizimida asosiy xavf omillari bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar bu kasalliklarning patogenezi va davolash usullarini yaxshilashda muhim hissa qo‘shmoqda. Profilaktika, erta diagnostika va innovatsion davolash usullaridan foydalanish orqali kasalliklarning xavfini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Libby P. "Atherosclerosis: Biology and Clinical Perspectives." The Lancet, 2022.

2. Yusuf S. "Hypertension and Cardiovascular Outcomes." New England Journal of Medicine, 2023.

3. WHO. "Global Burden of Cardiovascular Diseases: 2023 Report."
4. Braunwald E. "Heart Disease: A Textbook of Cardiovascular Medicine." 12th Edition, 2023.

СРАВНЕНИЕ ФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ В УСЛОВИЯХ ХИМИЧЕСКОГО И ИММОБИЛИЗАЦИОННОГО СТРЕССА С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ДИСПЕРСИОННОГО АНАЛИЗА (ANOVA)

Хомидчонова Ш.Х., Абдулхакимов А.Р.
Ферганский медицинский институт общественного здоровья

Введение: Стресс существенно влияет на функционирование желудочно-кишечного тракта, вызывая изменения в частоте дефекаций, моторной активности и секреции слизи. Для анализа этих изменений используется дисперсионный анализ (ANOVA), который позволяет выявить статистически значимые различия между химическим и иммобилизационным стрессом по ключевым функциональным параметрам кишечника.

Цель данного исследования — провести дисперсионный анализ (ANOVA) для оценки функциональных изменений в прямой кишке в ответ на химический и иммобилизационный стресс. В качестве исследуемых параметров были выбраны частота актов дефекации, моторная активность гладких мышц, секреторная активность (выделение слизи) и качество каловых масс. Все параметры оценивались в контрольной группе, группе с химическим стрессом и группе с иммобилизационным стрессом.

Методы исследования: Для статистической обработки данных использовался однофакторный дисперсионный анализ (ANOVA), а для более детального анализа различий между группами — тест Тьюки. Для каждого из параметров анализировались различия между контрольной и экспериментальными группами. Гипотезы, выдвинутые для анализа, заключались в отсутствии статистически значимых различий (H_0) и наличии таковых (H_1) по каждому из параметров.

Результаты исследования

1. **Частота актов дефекации:** В контрольной группе частота актов дефекации составила 1,5 раза в день, в группе с химическим стрессом — 3 раза, в группе с иммобилизационным стрессом — 0,5 акта в день. Проведенный ANOVA показал значительные различия между группами ($F = 15,36$, $p = 0,002$).
2. **Моторная активность гладких мышц:** В контрольной группе наблюдалась нормальная активность гладких мышц (1 балл), в группе с химическим стрессом — гипермоторная активность (2 балла), в группе с иммобилизационным стрессом — гипомоторная активность (0,5 балла). ANOVA показал значимые различия ($F = 20,71$, $p = 0,001$).
3. **Секреторная активность (выделение слизи):** Контрольная группа показала 50 мкг/мл слизи, группа с химическим стрессом — 120 мкг/мл, группа с иммобилизационным стрессом — 30 мкг/мл. Эти различия также были статистически значимыми ($F = 28,45$, $p = 0,0001$).
4. **Качество каловых масс:** В контрольной группе каловые массы имели нормальную консистенцию (1 балл), в группе с химическим стрессом — слизистые каловые массы (4 балла), в группе с иммобилизационным стрессом —

сухие каловые массы (0,5 балла). Результаты анализа подтверждают наличие значимых различий ($F = 12,98$, $p = 0,004$).

Обсуждение: Все исследуемые параметры показали статистически значимые различия между группами, что свидетельствует о существенном влиянии стресса на функционирование прямой кишки. Химический стресс вызывал гипермоторную активность, увеличение секреции слизи и ухудшение качества каловых масс, что приводило к диарее. Иммобилизационный стресс, напротив, приводил к гипомоторной активности, снижению выделения слизи и появлению запоров, что также влияло на качество каловых масс, делая их сухими и увеличивая риск механических повреждений эпителия.

Заключение: Результаты статистического анализа подтверждают гипотезу о наличии значительных морфофункциональных изменений в прямой кишке в условиях химического и иммобилизационного стресса. Полученные данные могут быть использованы для дальнейших исследований в области изучения влияния стресса на кишечную функцию и разработки методов лечения стресса, связанного с дисфункцией ЖКТ.

"ВЛИЯНИЕ ИММОБИЛИЗАЦИОННОГО СТРЕССА НА УРОВЕНЬ КОРТИКОСТЕРОНА У МОРСКИХ СВИНОК "

Ганижонов П.Х, Хомидчонова Ш.Х
Ферганский медицинский институт общественного здоровья

Научный руководитель: Доктор биологических наук, проффесор, Кучкарова Любовь Салижановна

Кучкарова Любовь Салижановна – доктор биологических наук, профессор кафедры физиологиия человека и животных Национального Университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека. E-mail: lyubakuchkarova@yahoo; ORCID: 0000-0002-9210-7029

Актуальность: В работе исследуется влияние иммобилизационного стресса на морских свинок. Рассматриваются механизмы возникновения данного стресса и его последствия для физиологического и психологического состояния животных. Проанализированы методы оценки и снижения стресса, а также предложены практические рекомендации по улучшению благополучия морских свинок [1.2].

Цель работы - исследовать влияние иммобилизационного стресса на морских свинок, выявить механизмы его возникновения и оценить его последствия для физиологического и психологического благополучия животных. Кроме того, целью является анализ методов оценки и снижения стресса, а также разработка практических рекомендаций для улучшения условий содержания морских свинок с целью предотвращения негативных последствий иммобилизационного стресса [3].

Материалы и методы: В качестве модели кратковременного стресса была выбрана иммобилизация морских свинок в течение трех часов в двух состояниях: в состоянии сытости и голода в течение 18-20 часов. Для создания стрессорного воздействия использовались специальные клетки-«норки», которые ограничивали подвижность животных.

Результаты: Уровень кортикостерона у морских свинок в состоянии голода повышался на 26% ($p<0,05$) по сравнению с контрольными животными, которые голодали 18-20 часов и не подвергались стрессорному воздействию (33,8±4,3 против 22,5±2,6 мкг%). У сытых морских свинок уровень кортикостерона в плазме крови через 20 минут после начала иммобилизации возрастал в 2 раза ($p<0,05$) по сравнению с контрольной группой, т.е. с животными, которые находились в состоянии сытости без воздействия. Дополнительно, в отдельных экспериментах были получены данные об уровне этого гормона у сытых морских свинок через три часа после иммобилизации. Наблюдается сохранение примерно в два раза более высокого уровня кортикостерона даже в конце стрессорного воздействия.

Для данных животных отмечались признаки стресса, однако из-за значительной изменчивости результатов эти различия оказались статистически незначимыми. Наблюдения подтверждают наличие стрессорного воздействия на животных в рамках нашего исследования. В ходе эксперимента у животных проявлялись признаки возбуждения и беспокойства, более выраженные у

голодных особей по сравнению с сытыми. Некоторые морские свинки проявляли безразличный взгляд, сильное одышка, высокая частота дыхания (до 200 движений в минуту), учащенный пульс (до 700 сокращений в минуту), и наблюдались судороги лёгких. После стрессорного воздействия у животных отмечалось снижение аппетита. При вскрытии животных, подвергавшихся стрессу, выявлялась гиперемия мезентериальных сосудов, точечные кровоизлияния в тонком кишечнике, ярко выраженный метеоризм кишечника и увеличение миокарда.

Заключение: В ходе исследования было установлено, что как у морских свинок, находящихся в состоянии голода, так и у сытых особей кратковременное стрессорное воздействие приводило к значительному повышению уровня кортикостерона в плазме крови.

Список литературы

1. Мухина А. Ю., Свищева М. В., Шевченко А. В. Микроэкология толстой кишки крыс в условиях хронического иммобилизационного стресса //Инновации в медицине. – 2018. – С. 74-78.

2. Правдивцева М. И. и др. Влияние лаксарана Z на микрофлору толстого отдела кишечника самок крыс в условиях иммобилизационного стресса //Успехи современного естествознания. – 2009. – №. 8. – С. 101-101.

3. Ляхова Е. Г., Костинова А. Ю., Мухина А. Ю. ВЛИЯНИЕ ИММОБИЛИЗАЦИОННОГО СТРЕССА НА СОСТОЯНИЕ МИКРОБИОТЫ И СТЕНКИ ТОЛСТОЙ КИШКИ КРЫС //Молодежная наука и современность. – 2020. – С. 101-104.

4. Мамасаидов Ж. Т., Ганижонов П. Х. Морфофункциональные изменения слизистых оболочек пищеварительного тракта при стессе //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – Т. 4. – №. 5. – С. 541-546.

5. Ганижонов П. Х., Мирзажонова С. А. ВЛИЯНИЕ СТРЕССА НА ФИЗИОЛОГИЮ И МОРФОЛОГИЮ ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ: АСПЕКТЫ ИЗМЕНЕНИЙ (ОБЗОР ЛИТЕРАТУРЫ) //Экономика и социум. – 2023. – №. 12 (115)-2. – С. 738-750.

6. Ганижонов П. Х., Мамасаидов Ж. Т. ВЛИЯНИЕ СТРЕССА НА ФИЗИОЛОГИЮ И МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНОЕ СОСТОЯНИЕ ПИЩЕВАРИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ У КРЫС.

MAKTAB O‘QUVCHILARIDA JISMONIY VA INTELLEKTUAL KO‘RSATKICHLAR DINAMIKASI O‘RTASIDAGI BOG‘LIQLIK TAHLILI (Andijon shahri misolida)

Abduvaliyeva F.M.[1], Xushmatov Sh.S.[2]

[1] Qo‘qon Universiteti Andijon Filiali “Mikrobiologiya, farmakologiya, normal va patologik fiziologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

[2]O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

Mavzuning dolzarbligi. Hozirda dunyo miqyosida ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar joriy etilishi, axborotlarning hajmi va tempi tinimsiz ortishi sharoitida zo‘riqishning o‘quvchilar jismoniy, intellektual rivojlanishiga ta’sirini fiziologik asoslash ta’lim jarayonini optimallashtirishda dolzarb ahamiyatga ega (Vysochin va Shaposhnikova, 1991; Zarubin, 1998; Pankova va Jebrovskaya, 2001).

Tadqiqot maqsadi – maktab o‘quvchilarida jismoniy va intellektual ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni (Andijon shahri misolida) tahlil qilishdan tashkil topgan.

Tadqiqot materiali va usullari. Tadqiqotlarda 2021-2022-yillarda Andijon viloyati Andijon shahrida joylashgan №1-, №5-, №6-, №11-, №13-, №15-, №24-, №30-, №31-, №48-maktablarda o‘quvchilarning (1-11-sinf) jismoniy va intellektual rivojlanish darajasi tahlil qilindi (har bir sinfdan 10 nafar o‘g‘il bolalar, 10 nafar qizlar). O‘quvchilarning asosiy antropometrik (somatometrik) o‘lchamlari – tana vazni (TV), bo‘y uzunligi (BU), ko‘krak qafasi aylanasi (KQA) standart uslublar yordamida tahlil qilindi (Nikolaev va boshq., 2005; Glazunova, 2007; Baranov va boshq., 2008; Safronov va Arislanov, 2013; Dordic et al., 2016; Pankova va boshq., 2018; Degterenko, 2018; Gushturova, 2018).

O‘quvchilarda jismoniy rivojlanish darajasini baholashda antropometrik indekslardan (Ketle II, Pine, Brugsh, Vervek, Rorer, indeksi) foydalanildi (Campos and Rother, 1990; Gilbert and Fleming, 2007; Nader et al., 2006; Bernardo et al., 2012; Gurtovaya va Prokopev, 2013; Kirilova, 2014).

O‘quvchilarda nafas olish, yurak-qon tomir tizimi funksional faolligi standart fiziometrik uslublar (spirometriya, pulsometriya) yordamida tahlil qilindi (Polonyankina va Konstantinov, 2013; Mixaylova va Kimyaeva, 2012; Sivakova va boshq., 2012; Pilkevich, 2013; Safronov va Arislanov, 2013; Ivanova va boshq., 2014; Degterenko, 2018).

O‘quvchilarida intellektual rivojlanish darajasini baholash “Burdon korrektura sinovi” testi, “Anfimov jadvali” testi, “Landolt halqalari” testi yordamida amalga oshirildi (Krylov va Manichev, 2000; Owczarek et al., 2006; Anisimova va boshq., 2013; Gushturova, 2018; Fedosova va Stychinskaya, 2022).

O‘quvchilarning jismoniy va aqliy rivojlanish ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlik Spirmen korrelyasiya koeffitsenti yordamida tahlil qilindi (r>0,7 – “*kuchli*”, r=0,69-0,50 – “*o‘rtacha*”, r=0,49-0,30 – “*kuchsiz*”) (Lakin, 1990; Volokitina va boshq., 2008; Tixonova, 2008; Gagieva va boshq., 2008; Nasledov, 2012; Sinitskaya va Volokitina, 2012; Zolotareva, 2023).

Olingan eksperimental natijalarni matematik-statistik qayta ishlash “Microsoft Excel 2007” (Microsoft, AQSh), OriginPro v. 8.5 SR1 (EULA, AQSh) maxsus dastur paketlari yordamida, standart uslublarda amalga oshirildi (Ploxinskiy, 1970; Lakin, 1990; Glans, 1999; Rebrova, 2002; Denisova va boshq., 2008; Safronov va Arislanov, 2013; Bauer va boshq., 2020).

Tadqiqot natijalari. Maktab o‘quvchilarida jismoniy va intellektual ko‘rsatkichlar dinamikasi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tavsiflash (Andijon shahri misolida) yuzasidan amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Andijon shahri maktablari o‘quvchilari (7-17 yosh) asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari (tana vazni, bo‘y uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi) tahlili asosida tana vazni maktab o‘quvchilarida o‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda o‘rtacha mos ravishda – 22,11±0,34, 26,15±0,16, 27,11±0,42, 30,94±0,27, 34,29±0,35, 38,49±0,48, 42,21±0,53, 45,99±0,30, 52,12±0,23, 56,26±0,32 va 59,21±0,38 kg ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 18,27±0,04, 8-9 yoshda 3,67±0,04, 9-10 yoshda 14,13±0,15, 10-11 yoshda 10,83±0,09, 11-12 yoshda 12,25±0,16, 12-13 yoshda 9,66±0,05, 13-14 yoshda 8,96±0,03, 14-15 yoshda 13,32±0,12, 15-16 yoshda 7,94±0,04 va 16-17 yoshda 5,24±0,05% ga ortishi aniqlandi. Qizlarda 7-17 yoshda tana vazni o‘rtacha mos ravishda – 21,79±0,18, 25,14±0,24, 27,07±0,63, 30,66±0,28, 33,56±0,37, 37,61±0,67, 43,92±0,21, 46,94±0,93, 48,92±0,46, 56,55±0,61 va 57,62±1,03 kg ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 15,37±0,18, 8-9 yoshda 7,68±0,03, 9-10 yoshda 13,26±0,10, 10-11 yoshda 9,46±0,03, 11-12 yoshda 12,07±0,08, 12-13 yoshda 16,78±0,13, 13-14 yoshda 6,88±0,02, 14-15 yoshda 4,22±0,03, 15-16 yoshda 15,59±0,09 va 16-17 yoshda 1,89±0,01% ga ortishi aniqlandi.

Bo‘y uzunligi maktab o‘quvchilarida o‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda o‘rtacha qiymatlari mos ravishda – 121,13±0,95, 127,70±1,12, 132,34±1,80, 138,81±1,43, 142,82±1,08, 147,63±0,86, 154,39±1,29, 161,42±1,55, 165,29±2,60, 170,47±2,10 va 172,82±3,23 sm ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 5,42±0,02, 8-9 yoshda 3,63±0,01, 9-10 yoshda 4,89±0,02, 10-11 yoshda 2,89±0,03, 11-12 yoshda 3,37±0,02, 12-13 yoshda 4,58±0,02, 13-14 yoshda 4,55±0,01, 14-15 yoshda 2,39±0,01, 15-16 yoshda 3,13±0,02 va 16-17 yoshda 1,38±0,03% ga ortishi aniqlandi. Qizlarda 7-17 yoshda bo‘y uzunligi o‘rtacha qiymatlari mos ravishda – 120,44±0,58, 126,38±0,72, 131,58±1,23, 138,66±1,06, 144,16±0,97, 147,81±1,30, 155,36±1,47, 157,92±2,15, 161,24±2,05, 161,78±2,57 va 162,60±3,34 sm ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 4,93±0,02, 8-9 yoshda 4,11±0,04, 9-10 yoshda 5,38±0,03, 10-11 yoshda 3,97±0,02, 11-12 yoshda 2,53±0,02, 12-13 yoshda 5,11±0,04, 13-14 yoshda 1,65±0,07, 14-15 yoshda 2,10±0,01, 15-16 yoshda 0,33±0,01 va 16-17 yoshda 0,51±0,01% ga ortishi aniqlandi.

Ko‘krak qafasi aylanasi maktab o‘quvchilarida o‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda o‘rtacha qiymatlari mos ravishda – 58,10±0,47, 62,41±0,94, 63,68±0,71, 64,01±0,59, 67,44±0,83, 70,46±0,75, 71,67±1,17, 74,57±2,04, 77,27±1,05, 81,26±0,90 va 84,40±1,07 sm ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 7,42±0,06, 8-9 yoshda 2,03±0,02, 9-10 yoshda 0,52±0,01, 10-11 yoshda 5,36±0,05, 11-12 yoshda 4,48±0,03, 12-13 yoshda 1,72±0,02, 13-14 yoshda 4,05±0,03, 14-15 yoshda 3,62±0,02, 15-16 yoshda 5,16±0,04 va 16-17 yoshda 3,86±0,03% ga ortishi aniqlandi. Qizlarda 7-17 yoshda ko‘krak qafasi aylanasi o‘rtacha qiymatlari mos ravishda – 57,69±0,31, 61,52±0,64,

62,85±0,56, 64,19±0,96, 66,37±0,77, 70,18±0,57, 73,88±0,60, 77,08±0,43, 79,26±0,49, 79,86±0,39 va 82,91±1,02 sm ga teng bo‘lib, 7-8 yosh diapazonida 6,64±0,05, 8-9 yoshda 2,16±0,02, 9-10 yoshda 2,13±0,01, 10-11 yoshda 3,39±0,02, 11-12 yoshda 5,74±0,02, 12-13 yoshda 5,27±0,04, 13-14 yoshda 4,33±0,04, 14-15 yoshda 2,83±0,01, 15-16 yoshda 0,76±0,01 va 16-17 yoshda 3,82±0,02% ga ortishi aniqlandi.

Jismoniy rivojlanish asosiy ko‘rsatkichlari sentil-shkala qiymatlari bo‘yicha klassifikatsiyalash (I-VII interval) asosida baholandi. Shunday qilib, sentil-shkala taqsimot uslubi yordamida tahlil jarayonida maktab o‘quvchilarida 7-17 yosh diapazonida asosiy antropometrik ko‘rsatkichlari (tana vazni, bo‘y uzunligi, ko‘krak qafasi aylanasi) tahlil asosida – <3 intervalda – “*juda past*” (I interval), 3-10 – “*past*” (II interval), 10-25 – “*o ‘rtachadan past*” (III interval), 25-75 – “*o ‘rtacha yoki fiziologik me’yor*” (IV interval), 75-90 – “*o ‘rtachadan yuqori*” (V interval), 90-97 – “*yuqori*” (VI interval), >97 – “*juda yuqori*” (VII interval) qiymatlari aniqlandi.

Tana vazni indeksi (Ketle II indeksi) yordamida Andijon shahrida joylashgan ayrim maktablar o‘quvchilarining (7-17 yosh) jismoniy rivojlanish darajasi tahlilida o‘g‘il bolalar kontingentida tana vazni defitsiti va ortiqcha tana vazni 7 yoshda mos ravishda – 44 va 4%, 8 yoshda – 8 va 12%, 9 yoshda – 45 va 3%, 10 yoshda – 41 va 8%, 11 yoshda – 24 va 17%, 12 yoshda – 22 va 17%, 13 yoshda – 16 va 4%, 14 yoshda – 53 va 6%, 15 yoshda – 28 va 8%, 16 yoshda – 44 va 10%, 17 yoshda – 46 va 9% ga teng bo‘lishi aniqlandi. Shuningdek, qizlar kontingentida mazkur ko‘rsatkichlar qiymatlari 7 yoshda mos ravishda – 21 va 6%, 8 yoshda – 2 va 12%, 9 yoshda – 7 va 3%, 10 yoshda – 16 va 8%, 11 yoshda – 52 va 11%, 12 yoshda – 27 va 11%, 13 yoshda – 35 va 7%, 14 yoshda – 16 va 10%, 15 yoshda – 52 va 7%, 16 yoshda – 38 va 0%, 17 yoshda – 42 va 1% ga teng bo‘lishi aniqlandi.

O‘g‘il bolalarda 7-17 yoshda tana vazni defitsiti (ozg‘inlik) 8-53% ni tashkil qilishi, ortiqcha tana vazniga ega kontingent ulushi 4-17% ni tashkil qilishi qayd qilindi. Tana vazni defitsiti o‘g‘il bolalarda 7, 9-10, 14-17 yosh diapazonlarida yaqqol ifodalanishi aniqlandi. Qizlarda tana vazni defitsiti (ozg‘inlik) ulushi 7-17 yoshda 2-52% ga teng bo‘lib, 11, 13-17 yoshda maksimal ifodalanishi qayd qilindi. Qizlarda ortiqcha tana vazni ulushi 1-12% ga teng bo‘lib, 8, 14 yoshda maksimal kuzatilishi aniqlandi. Bunda maktab o‘quvchilarida tana vazni o‘zgarish dinamikasi maktabda ta’lim muhitiga adaptatsiya jarayoni, shuningdek ontogenezda jinsiy balog‘atga yetish bilan bog‘liq gormonal/fiziologik o‘zgarishlar bilan bog‘liq bo‘lishi mumkinligi taxmin qilindi. O‘z navbatida, maktab o‘quvchilarida tana vazni defitsiti (ozg‘inlik) yoki ortiqcha tana vazni qayd qilinuvchi fiziologik yosh diapazonlari maktabda ta’lim jarayonini tashkil qilish, ovqatlanish ratsioni va rejimini belgilash, tibbiy-sanitar chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida foydalanilishi mumkin.

Tadqiqotlarda o‘quvchilarda o‘pkalar tiriklik sig‘imi (ml), yurak urish chastotasi (marta/minut) bo‘yicha fiziologik yosh davrlariga (7-17 yosh) bog‘liq sentil-shkala qiymatlari ishlab chiqildi. Bunda o‘quvchilarda O‘TS o‘rtacha qiymatlari 7-17 yosh diapazonida dinamik ortib borishi (o‘g‘il bolalarda – 1089±15,47 – 3070±12,53, qizlarda 1013±12,64 – 2810±14,68 ml), YuUCh o‘rtacha qiymatlari o‘g‘il bolalarda – 91,71±5,20 – 80,22±5,02, qizlarda – 86,46±4,32 – 70,91±4,37 marta/minutga teng bo‘lib, olingan natijalar fiziologik me’yor qiymatlariga mos kelishi qayd qilindi.

Hayotiy indeks o‘rtacha qiymatlari 7-17 yosh diapazonida o‘g‘il bolalarda – 49,84±1,05 – 52,63±0,33, qizlarda – 47,13±1,18 – 53,61±0,50 ml/kg, spirometrik ko‘rsatkich mos ravishda – 8,99±0,06 – 17,75±0,03, 8,39±0,04 – 17,38±0,04 ml/sm, Skibinskiy indeksi mos ravishda – 206,61±3,14 – 720,76±6,01, 178,02±4,35 – 681,80±3,21 sh.b., Rufe indeksi mos ravishda –10,72±0,15 – 7,27±0,18, 9,48±0,03 – 4,51±0,02 sh.b. ga tengligi aniqlandi.

Andijon shahrida joylashgan maktablar 1-sinf o‘quvchilarida o‘g‘il bolalarda (*n*=100) “*Burdon korrektura sinovi*” testi asosida “*diqqatni jamlash*” ko‘rsatkichi (D) o‘rtacha 69,68±2,15%, “*diqqatning barqarorligi*” ko‘rsatkichi (A) o‘rtacha 1,237±0,04 sh.b., “*diqqatni bitta holatdan ikkinchisiga qaratish*” ko‘rsatkichi (S) o‘rtacha 28,51±0,24% ga teng bo‘lib, baholash shkalasiga ko‘ra, “*yuqori*” darajaga mos kelishi aniqlandi. Mazkur kontingent tarkibida “diqqatni jamlash” ko‘rsatkichi (D) bo‘yicha “*o‘rtacha*” (D=41-60%), “*past*” (D=20-21%) darajadagilar ulushi mos ravishda – 12,27±0,17 va 16,56±0,23% ga tengligi kuzatildi. “*Diqqatning barqarorligi*” ko‘rsatkichi (A) bo‘yicha, “*o‘rtacha*” (A=5-6), “*past*” (D=7-10) darajadagilar ulushi mos ravishda – 9,35±0,42 va 11,08±0,07%, “*diqqatni bitta holatdan ikkinchisiga qaratish*” ko‘rsatkichi (S) bo‘yicha “*o‘rtacha*” (S=41-60%), “*past*” (D=20-21%) darajadagilar ulushi mos ravishda – 7,15±0,14 va 6,10±0,08% ga tengligi aniqlandi.

1-sinf o‘quvchilarida “*Diqqatni jamlash*” (D), “*Diqqatning barqarorligi*” (A), “*Diqqatni bitta holatdan ikkinchisiga qaratish*” ko‘rsatkichi (S) hamda asosiy antropometrik ko‘rsatkichlar (tana vazni, bo‘y uzunligi) o‘rtasida korrelyatsiya bog‘liqlik juda kuchsiz, ko‘krak qafasi aylanasi bilan kuchsiz darajada bog‘liqlik mavjudligi (mos ravishda – *r*=0,637; *r*=0,418; *r*=0,577) aniqlandi.

Shunday qilib, o‘quvchilarning jismoniy, intellektual rivojlanish darajasini doimiy monitoring qilish, fiziometrik-antropometrik ilmiy-tadqiqotlarni amalga oshirish ularning salomatligini saqlash, optimal rivojlanishini ta'minlashda tibbiy-ijtimoiy chora-tadbirlarini ishlab chiqish va amalga oshirishda muhim nazariy, amaliy ahamiyatga ega (Spirkina, 2000; Xolodnaya, 2002; Bogus, 2002; Fominых va Kazakovseva, 2011; Vasilev, 2011; Freedman et al., 2016; Devis-Devis et al., 2017; Chao et al., 2019; Gritsinskaya va boshq., 2020).

Xulosa: Olingan natijalar natijalardan hududiy antropo-fiziologik standartlarni ishlab chiqish, maktabda ta’lim jarayonida o‘quvchilarda jismoniy rivojlanish darajasini optimallashtirishda organizmning fiziologik ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda, yakka tartibda yondashuv strategiyasi asosida amaliy chora-tadbirlarni ishlab chiqishda ilmiy asos sifatida foydalanish mumkin.

ISCHEMIC HEART DISEASE AND HYPERTENSION: MODERN RESEARCH

Author: Khusenov Azizbek Alisherovich
Affiliation: Tashkent Medical Academy, Faculty of General Medicine

Relevance of the Topic

Ischemic heart disease (IHD) and hypertension are among the leading causes of mortality and disability due to cardiovascular diseases worldwide. Understanding the pathophysiological processes associated with their prevalence and developing novel treatment methods are top priorities in modern medicine.

Objective of the Study

To study the pathophysiological mechanisms affecting circulatory regulation in IHD and hypertension and to develop new treatment approaches based on these findings.

Materials and Methods

Analysis of existing scientific literature and clinical research data. Monitoring blood pressure, circulation dynamics, and vascular tone in patients with IHD and hypertension.

Results

1. Dysregulation of vascular tone in IHD was identified as a critical factor in circulatory mechanisms.

2. Neuroendocrine processes involved in stress responses were found to contribute to increased blood pressure in hypertension.

3. Modern medications, such as angiotensin receptor blockers and calcium channel inhibitors, play a key role in effectively managing blood pressure.

Conclusion

In-depth study of the pathophysiology of IHD and hypertension enhances the effectiveness of treatment and reduces complications. Introducing modern methods and ensuring a personalized approach for patients are of significant importance.

ВЫЯВЛЕНИЕ ОСТРОГО ИНСУЛЬТА С ПОМОЩЬЮ КОЛИЧЕСТВЕННОЙ ОЦЕНКИ ЭЛЕКТРИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ МОЗГА

Исламбекова М.А[1]., Абидова Н.Б[2].
Ферганский медицинский институт общественного здоровья[1]
Ташкентская медицинская академия[2]

Актуальность. Острый инсульт является одной из ведущих причин смертности и инвалидизации. Патофизиологические процессы при инсульте включают нарушение нейронной активности, гипоксию и структурные изменения тканей мозга. Традиционные методы визуализации, такие как КТ, обладают недостаточной чувствительностью для ранней диагностики ишемического инсульта, особенно в первые часы после развития симптомов. Оценка электрической активности мозга с помощью электроэнцефалографических данных (ЭЭГ) может позволить выявить функциональные изменения, предшествующие структурным повреждениям.

Цель исследования: оценить диагностическую значимость количественного анализа электрической активности мозга в выявлении патофизиологических изменений при остром инсульте.

Материалы и методы. В исследовании приняли участие 33 пациента, из них 18 с подтвержденным инсультом (7 ишемический, 11 геморрагический) и 15 пациентов с состояниями, имитирующими инсульт (мигрень, обморок). Проводилась регистрация 10-минутных данных ЭЭГ с помощью пяти фронтальных электродов. Индекс структурного повреждения мозга (SBII) рассчитывался с использованием алгоритма бинарной дискриминантной классификации, анализирующего электрическую активность мозга. Данные ЭЭГ сопоставлялись с результатами КТ и МРТ для оценки чувствительности и специфичности метода.

Результаты. Анализ показал чувствительность метода в 91,7% и отрицательную прогностическую ценность (NPV) 94,4% в выявлении инсульта. Специфичность по отношению к пациентам с состояниями, имитирующими инсульт, составила 50,4%. Среди пациентов с ишемическим инсультом, изначально не выявленным на КТ, но подтвержденным с помощью МРТ (КТ-/МРТ+), в 80% случаев была успешно идентифицирована патология по данным ЭЭГ.

Выводы. Использование количественной оценки электрической активности мозга с индексом SBII представляет собой перспективный подход для ранней диагностики острого инсульта. Этот метод позволяет обнаруживать функциональные нарушения на доклиническом этапе, до появления структурных изменений, что может повысить точность диагностики и ускорить принятие клинических решений при подозрении на инсульт.

РОЛЬ ПЭТ/КТ В ОЦЕНКЕ ПАТОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В ОНКОГИНЕКОЛОГИИ

Исмаилова М.Х[1]., Исламбекова М.А[2]., Таирова М.И[3].
Ташкентская Медицинская Академия

Актуальность. Патофизиологические процессы, лежащие в основе гинекологических злокачественных новообразований, включают изменения клеточного метаболизма, неоангиогенез и нарушение механизмов апоптоза. Позитронно-эмиссионная томография, совмещенная с компьютерной томографией (ПЭТ/КТ) с фтордезоксиглюкозой (ФДГ), позволяет визуализировать гиперметаболические очаги, что отражает патологическую активность опухолевых клеток и может быть использовано для оценки патофизиологических изменений на различных стадиях онкогинекологических заболеваний.

Цель: оценить возможности ПЭТ/КТ с ФДГ в анализе патофизиологических процессов, связанных с развитием и прогрессией злокачественных новообразований женской репродуктивной системы.

Материалы и методы.Проведен анализ рецензируемых научных публикаций, включенных в базы данных E-library, PubMed, GoogleScholar и Scopus. Включены исследования, посвященные применению ПЭТ/КТ для визуализации метаболической активности опухолевых клеток и оценки изменений сосудистой сети при раке яичников, шейки матки и эндометрия.

Результаты. Применение ПЭТ/КТ с ФДГ позволяет выявить гиперметаболические очаги, отражающие высокую активность гликолиза в опухолевых клетках, что связано с феноменом Варбурга. Метод демонстрирует высокую чувствительность в оценке стадирования рака, определения глубины инвазии и выявления микрометастатических очагов, что способствует лучшему пониманию патофизиологических механизмов прогрессии заболевания.

Выводы. ПЭТ/КТ с ФДГ является высокоинформативным методом для оценки патофизиологических изменений при онкогинекологических заболеваниях, включая нарушение метаболизма и ангиогенез. Методика способствует повышению точности диагностики и контролю за динамикой опухолевого процесса.

BRONCHO-OBSTRUCTIVE SYNDROME: PATHOPHYSIOLOGICAL MECHANISMS AND MODERN APPROACHES TO MANAGEMENT

Author: Hasanboy Hoshimjonov
Fergana Medical Institute of Public Health faculcy of treatment, 3rd year student
Supervisor: Mashhura Ohunova Jumaboevna
Assistant teacher of thr department of Pediatrics

Relevance of the Topic:

Broncho-Obstructive Syndrome (BOS) represents a critical challenge in respiratory medicine, encompassing diseases such as asthma, chronic obstructive pulmonary disease (COPD), and obstructive bronchiolitis. These conditions are responsible for significant morbidity and mortality worldwide, with a particularly high prevalence in Uzbekistan due to environmental pollution, frequent respiratory infections, and a lack of early diagnostic interventions. The pathophysiological mechanisms driving BOS are multifactorial, involving chronic inflammation, airway remodeling, and systemic manifestations that complicate clinical management. Understanding these mechanisms is essential for improving diagnostic accuracy, optimizing treatment, and mitigating disease progression.

Objective of the Research:

To elucidate the complex pathophysiological processes underlying Broncho-Obstructive Syndrome and analyze their impact on clinical presentations, with a focus on emerging diagnostic tools and therapeutic interventions tailored to resource-limited settings.

Materials and Methods:

1. Literature Analysis: A comprehensive review of over 70 articles from 2010–2025, focusing on BOS pathophysiology, pathoanatomy, and modern diagnostic techniques.

2. Clinical Observations: Data collected from pediatric and adult patients presenting with BOS at Fergana Medical Institute-affiliated clinics.

3. Experimental Studies: Analysis of cytokine profiles, imaging findings, and pulmonary function tests in a subset of patients to identify potential biomarkers.

Pathophysiology of BOS:

Broncho-Obstructive Syndrome is defined by dynamic and progressive changes in airway structure and function, which can be categorized into five major pathophysiological domains:

1. Airway Inflammation:

- Inflammatory cell infiltration, including eosinophils, neutrophils, and mast cells, leads to persistent airway irritation.
- Key cytokines, such as IL-4, IL-5, and IL-13, promote a Th2 immune response, while neutrophilic inflammation, often seen in severe COPD, is mediated by IL-8 and TNF-α.
- Oxidative stress from environmental and endogenous sources exacerbates tissue damage and perpetuates the inflammatory cascade.

2. Airway Remodeling:

- Repeated inflammatory episodes result in epithelial cell apoptosis and impaired mucosal barrier function.
- Subepithelial fibrosis caused by excessive fibroblast activity thickens the airway walls, reducing compliance.
- Smooth muscle hyperplasia and angiogenesis further narrow the airway lumen, contributing to airflow limitation.

3. Mucus Hypersecretion and Plugging:

- Goblet cell hyperplasia leads to excessive mucus production, which is further thickened by inflammatory mediators such as leukotrienes.
- Mucus plugs obstruct small airways, particularly during expiration, causing air trapping and ventilation-perfusion mismatch.

4. Bronchial Hyperresponsiveness (BHR):

- Sensitization of airway nerves to environmental triggers results in exaggerated bronchoconstriction.
- Increased intracellular calcium levels in smooth muscle cells amplify contractile responses to stimuli.

5. Systemic and Secondary Effects:

- Chronic hypoxia and hypercapnia due to prolonged obstruction contribute to pulmonary hypertension and cor pulmonale.
- Systemic inflammation, marked by elevated C-reactive protein (CRP) and IL-6 levels, has been linked to cardiovascular comorbidities.

Clinical and Pathoanatomical Manifestations:

Pathoanatomical findings in BOS include thickened bronchial walls, mucus-filled bronchioles, and hyperinflated lung segments visible on imaging studies. Advanced cases show bullous emphysema and fibrotic changes in COPD patients, while asthmatic airways exhibit prominent basement membrane thickening and eosinophilic infiltration.

Results of the Research:

1. Diagnostic Innovations:

- Pulmonary function tests revealed decreased FEV1/FVC ratios in most BOS cases, confirming obstructive patterns.
- High-resolution computed tomography (HRCT) highlighted airway wall thickening and mucus plugs in severe cases.
- Novel biomarkers such as periostin and FeNO demonstrated potential in differentiating eosinophilic asthma from neutrophilic COPD.

2. Therapeutic Advances:

- Inhaled corticosteroids (ICS) remain the cornerstone for controlling airway inflammation.
- Biologic agents like mepolizumab and benralizumab have shown efficacy in reducing eosinophil-mediated exacerbations.
- Long-term oxygen therapy and pulmonary rehabilitation were essential in managing advanced COPD with chronic hypoxemia.

Conclusion:

Broncho-Obstructive Syndrome involves intricate pathophysiological mechanisms that span chronic inflammation, structural airway remodeling, and systemic repercussions. Addressing these mechanisms requires a multifaceted approach combining advanced diagnostics, personalized therapy, and robust public health measures. Uzbekistan, with its unique environmental and healthcare challenges, stands to benefit significantly from integrating modern diagnostic tools and biologic therapies to enhance BOS management. Further research into cost-effective technologies and local epidemiological data is crucial for tailoring interventions to regional needs.

УЛЬТРАЗВУКОВАЯ ОЦЕНКА ПАТОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЙ ПРИ РАКЕ ЯИЧНИКОВ

Таирова М.И.
Ташкентская Медицинская Академия

Актуальность. Рак яичников является одним из наиболее агрессивных онкогинекологических заболеваний с высоким уровнем смертности. Патофизиологические процессы, сопровождающие злокачественные новообразования яичников, включают нарушение ангиогенеза, гипоксию тканей, нарушение апоптоза и усиленную клеточную пролиферацию. Ультразвуковое исследование (УЗИ) с применением допплерографии и эластографии позволяет визуализировать эти изменения, что может повысить точность диагностики и оценку степени злокачественности опухоли.

Цель: оценить возможности ультразвукового исследования в выявлении патофизиологических изменений при раке яичников и их взаимосвязи со степенью злокачественности опухоли.

Материалы и методы. В исследование были включены 121 пациентка с подозрением на рак яичников. Для оценки патофизиологических изменений использованы В-режимное УЗИ для визуализации структуры опухоли, цветовое допплеровское картирование для оценки степени васкуляризации и эластография для определения жесткости тканей. Полученные данные были сопоставлены с гистологическими результатами, включая градации злокачественности G1, G2 и G3.

Результаты. Ультразвуковое исследование позволило выявить выраженные патофизиологические изменения в зависимости от степени злокачественности опухоли. При опухолях с высокой злокачественностью (G2-G3) отмечены повышенная васкуляризация при допплерографии, повышенная жесткость тканей при эластографии и гетерогенная структура опухоли с нечеткими контурами в В-режиме. Эти изменения коррелировали с нарушениями ангиогенеза, клеточной пролиферации и снижением дифференцировки опухолевых тканей.

Выводы: Ультразвуковое исследование с применением допплерографии и эластографии является информативным методом для оценки патофизиологических изменений при раке яичников. Метод позволяет выявить ключевые характеристики опухоли, такие как ангиогенез и повышение тканевой жесткости, что может быть использовано для оценки степени злокачественности и контроля за динамикой опухолевого процесса.

YURAK ISHEMIK KASALLIGI-ZAMONAVIY TIBBIYOTNING AKTUAL MUAMMOSI

ADTI pediatriya fakulteti talabasi Toxirova Ruxshona Izzatbek qizi
Ilmiy raxbar: ADTI pediatriya fakulteti uchun IKP kafedrasi katta o‘qituvchisi Yunusova Z.V.

Mavzuning dolzarbligi: Yurak ishemik kasalligi bugungi kunda eng ko‘p tarqalgan noinfeksion kasallik bo‘lib hisoblanadi. Ushbu kasallikning ko‘rsatkichi yildan-yilga oshib bormoqda, hozirda zamonaviy diagnostika usullari yordamida yurak ishemik kasallik turlari, uning zamonaviy davolash usullari aniqlanmoqda. Tibbiyotdagi xozirgi dolzarb muammo bu kasallikning aholi orasida kasallanish darajasini kamaytirish, uning asoratlarini oldini olishdir. Kasallik xavf omillarini bartaraf qilish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, to‘g‘ri ovqatlanish? O‘z vaqtida davolanish orqali kasallikni kamaytirish mumkin.

Maqsad: Yurak ishemik kasalligining turli aspektlar bo‘yicha xususiyatlarini shifoxona sharoitida o‘rganish va baxolash.

Material va usullar: Yurak ishemik kasalliklari bilan kasallangan 91 nafar bemordagi anketa-so‘rovnoma natijalari. Tadqiqotda anketa-so‘rovnoma, sotsiologik va statistik usullardan foydalaniladi.

Natijalar: Biz AVKTTM Kardiologiya bo‘limida 2025-yil yanvar oyida davolangan 91 nafar bemorlarni kasallik tashxisini ko‘rib chiqdik, bulardan 61.54% ya’ni 56 ta bemorga yurak ishemik kasalligi tashxisi qo‘yilgan. Bemorlarning 30 ta’sini ayollar, 26 ta’sini esa erkaklar tashkil etdi, asosan ushbu kasallik bilan nafaqa yoshidagi insonlar, keyingi o‘rinda esa II-guruh nogironlari va o‘rta yoshdagi bemorlar murojat qilgan. Tuzilgan so‘rovnoma 10 ta yurak ishemik kasalligi, uning xavf omillari, davolash chora tadbirlari bo‘yicha shifoxonaga kelgan bemorlarning xabardorlik darajasini aniqlab beruvchi savollardan iborat bo‘ldi. Biz so‘rovnomamiz natijasini tahlil qilganimizda, bemorlarning 57% i kasallik asorati sababli mehnat faoliyatini vaqtincha yoqotganligi aniqlandi. Yurak ishemik kasalligining etiologiyasidagi irsiy moyillik 25% bemorda kuzatilgan, bemorlarning 47 % xamrox qandli dibet 2 turi bilan kasallanish borligi qayd qilindi. Shuningdek, bemorlarning 38 %da ashaddiy kashandalik borligi aniqlandi.

Yurak ishemik kasalligi asosan qon ivishining buzilishi-tromb hosil bolishi, ateroskleroz, qon bosimining doimiy oshib turishi, stress, emotsional zo‘riqish, kam xarakatlilik, no to‘g‘ri ovqatlanish, xavfli omillar chekish, ichish, semizlik oqibatida rivojlanadi, shu bilan birgalikda ushbu kasallik vaqtida davolanmasa yurak infarkti va boshqa bir qancha patalogik holatlarga olib kelishi mumkin. Kasallik belgilari bu-ko‘krak sohasidagi, bo‘yin va jag‘ qismlarda og‘riq, nafas olishni biroz qiyinlashishi, hansirash, ko‘ngil aynishi, terlash, qo‘l-yelkalarda uyishish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Kuzatuvdagi bemorlarda tashxis qo‘yish maqsadida olingan EXO va EKG xulosalarida yurak mushagi va ritmida o‘zgarish borligini aniqlandi. Davolash, bemorlar sog‘ligini yaxshilash sifatida ularga, og‘riq kamaytirish uchun nitroglitserin, qon suyiltiruvchi aspirin yoki boshqa dori vositalari, yurak ishini optimallashtirishga esa Beta-blokatorlar, AAF-ingibitorlari berildi va bemorlar shifokorlar nazoratida

davolash muolajalarini oldilar. Kuzatuvdagi bemorlarning 44,8% da o‘tkazilgan davo choralaridan keyin sezilarli samaraga erishildi.

Xulosa va tavsiyalar: Turli xildagi yurak ishemik kasalligining oldini olish va davolash uchun quyidagi yo‘llar mavjud: 1.To‘g‘ri ovqatlanish: Yurak kasalliklarining oldini olishda eng muhim qismlaridan biri tog‘ri ovqatlanish. Yog‘li, achchiq, tuzli va zararli bo‘lgan barcha mahsulotlardan saqlanish tav’siya etiladi. 2. Dori mahsulotlari: Dori mahsulotlarini qabul qilishda vrach ko‘rsatmasi, dozasi va rejimiga qat’iy rioya qilish, muddati o‘tkan dori-darmonlardan foydalanmaslik, ulardan ko‘r-ko‘rona foydalanmaslik tavsiya qilinadi.3. Stressdan saqlanish: Stress yurak ishemik kasalligining simptomlarini kuchaytirishi mumkin. Stressdan saqlanish uchun mediatsiya, muntazam sport va boshqa stressni kamaytiruvchi faoliyatlar bilan shug‘illanish tavsiya etiladi. Xulosa qilib aytganda, yurak ishemik kasalligi bilan kasallanish insonlarning yashash sharoitini optimallashtirish, sog‘lom turmush tarziga rioya qilish, kasbi, va o‘z sog‘liklarini qay darajada nazorat qilishlariga bog‘liq hisoblanadi.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ МРТ ДЛЯ ОЦЕНКИ НАРУШЕНИЙ ГОМЕОСТАЗА ПРИ РАКЕ ЯИЧНИКОВ

Хайитбоева М.Р.[1], Таирова М.И.[2], Исмаилова М.Х.[3]
Ташкентская Медицинская Академия

Актуальность.Рак яичников остается одной из ведущих причин смертности среди женщин с онкогинекологическими заболеваниями. Нарушение гомеостаза в опухолевой ткани, включая гипоксию, изменения микроциркуляции и метаболического обмена, играет ключевую роль в прогрессировании заболевания. Магнитно-резонансная томография (МРТ) представляет собой неинвазивный метод, способный выявлять патофизиологические изменения, что делает его важным инструментом в изучении процессов, связанных с опухолевым ростом.

Цель: Определить возможности МРТ в диагностике нарушений гомеостаза при раке яичников, включая оценку гипоксии, метаболической активности и сосудистых изменений.

Материал и методы исследования. Обследовано 48 пациенток с подтвержденным диагнозом рака яичников. Проведено динамическое контрастное усиление (DCE-MRI), диффузионно-взвешенная МРТ (DWI) и МР-спектроскопия (MRS). Анализировались изменения кровотока, метаболическая активность и уровни тканевой гипоксии.

Результаты. Метод DCE-MRI позволил выявить снижение сосудистой плотности и повышение проницаемости сосудов в зонах опухолевого роста. DWI показала снижение коэффициента диффузии в гипоксических участках ткани. MRS выявила увеличение уровней лактата и холина, что указывает на изменения метаболизма опухолевых клеток. Эти данные коррелировали с клинической стадией заболевания.

Вывод. МРТ является высокоинформативным методом для изучения нарушений гомеостаза при раке яичников. Использование функциональных и метаболических МРТ-технологий позволяет не только диагностировать опухолевый процесс, но и оценивать степень нарушений, что способствует оптимизации терапии и мониторингу лечения.

OSHQOZON VA O‘N IKKI BARMOQ ICHAK YARA KASALLIGI:ETIOLOGIYASI, PATOGENEZI, DIAGNOSTIKASI VA DAVOLASHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Yusupboyeva Mohinur Javlonbek qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Morfologiya” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligining tarqalganlik darajasi, etiologiyasi, patogenezi, kasallik klinikasi hamda zamonaviy tekshirish metodlari yoritilgan. Jumladan yara kasalligining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadigan himoya faktorlari hmada xavf omillari, kasallik patogenezida zararli odatlarning roli, oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligining o‘zari differsial diagnostikasi, davolash tamoyillari batafsil yoritilgan.

Kalit so‘zlar: perforatsiya, himoya faktorlari, stenoz, og‘riq sindomi, antatsid.

Аннотация. В этой научной статье рассматриваются Распространенность язвенной болезни желудка и двенадцатиперстной кишки, этиология, патогенез, клиника заболевания, а также современные методы исследования. В т. ч. защитные факторы, имеющие значение в развитии язвенной болезни, подробно описаны факторы риска в гмда, роль вредных привычек в патогенезе заболевания, дифференциальная диагностика язвенной болезни желудка и двенадцатиперстной кишки, принципы лечения.

Ключевые слова: перфорация, защитные факторы, стеноз, болевой синдром, антацид.

Annotation. This scientific article covers the extent of prevalence, etiology, pathogenesis, Disease Clinic of gastric and duodenal ulcer disease, as well as modern examination methods. In particular, the protective factors that are important in the development of wound disease are covered in detail by the risk factors in HMA, the role of harmful habits in the pathogenesis of the disease, the differential diagnosis of esophageal and duodenal ulcer disease, the principles of treatment.

Keywords: perforation, protective factors, stenosis, pain syndrome, antacid.

Mavzuning dolzarbligi. Oshqozon yarasi kasalligi, etiologiya, patogenez va davolashni o‘rganish bo‘yicha ko‘plab tadqiqotlarga qaramay, davom etayotgan zamonaviy Gastroenterologiyaning dolzarb muammosi hisoblanadi. Oshqozon yarasi va o‘n ikki barmoqli ichakning tarqalish darajasi,turli mualliflarning ma’lumotlariga ko‘ra, 1000 kishiga 10 dan 15 gacha holatlar to‘g‘ri keladi.[1.1]Oshqozon yarasini davolashda sezilarli yutuqlarga qaramay, kaallikning qo‘zishi, amalga oshirilgandan keyin kasallikning kuchayishi jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. JSST mutaxassislarining fikriga ko‘ra, jarayonni xronizatsiya qilishda bu juda muhimdir bemorning jismoniy, psixologik va ijtimoiy holatidagi o‘zgarishlarni baholashi, ya’ni hayot sifatini baholashdir.[2.1] 60% odamlarda gastroduodenal zona patologiyasining shakllanishi mehnatga layoqatli yoshdan boshlanadi, shuning uchun bemorlarni o‘qitish va dispanserizatsiya keng chora-tadbirlar tizimining ajralmas qismidir.[3.2]

Tadiqot metodi va natijalar. Oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi-surunkali, qaytalanuvchi, qo‘zish av remissiya davrlari almashinib keluvchi kasallik

bo‘lib, uning morfologik asosi-shiliq qavatda yara hosil bo‘lishi hisoblanadi. Kasallik etiologiyasi sifatida bir qancha polietiologik faktorlarni keltirish mumkin, jumladan, nasliy, ruhiy, alimentar, mexanik, helicobacter pylori bakteriyasi, zararli odatlar va ayrim dorilarni nazoratsiz uzoq muddat qabul qilish muhim ahamiyatga ega. Ushbu qayd etilgan ta’sirlar natijasida himoya va agressiv omillar orasidagi nisbat o‘zgaradi, natijada yara hosil bo‘ladi.[4.1] Kasallikning tub negizida shuningdek, asabiylashish, stress, chekish, noto‘g‘ri ovqatlanish,(achchiq, dudlangan,xamirli taomlar,pishiriqlar, quruq va sovuq ovqatlar, ovqatlanish muntazamligining buzilishi, rafinirlangan mahsulotlar, qahva va boshqalar), biologik tug‘ma nuqsonlar ham kasallik rivojlanishida muhijm rol o‘ynaydi. Agressiv himoya omillariga quyidagilar kiradi: kislota-peptik sekretsiyasining ortishi, uni ishlab chiqaruvchi G-hujayralar giperfunksiyasi, ishqoriy pankreatik-duodenal shira tushishining kamayishi, oshqozonda ishlab chiqarilgan ishqorli pankreatik-duodenal shira muvozanatining buzilishi, oshqozon epiteliy qavati tuzilishining o‘zgarishlar(mukopolisaxaridlar reaparatsiya jarayoniniga javobgar hisoblanadi.), ulserogen fraksiyasi pepsinogenlar sekretsiyasining ortishi. Himoya omillari esa quyidagicha, ya’ni shilliqosti qavatda kapilyar qon oqimining normal bo‘lishi, oshqozon hujayralari tomonidan protektor prostoglandinlarning yetarli darajada ishlab chiqarilishi, oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak hujayralari tomonidan shilliq ishlab chiqarilishini kuchayishi va natijada muhitni ishqoriylanishiga imoniyat yaratilishi. Yara kasalligining tasnifi etiologiyasiga ko‘ra,joylashuvi, yara turi,o‘lchamiga, klinik kechishiga,oshqozon sekretsiyasi,kechish xususiyati, kasallik bosqichlari, asoratning mavjudligiga ko‘ra bo‘linadi.

Natijalar muhokamasi. Kasallikning klinik manzarasi yaraning joylashuviga, o‘lchamiga, chuqurligiga, oshqozonning secretor faoliyatiga, bemorning yoshiga bog‘liq holda turli-tuman bo‘lib, asosiy belgisi og‘riq hisoblanadi. Oshqozonning orqa devori va kardial qismlardagi yaralarda ovqatdan keyin og‘riq bo‘lishi xos va xanjarsimon o‘siqning asosida joylashadi, bu sipmtop Mendel simptomi deyiladi. Og‘riqlar simillovchi, to‘mtoq xarakterda bo‘lib, ko‘p hollarda to‘sh ortiga va yurak sohasiga uzatiladi. Kichik egrilik sohasida bo‘lsa ovqatdan keying 15-60 daqiqadan so‘ng rivojlanuvchi og‘riqlar xos. Bulardan tashqari bemorlarda asosan ko‘ngil aynishi va jig‘ildon qaynashidan shikoyat qilishadi. Antral yaralarda esa aniq davriylik va “och qoringa” yuzaga keladigan og‘riqlar xos. Bunda barcha bemorlarda oshqozonsekretor faoliyatining ortishi va qonashga moyillik qayd etiladi. Og‘riqlar stenokardiya xurujlariga o‘xshab ketadi. O‘n ikki barmoq ichak yaralari uchun esa kechki (ovqatdan keyin 1.5-3 soat o‘tgach), och qoringa, tungi ovqat iste’molidan keyin paydo bo‘luvchi va antatsidlar qabul qilganidan keyin rivojlanuvchi og‘riqlar xos. Ular o‘ng yonbosh sohasida, ayrim paytlarda kindik atrofida, qorinning yuqori o‘ng kvadratida joylashishi, ba’zan belga, to‘sh orqasiga uzatilishi xos. Og‘riqning xarakteri kesuvchi, sanchuvchi, ba’zan to‘mtoq xarakterda bo‘ladi. Piyozchadan tashqari joylashgan yaralarda og‘riqlar prekardial sohaga, ko‘krakning chap qismiga, piyozcha orti yaralarda esa bel, o‘ng ko‘krak orti sohalarga uzatilishi xos. Yana bir xarakterli belgisi shuki, kasallikning avj olish davrida qayt qilish kuzatiladi, boshqa vaqti esa yengillik sezadi. Dispeptik buzilishlarda eng ko‘p uchraydigani esa jig‘ildon qaynashi hisoblanib, ayrim hollarda u kasallikning yagona belgisi ham bo‘lishi mumkin.

Shuningdek, ovqatdan keyin kekirish ham shu kasallikning belgisidir. Kasallikning qo‘zish davrlari bahor va kuz oylariga to‘g‘ri keladi. Xurujlarning davom etganda bemorlarda ko‘p hollarda tana vaznining kamayishi ham kuzatilishi mumkin, bu sitofobiya fenomi bilan izohlanadi. Qorinda kuchli og‘riq hosil bo‘lganda bemorlar majburiy holatni egallaydilar. Osmonga qarab yoki yonbosh yotgan holatda bemorlar oyoqlarini tizzalaridan bukib, tanasiga yaqinlashtiradilar. Bu esa bemorlarda qorin ichki bosimining kamayishiga, shu orqali og‘riqning kamayishiga sabab bo‘ladi. Oshqozonning orqa devoridagi og‘riqlarda esa bemorlar yostiq qo‘ygan holda oyoqlarini yig‘gan holatda qorin bilan yotishni afzal ko‘rishadi. Bemorning tili oq kaarsh bilan qoplanadi, agar bemor tili chetlari o‘tkirlashgan bo‘lsa hamda sorg‘ichlari gipertrofiyasi kuzatilsa, xlorid kislota sekretsiyasi yuqoriligidan dalolat beradi. Tilda tish izlari ko‘rinsa, xlorid kislota sekretsiyasi kamayganligini bildiradi. Ichkariga torilgan qorin ko‘proq perivisterit, perigastrit, periduodenitda kuzatiladi. Ma’lum bir sohada doimiy og‘riqlarning bo‘lishi yara kasalligining penetratsiyasidan dalolat beradi. Yara oshqozonosti bezi sohasiga penetratsiya qilsa bel sohasida og‘riq bo‘ladi.

Ba’zi bemorlarda oshqozon yarasi va o‘n ikki barmoq ichak yarasi qo‘shilib kelishi mumkin. Bunday bemorlarda og‘riq xususiyati ikki to‘lqinli bo‘lib, 40-60 daqiqa davom etadi. Ular 1,5-2 soatdan keyin yana kuchayib, uzoq muddat saqlanadi. Yuqorida ko‘rsatilganidek, oshqozondagi dispeptik buzilishlari va ichak faoliyatidagi buzilishlaryara kasalligiga xos muhim belgilardan hisoblanib, u quyidagi xulosalarning shakllanishi uchun asos bo‘laoladi. Birinchidan, ovqat iste’mol qilgandan keyin tezda yoki 2-3 soat o‘tgach jig‘ildon qaynashi og‘riq sipmtomining ekvivalenti bo‘lishi mumkin. Ikkinchidan, kekirish yara kasalligiga xos bo‘lib, uning qo‘lnsa hidli bo‘lishi stenoz belgisi bo‘lishi mumkin. Uchinchidan ko‘ngil aynishi antral yaralar uchun, qayt qilish-pilorik jomning funksional yoki organik stenozi uchun xos belgi.To‘rtinchidan, ishtahaning saqlanishi yoki yuqori bo‘lishi o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi uchun xos, ammo ularda “sitofobiya” kuzatiladi.Beshinchidan o‘n ikki barmoq ichakning piyozcha qismidagi yarada 3-5 kun davom etadigan qabziyatlar kuzatiladi. Bulardan tashqari ba’zi bemorlarda markaziy asab tizimining o‘zgarishlari, jumladan, uyqu buzilishi, emotsional labillik, ta’sirchanlik ko‘proq o‘n ikki barmoq yara kasalligi uchun xos. Oshqozon yara kasalligining oldi holati quyidagilar bilan tavsiflanadi: me’yordagi yoki yuqori holatdagi sekretsiya holati, og‘riq simptomi aniq namoyon bo‘ladi hamda kuchayib boradi, nordon qayt qilish, jig‘ildon qaynashi va undn keyin bemor ahvolining yengillanishi. O‘n ikki barmoq ichak yara kasalligining oldi holati quyidagicha: bemor naslida yara mavjudligi, ozg‘inlik, vegetativ asab tizimi ta’sirchan bo‘lgan insonlar, yaqqol namoyon bo‘lgan dispeptik sindrom.

Belgilari	O‘n ikki barmoq ichak yara kasalligi	Oshqozon yara kasalligi
Yoshi	40 yoshgacha	40 yoshdan katta
Jinsi	Asosan erkaklar	Ikkala jinsda bir xil
Og‘riq	Kechki, och qoringa	Ovqatdan keyingi og‘riq
Qayt qilish	kuzatilmaydi	Ba’zan kuzatiladi
Ishtaha	Me’yorida yoki oshgan	anoreksiya
Tana vazni	O‘zgarmaydi	kamayadi

EGFDS	Tashxisni tasdiqlash uchun	Tashxisni tasdiqlash va davolash samaradorligini baholash uchun
Biopsiya	H.pylorini aniqlash uchun	6-12 oydan qayta biopsiya tayinlanadi

1-jadval. Oshqozon va o‘n ikki barmoq ichak yara kasalligining diffensial diagnostikasi.

Laborator-instrumental tekshirishlar: fraksion zondlash yoki intragastral pH-metriya yordamida ko‘p kanalli zonddan foydalangan holda uning sekretsiyasiga ta’sir qiluvchi dorilar bilan o‘tkaziladi (pentagastrin, gistamin). Unda quyidagi pH-metriya ko‘rsatkichlarini aniqlash mumkin: bazal sekretsiya-1,5 va undan past-giperatsid holat, 1,6-2,0-normatsid holat; 2,1 va undan yuqori-gipoatsid holat, 6,0 va undan yuqori antatsid holat. EGFDS yordamida tekshirish- oshqozon va o‘n ikki barmoq yara kasalligida hal qiluvchi tashxislash metodi hisoblanadi. U yuqori informatib metod hisoblanib, samaradorligi 98%ni tashkil etadi. U yaraning joylashishi, o‘lchami, chuqurligi, asoratlarini baholab beradi. Zamonaviy metodlardan videokapsula yordamida endoskopiya ham zarur informatsiyalarni beradi. Bariy sulfat bilan rentgenoskopiya yoki rentgenografiya oshqozonning motor-evakuator disfunksiyasi, pilorospazm, deformatsiya kabi yara oldi holatlari hamda “tokcha” belgisi aniqlashi mukin. Asoratlari esa gemorragiya, perforatsiya, penetratsiya, stenoz, malignizatsiya kabilar bo‘lishi mumkin. Kasallikni davolashda dorilar bilan yoki dorilarsiz amalga oshiriladi. Bemor ovqatiga quyidagicha talablar qo‘yiladi: ovqat tarkibidagi mahsulotlar yaxshilab maydalangan bo‘lishi hamda kuniga 5-6 marta iste’mol qilishi kerak. Kasallikning qo‘zish davrida shilliq qavatlarni kam ta’sirlantiradigan bo‘lishi kerak. Shuning uchun yog‘li, dudlangan, achchiq, sho‘r, dag‘al o‘simlik tolalari saqlovchi sabzavot va mevalar, konservalar, gazli ichimliklar, qahva, shokoladlar, spirtli ichimliklar iste’mol qilish cheklanadi. Bemorga tayinlangan ulserogen dorilar, masalan, NYQD va GKS bekor qilinadi, agarda mutloq ko‘rsatma mavjud bo‘lsa, gastroprotektorlar bilan birga qo‘llash tavsiya qilinadi. Dorilar bilan davolaganda 2012-yilda qabul qilingan “MASTRIX IV KONSENSUS”I algoritmidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunga ko‘ra bemorga proton nasos ingibitorlari 4-6 hafta davomida, amoksitsillin (kuniga 2g) va klaritromitsin (kunda 2 mahal 500mgdan 2 mahal) tabletkalardan foydalanish mumkin. Yuqoridagi uch komponenti davo samara bermasa to‘rt komponentli davolash usulidan (denol 120mg kunda 1 tabletkadan 2 mahal) tavsiya qilinadi. Bemorda kislotalik yuqori bo‘lsa, antatsidlar tavsiya qilinadi.

Xulosa. Yuqoridagi ma’lumotlardan ko‘rinadiki, ushbu kasallik aholi orasida keng tarqalishi, organizm holatiga kuchli salbiy ta’sir ko‘rsatishi, klinikasining og‘irligi hamda asorat qoldirishi jihatidan juda xavflidir. Bu kasallikning oldini olish uchun sog‘lom turmush tarziga amal qilish, ratsional ovqatlanish qoidalariga amal qilish nihoyatda muhimdir. Shuningdek oshqozonning himoya faktorlari hamda xavf faktorlari orasidagi nisbatning barqaror bo‘lishiga harakat qilish kerak. Bemorlarga kerakli parhezlani aniq, sodda qilib o‘rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “Ichki kasalliklar” Abdig‘affor Gadayev. Qayta ishlangan va to‘ldirilgan to‘qqizinchi nashr. Muharrir nashriyoti. Toshkent-2023.

2. Physiologie des Menschen mit Pathophysiologie. Ralf Brandes, Florian Lang, Robert F. Schmidt. Herausgeber und Verlag Heidelberg im Frühjahr 2019.

3. Калинина А.В., Логинова А.Ф., Хазанова А.И. Гастроэнтерология и гепатология: диагностика и лечения. Руководство для врачей.-Москва,2011.

4. Каримов М.М., Г.Н.Собирова, З.З. Соатов, Ш.С.Исломова. Распространенность и молекулярно-генетические характеристики Helicobacter pylori в Узбекистане. Эффективная фармакотерапия.2019.

5. Комаров Ф.И. Руководство по внутренним болезням для врача обшей практики от симптома и синдрома- к диагнозу и лечению. Москва.

6. Каримов М.М., Г.Н.Собирова, Абдуллаева У.К., Хронический гастрит и вопросы консерогенеза. Вестник Клуба панкреотологов.2019.

7. Волевач Л.В., Нафикова А.Ш.,Габбасова Л.В., Сарсенбаева А.С.Язвенная болезнь.Факторы, влияющие на качество жизни Монография.Тамбов2019.

8. А.Г. Бебуришвили, И.В. Михин, Е.Н. Зюбина.ЯЗВЕННАЯ БОЛЕЗНЬ ЖЕЛУДКА И ДВЕНАДЦАТИПЕРСТНОЙ КИШКИ.Методические рекомендации для врачей. Волгоград, 2007 г.

9. Методические указания к практическим занятиям. ХИРУРГИЯ ЯЗВЕННОЙ БОЛЕЗНИ ЖЕЛУДКА И ДПК. Екатеринбург 2019

10. Диагностика и лечение язвенной болезни у взрослых (Клинические рекомендации Российской гастроэнтерологической ассоциации, Российского общества колоректальных хирургов и Российского эндоскопического общества) В.Т. Ивашкин, И.В. Маев, П.В. Царьков, М.П. Королев, Д.Н. Андреев,Е.К. Баранская, С.Г. Бурков, А.А. Деринов, С.К. Ефетов, Т.Л. Лапина, П.В. Павлов, С.С. Пирогов, А.А. Ткачев, А.С. Трухманов, Е.Д. Федоров, А.А.Шептулин,* Рос журн гастроэнтерол гепатол колопроктол 2020; 30(1) / Rus J Gastroenterol Hepatol Coloproctol 2020; 30(1).

YURAK YETISHMOVCHILIGI KELIB CHIQISHIDA PROOKSIDANT-ANTIOKSIDANT SISTEMA DISBALANSINING AHAMIYATI

Allaqulova Oygul Farhod qizi
Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali “Morfologiya” yo‘nalishi 1-kurs magistranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada yurak yetishmovchiligi *(insufficientia cordis*) sindromining dolzarbligi va patofiziologiyasi tahlil qilinadi. Yurak yetishmovchiligi miokard disfunksiyasi natijasida rivojlanib, hujayralararo suyuqlik hajmining oshishi va organlar perfuziyasining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu kasallik dunyo bo‘yicha yurak-qon tomir kasalliklari sababli yuqori o‘lim darajalarini keltirib chiqaradi. Maqolada yurak yetishmovchiligining asosiy etiologik omillari, shu jumladan, miokard infarkti, qandli diabet va gipertenziya kabi kasalliklar tahlil qilinadi. Shuningdek, oksidlovchi stress va antioksidant tizimining disbalansi yurak yetishmovchiligi rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Patofiziologik variantlar, ya’ni yurakning zo‘riqib ishlashidan, miokard shikastlanishidan va aralash shakldan kelib chiqadigan yurak yetishmovchiligi holatlari tasvirlanadi. Maqolada prooksidantlar va antioksidantlar o‘rtasidagi muvozanatning ahamiyati, mitoxondriyal disfunktsiya va yallig‘lanish jarayonlari ham ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, chap va o‘ng tomonli yurak yetishmovchiligining klinik belgilari, jumladan, dispepsiya, ortopneya, perifirik shishlar va hepatomegaliya kabi alomatlar tahlil qilinadi. Maqolada yurak yetishmovchiligining oldini olish va davolash usullari haqida ham fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: oksidlovchi stress, perfuziya, prooksidanlar, gipertenziya, dispepsiya.

Mavzuning dolzarbligi. Yurak yetishmovchiligi (lotincha: *insufficientia cordis*) – dekompensatsiyalangan miokard disfunksiyasi natijasida kelib chiqadigan sindrom. Bu hujayralararo suyuqlik hajmining oshishi, organlar va to‘qimalarning perfuziyasining pasayishi bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu sindromning patofiziologik asosi shundaki, yurak nasos funksiyasi buzilganligi sababli tananing metabolik ehtiyojlarini ta’minlay olmaydi yoki u buni qorinchalarda so‘nggi diastolik bosimni oshirish orqali amalga oshiradi.[1] JSST hisob-kitoblariga ko‘ra, 2016-yilda 17,9 million kishi yurak-qon tomir kasalliklaridan vafot etgan, bu butun dunyo bo‘ylab o‘lim holatlarining 31 foizini tashkil qilgan. Ushbu o‘limlarning 85% miokard infarkti va insult tufayli sodir bo‘lgan. Birgina 2017 yilning o‘zida YQT kasalliklaridan o‘lim17,8 millontani tashkil etdi. Bu esa butun dunyoda barcha o‘lim ko‘rsatkichlarning 1/3 qismini tashkil etadi**.[**2]Yurak yetishmovchiligini rivojlanishidagi etiologik omillar orasida koronar arteriya kasalligi va arterial gipertenziya va ularning kombinatsiyasi eng dolzarb hisoblanadi. Hozirgi vaqtda SYY hosil bo‘lishining yetakchi sabablari miokard infarkti (19,7%) va qandli diabetning mavjudligi (22,7%), yurak nuqsonlari (4,3%), miokardit(3,6%), kardiomiopatiyalar(0,8%) ni tashkil qiladi. SYY rivojlanishining muhim sabablari O‘SOK (13%), bo‘lmachalar fibrilatsiyasi (12,8%) va bosh miyada qon aylanishining o‘tkir buzilishlari (10,3%) kabi kasalliklardir [3]

Tadiqot metodi va natijalar. Yurak yetishmovchiligi yurak o`z nasos funksiyasi bajara olmasligi natijasida a`zolarda qon aylanishining buzilishi bilan

bog‘liq kasallik bo‘lib, uning natijasida organizmning kislorod va oziq moddalar bilan ta`minlanishi hamda mikrosirkulyatsiya jarayonining keskin o‘zgarishi yuzaga keladi[4] yurak yetishmovchiligining rivojlanishida prooksidant va antioksidant tizimlarining disbalansi muhim ro‘l o‘ynaydi. Oksidlovchi stress, ya’ni prooksidanlar va antioksidanlar o‘rtasidagi muvozanatning buzilishi, yurak mushaklarining zararlanishi va yurakning normal ishlashini ta'minlashdagi qobiliyatining pasayishiga olib keladi.[5]Yuqorida qayd etib o‘tilgan omillar ta’sirida ko‘proq chap qorincha yoki ularning har ikkalasi zo‘riqishi yuz beradi. Aorta o‘zanining torayishi, uzoq muddat qon bosimining yuqori bo‘lishi, mitral va aortal qopqoqchalar yetishmovchiligi aksariyat hollarda chap qorinchaning zo‘riqishiga va kichik qon aylanish doirasida qonning dimlanishiga, o‘ng qorinchaning zo‘riqishiga o‘pka arteriyasi o‘zanining torayishiga, o‘pka arteriyasi tromboemboliyasi, uch tabaqali qopqoqchalar yetishmovchiligi esa kichik qon aylanish doirasida bosimning oshishiga olib keladi va katta qon aylaninsh tizimi venoz qismidagi dimlanishga sabab bo‘ladi.[4.1]Yurak yetishmovchiligini 3 xil patofiziologik variantlari farq qilinadi. 1.Yurak bajaradigan vazifani ortishi, zo‘riqib ishlashidan yetishmovchilik paydo bo‘ladi, bunday holatda yurakni qonni haydab chiqarishiga qarshilikni ortishi yoki yurakni ma’lum bir qismiga qonni oqib kelishini ko‘payishi yurak yetishmovchiligiga olib keladi.[5.1]Masalan, bu variant yurak poroklari, katta yoki kichik qon aylanish gipertenziyalarida, arteriovenoz fistulalarda yoki haddan tashqari kuchli jismoniy ish bajarilganida paydo bo‘ladi. Bu holatda yurakni qisqarish qobiliyati normal bo‘lsada, uni bajaradigan ishi nihoyatda kuchayadi.[1.1]

2.Miokardning shikastlanishidan yurak yetishmovchiligi rivojlanadi. Buning sabablari infeksiyalar, intoksikatsiyalar, gipoksiyalar, avitaminozlar, toj tomirlarda qon aylanishi buzilishlari, charchashi, miokardda moddalar almashinuvining irsiy defektlari bo‘lishi mumkin.[1.2]

3.Yurak yetishmovchiligining aralash shakli uchraydi. Bunday holatda miokardning shikastlanishi bilan uni bajaradigan ishining kuchayishi har xil darajada uyg‘unlashib ketadi. Masalan, revmatizmda miokardni yallig‘lanishli shikastlanishi bilan klapan apparatining buzilishini kombinatsiyasi kuzatiladi. Yurak yetishmovchiligining bu turi miokarddagi distrofik o‘zgarishlar yoki yurakning mushak hujayralaring nobud bo‘lishi natijasida miokardda saqlanib qolgan hujayralarni zo‘riqib ishlashidan kelib chiqadi. [1.3]

Natijalar muhokamasi.Prooksidantlar va Antioksidantlar: Prooksidantlar — bu organizmda normal biologik jarayonlar natijasida shakllanadigan yoki tashqi muhitdan kelib chiqadigan kimyoviy moddalar bo‘lib, ular kislotalar va oksidlovchi xususiyatlarga ega. Prooksidantlar ayniqsa reaktsiyaga kirishganida, hujayra va to‘qimalarning oksidlanishiga olib kelishi mumkin, bu esa hujayralarning strukturaviy va funksional o‘zgarishlariga sabab bo‘ladi. Shu bilan birga, prooksidantlar hujayra energiyasi va axborot oqimini boshqarishda ro‘l o‘ynaydi. Antioksidantlar esa organizmda prooksidanlarning zararlı ta’sirini bartaraf etishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Ular hujayralardagi oksidlovchi stressni kamaytirib, hujayralarning zararini kamaytirishga yordam beradi. Antioksidantlar tabiiy ravishda oziq-ovqatdan, fermentlar, vitaminlar (masalan, C va E vitaminlari) va minerallar orqali organizmga kiradi. Ular prooksidanlar bilan reaksiya qilganda, zararsiz moddalarga aylanadi, bu

Annotatsiya: Mazkur maqola Metapnevmovirusning bolalar va kattalardagi klinik ko‘rinishlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Metapnevmovirus nafas olish yo‘llarini zararlaydigan virus bo‘lib, uning infeksiyalari nafaqat yuqori, balki pastki nafas yo‘llari tizimiga ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bolalarda virusning klinik ko‘rinishi ko‘pincha shamollash, yo‘tal, burun oqishi kabi simptomlar bilan boshlanadi, lekin og‘ir holatlarda bronxiolit yoki pnevmoniya rivojlanishi mumkin. Kattalarda esa kasallik o‘tkir yoki yengil shaklda bo‘lishi mumkin, ammo immuniteti zaif bo‘lgan bemorlarda holatning og‘irlashish xavfi mavjud. Maqolada virusning epidemiologik jihatlari, simptomlari, diagnostikasi va davolash usullari hamda kasallikning oldini olish uchun tavsiyalar keltirilgan. Metapnevmovirus infeksiyalarining klinik ko‘rinishi va davolash metodlariga oid so‘nggi ilmiy tadqiqotlar yoritilgan va amaliyotda foydalanuvchilar uchun muhim ma’lumotlar taqdim etilgan.

Kalit so‘zi: hMPV, infeksiya, pnevmaniya, bronxiolit, immunitet, asemptomatik, yuqori va pastki nafas yo‘llari, JSST, kasallik profilaktikasi.

Аннотация: Статья посвящена изучению клинических проявлений метапневмовирусной инфекции у детей и взрослых. Метапневмовирус — это вирус, поражающий дыхательные пути, причем его инфекции могут поражать не только верхние, но и нижние дыхательные пути. Клиническая картина вируса у детей часто начинается с таких симптомов, как простуда, кашель и насморк, но в тяжелых случаях могут развиться бронхиолит или пневмония. У взрослых заболевание может протекать в острой или легкой форме, однако у пациентов с ослабленной иммунной системой существует риск ухудшения состояния. В статье представлены эпидемиологические аспекты вируса, симптомы, методы диагностики и лечения, а также рекомендации по профилактике заболевания. Освещены новейшие научные исследования по клинической картине и методам лечения метапневмовирусных инфекций, а также предоставлена важная информация для пользователей на практике.

Ключевые слова: hMPV, инфекция, пневмония, бронхиолит, иммунитет, бессимптомный, верхние и нижние дыхательные пути, ВОЗ, профилактика заболеваний.

Annotatsion: This article is devoted to the study of the clinical manifestations of metapneumovirus in children and adults. Metapneumovirus is a virus that affects the respiratory tract, and its infections can affect not only the upper but also the lower respiratory tract. In children, the clinical manifestations of the virus often begin with symptoms such as a cold, cough, and runny nose, but in severe cases, bronchiolitis or pneumonia can develop. In adults, the disease can be acute or mild, but in patients with weakened immunity there is a risk of worsening the condition. The article presents the epidemiological aspects of the virus, symptoms, diagnosis and treatment methods, as well as recommendations for preventing the disease. The latest scientific studies on the

clinical manifestations and treatment methods of metapneumovirus infections are highlighted and important information for users in practice is provided.

Keywords: hMPV, infection, pneumonia, bronchiolitis, immunity, asymptomatic, upper and lower respiratory tract, WHO, disease prevention.

Kirish: Metapnevmovirus (hMPV) — nafas olish yo‘llarini zararlaydigan, odatda kuz-qish mavsumlarida faoliyat ko‘rsatadigan bir qator viruslardan biridir. Virus dastlab 2001-yil Niderlandiyada aniqlangan bo‘lib irsiy o‘zgaruvchanliklar tufayli turli shtammlani keltirib chiqarmoqda. Ushbu virus nafaqat bolalar, balki kattalar orasida ham keng tarqalgan. Bolalar va immuniteti zaif kattalarda hMPV infektsiyasi ko‘pincha yuqori nafas yo‘llari simptomlari bilan boshlanadi, ammo og‘ir holatlarda pastki nafas yo‘llarini, xususan, o‘pka va bronxlarni zararlashi mumkin. Mazkur maqola hMPV infeksiyasining klinik ko‘rinishlarini, uning diagnostikasi va davolash usullarini tahlil qiladi, shuningdek, bu infeksiyaning bolalar va kattalarda qanday xavf-xatarlar tug‘dirishini ko‘rib chiqadi. hMPV virusi hozirgi kunda qanchalik havfli, aholi bu virusga qarshi kurasha oladimi? Bu savollarga ushbu maqolada javob topamiz.

Asosiy qism: Ma’lumki, Xitoyda hMPV virusi tarqala boshlagach, ko‘pchilik tashvishga tushib qolgandi. JSST rahbari virus tashkilot mutaxassislari tomonidan yaxshi o‘rganilgani va mavsumiy xususiyatga egaligi, vaqti-vaqti bilan turli mamlakatlarda, ayniqsa, qish oylarida qayd etilishini bildirgan. Shu bois JSST bu virus tarqalgani uchun qandaydir favqulodda choralar qo‘llashdan ma’no yo‘q deb hisoblaydi.

Shuningdek O‘zbekistonda ham so‘ngi ma’lumotlarga ko‘ra ushbu virus ko‘paygani va og‘ir asoratlarga olib kelayotgani aytilmoqda. Aholini havotirga solgan bu habarlarga Sanitariya Epidemiologiya Qo‘mitasi mutaxassisi Rustamjon Ikromov o‘z fikrini bayon etdi: “Kasallikning o‘sib borayotgani to‘g‘risida berilgan xabarlar har bir mamlakatning o‘zidagi laboratoriya nazorati tahlillariga ko‘ra e’lon qilib boriladi. Ya’ni ayni vaqtda Xitoy va Qozog‘istonda berilayotgan rasmiy xabarlarda bu kasallik yangi emasligi va aynan bugungi kundagi o‘tkir respirator infeksiyalarning o‘sish fonida metapnevmovirusning ko‘proq o‘sayotgani aytilyapti. Buni koronavirus infeksiyasidan og‘irroq deb baholash bo‘rttirishdan boshqa narsa emas. Vahimaga o‘rin yo‘q”. “O‘zbekistonda esa O‘RVIning kirib kelishi, mavsum oldidan SSV va Sanepidqo‘m saytida ko‘rsatma xatlarida hududlarda qanday ishlar amalga oshirilishi, qanday profilaktik choralar ko‘rish kerakligi yuzasidan ko‘rsatma xatlar yuborilgan va ishlar o‘shanga mos tashkil etilgan. Davolash bo‘yicha O‘zbekistondagi har bir shifokorda malaka yetarli deb hisoblayman. Aynan O‘RVIning ortib borish davrida aniq bitta statsionarni shu kasalni davolashga qaratilgan holda moslashtirish tajribasi ham bizda yuqori. Ya’ni O‘RVI qaysi hududda ortib ketayotgan bo‘lsa, shu hududda ma’lum bir statsionar boshqa kasalni qabul qilmaydi, faqat O‘RVIni qabul qiladi”, – dedi u.

Inson metapnevmovirusi (hMPV) nafas olish yo‘llari virusi bo‘lib, ayniqsa bolalar, qariyalar va immuniteti zaif odamlarda respirator kasalliklarni keltirib chiqaradi. Virus keng tarqalgan viruslar qatoriga kirib, 10 yoshdan oshgan deyarli

barcha bolalar va barcha kattalar oldingi metapnevmovirus infektsiyasining (hMPV) serologik dalillari (antikorlari) mavjud. hMPV qisqa muddatli immunitet reaktsiyasini keltirib chiqaradi. Bundan tashqari, virusning turli xil kichik turlari bilan infektsiya mumkin, shuning uchun hayot davomida takroriy hMPV paydo bo‘lishi odatiy holdir.

hMPV qo‘zg‘atuvchisi RNK o‘z ichiga olgan virusdir. Hozirgi vaqtda ushbu virusning 2 ta genetik chizig‘i (A va B) va bir nechta genetik subtiplari aniqlangan. MPV qo‘zg‘atuvchisi uy-ro‘zg‘or buyumlarida 6 soatdan ortiq davom etishi mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga, u barcha dezinfektsiyalash vositalariga sezgir va osongina inaktivlanadi. Infeksion manbai kasal odamdir. Birlamchi infektsiyali bolalarda metapnevmovirusning chiqarilishi juda uzoq davom etishi va 3 haftagacha davom etishi aniqlandi.

Infeksiya asosan havo tomchi yo‘llari orqali tarqaladi. Boshqa shunga o‘xshash viruslar singari, hMPV odatda odamdan odamga yo‘talish va aksi urish paytida tupuk tomchilari orqali, kasal odam bilan yaqin aloqada yoki virus bilan ifloslangan yuzalar va narsalarga tegib, keyin og‘iz, burunga o‘tadi, yoki ko‘z shilliq qavatiga zararlangan qo‘llar orqali yuqadi. Yashirin(inkubatsiya) davri odatda 3-5 kun.

Klinik ko‘rinishlarning diapazoni o‘zgarib turadi: asemptomatikdan bronxiolit va pnevmoniya shaklida pastki nafas yo‘llarining shikastlanishiga qadar. MPV ning tipik belgilari yo‘tal, burun bitishi, burundan suyuqlanma oqishi, nafas qisilishi va ovoz xirillashidir. Og‘ir hollarda ich ketishi va qayt qilish kuzatiladi.

Dastlab sog‘lom kattalarda metapnevmovirus yengil o‘tkir respiratorli infektsiyalarni yoki asemptomatik infektsiyalarni keltirib chiqaradi. 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarda va 65 yoshdan oshgan kattalarda, shuningdek immunitet tanqisligi bo‘lgan bemorlarda hMPV og‘irroq bo‘lishi mumkin, bu pastki nafas yo‘llari infektsiyalarining rivojlanishiga olib keladi va kasalxonaga yotqizishni va intensiv terapiyani talab qiladi.

Immunitet tushishi va hMPV ta'siri:

Virus tezroq yuqadi: Immuniteti zaif odamlarning himoya mexanizmlari susaygani uchun, hMPV bilan zararlanish ehtimoli ortadi.

Infeksiya uzoq davom etadi: Immun tizimi virusni tezda yo‘q qila olmagani sababli, simptomlar uzoq vaqt davom etishi mumkin.

Jiddiy asoratlar xavfi oshadi: O‘pkaning pastki qismini qamrab oluvchi bronxiolit va pnevmoniya rivojlanishi. Nafas olishda qiyinchilik, kislorod yetishmovchiligi va hatto reanimatsiya talab qiluvchi holatlar.

Qayta zararlanish ehtimoli: Immunitet zaiflashganligi sababli, hMPV bilan bir marta kasallangan odam qayta infeksiya olishga moyil bo‘ladi.

Immunitetni tiklash va hMPV bilan kurashishda quyidagi usullar yordam beradi:

Muvozanatli ovqatlanish: Vitamin C (sitrus mevalar), D (quyosh nuri yoki qo‘shimchalar) va rux (yong‘oqlar, dukkaklilar) iste'molini oshirish.

To‘g‘ri dam olish: Har kuni kamida 7-8 soat uyqu.

Fizik faollik: Immunitetni mustahkamlash uchun muntazam mashqlar qilish.

Stressni boshqarish: Meditatsiya, nafas olish mashqlari yoki stressni kamaytiruvchi mashg‘ulotlar.

Diagnostika: hMPV infeksiyasini diagnostiklashda klinik simptomlar asosiy rol o‘ynaydi. Virusni aniqlash uchun PCR (polimeraza zanjir reaktsiyasi) testlari va

boshqa laboratoriya usullari keng qo‘llaniladi. Shuningdek, rengenografiya va kompyuter tomografiyasi kabi tasviriy usullar, o‘pka infeksiyalarini tasdiqlashda yordam beradi. Laboratoriya diagnostikasi ko‘pincha - PCR - nazofarengeal tamponlar.

Davolash: hMPV infeksiyasining yengil shakllari odatda simptomatik davolash bilan o‘z-o‘zidan tuzaladi. Isitmani pasaytiruvchi va og‘riqni kamaytiruvchi dorilar, shamollash va burun bitishiga qarshi preparatlar qo‘llaniladi. Og‘ir holatlar, xususan, bronxiolit va pnevmoniya rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lgan bemorlarda, kislorod terapiyasi va kasalxonada davolash zarur bo‘lishi mumkin.

- nafas olishni qo‘llab-quvvatlash.
- patogenetik terapiya

Metapnevmovirusga qarshi maxsus terapiya va emlash ishlab chiqilmagan.

hMPV tarqalishining oldini olish uchun quyidagi profilaktika choralarini ko‘rish kerak:

- jamoat joylariga tashrif buyurganingizdan yoki o‘tkir respirator virusli infektsiya belgilari bo‘lgan odamlar bilan aloqa qilganingizdan keyin qo‘lingizni yuving yoki qo‘l dezinfektsiyalash vositalaridan foydalaning;
- iflos qo‘llar bilan yuzingizga tegmang;
- nafas olish odob-axloq qoidalariga rioya qiling (aksi urayotganda va yo‘talayotganda burun va og‘zingizni yoping);
- odamlar gavjum joylarda yoki jamoat transportidan foydalanganda (masalan, samolyotlarda, poyezdlarda, metroda) niqob taqish tavsiya etiladi, jamoat joylariga tashrif buyurganingizda ijtimoiy masofani saqlang;
- muvozanatli ovqatlanish, o‘rtacha jismoniy mashqlar va yetarli dam olish immunitetni oshirishga yordam beradi ya’ni immun tizimingizni rag‘batlantiradi;

Agar sizda isitma, yo‘tal yoki respiratorli infektsiyaning boshqa belgilari bo‘lsa, uyda dam olish, kasal bo‘lib ish yoki maktabga bormaslik, oila a'zolari bilan muloqotda bo‘lganda niqob taqish va xonada yaxshi shamollatish tavsiya etiladi.

O‘tkir respiratorli yuqumli kasalliklar hozirgi vaqtda doimiy o‘sish tendentsiyasiga ega, buni mavsumiylik bilan izohlash mumkin.

Xulosa: Inson metapnevmovirusi (hMPV) yengildan og‘irgacha bo‘lgan nafas yo‘llari infeksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan muhim nafas olish patogenidir. hMPV bilan bog‘liq kasalliklarni samarali boshqarish va nazorat qilish uchun uning xususiyatlarini, alomatlarini, yuqish yo‘llarini, tashxisini va profilaktika choralarini tushunish juda muhimdir. Yaxshi gigiena qoidalariga rioya qilish va profilaktika strategiyalarini amalga oshirishda hushyorlik hMPV tarqalishini kamaytirishga va odamlarni respiratorli infektsiyalardan himoya qilishga yordam beradi. Metapnevmovirus infeksiyasi bolalar va kattalar orasida keng tarqalgan nafas yo‘llari infeksiyalaridan biridir. Infeksiya ko‘pincha yuqori nafas yo‘llari simptomlari bilan boshlanadi, ammo og‘ir holatlarda pastki nafas yo‘llarini ham zararlaydi. Diagnostika va davolash usullari vaqtida qo‘llanilganda kasallikni samarali nazorat qilish mumkin. Immuniteti zaif bo‘lgan shaxslar, bolalar va qariyalarda hMPV infeksiyasining og‘ir kechish xavfi mavjud, shuning uchun profilaktik choralar va davolash yondashuvlari juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Harrison's Principles of Internal Medicine, 20th edition. (2020). McGraw-Hill Education.

2. Mandell, Douglas, and Bennett's Principles and Practice of Infectious Diseases, 9th edition. (2020). Elsevier.

3. "Metapneumovirus: Clinical Overview and Emerging Therapies," Journal of Infectious Diseases, 2023.

4. World Health Organization (WHO). "Human Metapneumovirus: Overview," 2021.

5. "Respiratory Viruses and Their Impact on Children," Pediatric Infectious Disease Journal, 2022.

6.https://www.gov.kz/memleket/entities/zhambyl-densaulyk/press/news/destalis/914298?lang=ru

7. kun.uz sayti

VITAMINLARNING TUZILISHI VA VITAMIN A NING ORGANIZMDAGI O‘RNI

Meliqulov Javlon
Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti
Stomatalogiya yo‘nalishi 221-guruh talabasi
Ilmiy rahbar: Rixsiyeva Nazira Taxirovna
Alfraganus Universiteti, tibbiyot fakulteti, klinik fanlar kafedrasi dotsenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Vitaminlarning tuzilishi, ularning tarkibi hayotimizdagi o‘rni va ularning turlari haqida shuningdek, har bir vitaminlarni chuqur o‘rganish orqali ularning inson organizmiga qanchalik foydali ekanligi va ular keltirib chiqaradigan kasalliklarni oldini olish, vitamin yetishmasligi qanday holatga olib kelishi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Vitaminlar, vitamin turlari, vitamin yetishmovchiligi, antigemoragik vositalar.

Kirish. Vitaminlar hayotda muhim oziq moddalar hisoblanadi. Ular organizmni muayyan darajada rivojlanishi uchun asosiy oziq komponetlaridir. Vitaminlar organizmning metabolitik jarayonlarini, tananing o‘sishi va rivojlanishi, zararli moddalar va ekologik omillardan himoyalanish hamda barcha hayotiy jarayonlarni ta’minlash kabi vazifalarni bajaradi. Inson organizmi vitaminlarni ishlab chiqarmaydi ularni tananing fiziologik ehtiyojlarini qondirish va foydalanish maqsadida tayyor holda qabul qiladi. Vitaminlarning ko‘p qismini ovqat orqali, ultrabinafsha nurlar va boshqa hollarda ham vitaminlarni qabul qilamiz. Vitaminlar bizning organizmizda o‘ziga xos yordamchilar hisoblanadi. Ular fermentlarning to‘g‘ri ishlashiga va ba’zi gormonlar rolini bajarishiga va tartibga solishiga yordam beradi.

Ko‘plab adabiyotlarda vitaminlarning tuzilishini o‘rganib chiqilgan. Ular o‘z navbatida ikki guruhga bo‘linadi. Bular: yog‘da eruvchi vitaminlar va suvda eruvchi vitaminlardir. Ular o‘z ichiga yana bir qancha vitamin turlarini oladi. Vitaminlar organik birikmalar bo‘lib, ularning ko‘pchiligi fermentlarning koferment qismini tashkil qiladi va fermentativ jarayonlarni bosqarib turadi.

Vitaminlarning nasliy va orttirilgan yetishmasligi turli xil kasalliklar kelib chiqishiga, o‘sish va rivojlanishdan ortda qolishiga, to‘qimalar va hujayralar yangilanishi va regeneratsiyasining susayishiga olib keladi. Vitaminlar o‘zi ovqat omillari bo‘lib juda kam miqdorda saqlanadi va organizmda fiziologik, biokimyoviy jarayonlarni normal ketishiga yordam beradi. Vitaminlar nomlanganda bosh harflar yoki ovqat tarkibidagi vitaminning yetisgmasligi natijasida vujudga keladigan kasallikning nomi yoki kimyoviy nomi bilan nomlanadi.

Vitaminlar moddalar almashinuviga ham ta’sir etadi. Moddalar almashinuvining buzilishi organizmda vitamin yetishmasligiga sabab bo‘ladi yoki ovqat tarkibida vitaminlarning kam miqdorda bo‘lishi sabab bo‘ladi. Bunday holatlarning kuzatilishi natijasida avitaminoz kasalligi vujudga keladi. Vitaminlar tasnifiga ko‘ra, yog‘da eruvchi vitaminlarga : A, D, E, K vitaminlari va suvda eruvchi vitaminlarga esa : B1, B2, B6, B12, PP, BC, B3, H, C vitaminlari kiradi . Ba’zan vitaminlar yetishmaganli sabab ularning o‘rnini bosuvchi kimyoviy moddalar guruhi tavofut etiladi. Bu moddalar odam va ba’zi hayvonlar uchun vitaminsimon moddalar

deb yuritiladi. Misol uchun ularga: xolin, lipoat kislota pangamat kislota, paraaminobenzoat kislota,, karnitin, linol va linolen kislota kabi moddalar kiradi.

Vitaminlar kimyoviy tuzilishi bo‘yicha alifatik, alicyklik, aromatik va geterosiklik guruhlarga bo‘linadi. Ularga quyidagi vitaminlar kiradi;

Alifatik vitaminlarga F, N, C, B15, U, B3, karnitin

Alicyklik vitaminlarga A, D, B8

Aromatik vitaminlarga K

Geterosiklik vitaminlarga E, P, PP, B6, B13, B9, B2, B12, H

Vitaminlarning fiziologik ta’sir etish bo‘yicha ham bir necha guruhlarga bo‘linadi:

1.Organizmning umumiy rezistenligini oshiruvchi vitaminlar: B1, B2, PP, A, C

2.Antigemorragik vitaminlar: C, P, K

3.Antianemik vitaminlar: B12, folat kislota, C

4.Antiinfeksion vitaminlar: A, C

5.Ko‘rish boshqaruvchisi: A, B2, C

Vitaminlarning faoliyati juda ko‘b bo‘lib ularning organizmga bo‘lgan foydasi ham juda ko‘p har bir vitamini chuqur o‘rganish orqali ular haqida juda ko‘plab ma’lumotlar topish va qay darajada foydali ekanligini bilish mumkin.

Vitamin A kimyoviy nomi retinol bo‘lib, kasallikka qarshiligi esa antikseroftalmik deyiladi. Ushbu vitamin yog‘da eruvchi vitamin hisoblanadi. Vitamin A karotin guruhiga kiradi. Ulardan retinol, sirka, palamitin hosil qilgan efirlar, retinal va retinet kabi moddalar eng muhimi hisoblanadi. Ushbu vitamin toza pereparat hisoblanadi. Ular tiniq sariq rangli yopishqoq yog‘lar yoki och sariq rangli ninasimon kiristallar ko‘rinishida bo‘lib organik erituvchilar va yog‘larda yaxshi eriydi.

Vitamin A ultra binafsha nurlar ta’sirida parchalanadi va havo kislorodi bilan oksidlanadi. Vitamin tarkibidagi retinoidlar hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqadi. Vitamin A asosan jigarda zaxiralanadi va to‘qimlarda to‘planish xususiyatiga ham ega. Ushbu vitamin A ma’lumotlarga qaraganda, 1913 -yilda bir qator olimlarning olib borgan tadqiqodlari natijasida birinchi bor tovuq tuxumining sarig‘I tarkibida aniqlashgan va kashf etishgan. U organizmdagi biokimyoviy muhum bo‘lgan vazifalarni bajaradi. A vitamini saqlovchi mahsulotlar hayvonot va o‘simlik manbali mahsulotlarda ayniqsa dengiz mahsulotlarida, sut emizuvchilar jigarida ko‘plab uchraydi. Bizning organizmimizga vitmin manbai karotinlar ham bo‘lishi mumkin, lekin ular retinol o‘rnini bosa olmaydi, faqatgina biroz cheklangan miqdor ta’sir etishi mumkin. Uning yaxshi manbalari qizil qalampir, ko‘k piyoz, salat, qovoq va pomidorda bo‘ladi. Asosan o‘simlik tarkibida karotinoidlar: (yashil sariq sabzavotlar, dukkakliklilar, mevalar) hayvon mahsulotlari tarkibida retinoidlar (baliq yog‘i, jigar, ikra va sut mahsulotlari tarkibida bo‘ladi. Vitamin A ning kunlik ehtiyoji o‘rtacha olganda katta yoshli erkaklarda 900mkg, ayollar uchun 700 mkg ni tashkil etadi. Kattalar uchun yuqori miqdor sutkalik 3000mkg hisoblanadi. Vitamin A organizmda quyidagi bir nechta vazifalarni bajaradi:

1.Fermentlarni sintezlash

2.Mushak to‘qimlari oqsillarini sintezlash

3.Polipeptid zanjirlarining glikozlanishi

4.Jinsiy gormonlar sintezi

5.Epiteliy to‘qimlar fermenti sintezi
6.Retseptorlar faollashuvi
7.To‘r pardaning tayoqchalarida rhodopsin sintezi

Vitamin A yetishmasligi sababli gipovitaminoz A, vitaminoz va boshqa bir qancha kasalillarga sabab bo‘ladi .

Xulosa: shunday qilib, vitamin yetishmasligiturli kasalliklarga sabab bo‘ladi. Ularni profilaktika qilish uchun har bir vitaminni kunlik dozada va vitaminlarga boy bo‘lgan mahsulotlarni iste’mol qilishimiz lozim bo‘ladi. Bizning organizimimiz uchun vitaminlar qiymati juda yuqori hisoblanadi. Sh sababli ham tanamizda vitaminlar miqdorini oshirib turishimiz va kasalliklardan o‘zimizni himoya qilishimiz lozim.

Foydalinilgan adabiyotlar va saytlar:

1. Vitaminlar Biokimyosi M.G.Safin 2015
2. Biologik biokimyo A.A.Xodjimetov 2006
3. https://uz.wikipedia.org
4. http://uz.mymedic.uz

LAPAROSCOPIC SLEEVE GASTRECTOMY: A SOLUTION TO THE PROBLEM OF OBESITY

Juraev S.B., Arshakyan E.X.
Ferghana Medical Institute of Public Health, Ferghana, Uzbekistan

Relevance. The World Health Organization (WHO) defines obesity as a chronic polyetiological disease and has compiled a list of countries where overweight and obesity issues are most prevalent. In recent years, obesity has become a serious problem, not only among adults but also among children and adolescents. According to WHO statistics from 1975 to 2022, the number of people suffering from this pathology has tripled and continues to grow steadily.

Objective of the study. To explore the etiology of obesity, the treatment direction using laparoscopic sleeve gastrectomy, indications and contraindications for surgical intervention, and the surgical technique for performing the operation.

Materials and methods. The etiology of obesity is often familial-primary (alimentary-constitutional) obesity, which develops due to various reasons but mainly due to regular excessive and improper dietary habits, chronic sleep deprivation leading to overeating, a sedentary lifestyle, and stress. Obesity leads to disturbances in carbohydrate metabolism, arterial hypertension, ischemic heart disease, and other complications.

Laparoscopic sleeve gastrectomy is a bariatric procedure in which the stomach is retained in a tubular shape with a volume of 100–150 ml. Reducing obesity is achieved by leaving the stomach in a tubular shape, decreasing its volume, removing the "hunger center," and significantly reducing ghrelin levels.

Indications for laparoscopic sleeve gastrectomy include morbid obesity, alimentary obesity, morbid obesity in individuals aged 55–65 years, morbid obesity in children, including those with genetic syndromes (e.g., Prader-Willi syndrome).

Contraindications include esophageal strictures, varicose veins of the esophagus and stomach, tumors, hiatal hernia, and duodenal stenosis. Additionally, this bariatric procedure is contraindicated in patients with mental health disorders, substance abuse, or alcoholism.

The operation lasts 30–90 minutes (on average, 1 hour) and is typically performed using a 5-port approach. The first trocar for the laparoscope is inserted below the umbilicus along the midline. For tall and overweight patients, inserting the laparoscope above the umbilicus is more convenient. A sequential revision of the abdominal cavity is performed. All subsequent instruments are introduced under video monitoring. The second, instrumental trocar is inserted in the epigastric region. The third, fourth, and fifth auxiliary trocars are inserted along the midclavicular line on the right and left sides, 4–5 cm below the costal arch, and along the anterior axillary line, respectively.

Postoperative period. Patients are advised to follow a diet (high-calorie protein meals and adequate fluid intake) and engage in physical activity (walking, climbing stairs, fitness). After surgery, patients continue vitamin therapy under medical supervision.

Results.

Thus, laparoscopic sleeve gastrectomy addresses the problems of obesity in overweight individuals and prevents potential complications.

Conclusion.

Laparoscopic sleeve gastrectomy is a necessary surgical method for treating obesity and preventing complications associated with it.

CAUSES AND PREVENTION OF WOUND INFECTIONS IN THE POSTOPERATIVE PERIOD

Juraev S.B., Arshakyan E.X.
Ferghana Medical Institute of Public Health, Ferghana, Uzbekistan

Relevance. Despite advancements in surgical techniques to prevent and treat wound infections, postoperative wound infiltrates and suppuration remain the leading complications in hospitals. They rank first among all complications and third among the main causes of mortality. Numerous studies have focused on preventing wound suppuration by combining antibiotics with other drugs. However, prophylactic use of antibiotics alone does not fully prevent postoperative suppuration.

Objective. To analyze the causes of wound infections in the postoperative period and develop preventive measures.

Research results. Several primary causes of suppuration include microbial factors, microbial contamination of operating rooms, and nosocomial infections. Non-bacterial factors include the patient's general condition, the presence of devitalized tissues and foreign bodies in the wound, immune system issues, the type of surgery, the state of blood circulation in the surgical area, obesity, diabetes mellitus, cirrhosis, uremia, and leukemia.

Other contributing factors include the patient's age, length of hospital stay, duration of the operation, and concurrent use of multiple drug groups (e.g., steroids, immunosuppressants, high-dose antibiotics). General risk factors for infection include poor preoperative general health and advanced age. For example, the likelihood of developing an infection is six times higher in patients over 65 years old compared to those aged 1 to 14.

Conclusions.

1. The primary risk factors for wound infections include malignant tumors, obesity, surgical duration exceeding two hours, and, in rare cases, technical difficulties during the operation.

2. Preventing postoperative purulent complications involves a combination of various methods, including physical measures, antibiotic therapy, and the use of antiseptics.

3. These measures significantly reduce the incidence of wound infections, the length of hospital stays, and temporary disability, as well as minimize additional expenses for treating wound complications.

Early Diagnosis and Treatment Recommendations for Open-Angle Glaucoma

Juraeva G.A., Ikromov A.F.
Andijan State Medical Institute, Andijan, Uzbekistan

Scientific Relevance. Glaucoma is a disease characterized by damage to the optic nerve caused by increased intraocular pressure, and it is one of the leading causes of blindness worldwide. Open-angle glaucoma is the most common form of this disease, and its asymptomatic progression over an extended period poses significant diagnostic challenges. This article aims to study scientifically based methods for the early detection of open-angle glaucoma and develop effective treatment strategies.

Research Objective. To identify diagnostic methods enabling the early detection of open-angle glaucoma and recommend conservative or surgical treatment approaches to prevent the progression of the disease.

Research Methods

1. Diagnostic Methods:
   - Tonometry: The primary method for measuring intraocular pressure. Epidemiological studies confirm that intraocular pressure above 21 mmHg is characteristic of glaucoma.
   - Perimetry: Identifying visual field narrowing. This method is crucial for detecting early signs of open-angle glaucoma.
   - Optical Coherence Tomography (OCT): A highly sensitive technology for assessing structural changes in the optic nerve and retinal nerve fiber layers.
   - Gonioscopy: Used for the visual assessment of the anterior chamber angle of the eye.
2. Treatment Methods:
   - Conservative Approach: Use of medications such as prostaglandin analogs, beta-blockers, and carbonic anhydrase inhibitors to lower intraocular pressure. Studies have confirmed the superior efficacy of prostaglandin analogs compared to other drugs.
   - Surgical Methods:
     - Trabeculectomy: A traditional surgical procedure to reduce intraocular pressure by improving aqueous humor drainage.
     - Minimally Invasive Glaucoma Surgery (MIGS): Distinguished by greater safety and shorter recovery periods.

The study identified the following scientific findings:

1. Perimetry and OCT methods were found to have high sensitivity and accuracy in detecting early-stage open-angle glaucoma.
2. Continuous use of prostaglandin analogs in conservative treatment helps prevent optic nerve damage.
3. In severe cases, trabeculectomy and MIGS procedures demonstrated successful outcomes. MIGS, in particular, played a significant role in improving patients' quality of life.

The asymptomatic progression of glaucoma and its irreversible complications make early diagnosis a highly critical issue. The widespread use of modern diagnostic methods, including OCT and perimetry, enables the prevention of

disease progression. Treatment strategies should consider factors such as the patient's age, stage of the disease, and other individual characteristics.

Conclusion. Early diagnosis and treatment strategies for open-angle glaucoma enhance the chances of preserving patients' vision. Regular screenings and the use of modern diagnostic technologies ensure early detection of the disease. Conservative and surgical treatments improve patients' quality of life.

Recommendations

1. Regular glaucoma screenings for individuals over 40 years old.
2. Utilization of modern equipment and technologies in the diagnostic process.
3. Selection of conservative and surgical treatment approaches based on individual patient characteristics.
4. Implementation of preventive programs for glaucoma in the healthcare system.

STREPTOZOTOTSIN DIABET SHAROITIDA KALAMUSH JIGAR MITOXONDRIYASINING SUPEROKSIDDISMUTAZA FERMENTI FAOLLIGIGA GOSSIPOLNING DIAZAMINO HOSILALARINING TA'SIRI

Sattorova Iroda Yangiboyevna[1]
Yakubova Nazokatxon Xalilovna[2]
Pozilov Ma'murjon Komiljonovich[3]
[1]Qarshi davlat univepciteti, Qarshi, O'zbekiston
[2]O'zP FA Bioorganik kimyo instituti, Toshkent, O'zbekiston
[3]M.Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy univepsiteti, Toshkent, O'zbekiston

Mavzuning dolzarbligi: Qandli diabet surunkali giperglikemiya bilan tavsiflangan metabolik kasallik bo'lib, mutlaq insulin tanqisligi yoki insulin rezistentlik orqali turli organlarga, shu jumladan yurak, buyrak va jigarga zarar yetkazadi. Bugungi kunga qadar qandli diabet sharoitida jigar shikastlanishining patogenezi to'liq tushunilmagan. So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, oksidlovchi stress bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi [1]. Qandli diabetning patologik va fiziologik mexanizmlari oksidlovchi stressga olib keladigan asosiy mexanizmlardan biri bo'lib, qandli diabetda antioksidant fermentlarning faolligi o'zgarishi bilan namoyon bo'ladi. Hujayralarda oksidlanishga qarshi birinchi himoya sifatida SOD va katalaza kabi antioksidant fermentlar ortiqcha erkin radikallarni olib tashlashi va shu bilan hujayra ichidagi redoks muvozanatini saqlab turishi mumkin. Boshqa tomondan, mitoxondriya shikastlanishi ham hujayra ichidagi oksidlovchi stress bilan chambarchas bog'liq. Haddan tashqari erkin radikallarning hosil bo'lishi mitoxondriya shishishiga va o'tkazuvchan megaporani ochilishiga olib kelishi mumkin [2]. Natijada ko'p miqdorda shikastlangan mitoxondriyalar paydo bo'ladi, bu esa o'z navbatida kislorodning faol shakllari (KFSh) hosil bo'lishini va oksidlovchi stressning paydo bo'lishini kuchaytiradi [3].

Hozirda qandli diabet sharoitida hujayralarda, organellarda bo'ladigan membranaviy buzilishlarni, mitoxondriya nafas zanjiridan hosil bo'ladigan erkin radikallarni neytrollovchi biologik faol birikmalarni ta'sir mexanizmlarini o'rganish fiziologiya va farmakologiyaning eng istiqbolli yo'nalishlaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi. STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasining antioksidant fermenti – SOD faolligiga YaN-2 (6:1) va YaN-2 (4:1) polifenol birikmalarining ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqot materiali va usullari: Tajpibalar vazni 180-200 g bo'lgan zotsiz oq kalamushlarda olib borildi. Kalamush jigaridan mitoxondriyalar differensial sentrifugalash *W.C.Schneider* usuli yordamida ajratib olindi. Tajriba hayvonlari guruhlarga ajratildi: I guruh – nazorat, II guruh – tajriba (STZ-diabet), III guruh - tajriba (STZ-diabet+ YaN-2 (4:1)), IV guruh (STZ diabet+ YaN-2 (6:1)) va V guruh (STZ diabet+ kversetin). II, III, IV va V guruh kalamushlarda diabet chaqirish uchun bir kunlik ochlikdan so'ng, bir marta STZ 50 mg/kg (0,1 mol/l sitrat buferi, 0,2 ml, pH 4,5) eritmasi qorin bo'shlig'i teri osti sohasiga yuborildi [4]. STZ-diabet chaqirilgan hayvonlardan har 3 kunda qon olinib, glyukoza miqdori aniqlab borildi. Kalamushlarga STZ in'eksiya qilingandan so'ng qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan oshgandan

so‘ng (12 kun), sutkasiga bir marta II guruh hayvonlariga 0,2 ml 0,9% li NaCl eritmasi, tajribaning III guruhiga YaN-2 (4:1) kompleksidan 30 mg/kg, IV guruhga YaN-2 (6:1) kompleksi 30 mg/kg va V guruhga kversetin flavonoididan 30 mg/kg dozada peroral usulda sutkasiga bir marta 10 kun davomida yuborildi. Farmakoterapiya qilingan STZ diabetli hayvonlarni (qonda glyukoza miqdori 11 mmol/l dan kamayganda) jigar mitoxondriyasining SOD faolligi aniqlandi.

SOD fermentining faolligini aniqlash (KF 1.15.1.1) Misra va J. Fridovich (1972). usuli bo‘yicha olib boriladi [5]. Usulning mohiyati, nitrotetrozol ko‘ki va ishqoriy muhitning qaytarilishiga asoslangan. Ferment faolligi yed/min.mg oqsilda ifodalanadi.

Tadqiqot natijalari va ularning tahlili. Qonda glyukoza miqdorining doimiy ortib borishi hujayra va to‘qimalarga oksidlovchi stress sifatida ta’sir etadi. Ammo, to‘qimalar jumladan gepatotsitlarda kuchli antioksidant fermentlar SOD, katalaza, glutation-S-transferazalar va glutation peroksidazalar mavjud bo‘lib, ular nafaqat erkin radikallarni zararsizlantirish, balki jigar hujayralarini ham oksidlovchi shikastlanishdan himoya qiladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, giperglikemiya holatida SOD va katalaza faolligining pasayishi KFShning ortishiga olib keladi va bu oxir-oqibat oksidlanish bilan bog‘liq jigar shikastlanishiga sabab bo‘ladi [6; 7].

Shuning uchun tajribalarimizda STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasi antioksidant fermenti – SOD faolligiga YaN-2 (4:1) va YaN-2 (6:1) gossipolning diazoimino hosilalarining suvda eruvchan komplekslarini farmakologik korreksiyalovchi ta’siri o‘rganildi. Dastlab, tajribamizda, STZ diabet sharoitida kalamush jigar mitoxondriyasining SOD fermenti faolligiga biologik birikmalarning ta’siri aniqlandi. Olingan natijalarga ko‘ra, STZ diabet chaqirilgan II guruh kalamushlarning jigar mitoxondriyasi SOD miqdori 1,84±0,06 yed/min.mg oqsilni tashkil etib, I nazorat guruhi ko‘rsatkichiga nisbatan 43,7% ga kamayganligi aniqlandi. STZ diabet chaqirilgan III guruh kalamushlarga gossipolning diazoimino YaN-2 (4:1) hosilasini 30 mg/kg dozada 10 kun davomida peroral yuborilib, tajriba qilinganda kalamushlarning jigar mitoxondriyasidagi SOD miqdori 2,38±0,07 yed/min.mg oqsilni tashkil etib, II guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 29,3% ga ortishi aniqlandi. STZ diabet chaqirilgan IV guruh kalamushlarga gossipolning diazoimino YaN-2 (6:1) hosilasini 30 mg/kg dozada 10 kun davomida peroral yuborildi. Shundan so‘ng kalamushlar dekapitatsiya qilinib jigaridan mitoxondriya ajratib olinib, ulardagi SOD faoligi aniqlandi. Bunda, STZ diabet chaqirilgan kalamushlarning jigar mitoxondriyasidagi SOD miqdori YaN-2 (6:1) birikmasi ta’sirida 2,65±0,07 yed/min.mg oqsilni tashkil etib, II guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 44,0% ga ortishi aniqlandi. STZ diabet chaqirilgan V guruh kalamushlarga kversetinning yuborilishi jigar mitoxondriyasining SOD fermenti faolligini II guruh ko‘rsatkichlariga nisbatan 30,1% ga oshirilganligi aniqlandi. Demak, STD diabetda kalamush jigar mitoxondriyasining SOD fermenti faolligi kamayadi. Gossipolning diazoimino YaN-2 (4:1) va YaN-2 (6:1) hosilalarining suvda eruvchan komplekslari STZ diabetda jigar mitoxondriyasining SOD faolligini oshirdi.

Xulosa: STZ diabet sharoitida jigar mitoxondriyasining antioksidant fermenti - SOD faolligining kamayishi mitoxondriya nafas zanjirida KFShni hosil bo‘lishini ortishiga sabab bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida turli patologik jarayonlar rivojlanishiga

olib keladi. Tanlab olingan YaN-2 (4:1) va YaN-2 (6:1) gossipolning diazoimino hosilalarining suvda eruvchan komplekslari patologik sharoitda jigar mitoxondriyasining SOD fermenti faolligini ma'lum darajada tiklanishiga olib keldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hu A., Yan L., Zheng Y. Effect of Tanggan decoction on glucolipid metabolism of diabetic and fatty liver rats // Chin. J. Integr. Trad. West. Med. Dig. – 2010 – V.18: – P. 316-318.

2. Scherz-Shouval R., Elazar Z. Regulation of autophagy by ROS: Physiology and pathology // Trends Biochem. Sci. – 2011 – V.36: – P. 30-38.

3. Schieber M., Chandel N.S. ROS function in redox signaling and oxidative stress // Curr. Biol. – 2014 – V.24: – P. 453-462.

4. Пальчикова Н.А., Кузнецова Н.В., Кузьминова О.И., Келятицкая В.Г. Гормонально-биохимические особенности аллоксановой и стрептозотоциновой моделей экспериментального диабета // Бюллетень СО РАМН. – 2013. – Т.33. – №6. – С. 18-24.

5. Матюшин Б.Н. Определение супероксиддисмутазной активности в материале пункционной биопсии печени при ее хроническом поражении // Лаб. дело. – 1991. – №7. – С. 16-19.

6. Parveen K., Khan M.R., Mujeeb M., Siddigui W.A. Protective effects of Pycnogenol on hyperglycemia-induced oxidative damage in the liver of type 2 diabetic rats // Chem Biol Interact. – 2010 – V.186: – P. 219-227.

7. Mohamed J., Nazratun Nafizah A.H., Zariyantey A.H., Budin S.B. Mechanisms of diabetes-induced liver damage. The role of oxidative stress and inflammation // Sultan Qaboos Univ Med J – 2016 – V.16(2): – P. 132–141.

ЭТИОПАТОГЕНЕТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ АДЕНОМЫ ГИПОФИЗА

Гасанова Нигора Мухтаровна
Ферганский медицинский институт общественного здоровья
Косимова Гулноза Сойибжоновна
Ферганский медицинский институт общественного здоровья

Аденома гипофиза — это доброкачественная опухоль, возникающая из клеток гипофиза, которая может приводить к различным эндокринным нарушениям и неврологическим симптомам. Понимание этиопатогенетических механизмов, лежащих в основе развития данной опухоли, имеет ключевое значение для диагностики, лечения и профилактики.

Одним из основных механизмов, способствующих развитию аденомы гипофиза, являются генетические изменения. В ряде случаев были выявлены мутации в онкогенах, таких как GNAS, а также в генах-супрессорах, например, MEN1 и TP53. Эти мутации могут приводить к нарушению клеточного цикла, подавлению механизмов апоптоза и бесконтрольной пролиферации клеток. Семейные синдромы, такие как множественная эндокринная неоплазия типа 1 (MEN1), также играют важную роль. У пациентов с MEN1 повышен риск развития аденом гипофиза, что свидетельствует о значительной генетической предрасположенности.

Гормональные изменения также оказывают существенное влияние на развитие аденом. Гипоталамические гормоны, такие как тиреолиберин и кортикотропинрилизинг гормон, могут способствовать гиперплазии клеток гипофиза. Например, избыточная секреция тиреотропного гормона (ТТГ) может приводить к образованию тиреотропных аденом. Кроме того, исследуется роль стероидных гормонов, таких как кортизол и эстрогены, которые могут влиять на клеточную пролиферацию и дифференциацию, что также может способствовать опухолевому росту.

Хроническое воспаление и дисфункция иммунной системы также могут способствовать развитию аденомы гипофиза. Изменения в иммунном ответе, а также активация воспалительных путей могут создавать микроокружение, способствующее росту опухоли. Исследования показывают, что различные цитокины и хемокины могут играть роль в опухолевом прогрессировании и инвазивности аденом.

Таким образом, развитие аденомы гипофиза является многофакторным процессом, включающим генетические, гормональные, клеточные и иммунные механизмы. Понимание этих этиопатогенетических аспектов имеет важное значение для дальнейших исследований и разработки более эффективных методов диагностики и лечения данного заболевания. Важно продолжать исследования в этой области для выявления новых терапевтических мишеней и улучшения исходов для пациентов.

Использованная литература

13. Карабаев, М., Косимова, Г. С., & Сидиков, А. А. (2023). Логико-математические модели количественной оценки интегрального уровня

индивидуального физического здоровья на основе адаптационного потенциала организма. *Журнал клинической и профилактической медицины,(1)*, 38-45.

14. Soyibjonovna, Q. G. (2025). JISMONIY SALOMATLIK DARAJASINI BAHOLASH USULLARI VA UNI NAZORAT QILISHNING ASOSIY BOSQICHLARI. *MODELS AND METHODS FOR INCREASING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE RESEARCH*, *4*(41), 129-134.

15. Karabaev, M., & Qosimova, G. S. (2023). Logical-mathematical models of quantitative assessment of the integral level of individual physical health based on the adaptive potential of the body. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 452, p. 07004). EDP Sciences.

16. Карабаев, М. К., Сидиков, А. А., Атаханов, С., Касимова, Г. С., Мадаминов, С. М., & Мамадалиев, У. ОСОБЕННОСТИ ДОНОЗОЛОГИЧЕСКОГО УРОВНЯ ФИЗИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ И НЕКОТОРЫХ МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ВЗРОСЛОГО КОНТИНГЕНТА КОРЕННЫХ ЖИТЕЛЕЙ НИЗКО И СРЕДНЕГОРЬЯ ФЕРГАНСКОЙ ОБЛАСТИ.

ИШЕМИЧЕСКАЯ БОЛЕЗНЬ СЕРДЦА И ГИПЕРТЕНЗИЯ: СОВРЕМЕННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Султонбекова Феруза
Андижанский государственный медицинский институт

Актуальность темы: Ишемическая болезнь сердца (ИБС) и артериальная гипертензия являются ведущими причинами смертности и инвалидизации населения во всем мире. Эти заболевания имеют общие патофизиологические механизмы, включая эндотелиальную дисфункцию, хроническое воспаление и нарушение метаболизма. Современные исследования направлены на поиск более эффективных методов диагностмики и лечения для снижения их социально-экономического бремени.

Цель исследования: Анализ современных подходов к диагностике, лечению и профилактике ишемической болезни сердца и гипертензии на основе данных международных исследований.

Материалы и методы исследования: Проведен анализ научных публикаций за последние пять лет, включая данные клинических исследований и метаанализов. Основное внимание уделено новым фармакологическим средствам и инновационным технологиям в диагностике.

Результаты исследования: Современные исследования показывают эффективность применения ингибиторов натрий-глюкозного котранспортера 2 (SGLT2) в лечении пациентов с ИБС и сопутствующей гипертензией. Также подчеркивается важность ранней диагностики с использованием методов визуализации, таких как КТ-ангиография и МРТ. Большое внимание уделяется персонализированному подходу к терапии, включающему подбор антигипертензивных препаратов с учетом генетических и биохимических особенностей пациента.

Выводы: Современные исследования подтверждают необходимость комплексного подхода к диагностике и лечению ИБС и гипертензии. Инновационные методы терапии и профилактики позволяют улучшить качество жизни пациентов и снизить риски осложнений. Дальнейшее изучение механизмов патогенеза этих заболеваний остается приоритетным направлением медицины.

COVID-19 KASALLIGIDA BUYRAKLAR EGRI-BUGRI KANALCHALARINING PATOLOGIK O‘ZGARISHLARI

Ashuraliyeva Shoxsanam G‘ayratjon qizi
FJSTI Davolash ishi yo‘nalishi 5-bosqich talabasi

Ushbu tadqiqotda 2021 yilda COVID-19 kasalligidan vafot etgan 68 nafar bemorlarni buyraklari egri-bugri kanalchalarning patomorfologik o`zgarishlari o`rganilgan. Bunda bemorlarning SARS-CoV-2 virusi ta’sirida shikastlangan buyraklarining po`sloq qavat oraliq to`qimasida shish, distrofiya, nekrobioz va destruktsiya kabi o`zgarishlar rivojlanganligi, natijada kanalchalar deformatsiyalanib, epiteliysi distrofiya va destruktsiyaga uchraganligi, interstitsiysida nordon glikozaminglikanlar ko`p to`planib, gidrofilligi oshishi, suyuqlik shimilishi, to`qima tuzilmalari titilib, destruktsiyalanishi kuzatildi.

**Kalit so`zlar:** Covid-19, SARS-CoV-2 virusi, buyraklar, egri-bugri kanalchalar, kong tomirlar, qon kuyilishlar, sklerotik o`zgarishlar.

Dolzarbligi: SARS-CoV-2 virusining S-oqsili angiotenzinni o`zgartiruvchi 2tur fermenti (ACYe2) retseptorlariga o`xshash va uning ekspressiyalanishi SARS-CoV virusidan 10 barobar kuchlidir. SARS-CoV-2 virusi har qanday a’zo yoki to`qimani shikastlaganda uning kuchli replikatsiyalanishi viremiya, immun buzilishlar, gipoksiyaga sabab bo`ladi. Bu kasallikning tub patogenlik mohiyati destruktiv-produktiv trombovaskulit va giperkoagulyatsiyali sindrom, mikroangiopatiya va immun tizimning falajlanishi hisoblanadi [1,2,3,4].

Ishning maqsad va vazifalari: COVID-19 kasalligidan vafot etganlarning kasallik tarixi va autopsiya bayonnomalari ma’lumotlari o`rganilib, retrospektiv taxlil o`tkazilib, buyraklarning buyraklar egri-bugri kanalchalarid**a** yuzaga keladigan patomorfologik o`zgarishlarni o`rganish.

Material va uslublar: 2021 yili baxor va yoz oylarida COVID-19dan vafot etgan va RPAM da tekshirilgan 68 nafar bemorlarni kasallik tarixi, autopsiya bayonnomasi ma’lumotlari tahlil qilindi. Autopsiyada a’zolardan olingan kesim bo`lakchalari 10% fosfat buferda tayyorlangan formalin eritmasida 72 soat qotirildi, gematoksilin – eozin usulida bo`yaldi.

Natijalar: bemorlar bioptatlari o`rganilganda buyrak to`qimasida SARS-CoV-2 virusining S-oqsili ACYe2-fermentiga replikatsiyalanishi buyrak po`stloq qavati oraliq to`qimasi orqali qon tomirlari va kanalchalar devoridagi epiteliy hujayralarini shikastlashi kuzatildi. COVID-19 kasalligining asorati - o`tkir buyrak yetishmovchiligidan o`lgan bemorlar buyragi po`stloq qavati o`rganilganda to`qimasining barcha qismi kuchli shish va distrofiyaga uchraganligi kuzatildi. Kanalchalar gistotopografiyasi keskin buzilganligi, ayniqsa egri-bugri kanalchalarning proksimal qismi epiteliysi vakuolyar va gialin-tomchili oqsilli distrofiyaga uchraganligi aniqlandi (1-rasm). Ushbu kanalchalar epiteliysi distrofiya hisobiga bo`kib kattalashganligi, tsitoplazmasida rangsiz vakuolalar va eozinofilli oqsilli moddalar mavjudligi kuzatildi. Ayrim epiteliylarning kanalcha bo`shlig`iga qaragan yuzasi buzilganligi, tsitoplazmadagi moddalar bo`shliqga tushganligi aniqlandi. Kanalchalar orasidagi interstitsial to`qimada ham shish, dezorganizatsiya rivojlanganligi, ayrim sohalarida limfoid hujayralar paydo bo`lganligi aniqlandi.

SARS-CoV-2 virusi o`zi shikastlagan to`qimada destruktiv-produktiv trombovaskulit va giperkoagulyatsiyali sindrom, mikroangiopatiya va immun tizimning falajlanishi qo`zg`atadi. Ushbu patogenetik ta'sirotlar oqibatida buyrak egri-bugri kanalchalarida ham kuchli darajada patomorfologik o`zgarishlar rivojlanganligi aniqlandi. Proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysi tsitoplazmasi vakuolizatsiyalanib, oqsillarining noto`g`ri to`planishidan har xil shaklga kirganligi kuzatildi. ayrimlari kuchli shishga uchrab, yuzasi buzilganligi, tsitoplazma moddalari bo`shlig`iga tushganligi aniqlandi (2-rasm). Epiteliy yadrolari betartib joylashgan va turli darajada kariopiknoz va kariolizis jarayonlariga uchraganligi kuzatildi.



1-rasm. Buyrak po`stloq qavati, koronavirus ta'sirida o`zgargan egri-bugri kanalchalar va kaptokchisining umumiy ko`rinishi. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.

2-rasm. Buyrak po`stloq qavati, kanalchalar epiteliysining kuchli distrofiya va shishga uchraganligidan hajmi kengaygan, epiteliysi destruktsiyalangan. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.

COVID-19 kasalligida buyraklarning barcha qismlari shikastlanib, kaptokcha kapillyarlar to`rida filьtratsiya buzilib, birlamchi siydik tarkibiga oqsillar ko`proq o`tishi natijasida, kaptokcha bo`shlig`ida eozinofilli qumoq-qumoq shakldagi oqsilli modda to`planganligi kuzatildi. Morfologik jihatdan proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysi tsitoplazmasida gialin-tomchili oqsilli distrofiya rivojlanganligi aniqlandi (3-rasm). Koronavirus ta'sirida buyrak po`stloq qavat oraliq to`qimasida shish va dezorganizatsiya jarayonlari rivojlanganligi aniqlandi. Oraliq to`qimaning ayrim sohalarida limfoid infilьtratsiya paydo bo`lganligini buyrakning virusli shikastlanishini tasdiqlaydi. Mikroskopning katta ob'yektivida o`rganilganda egri-bugri kanalchalarning o`lchamlari va shakli o`zgarganligi, bo`shlig`ining oqsilli modda bilan to`lganligi aniqlandi (4-rasm). Koronavirusning bevosita ta'siri oqibatida kanalchalar epiteliysi kuchli darajada oqsilli distrofiyaga uchraganligi, tsitokinli hujum ta'sirida oraliq to`qimada shish va yallig`lanish jarayoni rivojlanganligi kuzatildi. Kanalchalar bo`shlig`idagi birlamchi siydik tarkibida oqsillarning ko`pligidan, kanalcha epiteliysiga ta'sir ko`rsatib, oqsilli gialin-tomchili distrofiya rivojlantirgani aniqlandi.

Natijada epiteliy yadrolari betartib joylashib, har xil darajada kariolizis va kariopiknozga uchraganligi aniqlandi.

Buyraklarga SARS-CoV-2 virusi kuchli replikatsiyalanish, viremiya, immun buzilishlar, tsitokinli hujum va gipoksiyani rivojlantirishi oqibatida buyrak to`qimasining barcha tuzilmalari shikastlandi. Natijada buyrak kaptokchalari bo`shlig`ida oqsilli moddaning to`planishidan, kaptokcha keskin kattalashadi, kapillyarlar to`ri siqilib, chetga suriladi, tashqi pardasi cho`zilib, yupqalashganligi aniqlandi (5-rasm). Kaptokcha atrofida va kanalchalar orasida limfoid infilьtratsiya paydo bo`lganligi, natijada interstitsial to`qima kengayib, destruktsiyalanganligi kuzatildi. Kanalchalarning barcha qismi to`liq holda destruktsiyalanganligi, epiteliysi distrofiya va nekrozga uchraganligi, bo`shlig`i kengayganligi aniqlandi.





3-rasm. Buyrak po`stloq qavati, kaptokchi bo`shlig`ida oqsilli moddaning to`planishi, kanalchalar oraliq to`qima shishi hisobiga kollapslanishi. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.

4-rasm. Buyrak po`stloq qavati, proksimal egri-bugri kanalchalar epiteliysida gialin-tomchili oqsilli distrofiya. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.





5-rasm. Buyrak po`stloq qavati, kaptokchi bo`shlig`ida oqsilli modda to`planishi, kanalchalarning kuchli destruktsiyalanishi. Bo`yoq: G-E. Kat: 10x40.

6-rasm. Buyrak po`stloq qavati, oraliq to`qimada nordon glikozaminglikanlarning ko`p to`planishi. Bo`yoq: alьtsein ko`ki. Kat: 10x40.

COVID-19 kasalligi ta’sirida buyrak to`qimasida rivojlangan metabolik va distrofik o`zgarishlarni aniqlashda, qaysi turdagi moddalarning ko`payishi, boshqalarining kamayishini aniqlash uchun gistokimyoviy usullarda tekshirish aniq natija berdi. Yuqorida ko`rsatilgan virusning patogenetik ta’sirlari oqibatida ko`pincha oraliq to`qimada nordon glikozaminglikanlar ko`p to`planib, gidrofillik xususiyatini paydo qiladi, natijada suyuqlik shimilib, to`qima tuzilmalari shishga, distrofiyaga va nekrobiozga uchraydi. Rasmda SARS-CoV-2 virusi ta’sirida buyrak po`stloq qavati oraliq to`qimasida to`plangan nordon glikozaminglikanlar alьtsein ko`ki bilan ko`kish rangga bo`yalganligi kuzatildi (6-rasm). Natijada buyrak po`stloq qavati interstitsiysi diffuz holda nordon mukopolisaxaridlar bilan to`lganligi, kengayganligi, distrofiyaga va shishga uchraganligi aniqlandi. Natijada egri-bugri kanalchalar deformatsiyalanib, epiteliysi distrofiya va nekrobiozga uchraganligi aniqlandi. Nekrobioz jarayonining kuchli darajada rivojlanganligidan, epiteliy hujayralari o`zining gistotopografik tuzilishini batomom buzganligi aniqlandi.

Xulosa:

SARS-CoV-2 virusining S-oqsili buyrak po`stloq qavati oraliq to`qimasi va kanalchalar bazal membranasidagi 2-angiotenzinni o`zgartiruvchi ferment (ACYe2)ga replikatsiyalanib, buyrak to`qima tuzilmalarida kuchli darajadagi patomorfologik o`zgarishlarni rivojlantirdi.

Dastlab buyrak po`sloq qavat oraliq to`qimasida shish, distrofiya, nekrobioz va destruktsiya kabi o`zgarishlar rivojlanganligi, natijada kanalchalar deformatsiyalanib, epiteliysi distrofiya va destruktsiyaga uchraganligi kuzatildi.

Buyrak to`qimasi interstitsiysida SARS-CoV-2 virusi shikastlashi oqibatida nordon glikozaminglikanlar ko`p to`planib, gidrofilligi oshadi, suyuqlik shimiladi, to`qima tuzilmalari titilib, destruktsiyalanadi.

SARS-CoV-2 virusi ta’sirida buyrak to`qimasidan aksariyat hollarda qon tomirlar, kaptokchalar va proksimal kanalchalar kuchli patomorfologik o`zgarishga uchraganligidan o`tkir buyrak yetishmovchiligi rivojlanishi kuzatiladi.

ВОЗМОЖНОСТИ ПРИМЕНЕНИЯ ГИПЕРБАРИЧЕСКОЙ ОКСИГЕНАЦИИ НА РАЗЛИЧНЫХ ЭТАПАХ КАРДИОХИРУРГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ

Орифжонов Д.Р.
ТМА, Бакалавр лечебного факультета 3 курс
Сайфиддин Хожи К.Ш
ТМА, Магистратура патологическая анатомия 1 курс

Актуальность темы:
Развитие кардиохирургии в современных условиях невозможно без постоянного совершенствования всех этапов оказания кардиохирургической помощи. Одним из перспективных способов достижения данной цели является активное использование гипербарической оксигенации на этапах предоперационной подготовки и послеоперационной реабилитации. В обзоре представлены краткая история развития гипербарической оксигенации в кардиохирургии, патофизиологические и патобиохимические механизмы лечебного действия метода и сценарии его применения при предоперационной подготовке и послеоперационной реабилитации кардиохирургических пациентов. Внедрение гипербарической оксигенации в кардиохирургическую практику способно привести к улучшению результатов хирургического лечения, а также сокращению сроков предоперационной подготовки и послеоперационной реабилитации кардиохирургических пациентов, что приведет к заметному повышению качества и эффективности кардиохирургической помощи.

Ключевые слова: *кардиохирургия; гипербарическая оксигенация; предоперационная подготовка; послеоперационная реабилитация*

ВВЕДЕНИЕ

Активное развитие кардиохирургии обусловило широкую доступность высокотехнологичной медицинской помощи для пациентов. Однако необходимо помнить, что кардиохирургическая помощь не ограничивается только выполнением оперативного вмешательства, и успех лечения во многом зависит также от предоперационной подготовки и послеоперационной реабилитации пациентов. Оптимизация и совершенствование этих этапов позволит не только улучшить непосредственные, ближайшие и отдаленные клинические результаты, но и повысить общее качество жизни пациентов, и дополнительно снизить материально-технические и экономические затраты на их лечение. Одним из перспективных методов такой оптимизации является внедрение гипербарической оксигенации (ГБО) на различных этапах кардиохирургической помощи.

Интраоперационному применению ГБО, подразумевающему выполнение кардиохирургических вмешательств непосредственно в барооперационной, посвящено множество публикаций, в том числе несколько монографий. Данная тема является обширной и имеет свои специфику и проблемы, поэтому в данной

статье будут рассматриваться возможные сценарии применения ГБО на этапах предоперационной подготовки и послеоперационной реабилитации Гипербарическая оксигенация (ГБО) — метод лечения, при котором пациент вдыхает 100% кислород под давлением, превышающим атмосферное. Это приводит к повышению содержания кислорода в жидких средах организма, что способствует улучшению доставки кислорода к тканям и органам.

МЕХАНИЗМЫ ЛЕЧЕБНОГО ДЕЙСТВИЯ ГИПЕРБАРИЧЕСКОЙ ОКСИГЕНАЦИИ Антигипоксический и гипероксический эффект

Практически с самого начала клинического применения ГБО в отечественной школе выделяли антигипоксический и гипероксический эффекты использования кислорода под давлением. И если антигипоксический эффект более или менее известен практикующим врачам, то гипероксический часто лежит за пределами их понимания.

Традиционное использование ГБО как антигипоксического метода основывается на известных законах физики. При нормальном объеме кровотока ГБО позволяет создать значительные запасы кислорода в жидких средах организма посредством резкого увеличения капиллярно-тканевого градиента по кислороду, а в условиях гипотермии — также за счет увеличения коэффициента проницаемости кислорода (рис. 4). Повышение растворимости кислорода в плазме в условиях ГБО может быть использовано для компенсации сниженной кислородной емкости крови и служить неким «протезирующим» методом, позволяющим выигрывать время при проведении радикальных лечебных мероприятий. Это приобретает особую значимость, например, при выполнении кардиохирургических операций в условиях искусственного кровообращения с высокой степенью гемодилюции. Профилактика циркуляторной гипоксии, возникающей при снижении минутного объема кровотока, при использовании ГБО достигается также за счет поддержания необходимого объема тканевой перфузии вследствие улучшения сократительной способности миокарда. При этом создание кислородного резерва позволяет надежно профилактировать гипоксическое повреждение структуры и нарушение функции различных физиологических систем организма (в первую очередь, сердечно-сосудистой и центральной нервной) [7, 8].

Необходимо отметить, что в периоде, непосредственно следующем за сеансом ГБО, происходит постепенное исчезновение избытка кислорода, попавшего в организм при проведении сеанса.

ПРИМЕНЕНИЕ ГИПЕРБАРИЧЕСКОЙ ОКСИГЕНАЦИИ НА ДООПЕРАЦИОННОМ ЭТАПЕ Нестабильная стенокардия и ишемическая болезнь сердца

В литературе встречаются примеры успешного применения ГБО при нестабильной стенокардии и остром инфаркте миокарда [17–22]. Однако данные работы носят характер клинического эксперимента и не признаются большинством кардиологов. В патогенезе нестабильной стенокардии одна из ключевых ролей принадлежит повреждающему действию активных форм кислорода, а лечебный диапазон использования ГБО достаточно узок, что

обусловливает высокий риск гиперпродукции активных форм кислорода и ухудшения состояния миокарда [23–25].

Более эффективно и безопасно можно использовать ГБО для подготовки ишемизированного миокарда к предстоящему оперативному вмешательству. Особенно это актуально для больных с обширным поражением коронарного русла, исходно низкими резервами миокарда и наличием постинфарктной аневризмы левого желудочка. Прекондиционирование миокарда в условиях ГБО способно уменьшить кислородную задолженность и повысить резистентность кардиомиоцитов к ишемии, что в условиях предстоящей ишемии миокарда во время пережатия аорты становится особенно актуально при длительных многокомпонентных кардиохирургических вмешательствах.

ПРИМЕНЕНИЕ ГИПЕРБАРИЧЕСКОЙ ОКСИГЕНАЦИИ НА ДООПЕРАЦИОННОМ ЭТАПЕ Нестабильная стенокардия и ишемическая болезнь сердца

В литературе встречаются примеры успешного применения ГБО при нестабильной стенокардии и остром инфаркте миокарда [17–22]. Однако данные работы носят характер клинического эксперимента и не признаются большинством кардиологов. В патогенезе нестабильной стенокардии одна из ключевых ролей принадлежит повреждающему действию активных форм кислорода, а лечебный диапазон использования ГБО достаточно узок, что обусловливает высокий риск гиперпродукции активных форм кислорода и ухудшения состояния миокарда [23–25].

Более эффективно и безопасно можно использовать ГБО для подготовки ишемизированного миокарда к предстоящему оперативному вмешательству. Особенно это актуально для больных с обширным поражением коронарного русла, исходно низкими резервами миокарда и наличием постинфарктной аневризмы левого желудочка. Прекондиционирование миокарда в условиях ГБО способно уменьшить кислородную задолженность и повысить резистентность кардиомиоцитов к ишемии, что в условиях предстоящей ишемии миокарда во время пережатия аорты становится особенно актуально при длительных многокомпонентных кардиохирургических вмешательствах

Применение ГБО в кардиохирургии:

1. Предоперационный период:

• Улучшение оксигенации тканей: ГБО повышает насыщение тканей кислородом, что способствует их лучшей подготовке к хирургическому вмешательству.

• Снижение риска осложнений: Предварительная оксигенация может уменьшить вероятность ишемических повреждений во время операции.

2. Интраоперационный период:

• Поддержание адекватной оксигенации: Во время операций на сердце, особенно при использовании аппарата искусственного кровообращения, ГБО обеспечивает стабильное снабжение тканей кислородом.

• Снижение воспалительных реакций: ГБО обладает противовоспалительным действием, что может быть полезно в ходе хирургического вмешательства.

3. Послеоперационный период:

• Ускорение заживления ран: Повышенное содержание кислорода способствует регенерации тканей и быстрому заживлению операционных ран.

• Профилактика инфекций: ГБО обладает антибактериальным эффектом, снижая риск послеоперационных инфекционных осложнений.

• Восстановление функции миокарда: Улучшение оксигенации способствует восстановлению работы сердечной мышцы после операции.

Механизмы действия ГБО:

• Увеличение растворимости кислорода в плазме крови: Это обеспечивает доставку кислорода даже в участки с нарушенным кровообращением.

• Стимуляция неоангиогенеза: ГБО способствует образованию новых капилляров в ишемизированных тканях.

• Противовоспалительный эффект: Снижение отека и воспаления в поврежденных тканях.

• Антибактериальное действие: Высокие концентрации кислорода губительно действуют на анаэробные микроорганизмы.

Показания к применению ГБО в кардиохирургии:

• Подготовка пациентов с высоким риском ишемических осложнений.

• Лечение послеоперационных осложнений, связанных с гипоксией тканей.

• Реабилитация после обширных кардиохирургических вмешательств.

Противопоказания:

• Некоторые заболевания легких (например, буллезная эмфизема).

• Неконтролируемый пневмоторакс.

• Некоторые формы эпилепсии.

Заключение:

Гипербарическая оксигенация является эффективным дополнением на различных этапах кардиохирургической помощи, способствуя улучшению исходов лечения и снижению риска осложнений. Однако применение ГБО должно быть обоснованным и проводиться с учетом всех показаний и противопоказаний для каждого кон.

Nefrolitiaz profilaktikasida Kanefron H preparatini samaradorligini baholash

X.A.Odilov
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Fiziologiya kafedrasi assistenti
G‘aynazarov M.G‘.
Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Stomatologiya yo‘nalishi 2-bosqich talabasi.

Mavzuning dolzarbligi. Nefrolitiazning dolzarbligi sog‘liqni saqlash tizimida va jamoat orasida kundan-kunga oshib bormoqda, chunki bu kasallik dunyo bo‘ylab ko‘plab odamlar uchun salomatlik muammolarini keltirib chiqarmoqda. Nefrolitiaz keng tarqalgan bo‘lib, har xil yosh guruhlariga ta’sir qiladi va ayniqsa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda uchraydi. Kasallik jiddiylik darajasiga qarab o‘tkir og‘riq va asoratlarga olib kelishi, tibbiy xizmatlarga katta talab qo‘yishi bilan ajralib turadi.Nefrolitiaz mavzusining dolzarbligi bir nechta asosiy sabablarga ko‘ra ortib bormoqda: Kasallanish darajasining oshishiga asosan,noto‘g‘ri ovqatlanish, kam suyuqlik iste’moli va kam harakatlilik kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Shuningdek, global isish tufayli issiq muhitda yashayotgan odamlar ko‘proq suyuqlik yo‘qotib, tosh hosil bo‘lishiga moyil bo‘lishadi. Bundan tashqari nefrolitiaz ko‘pincha murakkab tibbiy yordam talab qiladi, masalan, litotripsiya, jarrohlik va boshqa invaziv usullar. Bu esa bemorlar va sog‘liqni saqlash tizimi uchun katta xarajatlarni keltirib chiqaradi. Nefrolitiaz surunkali holatga aylansa yoki asoratlar yuzaga kelsa, tibbiy xarajatlar yanada ortishi mumkin.

Maqsad: nefrolitiaz rivojlanishini oldini olish uchun profilaktik choralarni ishlab chiqish va shu bilan birga kasallikni davolashning kamxarajat usullarini tatbiq etishdan iborat.

Vazifa. Organizm uchun zararsiz dori vositalari yordamida bemorlarning ahvolini yaxshilash.

Tekshirish usullari: Nefrolitiazni aniqlash va tasdiqlash uchun turli tibbiy tekshiruv usullari qo‘llaniladi. Ushbu usullar kasallikni erta bosqichda aniqlash, toshning joylashuvi, kattaligi va kimyoviy tarkibini aniqlashga yordam beradi. Nefrolitiaz uchun keng qo‘llaniladigan diagnostika usullari quyidagilardir:

1. Anamnez va fizik ko‘rik: Shifokor bemorning belgilari, og‘riqning joylashuvi va kuchi, avvalgi buyrak kasalliklari haqida ma’lumot oladi. Fizik ko‘rikda esa buyrak va siydik yo‘llarining og‘riqli joylari tekshiriladi.
2. Siydikdagi kristallarni tekshirish – siydikda oksalat, fosfat, urat kabi moddalar miqdorini o‘lchash orqali toshlarning kimyoviy tarkibini aniqlash mumkin. Bu klinikada juda samarali usul hisoblanadi,chunki u yordamida
3. Qon tahlili:

Kaltsiy, fosfor va elektrolitlar – qon zardobidagi kaltsiy va fosfat miqdori toshlarning kaltsiy tarkibli bo‘lish ehtimolini aniqlashda yordam beradi.

4. Ekskretor urografiya – bu usulda vena orqali kontrast modda yuboriladi va u buyrak, siydik yo‘llari orqali o‘tganda rentgen orqali tasvir olinadi. Bu toshlarning joylashuvi va siydik yo‘llaridagi o‘zgarishlarni aniqlashga yordam beradi.
5. Ultratovush tekshiruvi (Ultratovush diagnostikasi): Buyrak va siydik yo‘llarida toshlarni aniqlash uchun keng qo‘llaniladi. Ultratovush orqali toshlarning joylashuvi,

o‘lchami va siydik yo‘llarining o‘zgarishlarini aniqlash mumkin. Bu usul xavfsiz, nurlanishsiz va arzon bo‘lgani uchun profilaktikada ham qo‘llaniladi.

Natija: 1 oy davomida 30 ta buyrak tosh kasalligi bo‘lgan talabalarda kuzatishlar olib borildi. Ulardan qat’iy parxez asosoida ovqatlanayotgan 15 nafar talabaga Kanefron dori preparatidan 2tabletkadan 3maxal 1 oy davomida berib turildi. Qolgan 15 nafari esa hech qanday dori vositasi iste’mol qimadi. Tekshiruvdan avval barcha talabalarda kattaligi 1x0.8 sm bo‘lgan toshlar mavjud edi. Tekshiruv so‘ngida esa dori vositasini qabul qilgan 15 nafar talabada bu o‘lcham 0.9x0.4sm gacha kichraydi va siydik analizida ham tuzlar chiqishi kamaydi. Qolgan 15 nafarida esa toshlar o‘lchami o‘zgarmaganligi kuzatildi.

Xulosa: Agarda tuzli mahsulotlarni kam iste’mol qilinib va dori vositalarini muntazam qabul qilinsa buyraklardagi toshlar o‘lchami sezilarli o‘zgarishi va hatto uzoq vaqt ushbu ishni amalga oshirsa toshlar butkul erib yo‘qolishi ham mumkin**.**

Tavsiyalar: Tuzli mahsulotlarni kamroq iste’mol qilish, jismoniy harakat bilan ko‘proq shug‘ullanish, ko‘proq suyuqlik ichish tavsiya etiladi. Lekin bularning o‘zi tosh kasalligini davolash uchun yetarli bo‘lmaydi. Shuning uchun yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda “Kanefron”, “Siston” kabi dori vositalarini iste’mol qilish tavsiya etiladi. Kanefron nefrolitiazni davolash va oldini olishda keng qo‘llaniladigan o‘simlik asosidagi dori vositasidir. U, ayniqsa, yallig‘lanishga qarshi va diuretik xususiyatlari bilan tanilgan. Tarkibidagi o‘simlik ekstraktlari (maydanoz ildizi, rozmarin barglari va lyubistok ildizi) buyrak toshlarini davolashda ko‘plab foydali ta’sirlar ko‘rsatadi. Kanefron buyrak toshlarini davolashda va ularning oldini olishda samarali dori hisoblanadi. U toshlarning shakllanishi va siydik yo‘llarida yig‘ilib qolishini kamaytirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Одилов Х. А., Эминов Р. И., Одилов Ж. А. БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Engineering problems and innovations. – 2023.
2. Аллаев М. Я. и др. Диагностическая и лечебная тактика при острой спаечной кишечной непроходимости у детей //Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1 (72). – С. 305-312.
3. Одилов Х. А. БОЛАЛАРДА ИККИ ТОМОНЛАМА НЕФРОЛИТИАЗНИ ДИАГНОСТИКА ВА ДАВОЛАШГА АМАЛИЙ ТАВСИЯЛАР //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 80-83.
4. TISHABAEVA N. A., IBRAGIMOVA Z. J., MIRZAJONOVA S. A. Iron deficiency anemia as an actual problem in medical practice //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(4). – 2022. – С. 653-656.
5. Odilov X. A., Eminov R. I. CLINICAL OBSERVATIONS AND DIAGNOSTIC TECHNIQUES IN CHILDREN WITH COVID-19 //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 343-349.

NEFROLITIAZNI KELTIRIB CHIQARUVCHI ASOSIY OMILLARNI SIYDIK YO‘LLARI MORFO-FUNKSIONAL XOLATIGA VA BIOLOGIK SUYUQLIKLAR KRISTALLANISHIGA TA’SIRI

X.A.Odilov

Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Fiziologiya kafedrasi assistenti

Mavzuning dolzarbligi. Nefrolitiaz - jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammo bo‘lib, bemorlar soni bo‘yicha u boshqa urologik kasalliklarga nisbatan dunyoda oldingi o‘rinlardan birini egallaydi. Kasallik birinchi marta klinik jihatdan eng mehnatga layoqatli yoshda (30-50 yosh) namoyon bo‘ladi va ko‘p xollarda redsidivlanish xarakteriga ega. So‘nggi yillarda erta yoshlik davrida kasallanishni barqaror o‘sish kuzatilmoqda. O‘zbekistonda Orolbo‘yi mintaqasida siydik-tosh kasalligining tarqalishini epidemiologik o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, 1 yoshdan 14 yoshgacha bo‘lgan bolalarda siydik-tosh kasalligi 100 kishiga 0,12±0,08 ni tashkil etdi va 15 yoshdan 19 yoshgacha bo‘lgan davrda bu ko‘rsatkich tekshirilgan 100 kishiga 1,03 ± 0,36 ni tashkil etgan.

Maqsad: Nefrolitiazda siydikni yig‘uvchi kosacha-jomcha tizimi, siydik nayi va siydik pufagi devorlaridagi gistostrukturaviy o‘zgarishlarni tahlili asosida asoratlarni oldini olish.

Tadqiqot obekti: sifatida yoshi, jinsi, tana vazni bir biridan katta farq qilmaydigan 60 ta Dengiz cho‘chqachalari (Guinea Pig) tanlab olindi. Ular 20 tadan 3 ta guruhga ajratildi. Erkak, urg‘ochi va nazorat guruhlari.

Tekshirish usullari: Mahalliy va xorijiy mualliflarning siydik tosh kasalligi, buyrakning morfologiyasi va funksiyasi masalalariga bag‘ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini tahlili.

Qon va siydikni umumiy tahlili.

Qon plazmasi va siydikni kristalografiyasi.

Umumgistologik

Natija: KristallografiyadagiO‘zgarishlarEksperimental hayvonlarning siydigi suvsizlanish jarayonida hosil bo‘ladigan kristall tuzilmalarning shakli organizmning metabolik holati haqida muhim ma’lumotlar beradi. Ushbu tadqiqotda erkak va urg‘ochi hayvonlarning siydik namunalaridan olingan kristallanish fazalari tahlil qilinib, ularning buyrak faoliyati bilan bog‘liq patologik o‘zgarishlarni aniqlash masalasi o‘rganildi.

a) Sog‘lom erkak eksperimental hayvon siydigining suvsizlanishi natijasida hosil bo‘lgan kristallanish jarayoni tabiiy va nazorat ostidagi sharoitlarda kuzatildi. Kristallar asosan mayda, yulduzsimon va uchburchaksimon shaklda bo‘lib, ularning o‘lchami siydik tarkibidagi tuzlarning optimal eruvchanligini aks ettirdi.

b) Sog‘lom urg‘ochi eksperimental hayvon siydigining suvsizlanishi natijasida hosil bo‘lgan kristallanish jarayoni muvozanatli va tartibli kechishi kuzatildi. Kristallar asosan yulduzsimon yoki gulli tuzilmalarga o‘xshash bo‘lib, ichki qismda kristallanish zichligi pastroq, tashqi qismda esa nisbatan yuqori ekanligi aniqlandi.

Eksperimental hayvonlarda qo‘shimcha biokimyoviy tekshiruvlar o‘tkazilishi natijasida olingan tahlillar hosil bo‘lgan kristallar bilan solishtirilib, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarning tasdiqlanishiga xizmat qildi.

Xulosa: Nefrolitiazni kelib chiqishida siydikning tarkibi muhim rol o‘ynaydi.

Eksperimental hayvonlarda STKni modellashtirilganda siydik tarkibida organik va noorganik tarkibiy qismlar kristallografiya o‘rganilganda shakllari aniqlik bilan ajralib turadi.

Eksperimental hayvonlardagi kristalogrammadagi o‘ziga xos xususiyatlar shakllarni va fatsiyalarni asosan chegara qismlarida shakllanishi bilan ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Одилов Х. А., Эминов Р. И., Одилов Ж. А. БОЛАЛАРДА БУЙРАКЛАР ИККИ ТОМОНЛАМА СИЙДИК ТОШ КАСАЛЛИГИ ДАВОЛАШ ТАКТИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ //Engineering problems and innovations. – 2023.
2. Аллаев М. Я. и др. Диагностическая и лечебная тактика при острой спаечной кишечной непроходимости у детей //Экономика и социум. – 2020. – №. 5-1 (72). – С. 305-312.
3. Одилов Х. А. БОЛАЛАРДА ИККИ ТОМОНЛАМА НЕФРОЛИТИАЗНИ ДИАГНОСТИКА ВА ДАВОЛАШГА АМАЛИЙ ТАВСИЯЛАР //INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – С. 80-83.
4. TISHABAEVA N. A., IBRAGIMOVA Z. J., MIRZAJONOVA S. A. Iron deficiency anemia as an actual problem in medical practice //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(4). – 2022. – С. 653-656.
5. Odilov X. A., Eminov R. I. CLINICAL OBSERVATIONS AND DIAGNOSTIC TECHNIQUES IN CHILDREN WITH COVID-19 //Экономика и социум. – 2023. – №. 6-1 (109). – С. 343-349.

DONORLARDA LIPOPROTEIDLAR ALMASHINUVINING SALOMATLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH

Xamroqulov To'lqin Zokirovich[1]
FJSTI "Patologik fiziologiya va patologik anatomiya" kafedrasi mudiri
xamroqulovtolqin1966@gmail.com
Badriddinov Oyatillo Usmonjon o'g'li[2]
FJSTI "Patologik fiziologiya va patologik anatomiya" kafedrasi assistenti
oyatillobadriddinov250@gmail.com

Kirish: Bir qancha tadqiqotlarda muntazam qon topshirish lipid profili parametrlarning pasayishi bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Lipid profilini baholash - bu shaxsni baholashning qabul qilingan usuli koronar yurak kasalligi xavfini aniqlashga yordam beradi. Muntazam qon topshirish temir zahiralarini kamaytirishi mumkin va bu o'z navbatida lipid peroksidatsiyasini kamaytiradi. Bu tadqiqot qon donorligining lipid profiliga ta'sirini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Materiallar va usullar: 226 nafar ishtirokchi qatnashishga rozi bo'ldi va ro'yxatga olindi,

tadqiqotga kiritildi, ulardan 154 nafari muntazam qon donorlari (tadqiqot guruhi) va 72 nafari donor bo'lmaganlar (nazorat guruhi). Har bir ob'ektdan venoz qon (10 ml) yangi vintli qopqoqli bir martalik plastik naychalarga olindi. Bu zardobni tarkibidagi umumiy xolesterin, triglitseridlar, past zichlikdagi lipoprotein va yuqori zichlikdagi lipoproteinlarni aniqlash uchun ishlatildi.

Natijalar: O'rtacha umumiy xolesterin (4.66 ± 0.86 mmol/l), triglitseridlar (1.22 ± 0.64 mmol/l), va past zichlikdagi lipoprotein (2.32) 0.73 mmol/l) muntazam qon donorlarida ancha past edi ilk marta qon topshirayotgan donorlar guruhiga nisbatan (5.61 ± 1.26 mmol/l, 1.77 ± 2.9 mmol/l va 3.06 ± 0.89 mmol/l)., mos ravishda; P<0,05, barcha holatlarda). Bundan tashqari, tadqiqot guruhining 42% past/yuqori zichlikka ega edi lipoprotein nisbati kamida uchta, nazorat guruhining taxminan 57% kamida uchta nisbatga ega edi(P = 0.21).

Tadqiqot doirasida jami 226 nafar qon donor (154 nafari doimiy qon topshiruvchi donor, 72 nafari birinchi marta qon topshirayotgan donor) kompleks klinik va laborator tekshiruvlardan o'tkazildi. Tadqiqotda doimiy donorlik tushunchasi amaldagi milliy va xalqaro me'yoriy hujjatlar asosida belgilandi. Xususan, Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) hamda Xalqaro qon donorligi va transfuzialogiya tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan tavsiyalar asos qilib olindi. Ushbu me'yorlar donorlik faoliyatining chastotasi, davomiyligi va xavfsizlik mezonlarini aniqlash imkonini beradi.

Tekshiruv jarayonida donorlar qon topshirishlar soni, donorlik faoliyatining davomiyligi hamda lipoproteidlar almashinuvi ko'rsatkichlariga qarab bir nechta guruhlarga ajratildi. Donorlarda lipid almashinuvi holatini baholashda umumiy xolesterin, yuqori zichlikdagi lipoproteidlar (HDL), past zichlikdagi lipoproteidlar (LDL) va triglitseridlar darajalari asosiy mezon sifatida qabul qilindi.

Donorlarning klinik-populyatsion tavsifi ularning yoshi, jinsi, mehnat faoliyati, turmush tarzi, jismoniy faollik darajasi va zararli odatlarining mavjudligini ham o'z ichiga oldi. Ushbu omillar lipid almashinuvi holatiga va yurak-qon tomir tizimi faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, tadqiqot davomida alohida tahlil qilindi. Shuningdek, donorlarning ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlari bilan lipoproteid spektri o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik baholandi.

Yurak-qon tomir tizimi holatini aniqlash maqsadida donorlarning arterial qon bosimi darajasi ham kuzatildi. Arterial gipertenziya holatlari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va Xalqaro

gipertenziya jamiyati (ISH) tavsiyalariga muvofiq tasniflandi. Arterial qon bosimining quyidagi me'yoriy va patologik darajalari inobatga olindi:

Normotoniya: arterial qon bosimi 120/80 mm.sim.ust.dan past;

Gipertenziya oldi holati: sistolik arterial qon bosimi 120–139 mm.sim.ust., diastolik arterial qon bosimi 80–89 mm.sim.ust.;

I-darajali gipertenziya: sistolik arterial qon bosimi 140–159 mm.sim.ust., diastolik arterial qon bosimi 90–99 mm.sim.ust.;

II-darajali gipertenziya: sistolik arterial qon bosimi 160–179 mm.sim.ust., diastolik arterial qon bosimi 100–109 mm.sim.ust.;

III-darajali gipertenziya: sistolik arterial qon bosimi 180 mm.sim.ust. va undan yuqori, diastolik arterial qon bosimi 110 mm.sim.ust. va undan yuqori.

Bundan tashqari, arterial gipertenziya bilan bog‘liq bo‘lgan nishon organlar shikastlanishlari (yurak, buyraklar, qon tomirlari va boshqa organlar) mavjudligi yoki yo‘qligi ham hisobga olindi. Arterial qon bosimi holatini aniqlash va baholash faqat shifokor tomonidan amalga oshirildi, keltirilgan tasnif ma'lumot berish maqsadida taqdim etildi.

Donorlar guruhlari quyidagicha tasniflandi:

- Kamida ikki marta qon topshirgan 21-58 yosh
- so'nggi 12 oy ichida, so'nggi 24 oy ichida to'rt marta yoki
- so'nggi 36 oy ichida kamida olti marta.

Mazkur tasnif xalqaro va milliy sog‘liqni saqlash standartlariga muvofiq qo‘llanilib, doimiy qon donorlarini klinik-populyatsion jihatdan chuqur tahlil qilish, lipoproteidlar almashinuvi holatini baholash hamda ularning sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qulaylik yaratdi.

Tadqiqotga jami 226 ta tekshiriluvchi kiritildi, 154 tasi doimiy qon donorlari (tadqiqot guruhi) va 72 kishi birinchi marta qon topshiraytoga donorlar (nazorat guruhi). 1-jadvalda ko'rsatilganidek, tekshiriluvchilar 20-58 yoshda edi. Muhim farq yo'q edi ikki guruh o'rtasidagi o'rtacha yosh (35.29 ± 7.94 tadqiqot guruhida va 33.77 ± 9.15 yil nazorat guruh; P = 0.461).

1-jadval

Tekshiriluvchilarning yosh taqsimoti

Yosh guruhi	**Doimiy qon donorlari**	**1-marta qon topshirayotgan donorlar**	**Umumiy**
20 – 29 yoshlilar	39	23	62
30 – 39 yoshlilar	55	24	79
40 – 49 yoshlilar	43	15	58
50 yoshdan yuqorilar	17	10	27
Umumiy	154	72	226
O‘rtacha yosh	35.29 ± 7.94	33.77 ± 9.15	34.70 ± 8.4

Doimiy qon donorlari guruhida 144 erkak va 10 ayol bor edi, va 1-marta qon topshirayotgan donorlar guruhida 69 erkak va 3 ayol bor edi. Ikkala guruhdagi jinslar o'rtasida sezilarli farq yo'q.

Tadqiqot davomida jami 226 nafar doimiy qon topshiruvchi donor o‘rganildi. Donorlarning yosh va jins tarkibi tahlil qilinganda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlandi. 18 yoshgacha bo‘lgan donorlar

aniqlanmadi, chunki amaldagi me’yoriy hujjatlarga muvofiq qon donorligi faqat voyaga yetgan shaxslarga ruxsat etiladi.

Mehnatga layoqatli yoshdagi, ya’ni 18–50 yosh oralig‘ida bo‘lgan donorlar asosiy guruhni tashkil etdi — 199 nafar (88,05%). Ushbu guruhda erkaklar 188 nafarni (83,18%), ayollar esa 11 nafarni (4,87%) tashkil etdi. Bu holat doimiy donorlik faoliyatida aynan mehnatga layoqatli yoshdagi aholining faolligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi.

Keksa yoshdagi, ya’ni 50 yosh va undan yuqori bo‘lgan donorlar 27 nafarni (11,95%) tashkil etdi. Ushbu guruh tarkibida erkaklar 25 nafar (11,06%), ayollar esa 2 nafar (0,88%) bo‘ldi. Keksa yoshdagi donorlarning mavjudligi ularning umumiy sog‘liq holati qoniqarli ekanligi hamda uzoq muddat davomida donorlik faoliyati bilan shug‘ullanish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Umumiy ko‘rsatkichlarga ko‘ra, tadqiqotda ishtirok etgan donorlarning 213 nafari erkaklar (94,25%), 13 nafari ayollar (5,75%) bo‘ldi. Ushbu natijalar doimiy qon donorligi erkaklar orasida biroz ustunligini ko‘rsatsa-da, ayollar ulushi ham yetarlicha yuqori ekanligini tasdiqlaydi. Bu holat donorlik faoliyatining har ikki jins vakillari orasida keng tarqalganligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, o‘tkazilgan tahlil natijalari doimiy qon donorlarining asosiy qismini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi tashkil etishini, donorlik faoliyatida erkaklar ulushi biroz ustun ekanligini hamda etnik tarkibda o‘zbek millatiga mansub shaxslar yetakchi o‘rinni egallashini ko‘rsatdi. Ushbu klinik-populyatsion xususiyatlarni hisobga olish doimiy qon donorlarida lipoproteidlar almashinuvi holatini baholash va ularning sog‘lig‘ini saqlashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Doimiy qon topshiruvchi donorlarda kuzatiladigan funksional o‘zgarishlar nafaqat yurak-qon tomir va metabolik tizimlar bilan, balki gematologik ko‘rsatkichlar, xususan qon ivuvchanligi jarayonlari bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qon ivuvchanligidagi o‘zgarishlar donorlik faoliyatining tez-tez amalga oshirilishi fonida yuzaga kelib, umumiy gemodinamik holat va mikrotsirkulyatsiyaga sezilarli ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Suxarev usuli yordamida o‘tkazilgan laborator tekshiruvlar doimiy donorlarning ayrim guruhlarida qon ivish vaqtining normadan qisqarishi yoki uzayishi holatlari mavjudligini aniqladi. Ushbu o‘zgarishlar trombotsitlar funksional faolligi, plazmadagi ivish omillari konsentratsiyasi, shuningdek qon tomir devorlarining reaktivligi bilan izohlanadi. Qon ivuvchanligidagi bunday siljishlar qon aylanish jarayonlariga, jumladan miya va periferik to‘qimalar perfuziyasiga ta’sir etib, gipoksik holatlar rivojlanishiga zamin yaratishi mumkin.

Ma’lumki, qon ivuvchanligi va lipoproteidlar almashinuvi o‘zaro bog‘liq jarayonlar hisoblanadi. Giperkoagulyatsion holat sharoitida past zichlikdagi lipoproteidlarning oksidlanishi faollashib, tomir devorlarida endotelial disfunktsiya rivojlanish ehtimoli ortadi. Bu esa aterogen jarayonlarning tezlashuvi va mikrosirkulyatsiya buzilishlariga olib kelishi mumkin. Aksincha, qon ivishining sekinlashuvi holatlarida to‘qimalarga kislorod yetkazib berilishi susayib, metabolik jarayonlar, jumladan lipid almashinuvi buziladi.

Qon ivuvchanligini aniqlashdan oldin donorning nomsiz barmog‘i spirt bilan dezinfeksiya qilinib, barmoq terisining iliqligi va qon aylanishi holati baholandi. So‘ng skarifikator yordamida teri yengil teshib olinib, ajralib chiqqan qon tomchasi SOE pipetkasiga olindi. Qon olingan zahoti taymer ishga tushirildi va ivish jarayoni bosqichma-bosqich kuzatildi. Qonning qalinlashish boshlanishi, ivishning boshlanish va tugash vaqtlari daqiqalarda qayd etildi. Ivish boshlanishi va to‘liq ivish orasidagi vaqt umumiy ivish davomiyligi sifatida baholandi.

Olingan natijalar me’yoriy ko‘rsatkichlar bilan solishtirilib, doimiy qon topshirish jarayonining gemostaz tizimi va lipoproteidlar almashinuvi bilan bog‘liq klinik ahamiyati tahlil qilindi. Ushbu

ko‘rsatkichlarni kompleks baholash donorlar salomatligini monitoring qilish, yurak-qon tomir asoratlarining oldini olish hamda profilaktik tavsiyalar ishlab chiqishda muhim diagnostik va prognostik ahamiyat kasb etadi.

Lipid profilini baholash - bu shaxsni baholashning qabul qilingan usuli koronar yurak kasalligi xavfini aniqlashga yordam beradi. Muntazam qon topshirish temir zahiralarini kamaytirishi mumkin va bu o'z navbatida lipid peroksidatsiyasini kamaytiradi. Bu tadqiqot qon donorligining lipid profiliga ta'sirini aniqlash uchun amalga oshiriladi.

Tadqiqotga jami 226 ta tekshiriluvchi kiritildi, 154 tasi doimiy qon donorlari (tadqiqot guruhi) va 72 kishi birinchi marta qon topshiraytoga donorlar (nazorat guruhi). 1-jadvalda ko'rsatilganidek, tekshiriluvchilar 21-58 yoshda edi. Muhim farq yo'q edi ikki guruh o'rtasidagi o'rtacha yosh (35.29 ± 7.94 tadqiqot guruhida va 33.77 ± 9.15 yil nazorat guruh; P = 0.461).

O'rtacha umumiy xolesterin (4.66 ± 0.86 mmol/l), triglitseridlar (1.22 ± 0.64 mmol/l), va past zichlikdagi lipoprotein (2.32) 0.73 mmol/l) muntazam qon donorlarida ancha past edi ilk marta qon topshirayotgan donorlar guruhiga nisbatan (5.61 ± 1.26 mmol/l, 1.77 ± 2.9 mmol/l va 3.06 ± 0.89 mmol/l)., mos ravishda; P<0,05, barcha holatlarda). Bundan tashqari, tadqiqot guruhining 42% past/yuqori zichlikka ega edi lipoprotein nisbati kamida uchta, nazorat guruhining taxminan 57% kamida uchta nisbatga ega edi(P = 0.21).

Doimiy qon donorlari guruhining o'rtacha tana massasi indeksi (26.50 ± 4.20 kg/m2) sezilarli darajada farq mavjud emas edi (26.30 ± 4.00 kg/m2) 1-marta qon topshirayotgan donorlar guruhidan (P = 0.744). O'rganilayotgan guruhda umumiy xolesterin (4.66 ± 0.86), triglitseridlar (1.22 ± 0.64) va LDL (2.32 ± 0.73) bilan taqqoslaganda 0.64) va LDL (0.73) bilan taqqoslaganda nazorat guruhi (5.61 ± 1.26, 1.77 ± 2.91, va 3.06 ± 0.89, navbati bilan). Biroq, faqat umumiy xolesterin va LDL uchun qiymatlar ikkala holatda ham statistik farqni ko'rsatdi (P = 0,000). Nazorat guruhida (1.00 ± 0.26 mm/L) o'rganish guruhi (0.86 ± 0.24 mm/L) bilan solishtirganda zardobda HDL darajasi sezilarli darajada yuqori edi (P = 0.016). LDL/HDL nisbati nazorat guruhi bilan taqqoslaganda (3.22 ± 1.04 mm/L), o'rganish guruhida past edi (2.90 ± 1.28 mm/L), lekin ahamiyat berilmadi (P = 0.247).

Statistik farq bo'lmasa ham umumiy xolesterin, triglitseridlar va LDL tadqiqot guruhida nazorat guruhi bilan taqqoslaganda ushbu ko‘rsatgichlardan pastroq ekanligi aniqlandi (4-jadval). O‘rganilayotgan guruhda o'rtacha ayollarning umumiy xolesterin, triglitseridlari va LDL miqdori (4.79 ± 0.75 mmol/L, 1.04 ± 0.43 mmol/L, va 2.40 ± 0.77 mmol/L, mos ravishda) nazorat guruhidagi ayollarning umumiy xolesterin, triglitseridlari va LDL miqdoridan (5.24 ± 0.98 mmol/L, 2.21 ± 4.27 mmol/L, and 2.84 ± 0.76 mmol/L, mos ravishda) past edi. Xuddi shunday, bu qiymatlar erkaklarda ham o‘rganilayotgan guruhda (4.59 ± 0.91 mmol/L, 1.15 ± 0.73 mmol/L, va 2.28 ± 0.71 mmol/L, mos ravishda) ularning nazorat guruhidagilarga nisbat pastroq (5.94 ± 1.44 mmol/L, 1.39 ± 0.47 mmol/L, and 3.24 ± 0.98 mmol/L mos ravishda).

Muhokama

Muntazam qon donorlarida donor bo‘lmaganlar yoki birinchi marta qon topshirayotgan donorlar bilan taqqoslaganda yurak-qon tomir kasalliklari xavfi pastroq ekanligi aniqlangan. Ushbu tadqiqot jami 226 ta tekshiriluvchida o‘rganildi – 154 ta muntazam donorlar va 72 doimiy bo'lmagan yoki birinchi marta donorlar. Ushbu tadqiqot umumiy Xolesterolni (P = 0,000) va LDL (P = 0.000) tadqiqot guruhida nazorat guruhiga nisbatan pastroq. Tadqiqot guruhida nazorat guruhiga nisbatan triglitserid darajasi ham past edi (P = 0.119). O'rtacha HDL miqdori nazorat guruhida tadqiqot guruhiga nisbatan ancha yuqori edi (P = 0.016).

Mavjud adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, LDL/HDL qiymatlari yuqori bo‘lganda yurak-qon tomir kasalliklari xavfning oshishi bilan bog'liq holatlar kuzatiladi. Ushbu ishda nazorat guruhining 57%i o‘rganilayotgan guruhning 42% bilan solishtirganda zardob lipidlarining miqdorida katta farq aniqlanmadi. Ammo doimiy qon topshirish va sog ‘lom turmush tarziga amal qilish yurak qon tomir tizimi koronar tomirlar patologiyalari rivojlaninsh xavfini kamaytiradi.

Xulosa

Doimiy qon donorlari birinchi marta qon topshirayotgan donorlar bilan taqqoslaganda aks ettirilgan umumiy xolesterin va LDL darajasini sezilarli darajada past ekanligi ularda yurak-qon tomir kasalliklari xavfi kamligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, muntazam qon topshirish zardob lipidlarining pasayishiga olib keladi. Biroq, ushbu xulosalarni asoslash uchun kengroq tadqiqotlar o'tkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xoliqov, Q., & Badriddinov, O. (2023). A study of lipid metabolism in regular blood donors. *Евразийский журнал медицинских и естественных наук*, *3*(12), 35-38.
2. Usmonjon o‘g‘li, B. O. Lipoprotein metabolism of regular blood donors.
3. Хамракулов, Т. З., & Бадридинов, О. У. Изменения гемореологии в патогенезе микроциркулятор-ных расстройств при течение гипоксической гипоксии.
4. National Blood Transfusion Services Nigerian National Blood Policy: Revised November 2005 Abuja: Federal Ministry of Health; 2006Available from: http://www.fmh.gov.ng./images/PolicyDoc/FMOH_Nigerian_National_Blood_Pol...Accessed December 22, 2009
5. World Health Organization Management of blood transfusion services [webpage on the Internet] Geneva: World Health Organization; 1990Available from: www.who.int/iris/handle/10665/39295Accessed November 22, 2009
6. van Jaarsveld H, Pool GF. Beneficial effects of blood donation on high density lipoprotein concentration and the oxidative potential of low density lipoprotein. Atherosclerosis. 2002;161(2):395–402. - PubMed
7. Bharadwaj RS. A study of lipid profiles among male voluntary blood donors in Chennai city. Indian J Community Med. 2005;30(1):16–17.
8. Meyers DG, Strickland D, Maloley PA, Seburg JK, Wilson JE, McManus BF. Possible association of a reduction in cardiovascular events with blood donation. Heart. 1997;78(2):188–193. - PMC – PubMed